

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLYI VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT UNIVERSITETI**

**FALSAFA FAKULTETI
SOTSILOGIYA BO‘LIMI SOTSILOGIYA KAFEDRASI**

UMUMIY SOTSILOGIYA

Toshkent - 1999 y.

Ilmiy muharrirlar: professor N. S. Aliqoriyev.
dotsent R.T. Ubaydullayeva.

Ushbu darslikning mualliflari M.Ulug'bek nomidagi ToshDU sotsiologiya kafedrasining professor-o'qituvchilari bo'lib, ular sotsiologiyadan universitetning sotsiologiya bo'limida va boshqa fakultetlarda ma'ruzalar o'qiydilar.

Sotsiologiyani o'rganishga kirishilar ekan, avvalo uning alohida fan ekanligi to'g'risidagi ma'lumotlarni (ya'ni predmetini, masalalarini va vazifalarini uning falsafa, iqtisod, matematika, statistika, kibernetika, demografiya va boshqa fanlar bilan munosabatini, sotsiologik bilimlarning asosiy elementlarini va tizimini aniqlash hamda uning taraqqiy etish yo'llarini istiqbolini belgilash muhim vazifalardan biridir. Ushbu qo'llanma matnlari asosida yozilgan bo'lib, asosan sotsiolog mutaxassisligini oladigan talabalarga, aspirantlarga, sotsiologiya o'qituvchilariga va keng jamoat ommasiga mo'ljallangan. Bu sohada O'zbekistonda sotsiolog mutaxassislar uchun o'zbek tilida adabiyotlar hali yetarli bo'lmagani uchun ushbu qo'llanma o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otishi mumkin. Kitobning kamchiliklari va aks ettirilmagan masalalar keyingi nashrda o'z ifodasini topadi degan fikrdamiz.

© Toshkent DU, 1999.

MUNDARIJA

	bet
Muqaddima	
Kirish_____	6
I BOB. SOTSILOGIYAGA KIRISH	
1.Sotsiologiyaning ob'ekti va predmeti_____	10
2.Sotsiologiyaning strukturasi_____	19
3.Sotsiologiyaning metodologiyasi_____	29
4.Sotsiologiya metodi_____	35
II BOB. SOTSILOGIYADA MAXSUS YO'NALISHLAR	
1.Shaxs_____	42
2.Guruh sotsiologiyasi_____	49
3. Z.Jamiyat va ijtimoiy hodisa tushunchasi_____	59
4.Ijtimoiy harakat_____	68
5.Sotsial institutlar, tashkilotlar, tizimlar sistemalar_____	73
6.Sotsial munosabatlar_____	78
7.Sotsial dinamika va rivojlanish sotsiologiyasi_____	86
8.Tafakkur tarzi sotsiologiyasi_____	97
III BOB. SOTSILOGIYADA TARMOQ YO'NALISHLAR	
1. Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi_____	104
2. Iqtisodiy sotsiologiya _____	111
3. Siyosiy sotsiologiya _____	117
4. Ta'lim sotsiologiyasi_____	122
5. Mehnat va mehnat tashkilotlari sotsiologiyasi_____	127
6. Oila sotsiologiyasi_____	140
IV BOB. AMALIY SOTSILOGIK TADQIQOTLAR	
1.Empirik sotsiologik tadqiqotlar dasturi_____	146
2.Sotsiologik informatsiya to'plashning empirik metodlari_____	159
3.Sotsiologik monitoring_____	170
XULOSA_____	176
ADABIYOTLAR_____	179

MUQADDIMA

Qadim zamonlardan beri ham va ayniqsa fan-tehnika taraqqiyoti davrida har bir kasb egasi nafaqat o'z sohasidan kasbiy bilimlarni puhta egallash va katta tajriba orttirish, balki jamiyat hayotidagi voqealar, insonlarning ahloqi, dunyoqarashi, ma'naviyati, tafakkuri, hayot tarzi to'g'risida ham axborotlarga va bilimlarga ega bo'lishi kerak. Bunday bilimlarni o'rta maktabda, kollejda, litseyda va oliy o'quv yurtlarida gumanitar va sotsial-iqtisodiy fanlarni o'qitish hisobiga egallashga harakat qilinmoqda. Bu sohada alohida shaxsdan va kichik guruhlardan tortib, to jamiyatning taraqqiy etish va rivojlanish qonuniyatlarini nafaqat nazariy jihatdan, balki aniq, konkret tadqiqotlar orqali o'rganadigan sotsiologiya fani alohida o'rin egallaydi.

Sotsiologiya — insoniyatning bir necha ming yillik tarixiy taraqqiyoti davomida yaratilgan madaniyatning ajralmas tarkibiy qismidir. Afsuski, kommunistik mafkurachilarining vakillari kibernetika, psixologiya, politologiya, kabi fanlar qatorida sotsiologiyani ham inkor etib, uni sotsializmga zararli «yolg'on fan qatoriga qo'shib ko'p yillar mobaynida jaxon halqlarining durdonasi, ma'naviy va madaniy boyligi bo'lgan bu fanning va uning namoyondalarini taqdirladilar. Natijada jamiyatni eng katta boyligidan — ijtimoiy fikrlarni har tomonlama va chuqur o'rganishdan, ijtimoiy taraqqiyot borasida axborotlar tizimini yaratishdan va oxir oqibatda ijtimoiy hayotni aniq, ma'lumotlarga, terriroga, halq. Fikriga tayangan holda ilmiy asosda boshqarishdan maxrum qilganlar. Mustaqillik tufayli sotsiologiya faniga yangiyo'l ochildi. Bu fanning shaxsan prezidentimiz I. Karimovning himoyasiga olganligi cheksiz quvonarlidir.

Mustaqil davlatimizning erkin va chuqur fikrlash imkoniyatiga ega bo'lgan fuqarolari, ayniqsa, yosh avlod, hozirgi davr talabiga javob beradigan sotsiologiya darsligiga muhtojdirlar. Mazkur darslni ana shunday ehtiyoj asosida yuzaga keldi.

Hozirgi zamon kishisi o'zi yashayotgan makonning ijtimoiy sharoitini, jamiyat a'zolarida yashirinib yotgan «sirlarni huquq va axloq. Normalarni bilmasdan turib hayotdan o'z o'rnini topa olmaydi. Sotsiologiya — bu jamiyatning barcha qirralarida o'ziga hos anatomiya va fiziologiyasidir, ular inson hayotidagi me'yoriy va hatologik holatni aniqlashga va oxir oqibatda insoniyatni nohush holatlardan, qiyinchiliklardan qutilish yo'lini ko'rsatadi. O'tmishda sotsiologiyani sotsial gigiena deb tushunishlari ham bejiz emas.

Sotsiologiyani o'rganishga kirishilar ekan, avvalo uning alohida fan ekanligi to'g'risidagi, ma'lumotlarni ya'ni predmetini, masalalarini va vazifalarini, uning falsafa, iqtisod, matematika, statistika, kibernetika, demografiya va boshqa fanlar bilan munosabatini, sotsiologik bilimlarini asosiy elementlarini va tizimini aniqlash, hamda uning taraqqiy etish yo'llarini istiqbolini belgilash muhim ishlardan biridir. Ushbu fanning umumiy tasnifi

kitobning birinchi bobida bayon qilindi, ya'ni sotsiologiyaning ob'ekti va predmeti, tuzilishi, uslubiyati va uslublarni keng yoritildi.

Ikkinchi bobida sotsiologiyaning maxsus yo'nalishlari, ya'ni shaxs, guruh, jamiyat, sotsial harakatlar, sotsial munosabatlar, sotsial institutlar, tashkilotlar, sistemalar sotsial dinamika va rivojlanish hamda tafakkur sotsiologiyasi yoritiladi. Uchinchi bob maxsus sotsiologik nazariyaga va sotsiologiyaning konkret sohalarini ya'ni tarmoq yo'nalishlarini yoritishga bag'ishlangan.

Darslikning so'nggi qismida amaliy (empirik) sotsiologiyaning asoslari yoritilgan bo'lib, bu yo'nalish orqali o'quvchilar sotsiologik ahborotlar tizimini yaratish yo'llarini o'rganadilar.

Ushbu darslikda yoritilgan muammolar ko'p sinovdan o'tgan va isbot talab qilmaydi, zero bunda bitilgan materiallar falsafiy va ijtimoiy kategoriyalar, qonunlar hamda nizomlar asosida bajarilgan.

Ushbu sotsiologiya darsligi oliy o'quv yurtlari talabalari, o'qituvchilar va keng ommaga mo'ljallangan. Bunda nafaqat sotsiologik bilimlarning asoslari, balki amaliy sotsiologik tadqiqotlarning uslub va yo'llari ham berilgan bo'lib. O'quvchini mustaqil aniq sotsiologik tadqiqotlar o'tkazishga katta yordam beradi. Empirik tadqiqotlar tajribasidan har xil sohadagi va kasbdagi xodimlar ham o'z ishlarida keng foydalanishlari mumkin.

Ushbu kitobning mualliflari Mirzo Ulugbek nomidagi ToshDU sotsiologiya kafedrasining professor o'qituvchilari bo'lib, ular sotsiologiyadan universitetning sotsiologiya bo'limida va boshqa fakultetlarda ma'ruzalar o'qiydilar va amaliy mashg'ulotlar olib boradilar. Bundan tashqari, sotsiologiya bo'limining uqituvchilari fundamental va amaliy tadqiqotlarda, nodavlat ijtimoiy fikr, ma'naviyat, oila markazlarida, hamda yirik sotsiologik tashkilotlarda, jahon banki, YUNESKO va boshqa halqaro tashkilotlarning sotsial buyurtmalarini bajarishda aktiv qatnashadilar.

Ushbu darslikning mualliflari o'quvchilar tomonndan ko'rsatilgan kamchiliklar va takliflar uchun o'zlarining chuqur minnatdorchiliklarini bildiradilar.

Kamchilik va takliflarni quyidagi manzilga yuborishingiz mumkin:

Talabalar shaharchasi,
ToshDU, Sotsiologiya kafedrası

KIRISH

XX asr tugayotgan va yangi XXI asr kirib kelayotgan bir davrda sotsiologiya va uning yoʻnalishidagi fanlarga ehtiyoj yanada ortib bormoqda. Ohirgi davrda sotsiologiya boʻyicha yirik mutaxassislar, olimlar yetishib ular bu fanning har-xil tarmoqlari va boʻlimlari boʻyicha nazariy va amaliy ahamiyatga molik ilmiy ishlarni chop ettirmoqdalar. Ular orasida leksiya ma'ruzalari, darsliklar, risola va monografiyalar ham mavjuddir. Hozirgacha chop etilgan ilmiy ishlarni har tomonlama va chuqur tahlil qilar ekanmiz, barcha mualliflarning muammo va masalalarga bir tomonlama yondoshib oʻz fikr va mulohazalarini koʻramiz. Agar har bir fanni zanjir tizimiga oʻhshatsak sotsiologiya boʻyicha bunday tizim hali me'yoriga yetmagan, ya'ni bir butun zanjir yoʻlga oʻhshaydi. Buning sababi bizning eski dunyoqarashdan, dogmalardan, odatlardan (traditsiyalardan), eski sotsiomadaniy qobiqdan holi boʻl olmaganimizdan boʻlsa kerak. Eng asosiysi sotsiolog mutaxassislar yigʻilib kuchlar integratsiyasini va tadqiqotlarni koordinatsiyasini tashkil qilinsa sotsiologiyani ham yirik va mustahkam zanjirini paydo qilish mumkin.

Marksizm ta'limoti postsotsialistik mamlakatlarda sotsiologiyani nazariy amaliy maqomini ancha obrusizlantirdi, oqibatda fan sohasida katta boʻshliq, paydo boʻlib qoldi va bu xol sotsiologlarda bir muncha boʻlsa ham tushkunlikni paydo qildi. Ikkinchi tomondan gʻarb mamlakatlarida sotsiologiyani nazariy kontseptsiyalarini yaratish boʻyicha katta ishlar va qizgʻin baxs ketmoqda. Oʻzbekistonda esa sotsiologiya endigina kurtak otib oʻzicha taraqqiyot yoʻlini qidirayotgan ekan, chiqib kelayotgan yosh sotsiologlar uchun darsligi juda dolzarb masala boʻlib qoldi. Shu boisdan sotsiologiya darsligining qaldirgʻochlaridan biri sifatida ushbu darslikli mualliflar kollektiv nashrga tayyorladi. Bu darslikni sotsiologiyaga «Marksistik qarashlar»dan, har qanday mafkuraviy infeksiyalardan, tarixiy materializm ta'siridan holi deb hisoblaymiz. Shuning uchun bu kitobda sotsiologiyani, falsafani bir qismi deb qaralishiga ham barham berildi.

Darslik Vatanimiz mustaqilligi kabi sotsiologiya fanining toʻla mustaqil, ya'ni oʻzining nazariy va amaliy qismiga ega boʻlganligini va jamiyat taraqqiyotini belgilashda uning roli vazifalari beqiyos ekanligini namoyon qiladi.

Mazkur darslik (toʻplam) respublikamizda endigina shakllanayotgan sotsiologiya fanining nazariy uslubiy masalalarni oydinlashtirishga bagʻishlangan dastlabki darslikdir. Bu darslikda sotsiologiya fanining nazariy-amaliy masalalarini oʻrganish bilan bir qatorda turli sohalarda

sotsiologik tadqiqotlar olib borish usullari taʼmil qilinadi.

Darslikning toʻrtta bobida sotsiologiyaning obʼektiv va predmeti yoʻnalishlari, tarmoqlari sotsiologik tadqiqotlar oʻtkazishning muammo va jarayonlari matematik va statistik usullar yordamida modellashtirish, sotsial tizimlarni boshqarishda EXM dan foydalanish, sotsiologik monitoring kabi yirik va zamon talabidan kelib chiqan muammolar bayoni va tavsifiga keng oʻrin berilgan. Shunisi eʼtiborga molikki, oʻzbek tilida yozilgan dastlabki oʻquv darsliklaridan boʻlsayam, ushbu toʻlam mualliflari kitobxonlarga sotsiologiya fani haqida sistemali bilimlar berishga harakat qilishgan.

Darslikda sotsiologiyaning obekti, predmeti, strukturasi, ijtimoiy voqeʼlikni oʻrganishdagi oʻrni sotsiologiya klassiklari, ijtimoiy falsafa namoyondalari asarlariga suyanib, hozirgi zamon fanining xolat va rivojlanishi tendensiyalarini hisobga olgan xolda yoritib berilgan.

Toʻplamning sotsiologiyaga kirish bobida, uning obʼekti va predmeti haqida soʻz yuritilar ekan, shu bilan bir qatorda ushbu fanning tarixiy rivojlanishdagi asosiy yoʻnalish va bosqichlari haqida maxsus maʼlumotlar ham qisman bayon qilingan, O. Kont, R. Merton, E. Dyurkgeym, F. Znanetskiy, M. Veber, A. Berbin, M. Kovalzon, V. Kelle, V. Rojin, V. Yadov kabi olimlar fikr va mulohazalari asosida sotsiologiyaning fan sifatidagi vazifasi, maqsadi, bilimlar sistemasidagi oʻrni, jamiyatdagi ahamiyati belgilab berildi. Mualliflar turli fikrlarni tahlid qilib, sotsiologiyaga berilgan eng muhim taʼriflarga asoslanib, sotsiologiyaning obʼekti, predmeti, strukturasi, metodlari va metodologiyasi haqida mukammalroq, tushuncha berishga harakat qilishgan.

Darslikning ikkinchi bobida sotsiologiyadagi mashhur yoʻnalishlarning eng asosiylari, yaʼni shaxs, guruh, jamiyat, sotsial harakat, sotsial munosabatlar, sotsial institutlar, tashkilotlar, tizimlar, sotsial dinamika, tafakkur tarzi kabilar taqdim qilinadi va yoritiladi.

Toʻplamning sotsial dinamika va rivojlanish sotsiologiyasi mavzuida jamiyatning oʻzgarish va rivojlanish holatlarini, ijtimoiy oʻzgarishlarning ichki (endogen) va tashqi (exogen) omillarini belgilab beruvchi xususiyatlari aniqlangan, sotsial dinamikaning turlari ajratib koʻrsatilgan, masalan makom sotsial dinamikasi, hududiy sotsial dinamika, maʼnaviya hayot dinamikasi, siyosiy dinamika, fan-texnika dinamikasi kabilar.

Hozirgi davrda eski, chirigan kommunistik mafkuradan yangi milliy mafkuraga ilohi boricha tezroq. Oʻtish Vatanimizda islohatlarni tezroq amalga oshishida garov boʻlib hizmat qiladi. Inson tafakkurida yangilanish, yaʼni ilmiy, milliy dunyoqarash shakllanmas ekan, jamiyat taraqqiyot sari

siljimaydi. Shu boisdan darslikda zamon talabidan kelib chiqan holda, sotsiologiya fanida juda kam o'rganilgan tafakkur sotsiologiyasiga alohida mavzu ajratildi va bu masalaning to'laroq yoritilishiga etibor berildi. Zero, sotsiologiyaning bu maxsus to'plamini tadqiqotlari asosida hozirgi davrimizning eng dolzarb muammolarini hal qilishiga ilmiy zamin yaratuvchi mustaqil taraqqiyot yo'li va modelinni yaratish mumkin.

Uchinchi bob tarmoq sotsiologiyasi yo'nalishi bo'lib, eng dolzarb muamolarga bag'ishlangandir, bunda oila, jamoatchilik fikri, iqtisodiy sotsiologiya, siyosiy sotsiologiya, ta'lim sotsiologiyasi, mehnat sotsiologiyasi va boshqa sotsiologiyasi sohalarining muhim yo'nalishlari yoritiladi.

Darslikning so'nggi to'rtinchi bobida amaliy sotsiologik tadqiqotlarni amalga oshirish, uslublari, dasturlari, bosqichlari, tamoyillari tahlil qilinadi.

Ushbu kitobxonlarga taqdim qilinayotgan sotsiologiya darsligi to'g'risida hulosa qilib shuni aytish mumkinki, u shaklan va mazmunan ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ilmiy kitobdir. Darslik mazmun va tuzilishi jihatidan oliy yurtlari uchun mo'ljallangan, sotsiologiya fani bungacha ma'lum dasturlarga moslab tuzilgan va ushbu dasturlarda aks topgan mavzu va muammolar haqida talabalarga eng zarur va asosiy ma'lumotlarni beradi. To'planning ayniqsa to'rtinchi bobini diqqatga sazovor deb hisoblash mumkin, zero bu bob gramatik maqsadlarni o'z ichiga olgan bo'lib kitobxonlarga ko'proq amaliyot to'g'risida ma'lumotlar beradi, boshqacha aytganda mualliflar sotsiologiyaning amaliyotiga ko'proq etibor qaratganlar.

Zamon sotsiologlar oldiga bu fanning amaliyotini yanada kuchaytirishni qo'yimoqdaki, xalq xo'jaliginng hamma tarmoqlarida sotsial muammolarni hal qilishda va qay darajada yechilishini bevosita sotsiologiya fani bilan bog'lagan holda olib borishni va hamkorlikda jamoatchilik fikriga tayangan holda ish ko'rishni tavsiya etmoqda.

Ushbu darslikda berilgan ma'lumotlar talabalarga sotsiologiya fanidan bilim beribgina qolmay, balki keng kitobxonlar ommasiga bu fanning aniq, fanlarga o'xshashligini, ya'ni analitik-empirik fan ekanligini uqtiradi.

Xulosa qilib aytganda, mualliflar ushbu kitobda, sotsiologiyaning keng qamrovli qirralarini imkonlari darajasida yaratishga va ochib berishga harakat qildilar, hamda ushbu sohaning O'zbekistonda yangi soha ekanligini hamda darslik bir vaqtning o'zida pedagogik faoliyat olib borish bilan birgalikda yozilganligi uchun, ba'zi bir kamchilik va nuqsonlar

bo'lsa, avvaldan kitobxonlardan uzr so'raydilar. Ushbu darslikni chop ettirishda katta yordam ko'rsatgani uchun Mirzo Ulug'bek nomli Toshkent Davlat Universiteta ma'muriyatiga sotsiologiya bo'limi va kafedra nomidan minnatdorchilik bildiramiz.

I BOB. SOTSILOGIYAGA KIRISH

I. SOTSILOGIYANING OB'EKTI VA PREDMETI

Fanning shakllanish jarayoni ma'lum bir bilimga ehtiyojni anglashdan boshlanadi. Buning natijasi uchun esa insondan yangi faoliyat shakli talab qilinadi. Sotsiologiyaning ilmiy jarayonga olib chiqilishi O. Kont nomi bilan bog'liqdir. U yangi fan tomoni «Sotsiologiya» deb ataladi. XIX asrning 30-yillarida chop etilgan «Pozitiv falsafa ruhi» kitobi yangi ijtimoiy fanini paydo bo'lishidan darak berdi. Shu vaqtdan boshlab sotsiologiyaning ob'ekti va predmeti ta'rif qilish boshlanadi. Fanning ob'ekti va predmetini aniqlash tadqiqot metodini belgilash, tarixiy taraqqiyoti va ma'lum bilimlarga erishish darajasi bilan o'sha fanning mavqeini belgilab olish mumkin bo'ladi. Sotsiologiyaning mustaqil fan sifatida kechroq paydo bo'lishi, boshqa fanlarga nisbatan yosh bo'lganligidan uning ob'ekti va sub'ekti muammosi hozirgi kunda ham eng dolzarb muammodir. Chunki bu masala sotsiologiyaning vazifasini aniqlab beradi. Hozirgi kunda, fandagi bo'linish (differensiya) jarayoni tuganlanmagan bir sharoitda shuningdek sotsiologiyaning faoliyat ko'lami aniq belgilanmagan bir vaqtda, uning ob'ekti va predmetini aniqlash qiyin masaladir. Mana shuning uchun hozirgi vaqtda ba'zi tadqiqotchilar sotsiologiyaning predmetini 100 dan ortiq ta'rifi borligini aytadilar. Bu masalani hal qilishning qiyin tomoni uning strukturasi (tuzilishi) murakkabligi va u inson bilimining turli darajasini o'z ichiga olishi, hamda turli nazariy metodologik prinsiplarga ega bo'lishidadir. Sotsiologiyaning tadqiqot ob'ektini eng umumiy jihatga bo'linishi — jamiyatning makro va mikro jarayonini tahlil qilishdan iboratdir demak sotsiologiyaning ob'ekti va predmeti muammosini hal qilishlik ana shu yuqoridagi jarayonlarni hisobga olib sotsiologiyaning o'ziga hos tomoni ko'rsatib berishdan iboratdir.

Sotsiologiyaning ob'ekti va predmetini tushunish uchun sotsiologiya klassiklari asarlariga suyanagan xolda hozirgi zamon fanining xolatini va rivojlanish tendensiyalarini hisobga olish kerak. Biroq, bu masalani hal qilishdan oldin ob'ekt va predmet tushunchasini ilmiy tahlil qilish kerak.

Chunki ko'pincha bu tushunchalar aralashtirib ishlatiladi, har qanday fanning ob'ekti bu o'ziga hos reallik, alohida aloqalar, munosabatlar va xodisalar bo'lib, tadqiqot qilishlik jarayoni ana shularga qaratilgan bo'ladi. Masalan, fizikaning ob'ektga tabiatdagi fizik jarayonidir. Ximiyaning ob'ekti — tabiatning himik elementlarini o'zaro munosabatidir.

Agarda tabiatshunoslik fanlarining tadqiqot ob'ektini aniqlash masalasi unchalik qiyinchilik tug'dirmasa, biroq, sotsial fanlarning tadqiqot ob'ektini aniqlash ancha murakkabdir. Chunki ular jamiyatdagi turli munosabatlarni tekshiradilar, Ayniqsa jamiyatdagi ma'naviy faktori tekshirish juda murakkabdir. Shunga qaramay sotsiologiya hamma sotsial voqelikni emas, balki boshqa fanlar tekshirmaydigan sotsial voqelikni aniqlab olishimiz kerak. Shu bilan birgalikda sotsiologiyada integral yo'nalishlar huquq. Sotsiologiyasi, madaniyat sotsiologiyasi, siyosat sotsiologiyasi va boshqa sohalar rivojlanishi. Bu masalani hal qilish uchun yuqoridagi ushbu bilimlar orasida qanday umumiy munosabat bor degan savolga javob berish kerak.

Mamlakatimiz tadqiqotchilari orasida turli sotsial fanlarning ob'ektiga sotsiologiyaning ob'ektini qismi sifatida qarashlar mavjuddir. Shuning uchun mehnat sotsiologiyasi, turmush, oila sotsiologiyasi va boshqalarning ob'ektiga uning ob'ektini bir bo'lagi sifatida qaraladi.

Agar ob'ektga voqelikning qismi sifatida qaralsa, predmet esa o'sha fanning asosiy masalasi bo'lib namoyon bo'ladi va u faninnig nazariy va amaliy masalalarni hal qiladi, ob'ektning ma'nosini mazmunini ochib beradi. Predmet ob'ektga aynan emas har qanday fanning predmeti faqat ob'ektiv hodisa va jarayonlarning o'zigina bo'lmasdan, balki uning nazariy jihatdan abstraktlashgan ifodasi bo'lib u o'rganilayotgan ob'ektni rivojlanish va faoliyat ko'rsatish qonuniyatlarini ochib beradi va bo'lar aynan shu fan uchungina hususiyatli hisoblanadilar.

Shuning uchun fanning alohida hususiyati uning predmetiga muvofiq belgilashadi, ob'ektni esa umumiy deb qabul qilish mumkin degan fikrlar bilan kelishib bo'lmaydi.

Voqelikning alohida bir qismi bo'lgan: mehnat, turmush, oila, tub ma'nodagi iqtisodning, psixologiyaning va sotsiologiyaning ob'ektlari emasdir. Fanning ob'ekti bo'lib faqat hususiy qonuniyatlarga ega bo'lgan maxsus sohalargina mavjud bo'ladi. Fanlarning ob'ektlari bir hil bo'lmaydi. Yuqorida ko'rsatilib o'tilgan sohalar turli hil sotsial fanlarning ob'ektlaridir. Psixologiyaning ob'ekti bevosita mehnat, turmush yoki oila emas, balki hissiy emotsional olam yoki xuddi shu sohalarda kechayotgan psixik jarayonlardir. Iqtisodning ob'ekti bu moddiy farovonlik, oilaning

turmush darajasi, ya'ni turmush, oila munosabatlarining iqtisodiy aspektidir.

Demak fanlar o'rtasidagi farq; nafakat predmet sohasi bo'yicha, balki ob'ekt bo'yicha hamdir.

Sotsiologiya fanini rivojlanish jarayonida uning ob'ekti va predmeti ham o'zgarib takomillashib borayapti. Ob'ekt va predmet hamma vaqt birbir-lari bilan uzviy bog'liq Chunki ob'ekt mohiyatini tushunish fandagi asosiy masalalarni belgilaydi. Mana shuning uchun sotsiologiya predmetini aniqlash masalasi uning ob'ektni aniqlash bilan bog'liqdir. Sotsiologiya yangi fan sifatida o'zining programmasini e'lon qilingan davridan boshlab hozirgi zamon darajasiga qadar shunday katta yo'lni bosib o'tdi. Hozirgi kunda sotsiologiya turli sohalarni sistemalashtirilgan bilim sifatida turli xil nazariy konsepsiyalar, metodologik prinsiplar ishlab chiqish shu bilan birga muhim ahamiyatga ega bo'lgan konkret sotsiologik tadqiqot o'tkazish imkoniyatiga ham ega bo'lgan fandır.

Sotsiologiya taraqqiyotining har bir bosqichida o'zining ilmiy darajasini hisobga olib, jamiyat taraqqiyotida o'z o'rnini va ahamiyatini chuqurroq o'ylab, o'z ob'ekt va predmeti mohiyatini tushunishni takomillashtirib bermoqda.

Demak sotsiologiyada ob'ektni masalasini tushunish quyidagilardan iborat:

Fanning differensiallashuv jarayoni, shu jumladan sotsiologiyaning alohida bir bilimlar sistemasi ekanligi tugallanmagan. Shuning uchun sotsiologiyaning ob'ekti va predmetiga berilgan ta'rif to'liq, va qat'iy bo'lmaydi. Sotsiologiya strukturasi murakkabligi bu muammoni hozirgi zamon bilimlari darajasining turli ko'lami, turli xil ziddiyatli konsepsiyalar, empirik tadqiqotlarni o'ziga hosililigini nazarda tutishlik talab qiladi. Sotsiologiyaning ob'ektni va predmetini aniqlash hozirgi zamon fanining murakkab tuzilishini aks ettirish kerak. Psixologiyaning ob'ekti va predmeti biridir, biroq; turlicha yondoshish, turli aspektida analiz qilish bilan farq qilinadi.

Yuqorida aytganimiz kabi sotsiologiyada eng umumiy tadqiqot makro va mikro sotsiologiya nuqtai nazaridandir. Siyosat sotsiologiyasi huquq sotsiologiyasi va boshqalar fanlarning rivojlanish jarayonida o'ziga xos ob'ekt va predmet talab qilinadi. Mana shu ma'noda sotsiologiyaning o'ziga xos fan sifatida boshqa ijtimoiy fanlar sohasida tutgan o'rnini aniqlanadi. Sotsiologiyaning ob'ekti va predmetini qo'lash ilmiy-nazariy ahamiyatgagina ega bo'lmasdan, balki bilish ahamiyatga ham egadir. Bu masalani hal qilish sotsiologiyani fan sifatidagi vazifasi maqsadi, bilimlar

sistemasidagi tutgan oʻrni, jamiyatdagi ahamiyatini belgilaydi. Shuningdek sotsiologiyani oʻrganadigan koʻlami (doirasi) qaysi masalalarni hal qilish, uning funksiyalarini qanday ochib berish kerakligi, hamda sotsial masalalarni hal qilishi nimadan iborat ekanligi ham uning ob'ekt va predmetini aniqlashlik bilan bogʻliq, demak, ob'ekt va predmet masalasi sotsiologiyada asosiy nazariy masaladir.

Sotsiallik — bu kooperatsiya oʻzaro hamkorlik va hissiy bogʻliqdir. Bu esa tabiiy qonunlar asosida vujudga kelgan tartiblardan iboratdir. Turli xildagi ijtimoiy hayot uning fikricha ana shu tabiiy asosning jismoniy, aqliy, axloqiy koʻrinishlardan iborat.

Sotsial oila birlik sifatida namoyon boʻladi. Chunki uning taraqqiyoti sotsial bosqichlarning asosini qayta tiklaydi. Sotsiologiyaning ob'ekti shu asosda tushuntiriladi va uning predmeti shunga muvofiq talqin qilinadi. Bu esa garmoniya tashkil qilish qonuniyatlari va ijtimoiy taraqqiyot evolyutsiyasidir. Boshqacha qilib aytganda u jamiyatni boshqaruvchi tafakkur qonuniyatlari, ratsional vositalardir. O. Kontni fikricha ob'ekt va predmet qarama-qarshilikdan iboratdir. Uningcha sotsial reallikning tabiiyligi aqliy evolyutsiyaning natijasi sifatida namoyon boʻladi, demak, ob'ektni naturalistik tushunish, predmetni sub'ektiv-idealistik talqin qilish asosida qarama-qarshilik yuz beradi. O. Kont tomonidan sotsiologiyaning ob'ekt va predmetini pozitiv-naturalistik talqin qilish asosida turli xil sotsial oqimlar paydo boʻladi: Sotsial darvinizm, irqiy-antropologik, bioorganik yoʻnalishlar va boshqalar shular jumlasidandir. Biroq ayrim sotsiologlar pozitivizm doirasidan chiqishga harakat qildilar. Bularidan biri E. Dyurkgeym (fransuz sotsiologi) sotsiologiyani biologik va psixologik tomonlardan farq qiladigan oʻziga hos tomonini topishga harakat qiladi. «Dastavval har bir sotsial jarayonki muhim ichki sotsial tuzilishini tashkil etadigan muhitni topish kerak» deydi u. Sotsiologiya sohasida — uningcha oʻziga hos hususiyatlar bilan farq qiladigan faktlar mavjud. Bu individdan tashqarida majburiy kuchga ega boʻlgan va individ unga intiladigan fikr tarzi faoliyati va qilishdan iboratdir. Bu sotsial sifat zaruriy, umumiy sifat boʻlib u individ uchun ob'ektiv xarakterga egadir. U individuallikni yoʻqotmaydi, balki hal qiladi. Mana shu umumiy tashqi belgilar sotsiologiyaning ob'ektni tashkil etadi. Bu doktrina «kollektiv tasavvur» deb aytiladi. Uning predmeti ham kollektiv tasavvurlarning rivojlanishi va funksiyalari asosida paydo boʻladigan qonunlardan iborat. Garchi Dyurkgeym sotsiologiya fanini rivojlantirishiga sezilarli ta'sir koʻrsatsada mohiyat e'tibori bilan pozitivizm chegaralaridan toʻliq pozitsiyasidan chiqib ketolmadi. Chunki u kollektiv tasavvurini ob'ektiv narsa deb tabiiy

fanlarga o'xshatadi.

Sotsiologiyaning ob'ekta insonning turli holatdagi atvori bo'lsa, uning predmeti esa mehnat, siyosat va boshqa sohalardagi hulq-atvorlarining mexanizmlarini o'rganishdir. Sotsiologiyani bunday tushunish bixeyviorizm simvolik interaksionalizmga yetakchilik qiladi. Sotsiologiyaning predmet masalasining hal qilishda Amerika klassik sotsiologigi Floran Znanetskiy alohida o'rin tutadi. Uning U. Tomson bilan yozgan «Polsha dehqonlari Evropa va Amerikada» degan asari sotsiologiyada yangi oqim bo'lgan empirizm sotsiologiyasining boshlanishidan darak berdi. Mana shuning uchun o'nta empirik maktabning vakili sifatida qaraladi. Biroq uning g'oyalari, qarashlari bu oqim doirasidagina baholanmaydi.

F. Znanetskiy fizik va sotsial reallikni farqlash uchun «insoniy koeffitsient» terminini ishlatgan. Uningcha bu termin sotsiologiyaning O'ziga xos tomonini ifodalaydi. Bu yerda farq, shundan iboratki tabiiy sistema inson tajriba va aktivligiga bog'liq bo'lmagan holda ob'ektiv mavjuddir. Madaniyat esa alohida reallik hosil qiladi. Biroq, uning tabiiy boshlanishni enfenamenom emas, chunki uning boshlanishida inson ishtirok etadi. Sotsiologiya maxsus fan sifatida uning fikricha 4 ta muhim sohani o'z ichiga olish kerak: sotsial faoliyat nazariyasi; sotsial munosabatlar nazariyasi, sotsial-shaxs nazariyasi; sotsial guruh nazariyasi. Sotsiologiya jamiyatdagi bo'layotgan gramma hodisalar bilan emas, balki faqat faoliyat sistemasini yaratuvchi ongli individ munosabatlari bilan shug'ullanish kerak. Znanetskiyning bunday qarashlari ba'zi maxsus fanlarning sohasini rivojlantirishda va belgilashda sotsiologiyani rolini ko'rsatib beradi. Znanetskiyning hizmati yana shundaki, u sotsiologiyani nazariy fan sifatida empirik faktlariga asoslanishini ko'rsatib berdi.

Pozitiv oqim bilan bir qatorda sotsiologiyann nazariy jihatdan asoslash uchun boshqa oqimlar ham paydo bo'ldi. Bu oqimlardan biri gumanistik yoki sub'ektiv — yondoshilgan oqimdir. Bu oqimga ko'ra sotsiologiya inson va uning sotsial realligi to'g'risidagi fandir. Inson realligi uning ongli faoliyati asosida vujudga keladi. Agar pozitizm sotsial jarayonlarni tabiiy asosida hosil bo'lishidan kelib chiqsa, gumanistik oqim sotsial jarayonlarni inson va uning ongli faoliyatidan kelib chiqishni ko'rsatib beradi. Ular sotsial hodisani ma'naviy munosabatlar natijasi deb qaraydilar. Agar pozitizm ob'ektiv hodisalarni o'rganishda ob'ektivlashtirishga bo'ysunadigan rag'batlantirish, ta'sirlanish, hulq-atvor, sharoit kabi hodisalarga e'tibor bersa; gumanistik oqim esa asosiy e'tiborini ongli hayotga qaratadi. Bu oqim sotsiologiya fanini yangi bosqichga

ko'tarib uning nazariy va metodologik asoslarining yangi yo'nalishlarini ko'rsatib berdi. Ongli hususiyatga ega bo'lgan inson faoliyati, sotsiologiya fanining o'ziga hos ob'ektini tashkil etadi. Shuning uchun mutafakkirlarning e'tibori inson ongida bo'layotgan jarayonlariga, bu protsessning belgilaydigan sotsial faoliyatlariga hamda bilim jarayonlariga qaratilgan kerak. Veber fikricha ongli faoliyat eng murakkab jarayondir, bu jarayonni psixologik akt ham, dunyo qarash jarayoni ham qamrab ololmaydi. Shuning uchun u nafaqat naturalizmni rad qiladi, balki sotsiologiyada hukmron oqim bo'lgan psixologizmni ham tanqid qiladi. Uning fikricha sotsiologiyaning predmeti individ va individlarning predmeti individ va individlarning hulq-atvoridan iborat bo'lgan harakatdir. Sotsiologiya, deb yozadi u, talqin qilishlik bilan sotsial harakatni o'rganadi va shu tufayli uning sodir bo'lishi va oqibatlarini sabablar bilan tushuntirmoqchi bo'ladi. Veber fikricha bunday faoliyat maqsadga muvofiq faoliyatdir. Bu tushuncha bilan Veber sotsiologiyaning o'ziga hos tomonini ko'rsatuvchi 2 ta faktorni hisobga oladi: ong va individual — shaxsiy soha aspekt Pozitivizm oqimidan farqli o'laroq Veber sotsiologik fanni bir butun ijtimoiy asosda emas balki alohida individ asosida yaratmoqchi bo'ladi. Bu bilan u Evropa gumanistik an'anasini davom ettiradi. Veber o'zining fan konsepsiyasida mantiqiy hulosa, empirik asosida erishilgan faktlar va amaliy baho berishni chegaralaydi. Bu esa muhim metodologik ahamiyatga egadir. Shuni ta'kidlash kerakki maqsadli faoliyat bu voqealarning o'ziga berilgan xarakteristikasi emas balki, nazariy, ideal konstruksiyadir. Bu faktlarni tahlil qilishning o'ziga hos metodi yoki u aytgandek sotsial hodisalarni tushunishga imkon beradigan idealashtirishdir.

Sobiq Sovet matbuotida sotsiologiyaning predmeti to'g'risida bahs avj oldi. Sotsiologiyaning bu masalasi esa tarixiy materializmning doirasida o'rganilib, sotsiologiya nazariyasini mustaqil rivojlanishiga to'sqinlik qildi. Shunga qaramay bu davrda ayrim oliy o'quv yurtlarida sotsiologiya fakultetlari, bo'limlari ochildi. Sotsiologik laboratoriyalar tashkil etildi-Empirik sotsiologik tatqiqotlar o'tkazish boshladi. Shuning bilan birga sotsiologiyaning vazifasi, uning ilmiy ahamiyati, jamiyatda tutgan o'rni masalalari haqida yozgan bahslar avj olib ketdi. Biroq, bu bahslar ilmiy diskussiya xarakterga ega bo'lganligi uchun tor doirada edi va sotsiologiyadagi fundamental masalalarni ko'tarib chiqmadi. Shuning uchun sotsiologiya fanining ontologik mohiyati ochib berilmagan edi. Bu bahslar ko'pincha mafkuraviy xarakterga ega edi. Bunda asosiy masala sotsiologiya bilan tarixiy materializmning munosabati masalasi edi. Sharoit

shundan iborat ediki, tarixiy materializmni rad etmasdan sotsiologiyaning rivojlanishiga va sotsial tadqiqot ishlarini amalga oshirishga imkoniyat yaratish kerak edi. Munozara davomida bu masalalarni hal qilishda A. G. Berbin, M. M. Kovalzon, 8. J. Kelle va boshqalar umumiy sotsiologik qonunlarni tarixiy materializm o'rganadi, deb e'tirof etdilar. Bundan tashqari bu umumiy qonunlarning turli sohalarida namoyon bo'lish shakllari mavjuddir. Mana shu o'ziga hos namoyon bo'lish shakli sotsiologiyaning o'rganish ob'ekt deb aytdilar. Bu qarashlar keskin tanqid qilindi. Chunki tarixiy materializm falsafaning tarkibiy nomi bo'lganligi uchun u sotsiologiya bo'lolmaydi. Munozarada Ro'vkina R. V.ning qarashlari etiborga loyiq edi. U sotsiologiya predmeti sotsiologik tadqiqot asosida olingan bilimlarni analiz qilishdan iborat deydi. Sotsiologiyaning boshqa vazifasi jamiyatning nazariy modelini ishlab chiqish va bu model jamiyatning vazifalarini bir butun sifatida sistemalashtirilgan bo'lar edi. Ro'vkina fikricha sotsiologiya sotsial reallikning bir butun qo'lami uning dinamikasining o'rganuvchi fandır, Ro'vkina sotsiologiyaning umumiy va o'ziga hos tomonini tahlil qilishga harakat qiladi va undagi turli tarmoqlarni jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liqligi ajratib ko'rsatadi.

Munozara yakuni bo'lib sotsiologlaridan Rojin V. P., Andreeva G. M., Yadov V. A. va boshqalarning ishlab chiqishgan asosiy yo'nalishlari namoyon bo'ldi. Bu yo'nalishlar keyingi davrgacha mamlakatda tan olingan edi. Ushbularga muvofiq tarixiy materializm jamiyatning falsafiy va sotsiologik sohalarini analiz qilish birligidan iboratdir. Tarixiy materializm falsafa sifatida jamiyat taraqqiyotining falsafiy muammolarini hal qilsa, sotsiologiya sifatida esa, jamiyat qonunlarining vazifalarini va rivojlanish tendensiyalarini ochib beradi. Tarixiy materializm jamiyatga bir butun sistema sifatida qarar ekan, u har qanday sotsial soha muammolarining muhim tomonlarini tadqiq qiladi. Shuning uchun bu yo'nalishlar sotsiologiyani tarixiy materializmdan ajratish va ularni birbirlariga qarama-qarshi qo'yish mumkin emas, deb ta'kidlaydilar. Jamiyatning bir butunligini umumnazariya o'rganishlik bilan birgalikda uning alohida tomonlarini, turli sohalarini (siyosiy, ma'naviy, ruhiy, iqtisodiy tomonlari), hamda turli sotsial guruhlar o'rtasidagi munosabatlar, ularning fikrlash tarzi faoliyatining tuzilishi kabilarni ham o'rganishlik muhim ma'no kasb etadi. Chunki umumiy sotsiologik jamiyatni konkret boshqarish, ishlab chiqarish, mavqening shakllanishi kabi masalalarga javob bera olmaydi. Natijada umumiy sotsiologik masalalar bilan birlikda sotsiologiya maxsus va empirik darajadagi bilimlarni ham o'z ichiga oladi.

Maxsus yoki o'rtacha sotsiologik nazariya terminini Amerika

sotsiologi R. Merton kiritgan. Bu olim O'rtacha nazariya empirik tadqiqot asosida vujudga keladi va mavjud bo'lmagan umumiy sotsiologik nazariyalarning paydo bo'lishiga asos bo'ladi, deb ko'rsatadi. Shuning bilan birga empirik sotsiologiyaning o'ziga hos tomonini farq; qilish kerak. Empirik sotsiologiya bevosita hayotdagi hodisalarni umumlashtirish asosida hulosalar chiqaradi. Sotsiologiyaga tarixiy materializm asosida qarash esa uning fan sifatida imkoniyatlarini chegaralaydi va jamiyatning dolzarb masalalarini hal qilishga to'siqlik qiladi. Hozirgi kunda sotsiologiyaning predmeti haqidagi masala yangidan qo'yilmoqda. Chet el olimlari va Vatanimiz sotsiologlari bu masalaga katta e'tibor bermoqdalar va sotsiologiyani mafkuralashtirishdan holi qilib, uning o'ziga hos muhim tomonlarini ochib berishga harakat qilmoqdalar. Hozirgi kunda sotsiologlar fanning o'z ta'rifini belgilash bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar.

Yuqoridagi fikrlarni tahlil qilib va sotsiologiyaga berilgan eng muhim ta'riflarga asoslanib sotsiologiyaning ob'ekti va predmeti haqida mukammalroq tushunchani berishga harakat qilamiz. Sotsiologiya umumiy emas, balki maxsus, sohalararo fandır. U boshqa fanlar o'rganmaydigan o'zining ob'ektiga ega. Uning o'ziga hos sohani sotsial reallik bo'lib, bu inson va jamiyat munosabatining ijtinoiy-madaniy muayyanligidir. Bu ob'ekt faqat sotsiologiyaning tadqiqot ob'ektidir. Boshqa fanlar bu ob'ekt bilan shug'ullanmaydi. Sotsiologiya umumiy sotsiologik ob'ektni o'rganganda umumiy falsafiy kategoriyalardan foydalaniladi va ularning sotsial mohiyatini ochib beradi. Jumladan ob'ektiv va sub'ektiv, erkinlik va zaruriyat, borlik va ong kabi falsafiy kategoriyalardan foydalanib umumiy sotsiologik ob'ektni tadqiq qiladi.

Maxsuslik darajasida sotsiologiya sotsial sub'ektlarni (shaxs, gruppа, jamiyat, sotsial sohalar, munosabatlar, odamlarning sotsial faoliyati va tafakkur tarzi) analiz qiladi.

Bu bilan sotsiologiya o'zining ob'ektini turli hodisalardan ajratib oladi. Sotsiologiya turli sotsial sohalarini eng umumiy muhim tomonlarini umumlashtirib umumiy nazariyalar hosil qiladi va boshqa fanlarga nazariy metodologik asos yaratadi. U jamiyat va inson tug'risida umumiy qarashlar, qonunlar va tendentsiyalarni yaratadi va rivojlanish qonunlarini ochib beradi. Bu masala bilan alohida ijtimoiy fanlar (etika, estetika, psixologiya, huquqshunoslik) shurullanmayqn.

Sotsiologiya uz ob'ekti doirasida sotsial hayotning turli alohida tomonlari bilan ham shug'ullanadi va buning natijasida fanda integral sohalar vujudga keldi. Jumladan: huquq sotsiologiyasi, siyosat

sotsiologiyasi, iqtisodiy sotsiologiya industrial sotsiologiya va xokozolar. Sotsiologiya bu sohalarida uz ob'ekti inson va uning siyosiy, iqtisodiy va boshqa sohalaridagi urni va uning rivojlanishi, hayot tarzi va fikrlash uslubi kabi masalalarni hal qiladi. Sotsiologiyaning ob'ekti inson faoliyatining turli sohalarining integratsiyasi asosida urgansa ham boshqa fanlarga uqshamaydi. Sotsiologiya uzinning mahsus ob'ekti asosida yakka maqaning faoliyatini konkret namoyon bulishlikni empirik darajada urganishni ham uz ichiga oladi.

Bizningcha, sotsiologiya predmeti, bu jamiyatdagi inson mohiyatining rivojlanayotgan umumbashariy hususiyatlarini amalga oshiruvchi qonunlardir.

Agar fanning ob'ekti uning nimani urganish kerak degan savolga javob bersa, predmeti esa usha ob'ektni qanday urganadi degan savolga javob beradi. Ma'lumki, jamiyat va inson uz qonuniyatlari bilan rivojlanadilar. Mavjud jamiyatning tuzilishi insonlar manfaatiga qarama-qarshi bulibgina qolmasdan balki shaxsiy insoniy harakterga ega bulishi mumkin. Shuning uchun sotsiologiya insonlar jamiyatini rivojlantirishda sotsial tashkilotlarning insonlarga mos eng qulay variantlarini topishda va uning amalga oshirishdagi jismoniy, emotsional—psihologik va ma'naviy imkoniyatlarni ishga soladi.

Sotsiologiyaning vazifasi jamiyat taraqqiyotini ta'minlaydigan eng qulay variantlarini, ijtimoiy-madaniy modellarini topishdan iboratdir. Bular jamiyat va insonning o'z-o'zini takomillashtirishining qonunlaridir.

Sotsiologiyaning vazifasi murakkab sotsial dunyoni tashkil etuvchi o'zaro birkuvchi va harakat kiluvchi tuzilma va mehanizmlarni anshutashdan iboratdir. Buning uchun sotsiologiyadagi tanqidiy nazariya, falsafiy germenevtika, yangncha tus berilayottan katuralizidan foydalanish kerak, ularni yangicha talqin qilish kerak deb kursatadi. Sotsiologiya predmeti muammosini hal qilishdagi uchinchi tendentsiya deb gumanistik rivojlanishini e'tirof etish mumkin.

2. SOTSILOGIYANING STRUKTURASI

Struktura bu fandagi asosiy elementlar ularning joylashishi, munosabati va tartibidir. Struktura bevosita fanning rivojlanish darajasi va uning elementlariga bog'liqdir. Fanning rivojlanib borishi davrida uning elementlari bir tizimga tushlanib, bu sistema orqali esa bilimlarni tashkil qilish vositaligi ta'inlanadi. Buning natijasida esa nazariy, metodologik, metodik va boshqa elementlar o'rganilayotgan voqelikni (reallikni) yaxlit

koʻrinishda aks ettiradilar. Fan bir tizim sifatida, qachonki umumiy asoslar, kategoriya va tushunchalarni ishlab chiqqandagina va bilishning har hil darajalari va shakllari orasida mantiqiy bogʻlanish bulsagina yuzaga kelishi mumkin. Bu holatda fanning turli hil rivojlanish yunalishlari bilimning shakllangan tizimi bilan muvofiqlashadi. Agarda sotsiologiya haqida gapiradigan bulsak, u hali stuk birlashgan ilmiy tizimi sifatida shakllangani yoʻq yosh va rivojlanayotgan fan sifatida sotsiologiya har-hil ilmiy tizimlariing tupllami sifatida kuzga tashlanyapti.

Sotsiologiyaniing strukturasi xar xil taxlil qilish mumkin. Ayniqsa, bu strukturani aniqlash nazariy sotsiologiya, metodologiya va empirik tadqiqotni ajratib olishlik bilan kupincha yuzaga keladi.

Lekin bu sotsiologiyaniing komponentlarini ajratib olish umumiyroq ma'noga ega, natijada esa fanning murakkab va har hil kurinishga zga bulgan strukturasiing mazmuni kashf etilmaydi. Shuning uchun tularoq va har tomondama hususiyatga ega bulish bilangina sotsiologiyani strukturasi kursatib berish lozim. Sotsiologiya strukturasiida fundamental va amaliy yunalishlarni, nazarny va empirik tadqiqotlarni, mahsus va tarmoq sohalarni ajratib kursatish darkor. Ular bir-birlari bilan juda murakkab oʻzaro dialektik aloqodorlar. Ayrim hollarda bir-birlariga qoʻshilib ketadilar, boshqa holatlarda esa bir-birlarinn inkor qiladilar. Tadqiqotimiz ilmiy, teran boʻlishligi uchun sotsiologiya strukturasiini bu elementlarini alohida tahlil qilib chiqshga harakat qilamiz.

Fundamental sotsiologiya boshka elementlardan uzinig hal qilayotgan muammolariniing darajasi, iqlami va ahamiyati bilan farq qiladi. Fundamental sotsiologiya mohiyatidan muammolar, abstraktsiyannng (mavqumlik) oliy darajasi bilan shugʻullanib, sotsial olamning taraqiyoti va borliga uchun zarur bulgan umumiy qonun va qonuniyatlari izlash bilan faoliyat kursatadi. Fundamental sotsiologiya minglab maktablar va yoʻnalishlarga egadirki, ular sotsiologiya faniniing asosini ijodiy izlash bilan banddir. Fanning asosini ijodiy ishlashning uchta asosiy aspektini ajratib kursatish mumkin. Birinchisi, ontologik, ya'ni sotsial voqelikni mohiyati masalalarini yanada aniqrok aytadigan bulsak sotsiologiya ob'ektini, uning faoliyat kursatish shakllarini taxlil qilib urganadi. Ma'lumki, sotsial dunyo murakkab koʻp qatlamlik, dinamik va oʻzgaruvchanlik hususiyatiga egadir. Ontologiya borlik hakidagi ta'limot sifatida falsafada vujudga keladi va ushbu fanning bosh mavzusi hisoblanadi. Sotsiologiyada esa ontologiya masalalari ikkinchi jaxon urushidan keyin, yanada keng qulamda esa oxirgi oʻn yillikda kutarildi. Chunki bu vaqtda «pozitivistak» krizis degan jarayon keng kuloch yozgan

edi. Bu krizis jarayonining asosiy mohiyati shundan iborat ediki, stsienistiklikka asoslangan sotsiologiya natijalaridan ranjish, ya'ni traditsion ilmiy metodlar kutilgan ilmiy natijalar bermay qo'ydi.

Nafaqat bilishniig shakl va metodlarini kayta kurib chiqish ehtiyoji paydo buldi va yana sotsiologiyaning ob'ektini mohiyati, bilishning darajalari va mezonlarini ham qayta ishlash zaruriyati tug'ildi. Ontologik muammo masalalarini sotsiologiyadagi barcha nazariy yunalish vakillari uzlaricha hal qilishga harakat qilganlar.

Ayniqsa, sotsiologik muammoga ekzistentsial va fenomenologik maktablar chuqur e'tibor bilai qaraydilar. Lekin realistik yunalish vakillari qdomadan ham bu muamoga kengroq e'tibor beradilar. Realizm—bu sottom fikrli ongologiyadir, deb ta'kidlaydi, ushbu yo'nalish vakillaridan biri u. Autveyt. Sotsial reallik insonlarning mustahkam uzaro harakati yangilanayotgan strukturaning natijasi sifatida tushuniladigan sinflar, jarayonlar va interpretatsiyadir.

Realistik yunalish reallikni har hil darajasi, tabaqasini ajratib tahlil qildiki, bular shunday jabhalardir real, aktual va empiriklikdir. Bu intilishlar esa metodologik munosabat sifatida juda muhimdir. Reallikiing ushbu jabqdoari orasidagi o'zaro borlig'lik ularning sotsial voqelikni shakllantirishdagi urni va ahamiyatining tashkil etilishi ushbu yunalishning behiyos xizmatidir.

Fundamental sotsiologiya nafaqat nazariy asoslarni ishlab chiqish bilan shug'ullanadi, binobarin bilishning umumsotsiologik fundamental printsniplarini ham keng ma'noda ishlab chiqadi. Sotsiologik bilishning mohiyati vazifalari, bilimlarning ob'ektivligi, u yoki bu printsish va yondoshishlarni qullash ham fundamental sotsiologiya muammolari majmuasiga taalluqlidir.

Har hil nazariyalar negizida «sistemalilik», «funktSIONAL yondoshish», «sababiyat», «tushunuvchi» yunalish deb ataladigan fundamental printsiplar ishlab chiqildi. Sotsial reallik mohiyatining masalalarini yo'q qilish bilan birgalikda, taraqqiyot qonunlari va insonning sotsial dunyodagi o'rni muammolari echimini topish sababli ma'lum bir sotsiologik metodlar shakllanadi.

Sotsiologiyaning rivojlanishi davrida o'rganilayotgan muammolar, tadqiqot yo'nalishlari o'zgardi, lekin asosiy, fundamental harakterga ega bo'lgan fan uchun juda muhim ahamiyatga doir umumiy printsiplar: sotsiologiyaning ob'ekti va predmeti, sotsial reaklliqning moqiyati, uning rivojlanish kokunlari, sotsial olamdagi insonning ahamiyati va o'rni, uning ongi va tafakkuri kabilar o'z ahamiyatini yo'qotmadi.

Fundamental sotsiologiyaning maqsadi — bu sotsial olamning toʻliq tasvirini yaratashdir va bu sotsial olamning taraqqiyot manbai va shakllarini aniqlashdir. Ilk bor fundamental nazariyalar tabiiy fanlar taraqqiyotiga tayangan, ayniqsa biologiya va fizikaga. Sotsiologiya fanining asoschilari huddi shu fanlarning eksperimental va empirik negizga oʻhshagan negiz asosida yangi sotsial fanni yaratishmokchi boʻldilar. XIX asrning ikkinchi yarmidagi yoʻnalishlar —pozitivizm, naturalizm va psixologizm sotsial hayotning doimiy harakatlanuvchi mexanizmini kashf etish, sotsiologiyada empirik metodni yaratish uchun oʻz kuch-gʻayratlarini birlashtiradilar.

Buning natijasida ular tabiiy fanlarning tushunchalarini, umumilmiy metod va yunalishlarini qullaydilar. Ammo XX asrning boshlarida sotsiologiya tabiiy fanlar tizimidan ajralib chiqa boshlaydi.

Sotsial voqelikning pozitivistik ruhidagi kurinishi urniga struktur-funksional, empirik kurinishlari xuddi. Bu yunalishlar sotsiologiyaning uz asosini, mustaqilligini izlashga katta ta'sir kursatdi. Ammo empirizm nafaqat fundamental nazariya ahamiyatini, balki nazariyani oʻzini ham butkul inkor qila boshladi. Buning natijasida esa sotsiologiya oʻzining yahlitligini yoʻqota boshlab, ijtimoiy hayotning har hil yunalishlarini alohida-alohida tahlil qiladigan fanga aylana boshladi. Lekin XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab sotsiologiya uzining umumnazariy muammolariga qaytishni boshladi, shuningdek metodologik tadqiqotlarning ahamiyati kup osha boshladi. Bu jarayonlar esa sotsiologlarni filosofiyaga qayta murojaat qilishga majbur qildi. Buning natijasida esa ekzestentsial, fenomenologik yunalishlar paydo buldilar. Ular esa sotsiologiyaning asosini, yangi metanazariyasini yaratishga harakat qila boshladilar hozirda bu tendentsiya kuchayyapti. Sh.Shtompkaning fikricha sotsiologlar yana eski boʻlmagan topishmoqni: Jamiyat nima uzi? — topish bilan ovoralar.

80-yillarning «Katta nazariyasi»ning yangi toʻlqinlarining effekta sifatida falsafa va sotsiologiyaning yangi munosabatlarn deb tushunish mumkin. Nafaqat sotsiologiya falsafaning ta'siri ostidadir, balki falsafaning uzi ham sotsiologiyaning aktiv ta'siri doirasidir.

Fundamental sotsiologiya rivojining ikkinchi muhim tushunchasi bu sotsial jarayonlarning markaziy omili sifatida sub'ektga murojaat qilish bilan belgilanadi.

Shunday qilib, fundamental sotsiologiya bu nazariyadir, u fanning strukturasi, mazmuni, kategoriyasi va metodlarini oʻrganadigan umumsotsiologik muammoni tadqiq qiladi. Shuning uchun fundamental

tadqiqotlarning roli beqiyosdir, funksiyalari esa hilma-hildir. Quyidagi funksiyalarni ajratib kursatish mumkin: dunyoqarash, metodologik, integratsiyalashtiruvchi, evristik va hokozolar.

Dunyoqarash funksiyasi bevosita borliq va ong, insonning mohiyati kabi dolzarb muammolari bilan bog'liqdir. Chunki bu muammolar sotsiologiya faniining predmeti va ob'ekt yadrosini tashkil etadi. Bu muammolarni hal qilish jarayonida sotsiologiya filosofiya bilan juda faol uzaro muloqot va dialektik aloqada buladi va sotsial olam haqida ilmiy tasavvur yaratadilar. Umumsotsiologik nazariya negizida sotsiolognyaning umumiy metodologiyasi ishlab chiqiladi. Integratsiyalashtiruvchi funktsiya fundamental nazariyani barcha bilimlar bilan boshlaydi. Fundamental sotsiologiyaning yahlit yondoshuvi yangi muammolarni hal qilish, ijtimoiy hayotning hali yahshi urganilmagan tomonlarini chuqur ilmiy taxlid qilishga yordam beradi.

Sotsiologiya fani tizimida amaliy tadqiqotlar paydo bo'ldi va rivojlanayapti. Amaliy sotsiologiya tadqiqotlar fundamental sotsiologiyadan o'zining strukturasi, mazmuni va maqsadi bilan farq qiladi. Amaliy sotsiologiyaning hususiyati shundan iboratki, u orqali jamiyatning har bir sohasi uchun kerakli bo'lgan nazariy va empirik tadqiqotlarni natijalarini qo'llash uslublari va vositalari joriy etiladi. Amaliy sotsiologiya XX asr boshlarida tashkil topgan empirik tadqiqotlar negizida shaklandi va rivojlandi.

Empirik va amaliy tadqiqotlarni tenglashtirishning yana bir sababi shundaki, empirik tadqiqotlar sotsial amaliyotga olib chiqadigan vosita hisoblangan. Binobarin bu masalaga bunday yondoshish uning mohiyatini to'g'ri tushunishga halaqit beradi. Empirik tadqiqotlar jonli faoliyatni bevosita shaklandi urgansa ham, u uzgartiruvchanlik faoliyat emasdir. Empirik tadqiqotlarning vazifasi bu kuzatish, eksperiment, hujatlarni o'rganish va so'rov metodlari orqali sotsial jarayonlar haqida faktlar va empirik ma'lumotlar yig'ishdir. Empirik tadqiqotlar natijalaridan ham amaliy maqsadlarda ham nazariy bilimlar rivoji uchun foydalanish mumkin.

Amaliy tadqiqotlar tizimida ham nazariy, ham empirik bilimlar mavjud bo'lib, ular amaliy tadqiqotlarni ijtimoiy hayotni turli sohalari faoliyatini takomillashtirish uchun amaliy tavsiyanomalariga aylantiradi. Boshqaruv sistemasini elementi sifatida amaliy tadqiqotlar fanning ijtimoiy funksiyalarini bajara borib, uning natija va yutuqlarini amaliy faoliyatga aylantiradi, o'zining amaliy yunalishiga qarab ayrim hollarda amaliy tadqiqotlar ilmiy tadqiqotlar bilan qarama-qarshilik munosabatida bo'ladi.

Foydaliylik va ob'ektivlik munosabatlari nisbati amaliy sotsiologiyaning eng muhim metodologik muamolaridan biridir. Ilmiy ob'ektivlik urganiladigan ob'ektning xususiyatlariga mosligi bilan belgilanadi. Ayni vaqtda foydaliylik bilimlar kimning manfaatlari uchunligini nazarda tutilishi bilan belgilanadi. Sotsiologik tadqiqotlar umumiy ijtimoiy-madaniy kontekst bilan chambarchas bog'liq bulgan sotsial faoliyatning bir turi hisoblanadi. Buning natijasida esa tadqiqot natijalaridan iqtisodiy, siyosiy manfaatlar uchun foydalanadi.

Ilmiylik va foydaliylik bir-birlari bilan ziddiyatli munosabatlarga kirishmasliklari uchun M. Veberning fikricha haqiqat uchun intilish kerak, ya'ni boshqacha qilib aytadigak bulsak ilmiy bilimlardan tug'ri foydalanish uchun iqtisodiy, soial-siyosiy va ma'naviy tuzilishlarning ma'lum tizimi mavjud bo'lishi zarur.

Shunday qilib, amaliy sotsiologiya nafaqat tayyor bilimlarni ishlatadi, balki yangi nazariy va metodologik bilimlarni ham shakllantiradi. Amaliy sotsiologiya ilmiy bo'limning amaliy effektivligi masalalarini hal qila turib fundamental tadqiqotlarni rivojiga stimuly berish uchun yangi muammolarni urtaga qo'yadi. Amaliy tadqiqotlar ilmiy faoliyatning alohida bir turi sifatida faqatgina nazariy va metodologik muammolarni hal qilmasdan protsedura va metodik muammolarni ham echishga intiladi.

Metodologiya va metodikaning muhim muamolaridan kontseptualizatsiya, formalizatsiya va operatsionalizatsiyalarning tutgan o'rinlari juda aktualddir. Chunkn bu muammolar sotsial qurilish va sotsial injenerlikning muammolarini hal etishda ilmiy bilishning realizatsiya qilishning uziga hosligi bilan bevosita bog'liqdirlar.

Sotsial injenerlik amaliy tadqiqotlarning negizida shakllangan faoliyatining ma'lum bir yunalish sifatida shakllandi. Sotsial injenerlik—bu sotsial strukturani (iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma'naviy) maqsadga yunaltirilgan, tubdan uzgartirishlik bilan uni optimal va effektiv shaklga keltirishdir. Amaliy sotsiologiyaning sotsial injenerlikdan tashqari yana sotsial tehnologiya qismi ham muhim ahamiyatga egadir. U maqsadga erishishni ta'miilaydigan metodlar vositalarining majmuasidir. Amaliy sotsiologiya taraqqiyotini belgilab beradigan bu omil ijtimoiy-siyosiy holatdir, chunki sotsial amaliyotning muammolarini belgilab, hal qilib berish bu sotsial buyurtmadir, har hil konkret-tarixiy sharoitlarda har turli xil muammolar oldingi uringa chiqishi mumkin. Ilk bor ishlab chiqarishni tashkil etish, shaxsning ijtimoiylashuvi, og'ishma hulk-atvor, urbanizatsiya va jamiyatni stabillashtirish muammolarini echish uchun sotsial buyurtmalar berilgan.

Amaliy tadqiqotlar tarmoq, yunalishlarini shakllantiradi. Bu yunalishlarning orasida og‘ishli xulq-atvor sotsiologiyasi, shahar sotsiologiyasi, industrial sotsiologiyalar kuprok tarakkiy etgan. Inson ulimi muammosini o‘rganadigan—nekrosotsiologiya, sotsialdiagnostikalar tarmok yunalishlari orasida eng yangilari hisoblanadi.

Sotsiologik tadqiqot ham nazariy, ham empirik bulishi mumkin. Ularni chegaralanishi shartli ravishdadir, chunki har qanday fundamental sotsiologiya nazariydir, empirik tadqiqotlar esa nazariya bilan jiplashgan o‘zaro aloqalik bilan utkaziladi. Lekin hususiyatni ajratish va aniqlash zaruriyatdir. Agarda har qanday fundamental sotsiologiya nazariy hisoblansa, har qanday nazariya fundamental sotsiologiya hisoblanmaydi. Fundamental sotsiologiya distsiplinar muammolarga fanning poydevorining asosini urganishga yunaltirilgan bo‘lib, uz navbatida nazariy sotsiologiyaning o‘rganish ob‘ekti sifatida ham umumiy, ham xususiy jarayonlar, jamiyat hayotinnng ayrim sohalari va faoliyatini biror bir tomoni bo‘lishi mumkin. Nazariy va empirik sotsiologik bilimlarni qabul qilish va jamiyatni tahlil qilish darajasi bilan bir-biridan farq qiladi. «Nazariylashtirishni — deb yo‘eadi tainikli amerikalik sotsiolog Dj. Terner,—shunday vositalarga taalluqli deb xisoblash mumkinki, u orqali fan deb ataladigan tafakkur faoliyati uzining uchta asosiy maqsadini amalga oshiradi: olamda, shaklanayotgan voqealarni shunday klassifikatsiyalash (tasniflash) va tashkil qilishlikni buning natijasida ularni istiqbolda kura bilishlik; utgan voqealarni sabablarini tushuntirish va kelajakda bo‘ladigan voqealarni oldindan kura bilish; voqealarni nima uchun va qanday bo‘lib utishini «tushunishni intuitiv ravishda taklif qilish».

Nazariya—bu kategoriya, tushunchalar, holatlar va printsishlarning kontseshtual birligi bulib, u hodisalarni xossalari, munosabatlari va qonuniyatli aloqalarini ochib beradi. Nazariyalarda markaziy urinni tushunchalar egallaydi. Ularda fanning tajriba va yutuqlari tuplanadi va ular nazariyaning mazmunini belgilaydi. Nazariyani yaratish vositasi bu mavxumlashtirishlikdir. Chunki u konkret xolatlar va xodisalarni tashkil qilishda chegaralardan sakrab utishga yo‘l beradi.

Sotsiologiyada nazariyani turli darajasini ajratib kursatish mumkin: umumsotsiologik nazariyalar jamiyatni yaxlit qamrab oladigan muammolarni hal qiladi. Masalan, jamiyatni rivojlanish davrlari va strukturasi, uni faoliyat qonunlari va boshqalar.

Maxsus nazariyalar sotsiologiyaning ob‘ektini muhim tomonlarini o‘rganadi. sotsial struktura nazariyasi, o‘zaro ta'sir nazariyasi, institutlar

nazariyasi va hokozolar maxsus soxalar sifatida shakllandilar. Maxsus nazariya yoki o'rta daraja nazariyasi tushunchasini fanga R. Merton joriy etgan.

O'rta daraja nazariyasi sotsial tizimlarning umumiy nazariyasini sotsial hatti-xarakatning tashkil etilishning umumiylikiga mahsus kuzatilayotgan turlari bilan bog'lashi kerak. Bu nazariyalar mavhum tushunchalardan foydalanadilar, lekin ular kupincha faktlar bilan bog'liqdirlar va bitirish tadqiqotlar asosida shakllanadilar. Shuningdek, xususiy nazariyalarni ham ajratib ko'rsatish mumkin va ular sotsial jarayonlar quyidagi empirik ma'lumotlar bilan ko'prok bog'langanlar. Bunday nazariyalar deb ko'yidagilarni aytamiz: hramli fe'l-atvor, referent guruhlar nazariyasi, kichik guruhlar nazariyasi va boshqalar.

Bu nazariyalar inson fe'l-atvorining mustahkam mexanizmlarini har xil sharoit va holatlarda ko'rinishni aniqlashga harakat qiladilar. Nafaqat axloqli nazariyalar balki faoliyatning turli hil turlari nazariyalari: mehnat munosabatlari, qadriyatli moslashni shakllantirish, tashkil qilish va boshqarish.

Empirik tadqiqotlar sotsiologiyaning muhim komponenti hisoblanadi. Dastlabki empirik tadqiqotlar XVII asrdayoq o'tkazilgan edi, lekin faqatgina XX asrning birinchi choragidan AQShda ommaviy ravishda o'rin oladi.

Empirik tadqiqotlar tajribali bilishni anglatadi. Ular sotsial guruhlar, individlar, tashkilotlar, muammolarni bevosita o'rganishni o'zining asosiy maqsadi deb hisoblaydilar.

Empirik sotsiologik tadqiqotlarning ob'ekti—bu ijtimoiy hayotning mikrojarayonlari, insonlarning harakatlari, tafakkur tarzi, fikri va munosabatlaridir. Empirik tadqiqotlarni sotsiologik fanning muhim bir bulagi sifatida empirizm kontseptsiyasi bilan solishtirish mumkin emas, chunki empirizm kontseptsiya sifatida nazariy sotsiologik bilimlarni tuliq inkor etadi. Empirizm xissiy idrokni bevositaligini fanning asosi deb hisoblaydi.

Empirik tadqiqotlarning vazifasi sezgilar maydoniga bilimlarni olib chiqishi emas, aksincha bu bilimlarni rivojlantirish, empirik faktlar yig'ish, real jarayonlarni tadqiqot qilishligi bilan muammolarni kundalang ko'yish va hal qilishlikdir. Empirik tadqiqotlar huddi boshqa fanlar ynlaetgan kabi bilimning ma'lum bir vositasi, davri va darajasidir. Empirik sotsiologiyaning ob'ekta mikrojarayonlar bulsa, predmet sifatida takomillanishning turli muammolari munosabatlar uyg'unlashuvi, faoliyatning sermaq.sulligi, shahsning sotsial xususiyatlari turli xil institut

va tashkilotlar namoyon bulishlari mumkin. Empirik sotsiologiyaning ob'eqti va predmetining hususiyati mahsus metodologiya va metodni ishlab chiqishni talab qiladi. Buni anglash esa birdan yuz bermadi. Dastlab empirik metodni ishlab chiqish aniqrogi sotsial jabhalar uchun tabiiy fanlarning metodlarini qayta ishlab chiqish g'oyasi etarlidir degan fikrlar vujudga keldi va bu qayta ishlangan uslublar bilan empirik tadqiqotlarni muvaffaqiyatli utkazish mumkin degan hulosa paydo buldi. Ammo tez orada ma'lum buldiki, empirik tadqiqotlarni utkazish chog'ida kuplab metodologik harakterga ega bulgan muammolar: sotsial faktning mohiyati, nazariy bilimning empirik ma'lumotlar bilan uzapo munosabatlari, surov, kuzatish va utkazilayotgan ma'lumotlarni tashkil qilish jarayonida sub'ektiv omilning roli kabilar paydo buldi. Sotsiologiyada bilimning sub'ektiv aslekti masalasi metodologik muammolarnng eng markaziylaridan hisoblanadn. Empirik sotsiologiyaning tadqiqotida empirik metodlar: surov, kuzatish, hujjatlarni o'rgannsh va eksperiment usullarn shakllanib joriy etildi. Bu metodlarning har birini hususiyati jarayonning tomonlarini huddi shu metod bilan taxlil qilishlik bilan belgilanadi. Masalan, eng ommabop metod — surov metodi asosan insonlarning sub'ektiv dunssiin: qarashlari, munosabat bildirishlar, juda tez rivojlanishlik va uzgaruvchanliklarga yunaltirilgandir. Bundan tashqari, sotsiolog tomonidan olingan ma'lumotlarga uning munosabat bildirishi, nntershretatsnl (tahlil qilishlik), tushunishi bilan tus beriladi. Shu tufayli esa empirik tadqiqotlar metodologiyasi shunday printsip va yunalishlar ishlab chiqilishi kerakki, u orqali empirik ma'lumotlarining ob'ektivligi va haqqoniyligi ta'minlansin, sotsiolog va respondent o'zaro harakatlarining murakkab aspektlari tuliq majmuasini nazarda tutadigan tadqiqot vositalari, mantiliy masalalari va davri muammolarni hal qilsin.

Shunday qilib, empirik sotsiologiya bu bilimning yirik bir sohasidir-u uzining tarkibida empirik metodlar bilan bir qatorda metodologiya, ma'lumotlar tamini va empirik ma'lumotlarni qayta ishlash sistemasini uzida mujassamlashtiradi. Shu sababli empirik tadqiqotlar odatda har hil mutahassislikning tadqiqotchilari: psixologlar, metodologlar, matematiklar jamoasining Uzaro hamkorligi ostida utkaziladi.

Empirik tadqiqotlar asosan statistik ma'lumotlarga tayangan holda utkaziladi. Rivojlangan mamlakatlarda informatsion ta'minot empirik tadqiqrtning muhim manbasi hisoblanadi.

Empirik tadqiqotlarning rivojlanishi uchun asosiy muammo — bu tehnik vositalar ta'minoti bilan bogliqdir, chunki tadqiqotlar natijalari hamda qayta ishlanishi zarur. Shuningdek, surov va kuzatish uchun ham

ma'lum texnik vositalar talab qilinadiki, shuning uchun empirik tadqiqotlar anchagina qimmat tadbir hisoblanadi.

Sotsiologiyaning rivojlanish jarayonida sekin-asta maxsus va tarmoq yo'nalishlar vujudga kela boshladilar.

Xo'sh, maxsus va tarmoq yo'nalishlarning o'zi nima ma'noga ega?

Maxsus deb institutsional sotsiologiyani, shaxs sotsiologiyasini guruhi jamiyat, sotsial harakat va sotsial munosabatlar sotsiologiyasini e'tirof etamiz. Bundan tashqari yana shakllanib bo'lgan deb taraqqiyot sotsiologiyasi, o'zaro harakat, sotsial struktura va boshqalarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Institutsional sotsiologiya o'zaro harakatning mustahkam shakllarini tadqiq qiladi. Taraqqiyot sotsiologiyasi jamiyat taraqqiyotining manbasi shakli, yo'nalishlari va uning tarkibiy qismlarini o'rganadi. Sotsial harakat nazariyasi esa insonning sotsial faoliyatini sabablari, turlari va ahamiyatini aniqlashga harakat qiladi.

Sotsiologiyadagi maxsus yo'nalishlar sotsial reallikni sotsiologiyaning ob'ekti sifatida qabul qilishda nazariy mushohada qilishlik va bir ob'ektning asosiy elementlarini aniqlash asosida vujudga keladi. Ayrim nazariyalar sotsiologiyaning asoschilar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lsada, ammo tadqiqot yo'nalishi sifatida XX asrning birinchi yarmida, neopozitivizm negizida yaratiladi. Maxsus yo'nalishlar sotsiologiya fanining yuz yillik taraqqiyot yo'lining maxsulidir. Yuqorida qayd etilganidek, maxsus yo'nalishlar neopozitivizm negizida shakllandi, lekin o'zining kelgusi rivojini boshqa nazariy yo'nalishlar tufayli topdi.

Nima uchun bularni bir maxsus yo'nalishlar deb ataymiz, vaholanki sotsial institutlar, shaxs va guruhlar, sotsial munosabatlar va jarayonlar boshqa fanlar tomonidan ham o'rganiladiki gap shundaki, sotsiologiya hodisalarni yaxlit ijtimoiy struktura element sifatida tadqiq qiladi, binobarin xuddi shu vaqtda boshqa ijtimoiy fanlar institutlarni, munosabatlarni va guruhlarini o'zlarining predmetidan kelib chiqib, o'z sohalari doirasida o'rganadilar, masalan, siyosatshunoslik siyosatida, psixologiya sevgi-emotsional sohada, yuridik fanlar huquq sohasida va hokozo. Ushbu fanlardan o'laroq sotsiologiyaning vazifasi — bu sotsial munosabatlar, sotsial institutlar, sotsial harakatlarning umumiy nazariyasini yaratishdir. O'z navbatida bu masalalarni o'rganish uchun sotsiologiya boshqa fanlarning tadqiqotlariga ham tayanishi kerak. Jamiyat taraqqiyotiga taalluqli ushbu muammolarni yechish masalasi ko'ndalang qo'yilar ekan, sotsiologiya tomonidan boshqa ijtimoiy fanlar uchun metodologik ahamiyatga eta bo'lgan nazariya yaratiladi.

Haqiqatdan ham ijtimoiy hodisalarning qaysi biri o'rganilmagan, ular

institutsional, sotsial munosabatlar va harakatlar shakllari, shaxs, guruh xarakteri va tafakkur tarzi nuqtai nazaridan tadqiq qilinadi. Maxsus yo'nalishlar fanining markaziy qismini tashkil qiladi, chunki u o'zini tadqiqotning boshqa barcha yo'nalishlar: fundamental, tarmog'i empirik yo'nalishlarni mujassamlashtirgan bo'ladi.

Maxsus yo'nalishlardan tashqari sotsiologiyada yana tarmoq yo'nalishlari quyidagilar; shahar sotsiologiyasi, sanoat sotsiologiyasi, oila sotsiologiyasi, deviant yoki otita hulq-atvor sotsiologiyasi, jamoatchilik fikri sotsiologiyani shakllangan. Keng rivojlangan ushbu yo'nalishlar ijtimoiy hayotni ma'lum bir tomonlari, har xil tizimchalar, tafakkurning ma'lum bir elementini o'rganish natijasida vujudga keldilar. Eng rivojlangan yo'nalishlar bu—deviant hulq-atvor sotsiologiyasi, industrial sotsiologiyasi, jamoatchilik fikri-sotsiologiyasi. Bu yo'nalishlar huquqdirlar, chunki ular XIX asr ohiri, XX asr boshlarida vujudga keldi. Masalan, deviant hulq-atvor sotsiologiyasining asoschisi E. Dyurkgeym hisoblanadi. Ilk bor u deviant hulq-atvorning turi bo'lmish o'z-o'zini o'ldirish muammosini taxlil qildi, bunda o'z-o'zini o'ldirishni psixologik patalogiya emas, balki sotsial hodisa deb e'tirof etdi. Lekin ko'pgina tarmoq yo'nalishlar XX asrning birinchi choragida, Amerikada empirik tadqiqotlar negizida shakllana boshlandi. Bu vaqtda jamoatchilik fikri, sanoat sotsiologiyalarining markazlari vujudga kela boshladi. Tarmoq yo'nalishlar empirik tadqiqotlarning keng qamrovli amaliyotining negizida shakllana boshladi, lekin ular sotsiologiyaning boshqa yo'nalishlari bilan ham bog'liqdirlar.

Tarmoq sotsiologiyasi amaliy tadqiqotlar uchun bazis bo'lib xizmat qiladi, chunki olingan ma'lumotlar asosida tashkilotlarning, korxonalarining va muassasalarning faoliyati takomillashadi. Tarmoq yo'nalishlari ijtimoiy hayotining turli tomonlarini tadqiq qila borib, xususiy va maxsus nazariyalarni rivojiga yordam beradi va shuningdek fundamental sotsiologiya rivojiga ham ta'sir ko'rsatadi. Tarmoq yo'nalishlari asosida ayirboshlash nazariyasi, referent guruhi nazariyasi, yetakchilik (lider) nazariyasi va boshqa nazariyalar yaratildi. Tarmoq yunalishlar rivoji fundamental sotsiologiya oldiga jamiyatning yahlit strukturasi turli xil ijtimoiy tizimchalarning roli va o'rni va ularni o'zaro harakatlar turlari, taraqqiyoti asoslarining masalalarini qo'yadi.

Tarmoq sotsiologiyasining maqsadi ayrim ijtimoiy strukturaning: moddiylik, ma'naviylik, mehnatning sermahsulligi nazariyasini yaratish, ishlab chiqarish, oilaviy munosabatlar va boshqalarning faoliyat ko'rsatish va rivojlanish qonunlarining to'liq tasvirini yaratishdan iborat. Tarmoq

sotsiologiyasi xuddi sotsiologiyaga o'xshab sotsial buyurtma bilan bog'liqdir, lekin juda ham bevosita emas. Shuning uchun u nisbatan mustahkamdir. Tarmoq sotsiologiyasining taraqqiyoti jamiyatning turli xil tizimchalarining rivoji, ularning tarixiy sharoitlarining turli davrlaridagi ahamiyatining kuchayishi, yangi strukturalarning paydo bo'lishi bilan chambarchas bog'liqdir.

3.SOTSILOGIYANING METODOLOGIYASI

Sotsiologiyaning metodologiyasi fundamental, maxsus, amaliy va empirik tadqiqotlar asosida vujudga keladi. U an'anaviy fanlar va ularning metodologiyasi bilan o'zaro hamkorlikda ishlab chiqiladi va bunda falsafaning bilish nazariyasining o'rni beqiyosdir. Sotsiologiya metodologiyasining bosh vazifasi—bu sotsial jarayonlarni tadqiqot prinsiplari, shakllari va metodlarini ishlab chiqishdir.

Amerikalik olim T. Kun tomonidan fanga kiritilgan «paradigma» termini sotsiologiya metodologiyasini tadqiq qilishda muhim rol o'ynadi. Paradigma deb, muallif o'zida ma'lum bir tushuncha, prinsip, yondoshuv va metodlarni mujassamlashtirgan ma'lum bir konsepsiyasini tushunadi uni fanda muammolarni hal qilishlik modeli yoki namunasi deb e'tirof etadi.

Sotsiologiya metodologiyasi taraqqiyoti tarixni turli xil paradigmalarning almashuvi, ya'ni: pozitivistik, psixoanalitik, sitsiyontistik, funksional, fenomenologik paradigmalarni deb ta'riflashsa, mubolag'a bo'lmaydi.

Funksional paradigma ssentizm tadqiq qilgan turli o'zaro aloqalarni birlashtirishga harakat qilib umumiy yondoshishni tashkil qilmoqchi bo'ladi. Funksionalizm metodologiyasi universal funksiyalar va maxsus funksiyalar tushunchalar asosida qurilib, jamiyatdagi hodisalarning ahamiyatini aniqlashga intiladi. Agarda yuqorida sanab o'tilgan metodologiya yo'nalishlar sotsial voqelikni pozitivistik tasavvur talqin qilish natijasida barpo bo'lgan bo'lsalar fenomenologiya: paradigma esa butunlay boshqacha xarakter va xususiyatga egadir.

Fenomenologiya metodologiya turli voqealarni tushunish, ahamiyat kasb qilishlik tadqiqotlarni, individlarining xarakterlarini sub'ektiv ma'nolarini o'rganadi va ishlab chiqadi. Bunda u sotsiologik jarayonlarni taxlil qilishda sub'ektiv omilga asosiy rolni ajratadi.

Funksional va fenomenologik paradigmalarda sotsiologiya metodologiyasida XX asr ikkinchi yarimida yetakchi mavqeni egallaydilar, lekin keyingi o'n yillikda yangi yo'nalishlar ham shakillanmoqdalar.

Shunday qilib hozirda sotsiologiya metodologiyasining yagona va umumiy shakli mavjud emas. Binobarin ob'ekt va muammolarni o'rganish xususiyatiga ko'ra turli xil metodologiq yo'nalishlar faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Har bir paradigma ijtimoiy hayotning ma'lum tomonlarini taxlil qilishda o'zlarining xissalarini qo'shmoqdalar, lekin jamiyat hayotini hamma tomonlarini universal qamrab oladigan metod hali yaratilganicha yo'q. Vaxolanki bunday urinishlar ko'zga tashlanyapti.

Tadqiqotlarda qo'llanadigan asosiy metodologik turlarni alohida taxlil qilib chiqishlik muhim ahamiyatga ega. Metodologiya turlarini turli mezonlar asosida ajratish mumkin. Metodologiyaning turlarga ajratishning eng keng tarqalgan mezonini bu taxlil qilish va tadbiiq qilish darajasi mezonidir. Bu mezon asosida umumiy metodologiya, maxsus metodologiya va emperik metodologiyani ajratib ko'rsatish mumkin.

Umumiy metodologiya fundamental tadqiqotlar (sotsial voqelik mohiyatini, inson borliq va madaniyat muammolari yechimi) asosida shakllanadi. U sotsial jarayonlarning bilishni yalpi prinsiplari va shakllarini ishlab chiqish, nazariy va emperik bilimlarning mohiyati umummetodologik muammolarini hal qilish, bilishning turli shakllari va metodlarining ahamiyatlarini aniqlashga intiladi.

Umummetodologik tushunchalar va prinsiplar tadqiqotlarning barcha darajalarida ishlatadilar, ya'ni ham yalpi yaxlitlik tahlili darajasida — jamiyatda, ham uning alohida sohalari va xususiy voqealar tahlili darajasida.

Yalpi metodologiya roliga o'z vaqtida naturalizim va psixologizm XX asr o'rtalarida funksionalizm va strukturalizm, keyingi o'n yilliklarda realizm da'vogarchilik qildilar. AQSH da funksionalizm o'zining yetakchi o'rnini saqlab kelmoqda va hozirda u akademik sotsiologiya deb ataladi.

Umumiy metodologiya bilan bir qatorda sotsiaologiyada maxsus metodologiya ham shakllandi. Bu metodologiya ob'ekt tadqiqotning ma'lum bir soqasiga tadbiiq qilish uchun ishlab chiqilgan maxsus metodologiya bo'lib, u sotsiologiya fanining kamroq rivojlangan sohasidir. Uning shakllanishi sotsiaologiyada maxsus va tarmoq, yo'nalishlarining rivoji bilan bevosita bog'liqdir. Jamoatchilik fikri, mehnat munosabatlari, guruh, sotsial struktura tadqiqotlarning maxsus metodologiyasi chuqurroq ishlab chiqilgan.

Maxsus metodologik yo'nalish sifatida rolilik yondoshish, statusli tahlil, qadriyatli yoki aksiologik yondoshishni, sotsiometriyani e'tirof etish mumkin. Sotsiometriya asoschisi Dj. Moreno o'zining ta'limotini umum

sotsiologik deb ta'kidlagan bo'lsa ham, ammo sotsiologiya taraqqiyoti etaplarida sotsiometriya shaxslararo munosabatni tadqiq qiladigan metod sifatida tan olindi. Amaliy tadqiqotlar aloqida metodologiyani talab qiladilar, chunki bu metodologiya nafaqat yangi bilimlarga erishish uchun, balki bu bilimlarni sotsial amaliyotda qo'llash yo'nalishlari bo'lib ham xizmat qilishi darkor.

Empirik tadqiqotlar ham o'zlari uchun alohida bir metodologiyaga ega bo'lishga erishdilar. Empirik tadqiqotlarni oddiy bir ma'lumotlar yig'ish haqidagi dastlabki tasavvurlar deb talqin qilishlik ko'pgina metodologik muammolarni hal qilishlik zarurati bilan almashadi. XX asrning birinchi choragida amerekalik olimlar Dodd, Landberg, Lazersfel'd tomonidan ishlab chiqilgan metodologik muammolar empirik tadqiqotlarning predmeti, tushunchalari muammolari yechimining harakati edi.

P.Lazersfel'd metodologiyani tadqiqotlarda foydalaniladigan metodlarning oddiy bir to'plami emas, balki tadqiqotlar metodini tanqidiy baholaydigan faoliyat deb tushunadi va bu faoliyat tushunchalar ma'nosini, nazariyalar mazmunini aniqlash darkor. P. Lazersfel'dning metodologiya tushunchasi empirik tadqiqotlarning umumiy, nazariy va konseptual masalalarni hal qilishga qaratilgan.

Tabiiy va aniq, fanlarning yutuqlarga asoslanib P. Lazersfel'd va Landberg empirik tahlilning quyidagi metodologik protseduralarini: tushunchalar interpretatsiyasi, o'poperatsionalizatsiyani ishlab chiqdilar, ular empirik tadqiqotlarning amaliyotda o'zlarining muhim o'rnini egalladilar.

Empirik tadqiqotlar metodologiyasini yaratish va ishlab chiqishda asosiy e'tiborga loyiq xizmat neopozitivizmga, aniqrog'i uning vakillari — F. Znametskiy va P. Lazersfel'dga taaluqlidir.

Umumiy, maxsus va empirik metodologiyalarni ajratib ko'rsatish ma'lum bir ma'noda shartlidir, chunki ko'pgina xususiy yo'nalishlar umumiylikka da'vo qilsalar, fundamental prinsiplar empirik tadqiqotlarga aylanadilar.

Sotsiologiya fanining ob'ektini turlicha tushunish natijasida metodologiyani uchta asosiy turi shakllanadi tushuntiruvchi, ta'riflovchi va tushunuvchi.

Tushuntiruvchi metodologiya umumiy qonunlarni yoki bo'lmasa qonun shakliga ega bo'lgan ob'ektning hislatlarni belgilaydigan mustahkam aloqa va munosabatlarni o'rnatilishini nazarda tutadi. Bu metodologiya ijtimoiy jarayonlarni qonuniyati muvofiqligini, sotsial guruh

va individlarning faoliyatini tan oluvchi yoʻnalish vakillari tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu yoʻnalishlar tomonidan ishlab chiqiladigan metodologiyaning umumiy koʻrinishi boʻlib ob'ektivizm, ya'ni voqealarni aniqlovchi ma'lum bir omilni ob'ektiv deb ajratish namayon boʻladi. Pozitivistik-naturalistik metodologiya shunday omil sifatida jamiyatning tabiiy asoslarini, psixologik metodologiya—psixologik mexanizmlarni, struktur funksionalizm yaxlit sistemaning funksiyalarini ajratib koʻrsatadi.

Tushuntiruvchi metodologiyaning diqqat markazida sababiy-oqibatli, sistemalik, funksional va ijtimoiy jarayonlarnig boshqa determinantlarining maxsus muammolari oʻrin olganlar.

Ushbu metodologiya yordamida sotsiologiyada sababiy sistemali, struktur va funksional yoʻnalishlar ishlab chiqiladi. Bu tadqiqotlar tabiiy va ani, fanlarning prinsip metodlariga tayanadi va umumiy falsafiy aniqlashliklardan foydalanadilar.

XX asrning 40-yillaridan boshlab «fanda sistemali harakat» boshlanadi va u sistemaning umumiy nazariyasini yaratish uchun turli fan vakillarini oʻzaro birlashtiradi.

Bu harakat sotsiologiyani ham chetlab oʻtmadi va unda sistemali prinsip ishlab chiqish boshlanadi. Lekin sistemali yoʻnalish gʻoyasi, jamiyatni sistemali asosda tadqiq qilish ilgariroq amalga oshirilgan edi. Ayniqsa marksizm bu muammo bilan chuqurroq shugʻullandi.

Sistemali va funksional yondoshishlar gʻoyasini amerikalik olim Parsons oʻzining sotsial harakat nazariyasida ishlab chiqqan. U sistema tushunchasini ijtimoiy yahlitlikning turli darajasidagi harakatning natijasi sifatida ishlab chiqishga intiladi. U oʻziga oʻzi savol beradi, qanday qilib yakka harakatlar bir-birlari bilan bogʻlanganlar va bu aloqalarni qanday konseptual shaklda namoyon qilish mumkin?

Bu savolga T.Parsons quyidagi javobni topali: shaxsning, madaniyatning va jamiyatning sistemali sifatlari institutsionallashtirish jarayonida namoyon boʻladi. Ayni shu institutsionalizatsiya oʻzaro harakatning uyushgan modelining koʻrinishi boʻlib, u sotsial strukturani tashkil etadi. Sistema sotsial harakat integratsiya mexanizmlari faoliyat koʻrsatishi tufayli mavjud boʻladi.

Funksional metodni yanada takomillashtirib rivojlantirgan olim bu R.Mertondir. u «disfunksiya urishbosarlik» tushunchalarini joriy etadi va buning natijasida sotsial voqealarni tahlili yanada chuqurroqlashadi.

Funksional tahlil AQSh sotsiologiyasida yetakchi metod hisoblanadi va hozirda ham uning turli yoʻnalishlari paydo boʻlayapti va rivojlanayapti.

Tasvirlash metodologiyasi sotsiologiyadagi bilishning boshqa

asoslaridan kelib chiqadi. Shunday asos deb, u tasvirlashga beriladigan empirik faktlarni hisoblaydi. Bilishning mezoni bo'lib ishonchli sezgilar, ma'lumotlarni to'liq qamrovi, qo'llanadigan empirik metodlarni xilma-xilligi xizmat qiladi. Ushbu metodologiyaning shakllanish davri

G. Spenserning faoliyatidan boshlanadi deyilsa mubolag'a bo'lmaydi. U o'zining «Sotsiologiya asoslari asarida ushbu muammolarni keng va chuqur tahlil qiladi.

Tasvirlash metodologiyasining tahlilini asosiy metodi—bu klassifikatsiya, guruhlash, taqqoslash, turlash, sistemalashtirishlardir.

Tasvirlash metodologiyasi XX asrning birinchi yarmidagi yetakchi yo'nalish bo'lib shakllanadi. Sotsiologlar ma'lumotlar yig'ish, ularning tahlili va qayta ishlashlik bilan banddirlar. Metodologiya esa empirik metodlarni, o'lchov protseduralarini to'plami deb tushuniladi.

Empirik sotsiologiyanning barq, urgan davrida tasvirlash metodologiyasi umumsotsiologik metod holatiga da'vo qiladi, lekin vaqt o'tishi bilan sotsiologik tadqiqotning ma'lum bir etapi, darajasi va empirik metodologiya sifatida e'tirof etiladi metodologiyaning uchinchi turi bo'lmish «tushunuvchi» haqida fikr yuritiladigan bo'lsa shunga yaqqol amin bo'linadiki, u ssienistik yondoshishdan o'laroq prinsiplar yondoshishlarni ishlab chiqishga harakat qiladi, ya'ni sotsial jarayonlarni tahlil qilishlikda pozitavistik-naturalistik metoddan tubdan farq qilladigan prinsiplarni shakllantirmoqchi bo'ladi.

Tushunuvchi sotsiologiya asoslarini G. Zimmel, M. Veber, fenomenologik sotsiologiya vakillari ishlab chiqishgan. Ular inson faoliyatini o'rganishda tabiiy fanlar tadqiqotchilari foydalanadigan metodologik prinsiplardan umuman foydalanmaslik zarurligini uqtiradilar, chunki inson ongli mavjudotdir. Veberning fikricha sotsiologiya individlarning anglanadigan harakatlarini o'rganadi, shuning uchun «tushunuvchi» bo'lishi lozim. Diqqat markazda kuzatilayotgan faktlar emas, balki sub'ektning ichki motivlari, maqadi harakatlarining ma'nosi turishi kerak. Bunday sharoit sotsiologiya madaniyat va insonning ruhi haqidagi haqiqiy deb hisoblanadi.

«Tushunuvchi» metodologiya individuallikni sotsiologii yondoshishni markaziy punktiga ulashga yo'naltirilgandir.

«Tushunish» sotsiologik metodologiya taraqqiyotining muhim bir davridir. Bu yo'nalish hamon taraqqiy etayapti va empirik tadqiqotlarning sotsial harakat aspektlarini qamrab oladigan: ko'plab muammolar yechimiga javob izlayapti.

«Tushuntiruvchi», «tasvirlovchi», «tushunuvchi» metodologiyalar:

sotsial voqelikni turli tomonlariga murojaat qiladilar tushuntiruvchi mustahkam aloqa va munosabatlarda ifodasini topgan qonuniyatli aloqalarga, tasvirlovchi kuzatilayotgan fiksatsiya (qayd qilish) qilinayotgan jarayonlarga, esa inson faoliyatining sub'ektiv va ma'naviy aspektlariga o'z diqqat markazlarini qaratganlar. Ularning har birlari sotsial voqelik mohiyatini sotsiologiyaning ob'ekti sifatida tushunadilar. Buning natijasida esa bir-biriga qarshi bo'lgan yo'nalish sifatida shakllanadilar va bir-birlarining yondoshish metodlarini inkor etadilar, o'z prinsiplarini ustivorligini himoya qiladilar. Keyingi o'n yillikda turli hildagi metodologik yo'nalishlarni umumiy bir metod, birlashtirishni anglash jarayoni vujudga kelmoqda. Lekin bu murakkab ishdir, chunki buning uchun umumiy nazariy asos zarur va sotsial voqelik mohiyatini, insonning sotsial borlig'ini turli xil tomonlar, shakllar muammolarni yechimini topish lozim.

Metodologiyaning muammosi bo'lib hozir ham ob'ektivlik va subektivlik muammolarining baxslari sabab bo'lib kelmoqda. Bu muammo o'ta muhim ahamiyatga ega, binobarin uni hal qilish jarayonidagi ob'ektivlik, sub'ektivlik va empirik aspektlarni keng qamrovli masalalarini oydinlashtiradi-e'tiborni shunday bir fakt o'ziga tortadiki, uzoq, vaqt davomida yetakchilik qilib kelgan «tushuntiruvchi», «tasvirlovchi metodologiyalarning ta'sirida sotsial jarayonlarni o'rganish ob'ektivizmga, ya'ni sotsial jarayonlar inson ongiga nisbatan birlamchilik pozitsiyasidadir degan aqida hukmronlik qilib keladi. Inson o'zining butun manaviy—madaniy hislatlari bilan sotsiologik taxlildan ajratib qo'yiladi. Inson muammosini qayta anglash zarurligini hozirda ko'pgina yo'nalishlar tan olmoqdalar.

Zamonaviy dinamik jamiyatda bozor mexanizmining ijtimoiy-madaniy modelini tadbiq qilish, turmush tarzi, sotsial munosabatlar va boshqaruvni tubdan o'zgartirish darkor. Bu esa aniq bashoratlar qilish, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish, zamonamizning eng aktual muammosi—«an'anaviy va «zamonaviy» turdagi jamiyatlar o'zaro hamkorligining imkoniyatini yaratishga sabab bo'ladi.

Yuqorida bildirilgan fikrlarga yakun yasab sotsiologiya metodologiyasi taraqqiyotining asosiy yo'nalishlarini quyidagicha belgilash mumkin:

1.Sotsiologik bilishning multiparadigmasini, ya'ni yagona universal metodologiyasini yaratish.

2.Ijtimoiy hayotning ijtimoiy, madaniy, ma'naviy tomonlarini bilish prinsiplarini ishlab chiqish,sub'ektivlik sohasiga chuqurroq e'tibor berish.

3.Sotsiologiyada fanning ilmiylik mezonini yaratish, turli xil tushuncha va yondashishlarni bilimning yahlit strukturasiiga birlashtirish vositalarini ishlab chiqish.

4.Empirik tadqiqotlar metodologiyasini nazariyalar yutuqlari bilan boyitish va yashirin jarayonlarni ham tadqiq qilish imkoniyatlarini izlab topish.

4. SOTSILOGIYA METODI

Agarda nazariya sotsial voqelikni tushuntirsa va uning taraqqiyotini bashorat qilsa, metodologiya bilishning umumiy strategiyasini ishlab chiqsa, metod esa bilimlarga erishish va voqelikni tubdan o'zgartirish uchun o'ziga xos bo'lgan asbob-uskuna bo'lib xizmat qiladi. Bolgariyalik sotsiolog Nikola Stefanov tanlaganidek, fan tarixida bir an'ana borki, u orqali har qanday yangi paydo bo'lgan fan avvalambor metod nuqtai nazardan baholanadi. Bu tasodif emas, chunki faning amaliyligi metod orqali namoyon bo'ladi va metod fanning yutuqlaridan amaliy foydalanishlik uchun hurmat qiladi. Metod bu ma'lum bir bilim vositalarni (fikrlashlik, predmetlik, belgichilik) konsepsial qo'lash bo'lib, uning asosiy vazifasi yangi bilimlarga erishishni ta'minlashdir. Boshqacha so'zlar bilan aytganda metod bu bilishda kerakli natijalarga erishish vositasi yoki voqelikni tubdan o'zgartirish vositasidir. Har bir metod o'zida bilib olingan qonuniyatlar, xususiyatlar va aloqalarni mujassamlashtirgan bo'lib, ular uning ob'ektiv tomonini tashqil qiladilar. Ular asosida shakllangan usul, vosita va qoidalar sub'ektiv tomon deb ataladi.

Tomonlarni ob'ektivlik va sub'ektivlika ajratish metodning mohiyati va strukturasi tushunish uchun juda muhimdir. Ob'ektiv tomon shunday nazariy asoslarni o'zida ifoda etadiki, ular fan tomonidan hozirda ishlab chiqilgan.

Ob'ektiv tomon bu nafaqat usul va qoidalardir, balkim yana tadqiqotning ma'lumoti darajasi, dunyoqarashi bo'lib, ular individual-shaxsiy alohidalik bilan ham bog'liqdirlar. Bu ikki tomon bir-birlari bilan o'zaro dialektik munosabatdadir.

Ob'ektiv tomon bilimlar sistemasida o'rnashgan bo'lib metodda to'liq realizatsiya qilinmaydi, chunki u metodga nisbat salmoqliyroqdir. Shu bilan birgalikda ushbu sistema asosida bunyod bo'lgan metod o'zining rivojlanishida albatta uning chegarasidan chiqib ketadi va uni o'zgarishiga olib keladi.

Sotsiologiyada ob'ektivlik va sub'ektivlik o'zaro harakatlari misli

ko'rilmagan murakkab xarakterga ega bo'ladi, chunki metod sub'ektni 2 ta aspektida: ham biluvchilikda, ham bilinishda ko'rib chiqadi. Bunda bilish jamiyatni tahlil qilish darajasidan, soha xususiyatlaridan (iqtisodii, siyosiy, ma'naviy), ichki tashqi voqealardan, kuzatilayotgan va kuzatilmayotgan jarayonlar bog'liqdir.

Sotsiologik metodni shakllanishidagi boshqa bir murakkablik fanning o'z-o'zini belgilash jarayonlari, uning nazariya va metodologiyalarini endi oyoqqa turishligi bilan bog'liqdir.

Nazariy va metodologik plyuralizm sharoitlarida turli xil sotsiologik metodlar shakllanadilar. Sotsiologik metod mohiyati uning boshqa fanlar metodiga nisbatan xususiyatlari masalasi ko'pgina sotsiologlar fikrini band etdi va sotsial voqelikning umumnazariy tasavvurlarini sotsiologiyaning ob'ekti sifati deb talqin qilishlik bilan hal qilinishga harakat qilinayapti.

Metod strukturasi ob'ektivlik va sub'ektivlik tomonlaridan tashqari yana tadqiqotning ob'ekti va predmeti vositalari ham mavjuddirlar. Ob'ekt haqidagi masalani qilishlik metodni qo'llash darajasi va ko'lamini belgilaydi.

Sotsiologiyada fanning to'liq yahlit ob'ektini qamrab oladigan metod ishlab chiqilgan emas, vaxolanki shunday metodni yaratish harakatlari boshlanib ketgan. O'z vaqtida pozitiv, psixoanalitik, naturalistik, empirik va boshqa yo'lishlar sotsiologiyada umumiylikka da'vogarlik qildilar, lekin vaqt o'tishi bilan ularni statuslari sotsiologiya tadqiqotlarini ma'lum bir sohasi deb e'tirof etildi.

Metodning ob'ekti ham jamiyat ham uning alohida sohalari, shuningdek ma'lum bir voqea va jarayonlar namoyon bo'lishlari mumkin.

Metodning predmeti bo'lib ob'ekt mohiyati haqidagi bilimlarga erishish uchun ma'lum bir bilish vositalari va harakatlari tartiblashtirilgan va asoslangan qo'llanishga hizmat qiladi. Bilish vositalari tushunchasiga tadqiqot vositalari (blanka, anketa, apparatura, texnik vositalar) belgilar sistemasi, tafakkurning mantiqiy shakllari va tushunchalar kiradi.

Sotsiologik metod strukturasi shuningdek qo'llashning mazmuni va maqsadi natijalarini ajratib ko'rsatish lozim. Aynan metodning mazmuni tufayli sotsial voqealikni tashkil qilish chog'ida boshqa fanlarga nisbatan sotsiologik yondashishning xususiyatlari keng ko'lamlir; namoyon bo'ladi. Metodning mazmuni sotsiologiyaning nazariy bilimlari tushunchalari va kategoriyalari yordamida belgilanadi.

Mazmun metodining ob'ekt va predmeti, uning maqsadi protseduralarning izchilligi va mantiqiy empirik ma'lumotlarni interpretatsiya qilish vositalarini belgilaydi.

U yoki bu metodning effektivligi (sermahsulligi) sotsiologiyaning nazariy metodologik asosiga bog'liqdir. Xorijiy nazariyotchilarning tadqiqotlarida shunday qarashlar mavjudki, unga muvofiq metod shakllangan uslubiyatlarning to'plami bo'lib, bu tadqiqotchining nazariyasi bilan bog'langan. Ma'lum bir ma'no va sharoitlarda sotsiologik metodning usullari va protseduralari nisbatan nazariya va metodologiyadan holi bo'lishi mumkin, lekin ularni qo'llash, natijalarini qayta ishlash tadqiqotchining konsepsiyasi, metodning nazariy modeliga bog'liqdir.

Neopozitivizmning eng muhim xizmatlaridan biri—bu eksperiment, kuzatish, hujjatlarni o'rganish va so'rov metodlarini ishlab chiqish bo'ldi. Sotsiologik tadqiqotlarning amaliyoti empirik metodlarni bilish imkoniyatlarini yuzaga chiqardi. Shu bilan birgalikda makro va mikro sotsiologiyalar shakllana boshladilar, ya'ni jamiyat hayotining tahlil qiluvchi bilimlarning turli darajalari vujudga keldi. Ushbu darajalarni munosabatlarini muvofiqlashtirish, turli xil; empirik tadqiqotlar natijalarini umumsotsiologik bilimlarga bog'lash muammolari kelib chiqdi. Bu hamma muamolarni struktur funksionalizm hal qilishga harakat qiladi.

Yangi umumiy yondashish yaratish uchun sistema-funksional maktablar sotsiologiyaning barcha yutuqlarini qaytadan qilib tahlil qilib chiqadilar, chunki harakatning umumiy analitik nazariy sistemasini yaratish sotsial voqelikni barcha turli-tumanligini qamrab olishlikni taqazo etadi.

Shuningdek ayni vaqtda, sistemalik va struktur yondashishlar vujudga keladi.

T. Parsons, R. Merton va struktur-funksional yondashishning boshqa vakillari sotsial harakatning sub'ektiv aspektlarini metodning komponenti (elementi) sifatida talqin qiladilar. Ammo umuman olganda sistemali, struktur; funksional yondashuvlar sotsial o'zaro harakatning ob'ektiv va mustaxkam shakllariga yo'naltirilgan. Shuning uchun o'zining; akademik sotsiologiya degan mavqeiga qaramasdan struktur funksionalizm umumiy, yalpi metodga da'vogarlik qila olmaydi.

Yalpi umumiy yondashishlarni sotsiologiyadagi boshqa yunalishlar ham ishlab chiqishga harakat qilganlar. Bu maqsada ular filosofiyaga, K. Marksning dialektik materializmiga Gusserlning fenomenologiyasi K. Yaspers va M. Haydeperlarning ekzistensializmiga murojaat etadilar. Shu bilan bir qatorda O. Kont, E. Dyukrgeym, M. Veber va boshqa sotsiologlarning ilmiy meroslarini qaytadan tahlil qilish jarayonlari ham sezilarli darajada kuchayadi.

Sotsiologiyadagi dialektik metod turli oqim vakilari Xorkxaymer

Fromm, Markuze, Gurvich va boshqalar tomonidan ishlab chiqilgandir. Ular sotsial jarayonlarning, empirik bilishning xususiyatlarini aks ettira oladigan dialektikaning yangi kategoriyalarini ishlab chiqishga harakat qildilar. Sotsiologiya dialektik metodi ratsionaya va irratsional, ongli va ongsiz, real va nominal, individual va ijtimoiy kabi tushunchalardan foydalangan holda sotsial jarayonlarni muhim tomonlarini tadqiq qiladi.

Sotsiologik metodning yana bir alohida hususiyati shundaki uni ob'ektivlik va subektivlik o'zaro harakati maxsus bir xarakterga ega bo'ladi. Sotsiologik metodni diqqat markazida inson va uning ham tabiiy, ham ijtimoiy olam bilan o'zaro harakatining turli shakllari yotadi. Metodlarni ob'ektivlik va sub'ektivlikka bo'lish metodologlarni shunday yondashishlarni izlashga majbur qiladiki, ular sotsial jarayonlarni ham ob'ektiv va sub'ektiv tomonlarni qamrab olishlari kerak bo'ladi.

Shunday yondashishlar deb ramziy yondashishlarni va keyingi paytlarda intensiv ishlab chiqilayotgan strukturalistik metodni e'tirof etish mumkin.

Struktura tushunchasiga nafaqat guruhlar, muassasalar, munosabatlar, ma'naviy omillar, mentalitet, tilning ma'nolik va tushunishlik aspektlari ham kiradilar. Strukturalistik metod yana insonlarning sotsial xulq-atvorini milliy-madaniy xususiyatlarini ham tahlil qiladi.

Sotsiologik metodni yana bir xususiyati uning ko'p darajaligi sotsial voqelikni qamrab olishdagi turli-tumanlik, voqealar tadqiqotida umumiylikni ta'kidlash mumkin. Fanda metodlarni nazariy va empirik jihatlarga ajratish mavjuddir. Nazariy metodlarga bilishning mantiqiy-ma'naviy tushunchaliri, tahliliy deduktiv va induktiv va boshqa shakllariga asoslangan metodlar taalluqlidir. Yana ular safiga ratsional, birlashtirish, tarixiy-genetik taqqoslash va boshqa metodlarni qo'yish mumkin.

Empirik metodlarga esa voqelikni o'rganilayotgan sohasi bilan bevosita xissiy chin muloqatda bo'lgan metodlar taalluqlidir.

Nazariy metodlar odatda sotsial voqelikni, uning tamoyillarini yaxshi qamrab olishga intiladi, umumiylik xususiyatlarini tadqiq qiladi. Empirik metodlar mikrojarayonlarni guruhlar, individlar, konkret institutlar faoliyat darajasida o'rganadi.

Sotsiologik metodlarni turlash ham muhim ahamiyatga egadir. Bu turlarning asosi bo'lib metodning muhim komponenti—mazmun xizmat qiladi. Bu asos bo'yicha fundamental, maxsus empirik metodlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Agarda tushunchalar o'zlarida sotsial voqelikni mohiyatini yaxlit mujassamlashtirsalar unda bunday metodlar sotsiologiyada fundamental metod roliga da'vogarlik qiladilar.

Keyingi o'n yillikda umumsotsiologik fundamental metod roliga fenomenologiya va realistik yondashuvlar da'vogarlik qilyaptilar. Ayniqsa realistik yondashuvlar tarafdorlari keyingi yillarda ko'payib bormoqdalar. Realistik yondoshuvning mohiyati quyidagicha. Sotsiologiya fanining ob'ekti bo'lib rang-barang omillar xizmat qiladilar, ularni esa bir-birlaridan farqlash zarurdir. Masalan insonning harakatlari, intilishlari, rejalari va boshqa omillardir. Buning uchun esa reallik, haqiqiylik va empiriklikni ajratib olish kerak.

Maxsus metodlar deb ijtimoiy hayotni o'rganishda va uni tubdan o'zgartirishda qo'llanilayotgan metodlar aytilali. Amaliy sotsiologiya va tarmoq yo'nalishlarning shakllanish jarayonlarida maxsus sotsiologik metodlar yaratiladi. Ular ijtimoiy: aniq, bir sohasiga yo'naltirilgan bo'lib, ma'lum bir muammolar tadqiq qiladilar. Turli xil nazariy-metodologik yo'nalishlar doirasida insonning hulq-atvori guruh, ma'lum bir instituti hokimiyat, boshqaruv, oila, sotsial munosabatlar: konflikt birdamlik va boshqalar va boshqalarni tadqiq qiladigan metodlar ishlab chiqilyapti.

Amaliy tadqiqotlar metodining markaziy muammosi nazariy va empirik bilimlarni konkret, hammabop qismlarga aylantirish va ularni sotsial mexanizmida qo'llash muammosini Sotsiologiya fanining muhim bir metodi bo'lib empir metodlar namoyon bo'ladilar. Empirik sotsiologik metod bu sotsial faktorlarni belgilash dastlabki sotsiolog ma'lumotlarni olishdir. Metodika esa metodlar to'plami bo'lib undan ushbu tadqiqotlarda foydalaniladi. Texnika ee tadqiqotlarda empirik metodlardan unumli foydalanish usulidir. Empirik metodlarni sotsiologik ma'lumotlar yig'ish metodi, qayta ishlash va tahlil qilish metodlariga ajratish mumkin. Ularning birinchisiga so'rov, kuzatish xujjatlarni o'rganish, eksperiment taalluqli bo'lib, ularning har biri o'zining ob'ektiga ega va jarayonlarning ma'lum tomonini o'rganishga qaratilgan, so'rov metodining diqqat markazida insonlarning qarashlari, motivlari, ya'ni sub'ektivlign namoyon bo'lsa, kuzatuv ko'proq, insonlar xulq- atvorini, xujjatlarni o'rganish metodi esa voqealarning guvohlanganligini qayd qilinganligi bilan qiziqadi. Va nihoyat eksperimental metod jarayonni yaxlit tahlil voqealarning chuqur aloqadorligini yuzaga chiqaradi.

Empirik metodlar empirik voqelikni bevosita o'rgansa ham ammo lekin metod mazmuni uning tadqiqotdagi o'rni, shuningdek natijalar tadqiqotchinnng nazariy pozitsiyasi, tadqiqot konsepsiyasi bilan belgilanadi.

Empirik metodlarda formal va mazmunli tomonlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Formal tomon ma'lum bir standartlashtirilgan usullarni:

savollar tuzishni, yozma yoki og'zaki anketa o'tkazishni, olingan ma'lumotlarni qayta ishlash to'plamini ifoda etadi. Lekin metodning mazmunli tomoni tadqiqotchining nazariy dunyoqarash va boshqa qarashlari bilan bogliqdir. Masalan, neopozitivizm individ xulq-atvorini sotsiologiya fanining predmeti deb hisoblab uni o'rganish negizida sotsial o'zaro harakat nazariyasini yaratishga harakat qiladi. Shuning uchun bu yo'nalish asosiy metod sifatida kuzatish metodini e'tirof etadi. Fenomenologik sotsiologiya esa sotsiologiyaning predmeti sifatida mental jarayonlarini tan olib, neopozitivizm ishlab chiqqan empirik metodlarni tanqid qiladi. Eng mos keladigan empirik metod deb, bu yo'nalish kuzatishlarida ishtirok etish, laboratoriyadagi sharoitda eksperiment va tasmaga (plyonka) yozib olingan nutqiy o'zaro harakat tahlilini hisoblaydi. Shunday qilib nazariy baxslar o'z ifodalarini empirik metodlarda namoyon qiladilar. Empirik metodlar doimiy ravishda rivojlanyaltilar, yangi nazariyalar negizida yangi empirik metodlar vujudga kelmoqdalar.

Empirik tadqiqotlar o'tkazish natijasida so'rov, kuzatuv, eksperiment va xujjatlarni o'rganish metodlarini qo'llash tufayli turli jarayonlarning xislatlari, strukturasi va munosabatlari haqida empirik ma'lumotlar to'planadi. Bu ma'lumotlarni taxlil qilish uchun matematik va statistik metodlar majmuasi ishlatiladi. Bunda hal qiluvchi rol gruppalash, regressiv, korrelyatsion, faktorli tahlillar, shkala metodi va boshqalarga taalluqlidir.

Matematik metodlar sotsiologiya faniga shiddat bilan kirib kelmoqda. Lekin ularning qo'llanishi bilan bog'liq bo'lgan ayrim muammolar ham paydo bo'lmoqda. M. Kendal sotsial ob'ektning matematik tasavvurini 2 xil ko'rinishdagi qiyinchiliklarini ajratib ko'rsatadi. Birinchi to'plamlik muammosidir, ya'ni voqealarda ko'plab komponentlar (qismlar) ishtirok etadi va ularning qaysi birlari shu voqeaga taalluqlidir va qaysi bir boshqasi bu voqea bilan vaqtinchalik bog'liq. Ikkinchisi birlashtirish muammosi bo'lib, unda sotsial sistemaning qaysi bir elementini asosi deb hisoblashimiz kerak. Buni yechimini topish juda mushkuldir.

Lekin shunga qaramay matematik vositalarni sotsiologiyadagi o'rni va miqdori salmoqlidir, hozirgi sotsiologiyada butun bir yo'nalish matematik metodlarini qo'llash masalasini ishlab chiqayapti. Matematik metodlarni qo'llash natijasida sotsiologiyada quyidagi masalalar hal etiladi: tanlash (viborka) hisobi, olingan ma'lumotlar taxlili, modellashtirish va o'lchov. Ushbu masalalar sotsiologiyadagi matematik metodlarni qo'llashning dolzarb muammolari deb tan olinadi.

Shunday qilib sotsiologik metod haqidagi fikrlarga yakun yasab

xulosa chiqarish mumkinki, bu soha muammolari sotsiologiyada muhim o‘rin tutadi. Ularning takomillashib, rivojlanib borishi ijtimoiy hayotning turli tomonlarini ham yaxlit, ham alohida ilmiy tahlil qilishlik ma‘lum bir muammolarni yechishga amaliy tavsiyalar berish mumkin.

II BOB. SOTSILOGIYADA MAXSUS YO‘NALISHLAR

1.SHAXS

O‘zbekiston o‘z mustaqilligiga erishgach ijtimoiy fanlar oldiga shu sohaning har biri dolzarb hisoblangan mavzularni yangicha yondashuv asosida ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek sotsiologiya fanida shaxsni o‘rganish shu fanning asosiy maqsadi va vazifalarini belgilashni asosini tashkil qiladi.

Sotsiologiya fanida shaxs ijtimoiy munosabatlarning majmui, ya'ni jamiyat mahsuli sifatida o‘rganiladi. Shu sababli shaxs tushunchasi sotsiologiya fanining ob'ekti va sub'ekti sifatida shu fanning asosiy markazida bo‘ladi. Individ sifatida namoyon bo‘lgan mavjudot ijtimoiy muhit ta'siri shaxs sifatida shakllanadi. Individning jamiyat bilan o‘zaro munosabati uni ma'lum bir sotsial jamoa vakiliga aylantiruvchi turli guruhlar. Bu munosabatni amalga oshirishda muloqat asosiy rol o‘ynaydi, sotsial guruhlar orqali amalga oshadi. Chunki muloqat shaxsning asosiy ijtimoiy munosabatlar sistemasida nazariy va amaliy bilimlarni egallashida uning shu sistemadagi o‘zining maqomiga ega bo‘lishida, faoliyati jarayonida va kundalik turmush tarzida asos sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birgalikda shaxs muloqat orqali o‘zining shaxs sifatida shakllanganligini va boshqa shaxslarning ijtimoiy muhitining haqiqiy sub'ekti yoki uning ijrochisi sifatida shakllangani to‘grisida tushunchaga ega bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli shaxs jamiyatdagi barcha munosabatlarning shakllanishi va sotsial dinamik xarakterini belgilashda asos bo‘lib xizmat qiladi.

Demak shaxs kishining hayot kechirish sharoitlarida sotsial guruhlar, sotsial institutlar, sotsial tashkilotlar ta'sirida faoliyat jarayonida shakllanadi. Shaxsning shakllanishida guruhlar va jamoalar yetakchi rol o‘ynaydi. Shaxsning shakllanishi birinchidan uning rivojlanish davri va natijasi, ikkinchidan shaxsni maqsadga yo‘naltirilgan tarbiyalanishidan iboratdir. Shaxsning rivojlanishini faoliyatida o‘zgarib turuvchi ehtiyojlari bilan ular qondirishning imkoniyatlari o‘rtasidagi ziddiyatlarlar aniqlanadi. Shaxs konkret sotsial munosabatlar sub'ekti sifat namoyon bo‘lishi inobatga olinadigan bo‘lsa, shaxsning sotsial sifatleri konkret sotsial guruhlar, jamoalar va munosabatidan tarkib topadi. Shu sababli shaxsning

sifatlari uchta kichik sistemadan iboratdir: shaxsiy individualligi, uning shaxslararo munosabatlari va munosabatlar sub'ekti sifatida mavjud bo'lishi.

Shaxsning individualligi undagi xarakter, iroda, dunyoqarash, faoliyat jarayonidagi ba'zi bir xususiyatlar bilan belgilanadi. Undagi individual xususiyatlar uning amaliy faoliyatida namoyon bo'ladi.

Individual xususiyatlar amaliy faoliyatlar jarayonida tashkilotchilik va boshqaruvda shu faoliyatni asosiy xarakterini belgilaydi. Bu xususiyat ob'ektdagi sotsial muammolarni hal qilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Sotsiologik tadqiqotlar natijasini ichki yoki tashqi kuzatish metodlar orqali uning individual xususiyatini bilish shaxsning ijtimoiy faoliyat jarayonidagi rolini belgilaydi.

Shaxsning shaxslararo munosabati shu munosabatlar sistemasini elementlaridan biri ekanligini bildiradi. Shaxslararo munosabat shaxsning rivojlanishini uning komili sifatida tarkib topishini asosi sifatida xizmat qiladi. Shu sababli shaxsning shaxslararo munosabatlar shaxsda insoniylik, poklik, rostgo'ylik, samimiylik kabi xislatlarni shakllanishida va takomillashib borishida alohida o'rin tutadi.

Shaxsning ijtimoiy munosabatlar sub'ekti sifatida mavjud bo'lishi uning shu munosabatlardagi sub'ekt sifatidagi maqomini belgilaydi.

Shaxs ma'lum sotsial xususiyatli hodisalarning oqibatiga emas, balki sababi hamdir. Jamiyatning tarixiy shakllangan turining iqtisodiy, siyosiy, ideologik va sotsial sifatleri o'zgaradi va turlicha namoyon bo'ladi har bir shaxsning sotsial sifatleri, uning amaliy faoliyatining mazmun va xarakterini belgilaydi. Aynan faoliyat jarayonida kishi atrofidagi muhitning o'ziga xos xususiyatlarini ishlab chiqadi. Sotsial xususiyatlar shaxsning ichki holati ta'sirida uning faoliyatida o'rab turgan voqealikka mavqeyi munosabat sifatida namoyon bo'ladi. Sotsial xususiyatlar bu ma'lum sotsial muhit sharoitlarida individlar orasidagi o'zaro ta'sirlar jarayonida yuzaga kelgan aloqalar sistemasidir. Shaxsning sotsial xususiyati kishining faoliyati va xatti-harakatida, uning sotsial sifati shaklida namoyon bo'ladi. Shaxsning sotsial sifati o'zida ma'lum tarzda o'zaro bog'liq va shaxsning boshqa odamlar bilan konkret tarixiy sharoitlarda ma'lum tarzda shartlangan elementlari majmuasini namoyon qiladi. Shaxsning sotsial sifatlarini tashkil qiluvchi elementlarga, shaxs faoliyatining sotsial belgilangan maqsadi: o'z faoliyati jarayonida amal qiluvchi norma va qadriyatlar; foydalanadigan belgilar sistemasi; o'z rolini bajarish va tashqi dunyoga nisbatan erkin harakat qilishi uchun yordam beruvchi bilimlar majmuasi: bilim va qaror qabul qilishida mustaqillik darajasi kiradi.

U yoki bu sotsial jamoaga kiruvchi shaxslar takrorlanuvchi, mohiyatli sotsial sifatlari majmuasini umumlashgan aksi «shaxsning sotsial turi» tushunchasida ifodalanadi, har bir odam shaxsiy fikr va maqsadlariga roya : tuyg'ulariga ega. Bu individual hislatlar uning xatti-harakat mazmuni va xarakterini belgilaydi. Individ tushunchasi orqali odatda u yoki bu sotsial jamoaning yakka vakili va faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari bu tushuicha tarkibiga kirmaydi. Shaxs esa inson mohiyatining konkret ifodasi bo'lib, ma'lum jamiyatning sotsial munosabat va sotsial xususiyatlarini ma'lum tarzda amalga oshirilgan umumlashmisidir. Sotsiolog uchun shaxsning faqatgina individual emas, balki ularni faoliyat jarayonidagi harakatida namoyon bo'ladigan sotsial hislatlar ahamiyat kasb etadi. Sotsiolognk tadqiqotlar ob'ekti bo'lib alohida shaxslarning manfaat va munosabatlari emas balki o'xshash sotsial karakteristikali, o'z faoliyatlarini; ob'ektiv sharoitlarda amalga oshiruvchi kishilarning manfaat va munosabatlari, ularning konkret tarixiy sharoitlarda namoyon bo'ladigan manfaat va munosabatlari xizmat qiladi.

Shaxs manfaati bu individ faoliyatining u yoki bu ehtiyojni qondirish bilan bog'liq yo'nalganligidir. Manfaat shaxsni mavjud sharoitda hayot shaklini o'zgartirish yoki saqlash uchun kurashishga undovchi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Manfaatlari asosida kishilarning ehtiyojlari yotadi. Ular sotsial qonunlar talablarini ifodalaydi, buning natijasida: ehtiyojni anglashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Bundan tashqari manfaatlar shakllanishi bosqichida ma'lum sharoitlarda ularni amalga oshirishning yo'l va usullarini tanlash aniqlanadi. Sotsial qonunlar manfaatlar orqali shaxs faoliyati jarayonidagi harakatida aks etadi. Manfaatning to'rt turi farqlanadi. Munosabat manfaat shaxsning faoliyati jarayonida u yoki bu ob'ektdagi voqea va hodisalarga nisbatan qiziquvchanligini anglatadi. Munosabat manfaat shaxsda shu voqealikka nisbatan e'tiqodini shakllanishidan paydo bo'ladi. Shu sababli munosabat manfaat ijtimoiy munosabatlar sistemasida muhim o'rin tutadi. Munosabat manfaat shaxsda shakllanganligiga ko'ra ikki ko'rinishida farqlanadi. Birinchisi asosiy munosabat manfaat bu shaxsning hayot faoliyati jarayonida maqsad va vazifasini belgilab olib qilgan harakatlarini o'z ichiga oladi. Ikkinchisi yordamchi yoki ikkinchi darajadagi munosabat manfaat. Bu shaxsning faoliyati jarayonida o'zining maqsad va vazifalarni belgilab olib qilgan harakatidan tashqarida yoki undagi boshqa voqelikka qiziqishini bildiradigan manfaat.

Haraqat manfaat shaxsning u yoki bu faoliyat sohasida qatnashishida namoyon bo'ladigan manfaat. Bu manfaat shaxsning faoliyat jarayonini

aktivligi yoki passivligini bildiradi. Shuningdek harakat manfaat maqsadli va maqsadsiz bo'lishi mumkin. Maqsadli jamiyatda shaxsning ma'lum bir oliy maksadni o'z oldiga qo'yib qilgan harakati. Maqsadsiz o'z boshlang'ich faoliyati bilan cheklanib qolgan va tor doiradagi harakat manfaati.

Tayanch manfaat shaxsning boshqa shaxslar, guruhlar bilan uzoq, sotsial ta'sirlashuv jarayonida shakllangan va turli vaziyatlarda o'z yo'nalishini saqlab qolgan manfaat. Shaxsda manfaatning bu turi shaxslararo, guruhlararo munosabatlarda ma'lum bir faoliyatda yoki ijtimoiy munosabatlarda shakllanadi va sotsial dinamik xususiyatga ega bo'ladi. Tayanch manfaat shaxsning sotsial faoliyatini dinamikasini asosini tashkil qiladi. Shu bilan birgalikda tayanch manfaat shaxsda o'z faoliyati va harakatiga nisbatan kuchli ehtiyojni shakllanishida muhim ahamiyatga egadir. Tayanch manfaat shaxsda o'zining imkoniyatlarini yuzaga chiqarishda, unda stereotiplarni shakllanishida asos bo'lib xizmat qiladi.

Yo'nalish manfaat, manfaatlar ichida juda murakabi hisoblanadi chunki shaxs manfaatlaridan birini tanlashi shu manfaatga bog'liqdir. Manfaatlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq, ularni alohida-alohida ajratib bo'lmaydi shu sababli yo'nalish manfaat shaxsdan manfaatlardan o'zining imkoniyatlari va darajasiga qarab birini ya'ni o'zi uchun muhimini tanlashni talab qiladi. Shaxs manfaatlari ma'lum bir ijtimoiy muhitda shakllanadi va sotsial dinamik xususiyatga ega bo'ladi. Ijtimoiy muhitning o'zgarishi shaxsdan o'z manfaatlarini o'zgartirishni talab qiladi.

Shaxs o'z manfaatlarini yaigi sotsial vaziyatda o'zgartira olmaydigan holatlarda uni o'zgartirishga majbur qiladigan sotsial adaptatsiya mexanizmi ishga tushadi. Sotsial adaptatsiya mexanizmlari shaxsda o'zgargan sharoitga shaxsiy munosabatini shakllantirish imkonini beradi va shu bilan birga shaxs faoliyati natijasida kelib chiqadigan keskinlikni yumshatish imkonini beradi.

Shaxs strukturasi muhim tashkil etuvchilari xotira, madaniyat va faoliyatdir. Xotira — bu shaxs hayot yo'li jarayonida o'zlashtirgan nazariy va amaliy bilimlar sistemasidir. Bu tushuncha mazmuni voqelikni ham, ilmiy bilim qam, amaliy bilishning ma'lum sistemasi sifatida aks etgirishini tashkil etadi. Shaxsda bilim oldiga qo'ygan maqsadlari xarakteriga ko'ra shakllanishidir. Shu sababli shaxsda bilishning shakllanish uning faoliyati jarayonida shu faoliyatni maqsad va vazifalarini to'g'ri tushunib yetishga, ongli tarzda yondashuvga o'zi faoliyatda bo'layotgan ob'ektdagi sotsial muammolarni; yetishiga faoliyat darajasini ob'ekt talabidan kelib chiqib shakllantirishida asos bo'lib xizmat qiladi. Shaxsning madaniyati uning

faoliyati jarayonida amal qiladigan sotsial norma va qadriyatlar majmuasni ifodalaydi. Madaniyat tarixiy bosqichlarda sotsial guruhlarining harakatlari natijasida faoliyat jarayonida shakllanadi. Uning xarakterli xususiyati aynan ob'ektga tegishlilikidir ya'ni har bir jamiyat madaniyatiga ega bo'lishidir. Uning asosini norma va qadriyatlar tashkil qiladi. Faoliyat sub'sktning ob'ektga maqsadli ta'siridir. U doimo sub'ekt aktivligi bilan bog'liqdir. Faoldiyat shaxsning sotsial xatti-harakatini belgilaydi va madaniyat bilan chambarchas bog'liqdir. Shu bilan birga ular shaxsning ehtiyoji va manfaatlarini orqali baholanadi va unda qoniqish hissini paydo qiladi. qoniqmaslik sharoitlarni o'zgartirishga va ularni ehtiyojlariga moslashtirishga intilayotgan shaxs faoliyatini belgilaydi. Faoliyat, ham ob'ektiv, ham sub'ektiv xarakter kasb etadi. Ob'ektiv o'zida maqsadlar majmuasini, ijtimoiy taraqqiyot manfaat va ehtiyojlarini ifodalaydi. Ular jamoalar tomonidan amalga oshiriladi. Sub'ektiv xakteri shaxs manfaatlarini va maqsadlarini majmuasidnr. qadriyatlarni; anglash va o'zlashtirish shaxs ehtiyojlarining oliy darajasidir qadriyatli yo'nalish faoliyat shartini shakllantiradi, natijada uning sotsial harakati yo'nalishini belgilaydi. Inson intiladigan qadriyatlar, ko'pincha unga shunchalik qadrliki, u uchun inson har qanday qarshilikka qarshi kurashishi mumkin. Bunday qadriyatlarga erkinlik, tenglik, haqiqat va boshqalar misol bo'ladi. Ular ham ijtimoiy, ham shaxsiy hayotda haqiqiy kuch sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli, ma'lum jamiyatda qabul qilingan norma va qadriyatlar asosida yuzaga kelgan shaxsiy munosabatlar sotsial munosabatlarni yuzaga keltiradi. Sotsial munosabatlarning shaxslararo munosabatda yuzaga kelishi jamiyatdagi barcha tizimlarning shakllanishi va ularni rivojlanib borishini ta'minlaydi. Shaxs sotsial munosabatlarni sub'ekti sifatida uning asosiy xarakterli xususiyatini belgilaydi. Shu sababli jamiyatdagi munosabatlar individual va sotsial munosabatga farqlanadi. Individual munosabat aynan shaxsning jamiyatdagi barcha sotsial munosabatlarga nisbat shakllangan qarashlarni asosini tashkil qiladi.

Shaxslarning o'zaro ta'sir jarayonida faqatgina mavjud sotsial munosabatlarni amalga oshiribgina qolmay, balki munosabatlarni ham yuzaga keltiradi. Shaxslarning individual munosabatlarini, sotsial munosabatlardan ajratib tushunib bo'lmaydi. Individual munosabatlarga sotsiaya sistema ta'siri xakteri bilan bog'liqdir. Shaxslarning jamiyat faoliyatining turli darajalarida shakllanadigan sotsial munosabatlarida jamiyat taraqqiyotining ob'ektiv sotsial qonuniyatlari u yoki bu darajada namoyon bo'ladi, har bir odam u yoki bu tarzda turli darajadagi sotsial sistemalarning shakllanishida ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida odamlar

doimo bir faoliyat sohasida o'zlashtirilgan qadriyat, norma talablari bilan boshqa sohadagi talablar bilan muvofiqlashtirish zaruriyatiga duch kelishadi. Ma'lum muhitda qabul qilingan norma va qadriyatlar boshqa muhitga to'g'ri kelmaydi.

Jamiyatda shaxs sotsial tarixiy qadriyat sifatida ko'rinishi va uning elementlari esa doimo rivojlanish, o'zaro ta'sirida bo'lib, sistema tashkil etishi mumkin. Bu elementlarning o'zaro ta'siri. E'tiqod shaxsning o'zining faoliyati va harakatlari ijtimoiy munosabatlar sistemasida shakllangan tizimlarga nisbatan munosabatlarini bildiradi. Aynan shaxsda e'tiqodni shakllanganlik darajasi sotsiologik tadqiqotlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki shaxsda shakllangan e'tiqodning darajasiga qarab uning faoliyat jarayonidagi harakatlari maqsadi va vazifalarini bilish. Empirik sotsiologik tadqiqotlarning ob'ektivligini bildiradi, uning natijasi e'tiqod shakllanadi. Shaxs e'tiqodi yordamida o'zining sotsial xususiyatlarini namoyon qiladi.

Jamiyat va shaxs maqsadlari orasidagi bog'lovchi u yoki bu sotsial sistema bo'lishi mumkin. Shaxsning jamiyatga, sotsial jamoalarning turli tiplariga madaniyat elementlari, sotsial norma va qadriyatlarni o'zlashtirish orqali sodir bo'ladigan jarayon ijtimoiylashuv deb ataladi. Individning sotsial tashkilot elementi bo'lishi qay tarzda ro'y berishdan, bir tomondan, sotsial tashkilotning shaxsga ta'sir etishi qobiliyatshu shakllanishi, ikkinchi tomondan shaxsning boshqa odamlar ta'siriga berilishi qobiliyatini shakllanishiga bog'liqdir.

Shaxs ijtimoiylashuv jarayonini ikki bosqichga: yani sotsial adaptatsiya va sotsial interiorizatsiyaga ajratish mumkin. Birinchisi, individning sotsial sharoitlarga, funksiyalarga, sotsial normalarga, sotsial guruhlarga, tashkilot va institutlarga, ya'ni muhitga moslashishdir. Sotsial adaptatsiya jarayoni asosan oiladan boshlanadi va shakllanadi. Oiladagi har qanday munosabatlar shaxsning ijtimoiylashuv jarayonida o'z aksini topadi. Shu sababali individning shaxs sifatida shakllanishda oila asosiy rol o'ynaydi. Ikkinchisi, sotsial norma va qadriyatlarning individning ichki dunyosiga kirishish jarayonidir. Shaxs sotsial muhitga qorishib ketmaydi, balki unta mustaqil birlik sifatida kiradi, ko'pgina nazariyalarda shaxsning ijtimoiylashuvi, tashqi ta'sir ob'ekti sifatidagina qaraladi. Bu nazariyalarda asos qilib faqatgina ijtimoiylashuv yordamida sotsial o'zgaradigan insonning tabiiy mohiyati olinadi; shaxsning aktivligi va unga beriladigan biologik; xususiyatlar hisobga olinmaydi. Ijtimoiylashuv shunga asoslanadiki, odam ijtimoiy faoliyatchi sifatida o'zining ham, ijtimoiy hayotning, ham sharoit va vaziyatlarini belgilovchi omildir. Shaxs —

sotsial ta'sirlanishning ob'ekti va sub'ektidir. Ijtimoiylashuv jarayonida belgilar sistemasi muhim ahamiyatga ega. Belgilar yordamida jamiyat individlar faoliyatini boshqaradi. Individ sotsial faoliyat ko'rsatishi uchun sotsial jamoada qabul qilingan belgilar va ularni, ishlatish usullarini o'zlashtirgan bo'lishi kerak. Individ faoliyat qiluvchi mavjudotdir. U tashqi muhitga shunchaki javob bermaydi, balki amaliy faoliyat jarayonida ham tashqi muhitning ob'ektiv qonuniyatlarini, ham inson sifatidagi o'zining taraqqiyot va faoliyati qonuniyatlarini anglaydi va bu anglash asosida o'zining sotsial faoliyatini belgilaydi. Shaxs tomonidan o'zining faoliyatini boshqarish faqat ob'ektiv va sub'ektiv qonuniyatlarni bilishgina emas, balki shu qonuniyatlarni elementlarning ma'lum sharoitdagi shakl va xususiyatlarini ham bilishni taqozo qiladi.

Shaxslarning sotsial faoliyati va sotsial harakatining boshlang'ich nuqtasi ma'lum ehtiyoj va manfaatlarni yuzaga, keltiruvchi ob'ektiv hayot sharoitlaridir. Faoliyat turlari ko'pginadir, lekin eng muhimi ularning barchasi shaxsning moddii va ma'naviy asosini tashkil qiluvchi, ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, ehtiyojlar shaxsning tashqi muhitga ob'ektiv bog'liqligini bildiradi. Shu sababli shaxsning amaliy faoliyati ehtiyojlarni qondirish shakli sifatida chiqarilishi, ob'ektiv sharoitlarni intiqosi va ularni qondirishni real imkoniyatlarini anglash sifatida qaralishi mumkin, ehtiyojlarni ikki ko'rinishi farqlanadi: tabiiy va jamiyat tomonidan paydo qilingan ehtiyojlar. Tabiiy ehtiyojlar sifatida kishilarning kundalik ehtiyojlari: ovqat, kiyim, turar joy va boshqalar tushuniladi. Sotsial ehtiyojlar esa odamning mehnat qilish ehtiyoji, sotsial aktivlikdagi, ruhiy madaniyatdagi, ya'ni nima ijtimoiy hayot maxsuli shunga bo'lgan ehtiyojidir. Tabiiy ehtiyojlar asos bo'lib, ularda sotsial ehtiyojlar paydo bo'ladi, rivojlanadi va qoniqtiriladi.

2. GURUH SOTSILOGIYASI

Kishilar o'z hayot faoliyatlari davomida birlashadigan guruhlar, masalasi nafaqat sotsial psixologiyasi fanining, balki sotsiologiyaning ham muhim masalasi bo'lib hisoblanadi. Ijtimoiy munosabatlar asosan sotsial guruhlar o'rtasidagi munosabatlarda namoyon bo'ladi. Kishilik jamiyatida nihoyatda ko'p turli-tuman jamoalar, uyushmalar, birliklar, tashkilotlar mavjud. Inson butun hayoti davomida goh ehtiyojlikdan, goh manfaat yuzasidan, ba'zan majburiylikdan, ba'zan o'zi xohlamagan holatda yuqorida ta'kidlangan guruhlarga a'zo bo'ladi va ularning vakili bo'lib qoladi. Mana shu kishilik jamoalarini qandaydir mezon (belgi, xususiyat) bilan nisbatan ma'lum guruhlarga ajratish — sotsiologik tahlilning g'oyat

muhim va jiddiy masalasidir. Oldindan shuni qayd qilib o'tish lozimki, garchi «sotsial guruh» termini sotsial tadqiqotlarda keng ko'lamda qo'llanilsa ham, lekin sotsiologik tushunchalar kategoriyasiga muvofiq keladigan maqomiga va nazariy asosiga ega emas. Bu tushuncha ijtimoiy fanlar doirasida yaqqol kategorik xususiyatga ega va ijtimoiy munosabatlardagi o'ziga hos sub'ektni aniqlash uchun ishlatiladi. «Guruh» tushunchasi ijtimoiy fanlar orasida 2 ta ma'noga ega. Bir tomondan, u biror bir umumiy belgilariga qarab kishilarni ma'lum toifalarga ajratilganda qo'llaniladi (ko'pincha statistikada, demografiyada). Ba'zan bu ma'noda «guruh» termini psixologiya fanida ham ishlatiladi. Masalan, test sinovlari natijalariga qarab, kishilarni u yoki bu guruhlarga ajratish mumkin.

Ikkinchi tomondan, hamma ijtimoiy fanlar doirasida guruh deganda, real mavjud kishilar birligi tushuniladi. Bu holatda odamlar umumiy belgilar, faoliyatlarining xilma-xilligi yoki biror shart, holatlar bilan birlashadilar va ma'lum ma'noda o'zlarini mavjud birlik vakili ekanliklarini his qiladilar. Masalan, talaba o'zini talabalar guruhining a'zosi sifatida his qiladi.

Ilmiy adabiyot bilan tanishish «sotsial guruh» terminini, birinchidan, juda keng qo'llanilayotganligini, ikkinchidan turli hodisalarga nisbatan ishlatilayotganligini ko'rsatayapti, qaysi nuqtai nazardan qarashlaridan qat'iy nazar, konkret ijtimoiy fan vakillari guruhlarni sotsial-iqtisodiy, sotsial-demografik, sotsial psixologik va boshqa guruhlarga ajratadilar.

Sotsial guruh tushunchasiga bu kabi yondoshuv terminlar lug'atida ko'p xillikka olib keladi, hamda «sotsial guruh» tushunchasining o'zini ham noaniq tahlil qilinishiga sabab bo'ladi.

Hozirgi unda bu termin sotsiologiya va sotsial psixologiyada keng qo'llanilmoqda. Lekin bu kategoriyaning nazariy tahliliga, uni boshqa sotsiologik tushunchalar bilan munosabatiga doir maxsus ilmiy ishlar yo'q hisobi. Ko'p sotsiologlar tomonidan «sotsial guruh»ga berilgan ta'riflar bir-biridan farq qiladi. Masalan, jamiyat sinfiy tarkibi o'rganilayotganda, sotsial guruhni sinflar strukturasi element sifatida (sinflar-tabaqalar-guruhlar), sotsial strukturani tahlil qilish chog'ida esa, bu tushunchani keng ma'noda, sinflar tushunchasi bilan bir ma'noda ishlatishadi.

Mana shulardan kelib chiqib, quyidagi vazifalarni hal qilish kerak:

Birinchidan, «sotsial guruh» tushunchasini, uni shakllantiradigan holatlarini, uning chegarasini, uni qo'llash imkoniyatini belgilaydigan nazariya sotsiologik asoslarni keltirish;

Ikkinchidan, tushunchaning aynan o'zini aniq ifoda qilish;

Uchinchidan, «sotsial guruh» tushunchasini unga yaqin bo'lgan

jamiyat sotsial strukturasi ifodalaydigan tushunchalar sistemasi («sotsial birlik», «sinf», «sotsial tashkilot», sotsial to'plam») bilan birga qarash kerak, chunki har qanday tushuncha butunlik doirasidagina natija berishi mumkin.

Hamma ilmiy terminlar singari «sotsial guruh» tushunchasi ham konkret tarixiy realikka to'g'ri keladigan va uning muhim ahamiyatli xususiyatlarini aks ettiradigan nazariy, umumiy va mavhum tushunchadir. «Sotsial guruh» tushunchasining aniqlahning mushkul tomoni shundaki, real hayotda konkret sotsial guruhlar o'zining tarixiy rivojlanish davomida paydo bo'ladigan, o'zgaradigan va barham topadigan individual xususiyatlarga ega bo'lgan omma bilan murakkab birlikni namoyon qiladi. Bundan tashqari voqelikda hech bir sotsial guruh boshqalardan ajralgan holda o'z-o'zidai mavjud bo'lmaydi. Ular boshqa sotsial guruhlar bilan o'zaro munosabatda bo'lib, bir-birlariga sezilarli ta'sir o'tkazib turadilar. Mana shular «sotsial guruh» tushunchasini ta'riflashda muayyan qiyinchilik tug'diradi.

Bizga ma'lumki, sotsiologiya fanining predmeti bo'lib kishilarning ijtimoiy munosabatlari hisoblanadi. «Sotsial guruh» tushunchasi ijtimoiy munosabatlar sub'ektini (jamiyat-guruh-shaxs) aniqlashga xizmat qiladigan umumsotsiologik tushunchalar tarkibiga kiradi. Bu uchlikda, ya'ni jamiyat-guruh-shaxs munosabatida sotsial guruh «sintez qiladigan» tushuncha hisoblanadi. Alohida individ jamiyatga «qo'shilishi» uchun, eng avvalo jamiyatdan ajralishi, individual xususiyatlardan tashqari, o'zida sotsial xususiyatlarni shakllantirishi, aniqroq aytganda, har xil sotsial guruhdarga a'zo bo'lishi kerak.

«Sotsial guruh» tushunchasini keyingi nazariy tahlilida «sotsial» tushunchasining asoslarini ko'rib chiqish lozim bo'ladi. Aynan shu tushuncha hajmi va mazmunidan «sotsial guruh» tushunchasining mohiyati kelib chiqadi.

«Sotsial» termini sotsiologiyada ikki ma'noda, keng va tor doirada ishlatiladi. Keng ma'nosida «sotsial» tushunchasi «ijtimoiy» tushunchasiga sinonimdir. Tor ma'noda esa, jamiyat hayotining ma'lum sohalaridagi ijtimoiy munosabatlarni aniqlash uchun xizmat qiladi. Ba'zi bir sotsiologlar sotsial munosabatlar masalasini tadqiq etishib sotsial munosabatlarni 3 nuqtai nazardan tahlil qilish kerak degan fikrga kelganlar, keng ma'noda, torroq ma'noda va tor ma'noda.

Keng ma'noda sotsial munosabatlar deganda, jamiyatdagi kishilarning hamma munosabatlari tushuniladi. Torroq manoda sotsial munosabatlar deganda jamiyat sotsial sub'ektlari, ya'ni ma'lum sotsial

guruhlar o'rtasidagi munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning «parchasi» sifatida tahlil qilinadi. Tor ma'noda esa u iqtisodiy va siyosiy munosabatlar bilan bir qatorda ko'riladi.

«Sotsial» tushunchasi turlicha izohlanishdan kelib chiqib, sotsial rpyhlarga har qanday kishilar birligi (sotsial yoki ijtimoiy guruh; hamma ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchilari (ijtimoiy munosabatlar sub'ekti); aniq sotsial, sinfiy, urug'-qabilaviy va oilaviy munosabatlar (sotsial munosabatlar) sub'ekti sifatida qarash kerak).

Guruh tushunchasi haqida gapirishdan oldin, bir qancha farqlarni ko'rib chiqamiz. Bu masalani sotsial to'plam tushunchasidan boshlaymiz.

Tashqi kuzatuvchilar tomonidan ko'rsatilgan qandaydir umumiy belgilarga ega bo'lgan kishilar yig'indisi sotsial to'plam deb ataladi. Masalan, biz kishilar to'plamidan qora tanli kishilar to'plamini, ko'k ko'zli kishilar to'plamini ajratib ko'rsatishimiz mumkin. Bu jismoniy belgilarga asoslanib, to'plamlarga ajratish hisoblanadi. Bu bilan ko'pincha antropologiya fani shug'ullanadi, to'plamni u yoki bu kasb bilan shug'ullanuvchi kishilar ham tashkil etishadi. Aynan bir kasb bilan shug'ullanadigan kishilar kasbiy (professional) kategoriyalar deb ataladi. Yoshiga qarab ajratiladigan kishilar to'plami yoki kategoriyalari deyiladi. Jinsiga qarab kishilar 2 ta jins to'plamiga, ya'ni erkaklar va ayol kategoriyalariga ajratiladi. Aniq belgiga asoslanib ajratiladigan har qanday to'plam sotsial kategoriyani tashkil etadi. Sotsial kategoriyalar hech qanday ichki aloqalar bilan birlashmaydi. Bir kategoriyaga kiradigan, masalan, kasbiy (professional), yosh, jins, mulk, daromadi va boshqa kategoriyalarga mansub kishilyar qandaydir umum belgilarga egalar. Ana shu asosga ko'ra, sotsial kategoriyalar ichki aloqa va shaxsiy institutlariga ega bo'lishlari mumkin. Sotsial kategoriyalar biror bir sotsial aloqada bo'lgan taqdirlaridagina, ular sotsial birlikka aylanishlari mumkin.

«Sotsial guruh» tushunchasiga yaqin bo'lgan tushuncha — sotsial birlik» tushunchasidir. Zamonaviy jamiyatshunoslik fanida bu tushunchalar sinonim sifatida ishlatiladi. Lekin bunday tushunish to'g'ri emas. «Sotsial birlik» tushunchasi kishilarning hamma birliklarini o'ziga qamrab oladigan keng hajmdagi tushunchadir. «Sotsial birlik» so'zi umumiylikni bildiradi. U ko'pgina kishilarni birlashtiradigan jarayonlarni aks ettiradi. Real hayotda sotsial birlik «platforma»ga ega bo'ladi. Bu «platforma» negizida birlikka kiradigan individlarning umumiy tomonlari, sifatleri va xususiyatlarini birlashishi amalga oshadi. Uning asosida kelib chiqish birligi (qon-qarindoshlikka asoslangan birlik, oila, urug'), xudud birligi, til va xudud birligi (etnik birlik) va boshqalar yotadi.

Shunday ekan, sotsial birlik — bu tabiiy-sotsial asoslar bilan (qon-qarindoshlik, xudud, til va boshqa) bir sotsial guruhlarning ko‘rinishidir. Birliklar sotsial guruhlarning bir turi sifatida sotsial struktura elementlari hisoblanadi.

Guruh — bu xatti-harakatlari rasmiy va norasmiy institutlar tomonidan boshqariladigan, ma'lum norma va qadriyatlarga ega bo‘lgan, boshqa birliklardan o‘zining xususiyatlari bilan farq qiladigan, bir-birlari bilan ijtimoiy munosabatlar sistemasi bilan bog‘langan kishilar yig‘indisidan iborat bo‘lgan sotsial birlikdir.

Guruhga xarakterli xususiyatlar quyidagilar: guruh soni, ichki tashkilot, ya'ni institutlar, nazorat shakllari; faoliyat namunalari; norma va qadriyatlar; farq qiladigan xususiyatlari.

Guruh soni deyilganda, mavjud birlikni hajm jihatdan tashkil etadigan a'zolar yig‘indisi tushuniladi, hozirgi kungacha sotsiologiyada a'zolar soni qancha bo‘lishi kerakligi haqida aniq bir to‘plamga kelingani yo‘q. Bu to‘g‘risida guruh turlari haqida so‘z ketganda, gapirib o‘tiladi.

Guruh o‘zining sonini a'zolari sonini chegaralashi yoki chegaramasligi mumkin. Mana shu asosga ko‘ra guruhlarni «berk» guruhlar, ya'ni yangi a'zolari qabul qilishda aniq mezon qo‘yadigan guruhlar; chegaralangan guruhlar, ya'ni guruh a'zolariga qabul qilish mezoni ham talabchanlik bilan qabul qilinadigan guruhlar; va nihoyat xohlagan kishi kirishi mumkin bo‘lgan ochiq guruhlar va bu guruhlarda a'zolariga nisbatan aniq talablar, qo‘yilmaydi, ko‘pincha guruhlar a'zo qabul qilish va a'zolari guruhdan chiqishi uchun aniq talab qo‘yadi. Buning natijasida guruhning bir xilligi va uning ta'sir doirasi ta'minlanadi.

Guruhning paydo bo‘lishi uchun ichki tashkilot, ya'ni institutlar, nazorat shakllari, faoliyat namunalari bo‘lishi kerak. Shuning uchun ham o‘z shaxsiy tashkilotiga ega bo‘lmagan, faqatgina kontaktlar (aloqalarga) asoslangan erkin sotsial birliklar guruh deb atalmaydi.

Guruh o‘zining shaxsiy norma va qadriyatlariga, ya'ni birlashish markaziga ega bo‘lishi kerak. Bularga g‘oyalar, ramzlar, shiorlar, maqsadlar, moddiy predmetlar va boshqalarni kiritish mumkin. Bular guruhda kishilarni guruhga mansublik va birlashish xissini uyg‘otish va rivojlantirish uchun zarur.

Bu qadriyatlar asosida guruhda «biz» so‘zi bilan ifodalanadigan birlik xissi paydo bo‘ladi. Bu xis kishilarni birlashtiradigan psixik (ruhiy) aloqa bo‘lib hisoblanadi.

Nihoyat, guruh o‘zining shaxsiy farq qiladigan xususiyatlariga ega bo‘lishi kerak. Bular yordamida guruh boshqa sotsial birliklardan farq

qiladi. Bunday xususiyatlar bo'lib, bir xududda yashash, alohida ritual harakatlar, til, mafkura va boshqalar hisoblanadi.

Bu 4 shart juda ko'p guruhlarini ta'riflash uchun qo'l keladi. Lekin guruhlarini tasniflash (klassifikatsiya qilish) vaqtida bu to'g'rida to'xtalib o'tamiz. Chunki bu shartlar nisbiy xarakterga ega. Bular ko'pgina guruhlarini qanoatlantirsa ham, ba'zi guruhlarini tahlil qilish vaqtida to'g'ri kelmasligi mumkin.

Guruhlar eng avvalo miqdor jihatdan katta va kichik guruhlariga bo'linadi. Sotsiologiya va sotsial psixologiya fanida katta sotsial guruhlar o'zining aniq ta'rifiga ega emas. Umuman, katta sotsial guruh deganda, a'zolar soni ko'p bo'lgan kishilar guruhlarini tushuniladi. Katta sotsial guruhlarining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat;

- 1) a'zolar sonining ko'pligi;
- 2) yagona xududning mavjud emasligi;
- 3) a'zolar o'rtasidagi aloqalarni asosan ommaviy aloqa vositalari orqali o'rnatilishi;
- 4) guruh strukturasi murakkabligi, aniqroq qilib aytganda, bu guruhlar ko'p rasmiy va norasmiy, uyushgan va uyushmagan guruhlarini o'z ichiga oladi.

Katta guruhlar 2 turga bo'linadi.

1 Tasodifiy, stixiyali paydo bo'ladigan va qisqa vaqt mavjud bo'ladigan guruhlar. Bularga olomon, xaloyiq (publika), auditoriya va boshqalarni kiritish mumkin.

2. Tarixiy rivojlanish natijasida vujudga kelgan va jamiyat ijtimoiy munosabatlar sistemasida ma'lum o'ringa ega bo'lgan birliklar. Bu turdagi guruhlariga sotsial sinflar, turli etnik

guruhlar (elat, xalq, millat), kasbiy guruhlar, jinsiy va yoshga oid guruhlar (yoshlar, ayollar, keksalar) va boshqa guruhlarini kiritish mumkin.

Katta sotsial guruhlarida kichik guruhlarida yo'q. bo'lgan xatti-harakatni boshqarib turadigan o'ziga xos kuch mavjud. Bu huquqlar, urf-odatlar va an'analardir.

Katta guruh bilan kichik guruh o'rtasida o'rta guruh ham bor. Ammo guruh muammosi bilan shug'ullanayotgan sotsiologlar fikricha, o'rta guruhlar, ularning strukturasi, aloqasi, unda bo'ladigan xodisa va jarayonlar mohiyat jihatdan kattaroq guruhlariga xosdir. Kichik va katta guruhlar o'rtasidagi farqni kichik guruhning yiriklashuvi va uning katta guruhga aylanish jarayonida ko'rish mumkin. Masalan, bir yoki bir nechta taniqli kishilar atrofida birlashgan, 40—45 kishidan iborat partiya kichik guruhdir, chunki bu guruh vakillarining shaxsan bir-birlarini tanishlari

(bilishlari) kichik guruhga xos bo'lgan xususiyatni beradi.

Kichik guruhlar deganda, ko'pi bilan bir necha o'nlab a'zoldan iborat bo'lgan kam sonli guruhlar tushuniladi. Bu guruhlar ko'pincha samimiy do'stlik munosabatlari bilan bog'langan bo'ladi, guruh a'zolari o'rtasida bevosita o'zaro aloqalar ustun turadi, guruh a'zolari o'rtasidagi munosabatlar norasmiy institutlar yordamida tartibga solinadi. Bundan tashqari, maxsus vazifalarni bajarishga mo'ljallangan, yuqori darajada shakllangan kichik maqsadli guruhlar ham mavjud. Bu guruhlarda a'zolar o'rtasidagi munosabatlar maxsus xizmat ko'rsatmalari bilan tartibga solinadi. Yashirin ishlayotgan partiya yacheykasi bunga misol bo'la oladi. Kichik guruhlar oilani, do'stlarni, qo'shnilarni ishlab chiqarish brigadasini va boshqa guruhlarni kiritish mumkin.

Kichik sotsial guruhlarning turlari juda ko'p. Ular turli mezonlarga qarab turlarga ajratiladi. Guruh munosabatlari strukturasi qarab kichik sotsial guruhlar rasmiy va norasmiy guruhlarga, a'zolar o'rtasidagi munosabatlarning yaqinligiga qarab birlamchi va ikkilamchi guruhlarga, guruhga a'zo bo'lish va bo'lmasligiga qarab a'zoli va referent guruhlarga bo'linadi. Sanab o'tilgan guruhlarni birma-bir ko'rib chiqamiz.

Rasmiy va norasmiy sotsial guruhlar, guruhlarni bunday tarzda turlarga bo'lish birinchi bo'lib amerikalik sotsiolog E. Meyo tomonidan taklif qilingan edi, guruhlarni rasmiy va norasmiy guruhlarga ajratish asosida guruh munosabatlarning strukturasi yotadi.

Rasmiy guruhlar — bu huquqiy statusga ega bo'lgan sotsial institut, tashkilot qismi hisoblanadigan mavjud institut, tashkilotdagi mehnat doirasida aniq, maqsadga ega bo'lgan sotsial guruhlardir.

Rasmiy guruhdarga quyidagi belgilar xos: aniq, va izchil maqsad, ierarxiyaga asoslangan aniq funksiyalar, ma'lum qoidalarga muvofiq keladigan huquq va burchlar, a'zolar o'rtasidagi rasmiy munosabatlar, guruh faoliyatini nazorat qiladigan rasmiy institutning mavjud bo'lishi va boshqalar.

Rasmiy guruhlarda guruh maqsadlari, funksiyalari xatti-harakat qoidalari, xatto a'zolik shartlari maxsus hujjatlarda (dastur, instruksiya, qonun va boshqalar) qayd etilgan bo'ladi.

Rasmiy guruhlarga siyosiy partiyalar, davlat, diniy va boshqa tashkilotlar, ishlab chiqarish kollektivi, maktab sinfi, sport komandasi va boshqalarni kiritish mumkin.

Har qanday rasmiy guruhning tashkiloti bo'ladi. Guruh tashkiloti — bu turli guruh va a'zolari o'rtasidagi munosabatlarning yaqqol namoyon bo'lishidir. Munosabatlar turiga qarab guruh tashkilotlari 2 ga bo'linadi:

rasmiy va norasmiy. Bu ikki turdagi guruh tashkilotlari ijtimoiy munosabatlarni yaratuvchisi hisoblanadi. Rasmiy tashkilot yuqoriroq darajali sistema bilan aniq belgilangan funksiyalarni bajarish uchun tashkil etiladi. Bu funksiyalar ma'lum ma'noda individlar uchun yuzaki hisoblanadi. Masalan, ishlab chiqarish korxonasi sotsial tashkiloti ishlab chiqarish brigadasining asosiy vazifalarini belgilab beradi. Brigada doirasida bu funksiyalar har bir brigada a'zosining guruhda tutgan individual martabasiga qarab taqsimlanadi.

Shunday qilib, rasmiy sotsial guruh deb, guruh alohida a'zolarining o'rni va xatti-harakati sotsial tashkilotning rasmiy qoidalari, qonunlari bilan chegaralanadigan guruhga aytiladi. Rasmiy guruh a'zolarining nufuzi (tutgan o'rni) shaxsiy sifatlar bilan emas, ularning martabalari bilan aniqlanadi. Shaxslararo munosabatlar rasman o'rnatilgan chegara doirasida amalga oshadi. Rasmiy guruhning eng sodda ko'rinishi sifatida ishlab chiqarishni ko'rsatish mumkin. Uning hajmi, tuzilishi, rahbarning vazifalari ishlab chiqarish tashkiloti qoidalari bilan qat'iy belgilanadi.

Rasmiy guruh — bu aniq sotsial guruh jamiyat sotsial strukturasi elementidir. U ob'ektiv holda mavjud. Uning strukturasi va xatti-harakat shakllari keng miqyosdagi guruh yoki jamiyat tomonidan boshlanadi. Individ rasmiy guruhga a'zo bo'lar ekan, o'zining shaxsiy sifatlarini yo'qotadi va rasmiy guruh tashkiloti doirasidagi u yoki bu rollarni bajaruvchi kishiga aylanadi.

Rasmiy guruhlar ham rasmiy (korxonalar, brigada kasaba uyushmasi, jamoat va davlat tashkiloti), ham rasmiy struktura tomonidan tan olinmagan, ya'ni, norasmiy (yashirin tashkilot, norasmiy guruh va hokazo) bo'lishi mumkin.

Norasmiy guruhlar, ko'pincha bunday guruhlar «psixologik guruhlar yoki «sotsial psixologik guruhlar» deb ataladi. Chunki bu guruhlar tashkil topish zaminida guruh a'zolari o'rtasidagi psixologik, hissiy munosabatlar yotadi. Norasmiy guruhlar paydo bo'lishida vaziyat va umumiy manfaatlar majmui muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham bu guruhlar ba'zan, manfaat yuzasidan tuzilgan guruhlar ham deb atashadi. Odamlar ehtiyojlari turli-tuman bo'lganligi sababli norasmiy guruhlar mavjud.

Norasmiy guruh rasmiy guruhga qaraganda boshqacha tuzilishga ega. Agar rasmiy guruhda guruh sotsial strukturaning yuqori organlar va xatto jamiyat tomonidan tuzilsa, norasmiy guruhlar esa shaxsiy asosda, ya'ni uni tashkil etadigan individlar tashabbusi bilan tuziladi. Tashabbuskor kishilar bu guruhda faol rol o'ynaydilar va o'z-o'zidan guruhda a'zolarining

ehtiyotlarini qondirishga imkoniyat beradigan xatti-harakat sistemasi rivojlanadi.

Norasmiy guruhlar rasmiy guruhlar doirasida ham, undan tashqarida ham tashkil topishi mumkin. Birinchi navbatda, norasmiy guruh rasmiy guruh tashkilotiga nisbatan ikkilamchi hisoblanadi. U yoki bu guruh tashkiloti tarkibidagi guruh bo'lib qoladi. Masalan, oddiy ishlab chiqarish korxonasiidagi do'stlar guruh — guruhning yaqqol ko'rinishidir. Ikkinchi navbatda, norasmiy guruhlar rasmiy guruhlariga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'ladi. Ular hudud (territoriya) yaqinligi asosida (qo'shnilar), qiziqishlarning bir xilligi asosida (turli xil kolleksiya yig'uvchilar), psixofiziologik hususiyat birligi asosida (tengdoshlar, bolalarning o'yin guruhlari), shaxsiy mayl asosida paydo bo'ladi.

Norasmiy guruh a'zolari o'rtasidagi munosabatlar aniq ifodalangan shaxsiy sifatlarga ega. Bu aloqalar rasmiy guruhdagi aloqalarga nisbatan a'zolar uchun ahamiyatliroqdir. Masalan, ishchilar guruhi doirasida yuzaga kelgan do'stlar munosabati faqatgina birga ishlashlari bilan emas, bo'sh vaqtlarini ko'proq birga o'tkazishlari, ko'p uchrashishlari, bir-biriga o'zaro yordam berishlari bilan ham belgilanadi.

Norasmiy guruhlar muntazam tashkilotga ega emas, ularda rasmiy saylangan martabali shaxslar; nizomlar, kun tartibi va aniq rasmiy maqsad bo'lmaydi, guruhda tartib an'anaga, hurmat va obro', munosabatlariga asoslanadi. Biroq norasmiy guruhlar har doim o'ziga xos ahloqiy kodekslarga ega emas. Norasmiy guruhlar rasmiy guruhlariga qaraganda ancha beqaror, ularga a'zo bo'lish uchun aniq chegara yo'q.

Norasmiy guruhlarda tashkilot yo'q desak xato qilgan bo'lamiz. Ularni birlashtiradigan asosiy omillar bo'lib, a'zolar manfaatlari, mayllari, odatlari hisoblanadi. Norasmiy tashkilotning o'ziga xos tomoni — unga norasmiy liderning va guruhga yaqin bo'lgan shaxsiy hususiyatlarning bo'lishidir.

Agar rasmiy guruh a'zolarining faoliyati qayd qilingan norma va qoidalar, xatto sanksiyalar vositasida nazorat qilinsa, norasmiy guruhlarda esa norasmiy norma va an'analar yordamida amalga oshiriladi. Bu norma va an'analar mohiyati guruhning jipslik darajasiga, uning boshqa sistemalar bilan munosabatiga bog'liq. Ba'zi norasmiy guruhda faoliyat qoidalari buzilgan taqdirda, aybdor shafqatsiz jazolanadi: masalan, banda, mafiyalarda bunday jazo usullari qo'llaniladi.

Shunday qilib, norasmiy guruh deb, guruh jipsligining yuqori darajasi, a'zolar aloqalarining shaxsiy sifatlari, boshqa sotsial strukturalardan mustaqilligi, guruh faoliyatining aniq bo'lmagan maqsadi,

norasmiy nazorat sistemasi bilan xarakterlanadigan guruhga aytiladi.

Guruhlarni rasmiy va norasmiy guruhlarga ajratish nisbiy xarakterga ega. Guruh rasmiy guruhga aylanishi mumkin. Masalan, do'stlar ma'lum bir tashkilot tuzishlari mumkin. Boshqa tomondan bir vaqtning o'zida guruh ham rasmiy, ham norasmiy bo'lishi mumkin. Masalan, sinfdoshlar, kursdoshlar.

Birlamchi va ikkilamchi guruhlar. Shaxsning yaqinligiga ko'ra, kichik guruhlar birlamchi va ikkilamchi guruhlariga bo'linadn. Fanga birlamchi guruh terminini birinchi bo'lib amerikalik sotsiolog Ch. Kuli tomonidan XX asrning boshlarida kiritilgan.

Birlamchi guruh termini yaqinlik yaxshi ko'rishlik, bevosita aloqa tushunchalariga sinonim sifatida ishlatiladi. Shunga bog'liq ravishda, birlamchi guruhlarda muhit samimiy bo'ladi va a'zolarining sidqidildan o'zaro munosabatlari bilan belgilanadi. Mana shu hususiyati bilan birlamchi guruh boshqa guruhlardan farq qiladi.

Birlamchi guruhlarining xarakterli belgilari quyidagilardan iborat: a'zolar sonining kamligi, guruh a'zolarining hududiy yaqinligi, bevosita samimiy munosabatlar, yashashning uzoq davom etishi, maqsadlarning umumiyliigi, guruhga a'zo bo'lishning erkinligi va a'zolar xatti-harakati ustidan norasmiy nazorat.

Shunga muvofiq, «birlamchi guruh termini turli ko'rinishdagi kichik guruhlarni aniqlash va «ikkilamchi guruh» terminiga qarama-qarshi tarzda qo'llaniladi.

Birlamchi guruh eng avvalo oiladir, guruhni birinchi navbatda a'zolarining manfaatlari bog'laydi.

Bunday xarakterga ega insonning bolalik va o'smirlik chog'idagi tengdoshlar guruhiga ham ega, qo'shnilar, mahalla ham birlamchi guruhga aylanishi mumkin. Birlamchi guruhlar rasmiy aloqaga ega emas. Agar birlamchi guruh a'zolari o'rtasida rasmiy aloqalar paydo bo'lsa, bu guruh kichik rasmiy guruhga aylanganligini bildiradi.

Birlamchi guruhning shaxsga ta'siri katta ahamiyatga ega. Ular a'zolarining axloqiy tomonini shakllantiradi va yangilaydi, mustahkamlaydi. Bu guruhlarda kishilarning birinchn sotsializatsiyasi (ijtimoiylashuvi) amalga oshadi, kishilar o'zlarinint xislari va xatti-harakatlarini jamiyat talabiga muvofiq keladigan tarzda shakllantirishadi.

Ikkilamchi guruhlar deb, biror bir aniq maqsadga erishish uchun tuzilgan har qanday turdagi guruhlariga aytiladi, Ularda moddiy alqoqalar muhim aqamiyatga ega. Ularning faoliyati tartib-intizom qoidalari bilan boshqariladi. Umuman, ikkilamchi guruhlar — bu katta guruhlardir. Ba'zan

birlamchi guruhlar ham ikkilamchi guruh bo'lishi mumkin. Ikkilamchi guruhlariga kasbiy, diniy, siyosiy guruhlarini kiritish mumkin.

Referent va a'zoli guruhlar. Kichik guruhlarini o'rganishning jihatlaridan biri bo'lib, «referent guruh» deb ataladigan guruhlarini tahlil qilish hisoblanadi. «Referent guruh» termini amerikalik sotsial psixolog Mustafó Sherif tomonidan kiritilgan. «Referent guruh» termini (inglizcha so'z, «mansub bo'lish» degan ma'noni anglatadi) individ ongli ravishda; kiradigan sotsial guruhlariga (iqtisodiy, siyosiy, madaniy kasbiy) nisbatan ishlatiladi.

Shaxsning «guruh normalariga» munosabati belgilariga muvofiq guruhlar referent guruhlar yoki «etalonli» (o'lchovli) guruhlariga bo'linadi. Referent guruhlar ham kichik guruhlar, ham katta guruhlar — sinf yoki ijtimoiy tabaqa bo'lishi mumkin.

«Referent guruh» termini 4 xil ma'noda qo'llaniladi:

1. Individ xatti-harakati uchun namuna, etalon yoki mezon bo'lib xizmat qiladigan guruh.

2. Individ o'z harakatlarini shu guruhga yo'naltiradigan guruh.

3. Individ a'zo bo'lishga intilayotgan guruh.

4. A'zolarning qadriyat va fikrlari bevosita shu guruh a'zosi bo'lmagan kishi uchun o'ziga xos taqqoslash o'lchovi, sotsial «o'lchov doirasi sifatida xizmat qiladigan guruh.

Real hayotda «referent guruh» nazariyasi shaxsning turli sotsial muhitlarga moslashuvi jarayonida, sotsial harakatlarni o'rganishda qo'llaniladi.

Referent guruhlar real va ideal guruhlariga bo'linadi. Real referent guruhning shaxsga qulay sotsial norma va qadriyatlarni egallashi uchun etalon bo'lib xizmat qiladigan alohida kishilar yoki kishilar birligidir.

Ideal referent guruh - bu ma'lum bir guruhning qadriyatli va normativ yo'l-yo'riqlarini inson ongida aks etishidir. Shaxs bu guruhga o'z tasavvurlari va harakatlari bilan moslashishiga harakat qiladi.

Masalan, muhandis o'zini real hayotda muhandislar guruhiga mansub deyish bilan birga o'zini guruh sifatida mavjud bo'lmagan ma'naviy «elitaga»ga mansub deb hisoblaydi.

3. JAMIYAT VA IJTIMOIIY HODISA TUSHUNCHASI

Sotsiologiyaning asosiy vazifalaridan biri ijtimoiy hayot va ijtimoiy munosabatlarni o'rganishidir. Sotsiologiya terminining o'zi tarjima qilinganda — «jamiyat haqidagi so'z» ma'nosini anglatadi. Sotsiologiya

fani insonni alohida emas, balki o'zaro munosabatda bo'lgan va o'zaro aloqada bo'lgan insonlarning faoliyatini, ularning bir-biri faoliyatlari mobaynidagi tasirini o'rganadi.

Jamiyatni biz sotsiologik nuqtai-nazardan olib qaraydigan bo'lsak qanday o'rganamiz?

Birinchidan, jamiyatni tuzilishi va tarkibi o'rganiladi, ya'ni jamiyat qanday kishilardan iborat, ular qancha va qanday sinf yoki tabaqalarga mansubligi ko'riladi.

Ikkinchidan jamiyatda istiqomat qilayotgan kishilarning xatti-harakatlari nimalardan iborat, ya'ni ularning o'zaro munosabatlaridagi xarakterlari ko'riladi. Bunda biz jamiyatda istiqomat qilayotgan kishilarning faoliyatlarini tasodifiy emas, balki aynan o'sha jamiyat qonuniyatlari asosida rivojlanib borishini ta'kidlashimiz kerak. Bunda jamiyat munosabatlari, aynan bir qancha kuchlar idora etib turgan munosabatlar orqali, kishilar u yoki bu munosabatlarni bajaradilar.. Jamiyatdagi kishilarning qanday tabaqalarga taqsimlanishi, ushbu jamiyatning qanday kishilardan iborat ekanligi, jamiyat ichki faoliyatida kishilarning o'zlarini qanday tutishlari va ular orasida o'zaro munosabatlarning qay darajada ekanligi, alohida bir kishilarning xatti-harakati natijasida katta ahamiyatga molik bo'lgan ijtimoiy tarixiy jarayonlarning vujudga kelishi, inson xatgi-harakatini qanday kuchlar boshqarib turishligi— kishilarning o'zaro munosabatlaridagi xarakterining o'zagini tashkil etadi.

Uchinchidan, jamiyat taraqqiyoti uning rivojlanishi nuqtai-nazaridan o'rganiladi. Dunyodagi barcha hodisalar vaqtlar o'tishi bilan o'zgaradi. Taraqqiyotning misli ko'rilmagan sur'atlar bilan rivojlanib borishi jamiyatdagi qadriyatlarni o'zgartirib, o'zga ikkinchi yoki uchinchi bir qadriyatlar bilan qorishtirib yubormoqda, kechagi avlodning yashash tarzi bugungi avlodnikiga mos kelmay qolmoqda, bugungi avlodniki esa ertangi avlodni yashash tarziga mos kelmaydi, ya'ni vaqt kutib turmaydi. Shuning uchun jamiyatni to'liq tushunish uchun nafaqat uning tuzilishi va rivojlanishini, balki uning o'tmishini, ya'ni tarxini ham sinchiklab o'rganish, bu jamiyatni qanday tarkib topganligini, qanday shakllanganligini, rivojlanganligini bilmoq jamiyatni to'liq tushunmoqlikka imkon yaratadi.

Jamiyat ijtimoiy hodisaning umumiy va murakkab sistemasidir. Ijtimoiy faoliyatning belgilangan sotsial statusiga ega bo'lgan, o'zida ijtimoiy me'yor va qadriyatlarni aks ettirgan, individual sifatlarga (shaxsning ijtimoiy belgisi, qizqishlari, qadriyatlar yo'nalishi, shaxs

motivlari va hokazo) ega bo'lgan kishilar jamiyatning elementi hisoblanadi.

Jamiyat umumny tabiiy-tarixiy sistema sifatida o'zida ishlab chiqarish kuchlari va iqtisodiy munosabatlarning ijtimoiy, ideologik, siyosiy strukturalarining organik birligini tashkil etadi. Kishilarning turli ijtimoiy guruhlarining o'zaro birligi yoki jamiyat hayotining turli sohalaridagi iqtisodiy, siyosiy, mafkuraviy, ijtimoiy faoliyatlari jamiyat sistemasining tabiiy-tarixiy xarakterini belgilashda muhim omil hisoblanadi. Jamiyat har bir sohasi ishlab chiqarish taraqqiyotida ma'lum bir funksiyalarni bajaradi: iqtisodiy munosabatlar—moddiy ishlab chiqarish funksiyasini, ijtimoiy munosabatlar—ijtimoiylashuvini (sotsializatsiya), siyosiy munosabatlar — ijtimoiy boshqaruvni (elementlar nazorati) mafkuraviy munosabatlar — ma'naviy ishlab chiqarish funksiyasi va boshqlar.

Sotsiologik nazariya barcha ijtimoiy sistemalarni sotsietal va ijtimoiy munosabatlarda ko'radi. Sotsietal sistemalarga - jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va mafkuraviy munosabatlari kiradi. Ularning har biri bir-biri bilan aloqada bo'lgani aniq, bir strukturaga ega bo'ladi. Jamiyatning sotsietal sistemasi ierarxik qaramlikni tashkil etadi, ya'ni bunda iqtisodiy munosabat belgilovchi omil bo'lib, ijtimoiy, siyosiy va mafkuraviy munosabatlar uning ishlab chiqaruvchisi bo'ladi. Sotsietal sistemalar o'z tarkibiga ko'ra quydagicha joylashtiriladi: 1) iqtisodiy, 2) ijtimoiy, 3) siyosiy, mafkuraviy.

Sotsietal sistemalarning bir-biri bilan o'zaro uzviy aloqada bo'lishi dialektik xarakterga ega edi. Shuning uchun aynan shu sistemada ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari, bazis va ustqurma, ijtimoiy borliq va ijtimoiy ong kabi falsafiy kategoriyalar ishlatiladi. Siyosiy iqtisod nazariyasining asoschisi A. Smit jamiyat taraqqiyoti va rivojlanishini quyidagicha ifodalagan edi: «Dunyodagi barcha narsalar mehnatning mahsulidir, mehnat taqsimoti natijasida har bir individ o'zi uchun ishlaydi va boshqalar uchun ishlashga ham majbur bo'ladi, u boshqalar uchun ishlaganda. aksincha o'zi uchun han ishlaydi». Biz sotsnologik nuqtai-nazardan jamiyat — bu birgalikda yashovchi kishilarning, o'zaro bir-biri bilan ijtimoiy aloqada bo'lib, o'z faoliyatlarida bir-biriga ta'sir ko'rsatuvchi uyushmasidir. Jamiyat tashkil topishi uchun eng kamida ikki kishi bo'lishi kerak va bular o'zaro hamkorlikda bo'lib turishlari kerak, bu jamiyatning oddiy ko'rinishi bo'lib, uning murakkab shakllarini shakllantirib boradi, ya'ni oilaning qurilishi bu oddiy jamiyat, bu jamiyatda A. Smit ta'rifi bo'yicha jamiyat a'zosi ham o'zi uchun, ham

oʻzga bir kishilar uchun ishlaydi, murakkab jamiyatni shakllanishiga oʻz oilasi bilan xissa qoʻshadi. Biz bu misollarni yana partiyalar tuzilishida, diniy yoki zamonaviy guruhlarining paydo boʻlishida koʻrib borishimiz mumkin, qaysidir bir dinning rivojlanishi natijasida dindorlar jamiyati oddiylikdan murakkablik sari boradi, partiya tashkilotlari va guruhlar tuzilishida ham aynan shunday sotsietal sistema munosabatlarini koʻrib borishimiz mumkin.

Jamiyatning «ijtimoiylik» sistemasi unsurlar uyushmasining sifatli munosabatlarini hodisalar va jarayonlarda aks ettiradi. «Ijtimoiylik» sistemasining asosiy unsurlarini ijtimoiy jamoalar tashkil etadi, ya'ni bular sinflar, millatlar, professional, demografik, xududiy va siyosiy guruhlardir. «Ijtimoiy» sistemasining elementini kishilar tashkil etadi. Bunda har xil ijtimoiy jamoalar birlashgan kishilar bir-birlari bilan oʻzaro aloqadorlikda boʻladilar. Ushbu aloqadorlik jarayonida kishilar ma'lum bir individga va ma'lum bir mehatga ta'sir oʻtkazadilar.

Jamiyat tushunchasi va jamiyat toʻgʻrisidagi fikrlar O. Kontning sotsiologik nazariyasida ham aks ettirilgan. O. Kont D. Yum, A. Smit, Russo, Sen-Simonlarning jamiyat toʻgʻrisidagi nazariyalarini rivojlantirdi. O. Kont sotsiologiyasida psixologiya, siyosiy iqtisod, etika, falsafa tarixi fanlariniig tushuncha va metodologiyasi, sintezlashtiriladi. Jamiyat, oila, xalq, millat barcha insoniyatning axloqiy xissiyotlarini qamrab olgan axloqiy xissiyotning organik natijasi deyiladi. Jamiyat — oʻzaro munosabatda boʻlgan «zarrachalar», «elementlar», «atomlar»ning avtomatik harakatda boʻlgan mexanizmi deb qaraladi. Individ xatti-harakatlari va qiziqishlarini O. Kont abstraksiya deb hisoblaydi. Ijtimoiylikning ajralmas unsuri sifatida inson emas, oilani olib, oila jamiyatning ijtimoiy organizmini birligini tashkil etadi, deydi. Bu yerda kishilarning oʻzaro aloqadorligi («assotsiatsiya») emas, balki ajralmas birligi hukmronlik qiladi, deb oʻz fikrlarini Kont davom ettiradi.

Jamiyat toʻgʻrisidagi qarashlarini G. Spenser organitsistik (jamiyatni tabiatning organizmini analogi deb qarab, ijtimoiy hayotni biologik qonuniyatlarning belgisi sifatida qarash) ta'limot nuqtai-nazaridan olib qaraydi. Jamiyatning taraqqiyoti biologiyaning yangi yutuqlari bilan shakllanib, rivojlanib boradi. Jamiyat a'zolari jamiyat farovonligi uchun emas, balki jamiyat jamiyat a'zolari farovonligi uchun xizmat qilishi kerak, deb Spenser individualizmi organitsistik konsepsnsiyasiga yondoshadi,— insonni sotsiologiyaning eng asosiy muammosi sifatida olib qaraydi. Jamiyat tabiat fenomenining umumlashmasi sifatida, uning taraqqiyoti(evolyutsiya) differentsial boʻlaklar va funksiyalarning tabiiy

jarayoni sifatida qaraladi. Individualizmning axloqiy-ijtimoiy muammosi yangi muammo bo'lib, differentsiallashgan jamiyatda individ ham ishtirok etadi, evolyutsiya unga tug'ulgan muammoni yechishga ruxsat etib turadi.

XIX asrda «jamiyat» tushunchasi yangi ma'no bilan boyitiladi. Jamiyat taraqqiyotining mexanik strukturasi organik strukturasi bilan birgalikda olib qaraladi. Muammoni yechish yo'lini sotsiologlar jamiyatni 2 yo'nalishini tarixiy nuqtai nazardan o'rganib, ikki qarama-qarshi tendensiyani: an'anaviy va zamonaviy jamiyat turlarini bir-biri bilan solishtirib o'rganadilar. Bunday jamiyat yo'nalishini Tyonnis va Dyurkgeym «status» va «kontrakt» (shartnoma) dixotomik g'oyalarini ilgari surgan holda o'rganib chiqadilar. Unda gipotetik tabiat» ko'rinish va «ijtimoiy shartnoma» ko'inishining ratsional tomonlari aks ettiriladi. Tyonnis o'zining «jamo» («gemaynshaft uyushmasi) va «jamiyat» dixotomiyasida organitsistik metodologiya muammolashtirgan. Uning konsepsiyasida individning umumiylikka yoki individlarning ichki umumiylikka munosabatlari to'g'risida fikr bormay, balki individlarning o'zaro munosabatining anglangan erkinliklarini bildiruvchi ijtimoiy umumiylik to'g'risida so'z boradi. Erkinlik yoki «mohiyatan» yoki «saylangan» bo'lib, «mohiyat erkinligi» birligi (samost), «organizm va organik bo'laklarga xos» birlikni tashkil etadi, har bir bo'lak ushbu birlikni aks ettiradi va jamoa gemaynshaft—uchun yashaydi. Aksincha, har bir ijtimoiy munosabatlar yuqori turuvchi, qaramog'ida ma'lum bir kuch va imkoniyatlarga ega bo'lgan sun'iy individni namoyon qilib, natijada jamiyat ijtimoiy umumiylik nuqtai nazardan fikr yuritadi». Jamiyatni 2 xil tushunish to'g'risidagi dihxotomiyada, ya'ni keng ma'noda «jamo»ni jamiyat tarkibiga qo'shib va tor ma'noda «jamo»ni jamiyat tarkibidan chiqarib, Tyonnis turli xil ijtimoiy aloqa va ta'limotlarni tahlil qildi. Tyonnis davlat tushunchasining jamiyat bilan o'zaro aloqadorlikda ko'radi, tarixiy taraqqiyot jarayonida barcha yirik rivojlangan davlatlar «birlik* tendensiyasi sari intilib boradi deb qaraydi. Bu bashoratni yoki oldindan ko'ra bilishni, har qalay hozirgi kunda Evropa iqtisodiy ittifoqni tuzish uchun rivojlangan davlatlarning o'zaro muzokaralar olib borib, ba'zi bir muvaffaqiyatlarga erishganini hisobga oladigan bo'lsak, bu nafaqat Tyonnisning, balki sotsiologiya fanining jamiyatni o'rganishdagi yutug'iga deb hisoblamoq mumkin.

Mana shu dixotomiyani Tyonnisdan keyin Dyurkgeym qo'llab-quvvatlab, uni rivojlantirdi. Agar Tyonnisni jamoani organizm bilan o'zaro mos kelmasligi qiziqtirib, jamiyatni tasavvur qilishda u ijtimoiy birlik dixotomiyasiga amal qilgan bo'lsa, Dyurkgeym ijtimoiy aloqaning organik

va mexanik turlarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yadi va jamiyatni bir qadar ijtimoiylikning tabiiy va organik turi deb e'lon qiladi. Dyurkgeym jamiyatdagi birlikni «tiniq axloqiy xodisa» deb talqin qilib, jamiyatning axloqiy mustahkamligini o'z tadqiqotlarining markaziga qo'yadi. Mexanistik va organistik birlikni farqlash uchun ikki xil xulosaga keladi: 1) guruhlarining barcha a'zolari ozmi yoki ko'pmi ma'noda e'tiqodlar va hissiyotlarning jamlanmasini tashkil etadi, natijada kollektiv turini hosil qiladi. 2) jamiyat — bu turli xil maxsus funksiyalarning sistemasidir.

Organik birlikning mexanik birlikdan farqi shundaki, u mehnat taqsimoti natijasida vujudga keladi. Mehnat taqsimoti ijtimoiy birlikning oliy funksiyasi sifatida axloqiy funksiyalarni vujudga keltiradi va «shaxs individualligini» vujudga kelishini va rivojlanishini ta'minlaydi.

Jamiyat va uning rivojlanish qonuniyatlari to'g'risida ko'pgina sotsiologlar o'z ta'limotlarini yaratganlar, jamiyat to'g'risidagi nazariyalarni boyitib, o'zlarining ulkan hissalarini qo'shganlar, bular Zimmel, Parsons, Lumin, Chikago maktabi namoyondalari va boshqalar.

Sotsiologiyada jamiyatning quyidagi yo'nalishlari mavjud;

1. Mexanitsistik. 2. Organitsistik. 3. Kulturologik

1. Jamiyatning mexanitsistik yo'nalishi XIX asrda vujudga keldi. Mexanitsistik yo'nalishda klassik mexanika konsepsiyasi, olamini mexanik talqin qilish, jamiyat rivojlanishi qonunlarini asosan fizik va mexanik qonuniyatlar asosida deb bilish bilan asoslanardi. Mexanitsizm tarafdorlari, masalan, T. Kern jamiyat strukturasi va undagi jarayonlarni noorganik olam bilan solishtirib, shuning asosida jamiyat qonunlarini yaratishga harakat qildilar. Tabiiy fanlarning rivojlanishi natijasida mexanitsizmda yangi «energetik va «termodinamik» degan terminlar paydo bo'ldi. Mexanitsizm namoyondalari asosan aniqlikka rioya etishni o'z vazifalari deb bilib, miqdor va statistik metodlarga suyanib jamiyat qonuniyatlarini belgiladilar namoyondalari V. F. Osgfald, Pareto, A. Barsela va boshqalar.

2. Jamiyatning organitsistik konsepsiyasi XIX asr oxiri XX asr boshlarida vujudga kela boshlagan. Bu ta'limotga ko'ra jamiyatni organizm bilan aynan bir narsa deb qarash tashkil etadi. Jamiyatni unsurlarning agregati deb qarab, organizm, nisbiy avtonomiyalardan iborat bo'lgan va yagona tomoyillarga asoslangan jamiyat dinamikasini yaratadi. Organitsistik jamiyat konsepsiyasining namoyondalari O. Kont, T. Spekser, Dyurkgeym va boshqalar ijtimoiy organizmni taraqqiyotining omili deb qaradilar.

3. Ijtimoiy axloq, normalari va qadriyatlarining tarixiy murakkablashishi natijasida ushbu ijtimoiy sistema madaniyatni vujudga

keltiradi. Madaniy-ijtimoiy-tarixiy amaliyot jarayonida insoniyat yaratgan va yaratayotgan, hamda jamiyat, taraqqiyotida tarixan erishilgan bosqichni xarakterlaydigan moddiy va ma'naviy qimmatdorliklar majmui. Moddiy madaniyat, texnika ishlab chiqarish tajribasi, ishlab chiqarish jarayoni vujudga keltirilgan moddiy qimmatdorlik Ma'naviy madaniyat, fan, san'at va adabiyot, falsafa, maorif va boshqalar sohasida ma'naviy qimmatdorliklarni ishlab chiqarish, taqsimlash va istemol qilish majmuasidir. Madaniyatni vujudga kelishini naturalistlar (tabiatshunos) insoniyatning tabiiy tabiatida deb bildilar. Boshqa bir sotsiologlar insoniyatning axloqiy taraqqiyotida, axloqiy tomonida bo'ladi deydi. Madaniyat tushunchasidan kelib chiqqan holda kulturologik jamiyatning vazifasi kollektivning maqsadli tuzilish darajasini qiyoslab, uning dinamikasini yaratish, «ijtimoiy» fakt ekanligini ko'rsatishdan iboratdir «Kulturologik» jamiyat har qanday ijtimoiy faoliyatga asoslangan maqsadli komplekslarning aspektiga diqqat bilan qaraydi. Kulturologik jamiyatning funksiyasi o'z aloqaloqadorlikni sistemali ravishda izohlab, sharhlab beradi. Kulturologik jamiyat to'g'risida M. Veber, Zimmel, F. Tenbruk V. Lipp, Y. Vays va boshqalar o'z sotsiologik qarashlaridan fikrlar bildirganlar.

HOHIRGI KUN JAMIYATINING KO'RINISHLARI

1. **Farovonlik (mo'l-ko'llik) jamiyati.** G'arb sotsiologiyasida hozirgi kapitalistik davlatlarning qiyofasi ifodalab, «umumiy rohat-farog'at» va «istemol qilish jamiyati» degan nazariyasi vujudga keldi. Ushbu nazariyaga ko'ra iqtisodiyotning o'sishi va yangi texnologiyaning ishlab chiqarishga tadbiiq natijasida jamiyatning ijtimoiy iqtisodiy farovonligi ortib boradi, mo'l-ko'lchilik natijasida istemol mahsulotlarining ko'plab realizatsiya qilinishi natijasida jamiyatdagi har bir kishining baxtli va nizolansiz hayot kechirishi ta'minlanadi. Hozirgi kunda shunday davlatlar fikrimizcha rivojlangan kapitalistik davlatlarda, ayniqsa Skandinaviya davlatlari qayotida asta-sekin namoyo'n bo'lib bormoqda.

2. **Istemol qilish jamiyati.** Unchalik nazariy, empirik va amaliy ahamiyatga ega bo'lmagan tushuncha. Amerika sotsiologlari tomonidan XX asr 40-50 yillarida jamiyatning har bir a'zosining hayot darajasini yaxshilash maqsadida paydo bo'layotgan tasavvurlarning keng yoyilishi natijasida vujudga kelgan nazariya. Moddiy tomondan kam ta'minlangan kishilarning ijtimoiy jihatdan talab muammolarini qondirish uchun ushbu nazariya ishlab chiqildi. Individual istemol ijtimoiy ongda insonparvarlikning yorqin ifodasi sifatida namoyon bo'ldi, o'z navbatida

bu iqtisodni monopolizatsiya va davlat tomonidan boshqarib turishni mustahkamladi. Iste'mol qilish tamoyilining taraqqiy qilishi natijasida kapitalizmning nafaqat evolyusion tomonlarini, balki ko'p miqdordagi iste'mol ehtiyojlarini oshira borib, iste'mol qilish tamoyiliga modalar reklamasi va marketing munosabatlarini ham kiritdi. Iste'mol qilish tamoyiliga ommaviylashuvi jahon miqyosida harbiy-siyosiy konfrontatsiyaning bir muncha barqarorlashuviga ham yordam berdi.

3. **Ochiq va yopiq jamiyati.** Sotsiologiyaga K.Topper tomonidan kiritilgan bo'lib, taraqqiyotning turli bosqichlarida turli jamiyatlarning madaniy-tarixiy va siyosiy tasvirlanishi ifoda etiladi. Ochiq jamiyat-demokratik jamiyat bo'lib, tashqi muhit sharoitlarida oson o'zgaruvchi va moslashuvchi, tanqidni yorib o'tmoqqa moslashgan jamiyat, yopiq, jamiyat esa dogmatik-avtoritar rejim asosida bo'lib, sehrli (magik) tafakkur, dogmatizm va kollektivizm tamoyillari bilan xarakterlanadi. Ochiq jamiyat olamni rasional anglash, krititsizm va individualizm tamoyillari bilan xarakterlanadi. K.Popper yopiq jamiyatlarga o'zining siyosiy va ijtimoiy kelib chiqishidan turlicha bo'lgan davlatlarni kiritadi, bularga Spartak, Prussiya, chor Rossiyasi, natsistlar Germaniyasi, Sovet Ittifoqini kiritadi. Ochiq jamiyatga qadimgi Afina va g'arb rivojlangan davlatlarini kiritadi. Ochiq va yopiq jamiyat konsepsiyasi hozirgi zamon davlatlarining ideologik siyosiy va ijtimoiy-psixologik nuqtai nazardan o'rganish uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi.

4. **Industrial (sanoat) jamiyati.** An'anaviy jamiyat kategoriyasidan ajratib turuvchi, g'arb sotsiologiyasida rivojlangan jamiyatning kelib chiqishi va tabiati to'g'risidagi ikki asosiy kategorianing biri. Ushbu termini birinchi bo'lib Sen-Simon ishlatgan, uni O. Kont, T. Spenser, Dyurkgeym va boshqalar rivojlantirganlar, qaysi jamiyatda sanoat ishlab chiqarish iqtisodiy tashkilotni boshqaruvchi shakli bo'lsa, bu tashkilot xususiy shaxslar qo'lida bo'lsa, bu tadbirkor xususiy boshqaruvchi bo'ladi, u mehnat jarayoni va ishchilarni boshqarib boradi. Sanoat ishlab chiqarish korxonalarini, menedjer-administratorlar nazorat qiladilar. Sotsiologlar ushbu tamoyil bir necha xilda talqin qiladilar.

a) hozirgi davr dunyosining tarixiy o'zgarishi natijasida, ya'ni «an'anaviy» agrar jamiyatdan «industrial» sanoat jamiyatga o'tilishi va mashina sanoati, mehnat intizomi, erkin savdoda milliy ho'jalik sistemasining va umumiy bozorning tashkil etilishi modernizatsiya nazariyasi bilan chambarchas bog'liqdir.

6} industrlashgan jamiyatlarning qanchalik ko'p bo'lishi ularning shunchalik industrlashgan tartibning qonununiga muvofiq baxslashishi

raqobat qilishi kuchayadi.

v) «An'anaviy» jamiyatdan sanoat jamiyatiga o'tilishi natijasida — tarixan progressiv harakat boshlanadi, ya'ni an'anaviy nasliy irsiyat xususiyatlari yo'qoladi, jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotining demokratlashuvi natijasida inson qonunlari tenglashadi, qobiliyat jihatidan genetik ravishdagina insonlarning notengligi vujudga keladi va hokozo.

5. Postindustrial jamiyat. Amerikalik sotsiolog D. Bell tomonidan ishlab chiqishgan konsepsiya. Postindustrial jamiyat konsepsiyasining nazariyasiga ko'ra jamiyat taraqqiyoti uchta bosqichda ko'riladi:

1) industrial jamiyatgacha bo'lgan davr; 2) industrial sanoat jamiyat davri; 3) postindustrial jamiyati davri. Industrial jamiyatgacha bo'lgan davrda asosiy omil qishloq xo'jaligi munosabatlari, cherkov va armiya jamiyatning asosiy sotsial instituti hisoblanardi, bu davrdan industrial-sanoat jamiyatiga o'tilgach, sanoat korporatsiyalar va firmalar jamiyatning asosiy omili bo'lib qoldi, postindustrial jamiyat davrida esa universitetlar asosiy joyi bo'lgan nazariy-bilimlar sanoat va ishlab chiqarishning bir joyga to'planib qolishida asosiy rol o'ynaydi. Bu jamiyatda D. Bellning fikricha, kapitalistlar hukmronligi yo'qolib, uning o'rnina yuqori bilimga ega bo'lgan malakali huquqiy elita egallaydi. Xususiylik jamiyatning asosiy mezoni sifatida o'zining ma'nosini yo'qotadi, uning o'rnini ta'lim va bilimniig yuksak darajasi egallaydi. Industrial jamiyatda asosiy nizo mehnat kapitali orasida bo'lsa, postindustrial jamiyatda asosiy nizo bilim va chuqur bilimga ega emaslik o'rtasida boradi.

JAMIYAT TUZILISHLARI

Totalitar jamiyat. Siyosiy boshqaruvning zo'ravonlikka asoslangan sistemadir. Totalitar so'zining ma'nosi, lotincha «totus — umumiy, butun, jamiki» degan ma'noni anglatib, jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, mafkuraviy va hatto boshqaruvchi rahbar elitaning maishiy hayotini yakka lider («fyurer», «duche», «kaudilo» va h.k.) tomonidan o'rnatilgan harbiy-byurokratik apparat tomonidan boshqarilishi tushuniladi. Totalitarizmning asosiy ijtimoiy kuchi shahar va qishloqlarda aholi tabaqasining sinfiy qiyofasini yo'qotishidir lyumpen-proletariat, lyumpen-intelligensiya va h.k.) bo'lib, ijtimoiy amorf holatiga ega bo'lmagan, barcha ijtimoiy tabaqa va guruhlarning turmush tarzida muayyanlik va mulkka egalik to'g'risida hato fikr tug'diradigan tuzumdur. Totalitarizm taraqqiyot jarayonini ko'rsatadigan lyumpenizatsiya darajasi, jamiyatning ijtimoiy hayotini harbiylashtirib borishi natijasida «favqulodda holat» tamoyilini amalga oshirib boradi. Ijtimoiy hayotning bunday «tashkiloti» yuqorining

tashabbusi va uni aktiv qo'llab-quvvatlab turuvchi jamiyatning lyumpenizatsiyalashgan qismini ta'siri natijasida to'g'ridan-to'g'ri terrorga olib boradi. Harbiy terrorning bunday shakli jamiyat tuzilishida «ijtimoiy tartib» modelini yaratadi. Totalitarizm sharoitida ijtimoiy munosabatlarning boshqaruvchi va hukmron kuchi zo'ravonlikka asoslangan siyosat bo'ladi, shuning uchun totalitar jamiyatning «siyosatlashuvi», jamiyatni muqarrar ravishda harbiylashuviga (militarizatsiya) olib boradi. Totalitar davlatning harbiylashgan munosabatlarini byurokratlashuvi natijasi, surunkali ravishda harbiy kuchlarni ishlatishga olib keladi. Totalitarizmning g'oyaviy manbai, ijtimoiy munosabatlarni barcha sistemalarini «ko'rsatma tamoyil»larni loyihalashtirilgan mushohada yo'lini kimningdir «namunali» bo'lgan utopik konsepsiyasiga asoslashadi. Totalitar tuzumga Jentile, Gitler, Mussolini, Stalin va bir qancha diktatorning ideologiyasini misol qilib ko'rsatish mumkin.

Avtoritar jamiyat (lot auctor-boshlovchi, asoschi, ijodkor, avtor, fikr, nigoh, hokimiyat, huquq va h.k.) demokratik bo'lmagan siyosiy rejimga asoslangan va siyosiy ongning avtoritetga, umuman hokimiyat avtoritetiga bo'lgan munosabatlarni aks ettiruvchi shaklidir. Avtoritarizm jamiyati qandaydir bir vaziyatda, nodemokratik yo'l bilan, totalitarizmning ba'zi bir elementlarini qabul qilgan holda, boshqa hech qanday «avtoritet»ni tan olmay, ushbu avtoritetlarga totmitaristik «urush e'lon qilib» vujudga keladi. Avtoritarizm patologik, ya'ni normal holatini yo'qotgan (o'zini boshqalardan ustun qo'yish, maqtovlarga mahliyo bo'lish) avtoritetga agressin muxlislik, o'rta sinor namoyondalariga xos bo'lgan ong shaklini aks ettiradi. Avtoritarizm o'z ta'limotidan kelib chiqib ko'rinmas qobiq ostida fashistik va diktatorlik rejimlariga zamin yaratadi.

Demokratik jamiyat (grek, demos-xalq va kratos-kuch, hokimiyat) hokimiyat shakllaridan biri bo'lib, uning xarakterli tomoni, ozchilikni ko'pchilikka bo'ysunishi tamoyili, hamda fuqarolarning erkinligi va teng huququqliligi e'tirof, etishidir. Bunda fuqarolarning huquqlari jamiyat hayotining. ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlaridan qat'i nazar qonun oldida tengliklari ta'minlanadi. Demokratik jamiyatda konstitutsiya ishlab chiqariladi, parlament va boshqa vakillik muassasalari tuziladi, fuqarolarning umumiy saylov huquqi va siyosiy erkinliklari (so'z erkinligi vijdon erkinligi, va boshqalar) ta'minlanadi. Demokratik jamiyat uchun xarakterli narsa-unda parlamentning mavjudligidir, ya'ni unda qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatga bo'linganligidir, bunda ijro etuvchi hokimiyatning roli tobora oshib boradi.

4. IJTIMOIIY HARAKAT

«Sotsial harakat» kategoriyasi nazariy sotsiologiyaning muhim va asosiy tushunchalaridan biridir. Hech bir ijtimoiy tizim harakatsiz mavjud bo'la olmaydi. Jamiyat hayotida yuz beradigan o'zgarish, ya'ni ijtimoiy harakat umuman harakat turlarining ichidagi eng murakkabidir. Chunki bunda nafaqat ob'ektiv ijtimoiy qonuniyatlar, balki sub'ektiv, ya'ni insonlarga bog'liq omillar ham mavjud bo'ladi. Shu jihatdan olganda ijtimoiy harakatning o'zi ham tizim xususiyatiga ega bo'ladi. Uni to'raligicha o'rganish ijtimoiy harakatning turli tomonlari ijtimoiy-ruhiy, strukturali-funksional, qadriy-normativ jihatlarini tadqiq etishni, ijtimoiy harakatni o'rganishga kompleks yondashuvini talab qiladi.

Ijtimoiy harakatning falsafiy tushunchasiga nisbatan uning sotsiologik tushunchasi o'rtasidagi farqni ajrata bilish zarur. Ma'lumki, falsafada ijtimoiy harakat keng ma'noda, ijtimoiy faoliyat sifatida tushuniladi. Sotsiologiyada ijtimoiy harakat tushunchasi ijtimoiy faoliyatning eng oddiy birligi sifatida talqin qilinadi. Bunda ijtimoiy individning hayotiy muammolarni va ziddiyatlarni hal etishga qaratilgan va boshqa kishilarning javob xatti-harakatlari nisbatan ongli ravishda yo'naltirilgan harakati tushuniladi.

Ijtimoiy harakat ijtimoiyligining asosiy belgisi - individning kishilar xatti-harakatidagi ijtimoiy yo'nalishlarni sub'ektiv anglashidir.

Sub'ektning xatti-harakatiga nisbatan o'zaro munosabatlarning boshqa qatnashchilarining javobini «kutish» tushunchasida ifodalanadi. Bunday «kutish»ni o'z ichiga olmagan, harakat sotsial harakat hisoblanmaydi (masalan, behosdan qilinadigan harakatlar). Bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy harakat — bu moddiy va ma'naviy ne'matlarni yaratish jarayonida amalga oshiriladigan va shu orqali yangi ijtimoiy aloqalar, munosabatlar, institutlar yaratishga olib keluvchi harakatidir.

Ijtimoiy harakat tushunchasini ishlab chiqishga g'arb sotsiologiyasida katta e'tibor berilgan. Ijtimoiy harakat nazariyasi kishilarning jamiyatdagi o'zaro aloqalari va munosabatlari majmuini izohlash imkonini beradigan maxsus ijtimoiy omilni qidirishdan boshlangan. «Ijtimoiy harakat» tushunchasini izohlash uchun dastlabki bosqich sifatida harakatning ideal holatini olib ko'rish zarur. Bu holda harakat maqsadi va harakat qiluvchining maqsadi bir-biridan ajratilmaydi. Buni maqsadli-ratsional harakat tushunchasi bilan izohlash mumkin. Boshqacha qilib aytganda, «maqsadli ratsional harakat» tushunchasi individlarning ijtimoiy harakatlarini o'rganish metodi sifatida qaraladi. Bu

tushuncha orqali jamiyatni o'rganishda xalq, jamiyat, davlat, iqtisod va boshqa tushunchalar mohiyati ochib beriladi. Individning o'zi esa qandaydir ijtimoiy organizmning hujayrasi sifatida qaralmaydi. Harakatni uning mazmunidan, onglilikdan mahrum etib bo'lmaydi. Ijtimoiy harakatning zamonaviy sotsiologik modeliga ko'ra onglilik bunday harakatning zaruriy sharti hisoblanadi Umumiy bir yaxlitlik emas, balki alohida individga tayanish talab etiladi. Biz individ xatti-harakatini tushunamiz, lekin hujayraning xatti-harakatini tushunmaymiz. Shu kabi xalqning harakatini tushunmaymiz, lekin xalqni tashkil qiluvchi individlarning xatti-harakatini tushunamiz. Sotsiologiyaning vazifasi-harakat turlarini tushunarli harakat ko'rinishiga keltirish, yakka individlarning harakatini o'rganish. Individual maqsadli-ratsional harakat ideal tip sifatida inson harakatiga onglilik ruhini beradi. Sotsiologiya ijtimoiy harakatni tushunishga, uning sabablarini va oqibatlarini ham izohlashga urinadi, bunda u alohida individ yoki individlar guruhining xatti-harakatini o'z tadqiqotlarida boshlangich atom sifatida oladi. Sotsiologiya ma'lum bir mazmunga ega bo'lgan harakatgina qiziqtiradi. Ijtimoiy harakatni o'rganayotganda biz nimaga asosiy e'tiborni qaratishimiz harakat ma'nosigami yoki harakat qiluvchigami? Masalan, bozorda bir odam biror narsa xarid qilayotganini ko'rsak biz uni o'zi uchun olayapti, sovg'a uchun olayapti, kimningdir iltimosini bajaryapti va shu kabi ko'plab xulosalar chiqarishimiz mumkin. Shunday tarzda fikrlashdan ko'rinib turibdiki, harakat ma'nosini tushunishga intilyapmiz, lekin buning yordamida harakat qilayotgan individni ham tushunsa bo'ladi. Agar sotsiologiya individning o'zini tushunishga ko'p e'tibor berganda, ko'p qiyinchiliklar yuzaga kelgan bo'lardi.

Chunki individ uchun har qanday harakat nimaningdir belgisi sifatida namoyon bo'ladi. Aslida esa butunlay teskarisi bo'lishi mumkin. Bu haqda ko'pgina hollarda individ tasavvurga ega bo'lmaydi, bo'lganda ham yashirishga harakat qiladi, ko'proq harakat ma'nosi qiziqishiga molikdir. Hozirda sotsiologiya fanida ijtimoiy harakatning to'rt xili ajratib ko'rsatiladi, bular: maqsadli-oqilona, qadriyatli-oqilona, affektiv va an'anaviy.

Maqsadli-oqilona harakat — sub'ekt tomonidan o'z maqsadini aniq anglaganligini, oqilona vositalar tanlaganini taqozo etadi. Ammo, konkret inson harakati maqsadli-oqilona harakatga qisman yaqinlashishi mumkin, lekin aynan mos kelmaydi. Maqsadli-oqilona harakat o'ziga xos harakat modeli rolini o'ynaydi, uning yordamida harakatlardagi chetga og'ishlarni aniqlash mumkin. Bu esa harakat qilayotgan sub'ektning haqiqiy

motivlarini tushunish imkonini beradi.

Qadriyatli-oqilona harakat - etik, estetik, diniy va boshqa ma'lum xatti-harakat qadriyatlariga bo'lgan ishonchga asoslangan ijtimoiy harakatdir. Qadriyatli-oqilona harakat doimo ma'lum bir bajarilishi burch hisoblangan talablarga bo'ysunadi. Ma'lum bir qadriyatni anglash bilan bog'liq bo'lgan bu harakat o'zining ma'lum bir tartibliligi tufayli rejali, oqilona xususiyatga ega bo'ladi. Qadriyatli-ratsional harakatda odam .tashqi dunyodagina emas, balki o'zining sub'ektiv qadriyatlariga ham mos ravishda vosityalar tanlaydi, bu qadriyatlar harakatni tezlashtirishi va aksincha, susaytirib qo'yishi mumkin.

Affektiv harakat tipi - affektiv harakat tipini sub'ektning ma'lum bir emotsional holati, ma'lum affektlar va his-tuyg'ular bilan xarakterlanadigan harakatni ifodalaydi. Bularga sevgi, nafrat, qo'rquv, mardlik, quvonch va boshqalarni kiritish mumkin. Bu harakat ijtimoiy mohiyatga ega emas. Affektiv harakatda tashqi bir maqsadlarga intilish bo'lmaydi, balki his-tuyg'ular tomonidan oldindan mazmun jihatdan belgilab qo'yilgan bo'ladi. Bunday harakatda eng muhimi-individni qamrab olgan his-tuyg'uni, xohishni zudlik bilan qondirishga bo'lgan intilishdir. Bunday harakat inson harakatining chegarasida turadi. Bu chegaradan chiqqan harakat ijobiy harakat xususiyatini yo'qotadi. Affektiv harakat o'tkinchi xususiyatga egadir.

An'anaviy harakat - madaniy an'analarda ifodalangan xatti-harakat timsollariga, taqlidga asoslangan harakatni bildiradi. Bunday harakat oqilona xususiyatga ega bo'lmay, harakat jarayoni avtomatik ravishda yuz berayotgan jarayon ko'rinishini oladi, sub'ektivlar har qanday vaziyatda ham takrorlanuvchi va ko'nikib qolingan an'analarga, odatlarga asoslanadi. An'anaviy harakat yuzaki qaraganda ob'ektiv oqilona tarzda ko'rinishi mumkin, lekin uning haqiqiy mohiyati sub'ektiv nooqilona asosga egadir. An'anaviy harakat ham affektiv harakat kabi inson xatti-harakatining chegarasini bildiradi. Lekin bu harakatning ahamiyati shundaki, odat va ko'nikmalarga asoslangan harakatlar jamiyat hayotida juda ko'p o'rin tutadi. Individning xatti-harakati o'zida harakatning barcha turlariga xos bo'lgan xususiyatlarini saqlaydi. Bunda maqsadli-oqilona, ham qadriyatli oqilonalik, affektivlik, an'anaviylik belgilari bo'ladi. Turli jamiyatlarda ba'zi harakat vaziyatlari kuchliroq bo'lishi mumkin. Masalan, an'anaviy jamiyatda an'anaviylik va affektivlik, oqilonalik va qadriyatli oqilonalikka nisbatan ustunroq bo'ladi. Aksincha, industrial jamiyatda oqilonalik va qadriyatli harakat nisbatan ustun bo'ladi.

Insonning sub'ektiv dunyosi ijtimoiy hayot, ijtimoiy jarayonlarning

shaxs jihati sifatida namoyon bo'ladi.

Jamiyat rivojlangan sari maqsadli ratsional harakat kuchayib boradi.

Demak, harakat individning g'oyalar va vaziyat sharoitlari ta'siri ostida o'z maqsadlariga erishish vositalari yuzasidan sub'ektiv qarorlar qabul qilishni anglatar ekan. Albatta bu alohida olingan harakat bo'lib, ijtimoiy harakat ko'pgina shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan mana shunday harakatlarning muntazam qatorlarini o'z ichiga oladi.

Maqsad harakatning zarur elementidir. Maqsad harakat qiluvchi istagan holatdir. Demak, maqsadlar kutilgan, tasodifiy yoki qandaydir bir bilimlar natijasida tanlangan bo'lishi mumkin. Maqsad ma'lum bir vaqtni taqozo etadi. Vaqtdan tashqari u ahamiyatini yo'qotadi. Maqsad xato bo'lishi, ya'ni maqsad va vositalarning noto'g'ri tanlanishi, ularning bir-biriga muvofiq kelmasligi natijasida maqsadning amalga oshmasligi mumkinligini ham unutmash kerak.

Vaziyat esa harakatning tashqi qobig'idir. Vaziyatning asosiy xususiyati shundan iboratki, u maqsadga nisbatan boshqa yo'nalishda rivojlanadi. Harakat qiluvchining vaziyat ustidan nazorat qilishi harakat sharoitlari va vositalari yordamida olib boriladi. Harakat sharoiti harakat qiluvchi o'zgartira olmaydigan elementdir.

Harakatning normativ (me'yoriy) yo'nalganligi ham muhimdir. Chunki harakatda doimo me'yoriy yo'nalganlik mavjud bo'ladi. Me'yor harakatni namunaga muvofiklashtirishga bo'lgan intilish bilan ifodalanadi. Me'yoriy elementning belgilari quyidagilar: a) harakat qiluvchida u yoki bu qabul qilingan me'yorga amal qilishga bo'lgan intilishning mavjudligi; b) harakat qiluvchining har qanday imkoniyatlardan qat'iy nazar, shaxs sistemasi oldinga qo'yilgan maqsadga erishish zaruriyatini tan olishi. Me'yoriy yo'nalganlik ijtimoiy harakat nazariyasida muhim o'rin tutadi. Ma'lum me'yorlarga intilmaydigan harakat mavjud bo'lmaydi, kelmaydigan mexanik harakat bo'lmaganligi kabi bo'lmaydi.


Harakat tizimi murakkab tuzilishiga ega. Ijtimoiy harakat doimo boshqa harakat qiluvchilarning o'zaro yo'nalganligini va umumiy qadriyatlar asosida o'zaro integratsiyasini tashkil etadi. Bu darajada ijtimoiy harakat quyidagi tushunchalar bilan izohlanadi: harakat qiluvchi; me'yoriy yo'nalganlik, maqsad, vaziyat, boshqa harakat qiluvchi, o'zaro yo'nalganlik, qadriyatlar. Harakat sistemasi bu harakat elementlaridan va harakatlardan o'rtasidagi murakkab o'zaro aloqalardan iborat. Bu munosabatlar quyidagilardir: 1) sistema tushunchasi bilan bog'liq ravishda yuzaga keladigan munosabatlar; 2) individ yoki harakat qiluvchi deb ataladigan birikmalarda yuzaga keladigan munosabatlar; 3) ijtimoiy

guruhdagi individlarning o‘zaro aloqasi natijalarida yuzaga keladigan munosabatlar, harakat ma’lum bir qismlardan iborat, ularni biz sistemalar deb ataymiz. Ba’zi sotsiologlar jumladan T. Parsons harakat elementlaridan iborat uchta tizimni ajratib ko‘rsatadi: 1) ijtimoiy tizim; 2) shaxs tizim; 3) madaniyat tizimi. Ijtimoiy tizim va shaxs tizimi motivlangan salbiy harakatni tashkil qiladi. Madaniyat tizimi esa ramziy nusxalar tizimining mohiyatini bildiradi. Umumiy bir harakat tizimini tashkil qiluvchilari quyidagilardir: 1) harakat qiluvchi organizm (moslashuv funksiyasini bajaradi); 2) shaxs tizimi (maqsadga erishish funksiyasini bajaradi); 3) ijtimoiy tizimi (integratsiya funksiyasini bajaradi); 4) madaniyat tizimi (latentlik vazifasini bajaradi).

Ijtimoiy harakat tizimi ikki darajadagi o‘zga voqelik-orasida mavjud bo‘ladi. Bu ikki daraja harakat sistemasiga kirmaydi, bular fizik organik tashqi muhit va oliy fikrni voqelikdir. Ular orasidagi ta’sirlar quyi darajada harakat qiluvchi organizm yordamida, yuqori darajada-madaniyat yordamida yuz beradi. Bu ta’sirlar quyi darajada harakatni energiya bilan, yuqori darajada esa axborot va nazoratni ta’minlaydi.

Ijtimoiy harakatning funksional jihati ijtimoiy munosabatlarning amal qilishi, buzilishi va o‘zgarishi jarayonlarida namoyon bo‘ladi. Bunda uch tizim, ya’ni madaniyat, shaxs va ijtimoiy tizim uch birlashtiruvchi markaz sifatida barcha harakat tizimlarining tarkibiy asosida yotadi. Bular bir-birini to‘ldiruvchi tizimlar bo‘lganligi sababli ularning o‘zaro munosabatlarsiz birorta ham harakat tizimi mavjud bo‘la olmaydi. Umumiy tarzda buni 2-chizmadan ko‘rsa bo‘ladi:

2-chizma



Ma'lumki, insonning ijtimoiy voqelikka nisbatan munosabati faoliyat tushunchasi bilan ifodalanadi. Aynan insonning amaliy faoliyati uni o‘rab turgan moddiy, tabiiy va ayniqsa ijtimoiy dunyoni o‘zgartirishga qaratilgan bo‘ladi. Shu bilan birga insonning tashqi dunyoni o‘zgartirishga qaratilgan harakati uning faoliyatining boshqa barcha turlari uchun asos hisoblanadi. Lekin shaxs boshqa insonlar bilan hamkorlikdagina amaliy faoliyat yuritadi. Umuman insonning amaliyotdagi faoliyati (harakati, xulq-atvori)

sub'ekt-ob'ekt va sub'ekt-sub'ekt munosabatlari birligida namoyon bo'ladi. Bu yerda sub'ekt-ob'ekt munosabatlari insonning tashqi muhitni sun'iy qurol va vositalar yordamida o'zlashtirishini anglatadi, sub'ekt-sub'ekt munosabatlari esa ushbu faoliyat jarayonida odamlar o'rtasidagi muloqatni ifodalaydi.

Ijtimoiy harakatni keng va tor ma'noda tushunish mumkin. Keng ma'noda ijtimoiy harakat ijtimoiy voqelikni o'zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan faoliyat turi hisoblanadi. Tor ma'noda esa ijtimoiy harakat shaxs yoki ayrim ijtimoiy guruhlarining mavjud ijtimoiy voqelikka moslashishga qaratilgan harakat tizimini anglatadi.

Ijtimoiy harakatning shakllari ham turli-tumandir. Ijtimoiy harakatning asosiy shakli moddiy ne'matlar ishlab chiqishiga qaratilgan xatti-harakat hisoblanadi. Boshqa muhim ijtimoiy harakat bu insonlarning o'zaro munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyatidir. Ijtimoiy rivojlanish jarayonida bu faoliyat bir necha qismlarga ajralib ketishini kuzatsa bo'ladi. Bular sinfiy kurash ijtimoiy o'zgarishlar, revolyutsion harakatlar ko'rinishida yuz beradigan harakatlardir. Bundan tashqari kishilar faoliyatida texnik, ilmiy faoliyat kabi harakat ko'rinishlari ham namoyon bo'ladi.

5. SOTSIAL INSTITUTLAR, TASHKILOTLAR, TIZIMLAR SOTSILOGIYASI.

Sotsial institutlar, tashkilotlar, tizimlarni o'rganish sotsiologiyaning maxsus yo'nalishlari hisoblanadi.

Sotsial institut (lotincha — institutum, ruscha lug'aviy ma'nosi — ustanovleniya, o'zbekcha ma'nolarda, birinchidan, nizom, qoidalar yoki ularning to'plamini, ikkinchidan, mahkama, muassasalarni bildiradi. Sotsial institutlar yoki institutsional sotsiologiya maxsus nazariy yo'nalishdir. Sotsiologiyaga sotsial institut tushunchasi huquqshunos fanlaridan kirib kelgan. Yurisprudensiyada sotsial institutlar deyilganda, ijtimoiy — huquqiy munosabatlarni idora qiladigan huquqiy normalar (merosxo'rlik, mulkka egalik, oila va nikoh institutlari) tushuniladi.

Institutsional sotsiologiya — ijtimoiy hayotni tashkil etishning va idora etishning (boshqarishning regulyatsiya qilishning) barqaror shakllarini o'rgatuvchi sohadir.

Sotsial institutlarni konkret tashkilot va guruhlardan farqlash lozim. Yuzaki ko'rinishda, sotsial institut muayyan vazifani bajaruvchi odamlar muassasalar, idoralar majmui sifatida gavdalanadi. Mazmuniga ko'ra esa, sotsial institut va shaxslarning konkret vaziyatlarda amal qiladigan

maqsadga muvofiq, rasmiy va norasmiy, barqaror, standartlashgan tamoyil normalar, o'rnashmalarini bildiradi.

Sotsial institut, qisqacha ta'rifda, odamlar sotsial tashkillashgan va regulyatsiya qilinadigan faoliyatlarni anglatadi. Sotsial institutlar xatti-harakatining nisbatan barqaror shakllar namunalarini, avloddan-avlodga o'tuvchi an'analar, odatlarni qayta takror hosil qilinishini ham ta'minlaydi. Sotsial strukturaga kiruvchi har bir sotsial institut muayyan ijtimoiy ahamiyat vazifalarni ado etish uchun tashkil topadi, har bir sotsial institut faoliyat maqsadi, unga erishishni ta'minlovchi konkret funksiyalar, ushbu institutga xos bo'lgan sotsial pozitsiya va rollar shuningdek, maqsadga muvofiq, kerakli xatti-harakatni rag'batlantiruvchi va deviant (og'ma) xatti-harakatlarga qarshi qaratilgan tazyiqlar (sanksiyalar) tizimi bilan tavsiflanadi.

Jamiyatni iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, huquqiy va halqaro sohalariga xos bo'lgan sotsial institutlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Siyosiy institutlar muayyan hokimiyat mavjudligini, iqtisodiy institutlar esa moddiy ne'matlarning ishlab chiqarilishining taqsimlanishini ta'minlaydi. Jamiyatning muhim institutlaridan biri oila hisoblanadi. Uning faoliyati (ota-onalar, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi tarbiya usullari) huquqiy va ijtimoiy normalar bilan belgilanadi. Bundan tashqari jamiyatda bir qator ijtimoiy-madaniy institutlar (maorif, sog'liqni saqlash tizimlari, madaniy-tarbiyaviy muassasalar, fan din institutlari) amal qilinadi.

Sotsial institutlar sotsial muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'ladi. Bu o'zaro ta'sir normal tarzda, shuningdek normaning buzilishi sharoitida ham bo'lishi mumkin. Har qanday real jamiyatda normativ tartibotga bo'ysunmaydigan anomik hodisalar bo'lishi tabiiydir.

Amal qilish doirasi va vazifalariga qarab sotsial institutlarning quyidagi ko'rinishlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1) Relyatsion institutlar. Bu institutlar jins va yoshdan tortib to kasb-mashg'ulot turi va qobiliyati mezonlariga asosan jamiyatning rolga oid tarkibini aniqlab beradi;

2) Regulyativ (idora etish) sotsial institutlari. Bu institutlar shaxsiy maqsadlarning jamiyatda amal qilib turgan normalariga dahlsiz holda amalga oshish chegaralarini va bu chegaradan chiqib ketilganda qo'llaniladigan sanksiyalarni (bunda sotsial nazoratning hamma mexanizmlari ham kirib ketadi) belgilab beradi;

3) Integrativ (uyg'unlashtiruvchi) sotsial institutlar. Bu institutlar bir butun tuzumga jamiyat manfaatlarini qondirishga ma'sul bo'lgan sotsial rollarni ifodalaydi;

4) An'anaviy sotsial institutlar. Bu sotsial institutlar odat, marosimlar qarindosh-urug'chilik tomonidan qat'iy belgilangan normalar bilan bog'liqdir.

5) Madaniy sotsial institutlar. Din, san'at, adabiyot bilan bog'liq; Institutsional sotsiologiyada sotsial institutlarning bajaradigan asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

a) jamiyat a'zolarini takror ishlab chiqarish qaytadan tiklash;

b) sotsializatsiya (individda ijtimoiy ahamiyatli bo'lgan qadriyat va normalarni etkazishning turli xil shakllar);

v) ishlab chiqarish va taqsimot;

g) tartibga rioya qilish va axloqni saqlab turish. Jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichi unga mos bo'lgan muayyan sotsial institutlar amal qilinishi taqozo etadi. Hozirgi zamon sivilizatsiyasi tomon qadam tashlayotgan mustaqil mamlakatimizda yangi maqomga monand bo'lgan sotsial institutlar shakllanishi jarayoni ro'y bermoqda. Bular iqtisodiy sohada-bozor iqtisodiyoti amal qilishiga xizmat qiladigan sotsial institutlar siyosiy sohada demokratik hokimiyat turli bo'g'inlari faoliyatini ta'minlovchi sotsial institutlar, jamiyat barcha javhalariga yangi jamiyat tarziga hozirlovchi turli xil sotsial institutlardir. Prezident Karimov izchil tadbir, qilayotgan konsepsiyaga muvofiq, yangi sotsial institutlar an'anaviy sotsial institutlarga mutlaqo qarama-qarshi qo'yilmasdan, balki jamiyatimizning o'tmishi, hozirgi va kelajagi vorisligini ta'minlashga xizmat qiladigan, jamiyatdan begonalashmagan, mamlakatimiz mintaqasiga mos keladigan sotsial institutlar faoliyatiga yo'l ochib berilmoqda.

Sotsial institutlari singari sotsial tizim amal qilishi ta'minlaydigan ijtimoiy strukturaning asosiy «hujayra»laridan biri sotsial tashkilotlardir.. Sotsial institutlardan farqli ravishda, sotsial tashkilotlar odamlarning ish jarayonida muayyan vazifalarni bajarishdagi ixtiyoriy yoki majburiy uyushmasi tushuniladi. Tashkilot a'zosi bo'lgan odamlarning manfaatlari umumiyligi tashkilotning ideal holiga ega, tashkilotning maqsadi uning barcha a'zolari maqsadi bilan muvofiq, kelishi ko'zda tutiladi. Sotsial tashkilotni boshqa sotsial guruhlashuvlardan farqi - uni tashkil etuvchi individ qat'iy ravishda muayyan sotsial rol va pozitsiyalarni ijro etishlaridadir. Jamiyat sotsial tashkilotlari turli xildagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va g'oyaviy maqsadlarga erishish vositasi deb qaraydi. Sotsial tashkilotlar indvidlarning ehtiyoj va manfaatlarini ma'lum bir qat'iy me'yorda qondirilishiga xizmat qiladi. Bu me'yor odamning mazkur sotsial tashkilotda qabul qilingan sotsial norma va qadriyatlardan kelib chiqadigan

ijtimoiy maqomi bilan belgilangan bo'лади.

Sotsiologiyadagi maxsus yo'nalish sotsial tashkilotlar nazariyasiga ko'ra ikki xil rasmiy va norasmiy tashkilotlar ajratiladi, har qanday rasmiy tashkilot maxsus ma'muriy apparatga ega bo'лади. Bu ma'muriy apparatning asosiy vazifasi — tashkilot mavjudligini ta'minlash uchun uning a'zolari faoliyatini muvofiqlashtirishdir. Bunday tashkilot a'zolari vazifa (funksiya)ni bajarish nuqtai nazaridan qaraladi. Bunday individ birinchi navbatda shaxs emas, balki maxsus sotsial rolni ijro etuvchi tashkilotning bo'lagidir. Tashkilot nechog'lik murakkab va katta bo'lsa ma'muriy apparat ham shu darajada murakkab vazifalarni bajaradi. Har bir tashkilot muayyan darajada byurokratlashgan bo'лади. Tashkilotning byurokratlashuv darajasi ma'muriy muammolarni hal qilish uchun sarflanadigan kuchlar bilan tashkilot maqsadiga erishish uchun sarflanadigan kuchlar miqdorlarining nisbatiga bog'liqdir. Ayrim hollarda ma'muriy maqsadlar tashkilotning asl maqsadlarini mutlaqo chetlashtirishlari ham mumkin. Bunday holni tashkilotn jamiyatga emas, balki, o'z-o'ziga xizmat qilishga «beparvolikka» olib keladi.

Sotsial tashkilotlarda qat'iy byurokratik tamoyillarga asoslangan tashkiliy ierarxiya (tashkilot a'zolarining bir-birlariga nisbatan bosqichma-bosqich rasman tobelikda bo'lishlari) munosabatlardan tashqari norasmiy munosabatlar ham mavjuddir. Bu munosabatlar qat'iy ma'muriy qoidalar tizimi sharoitida tashkilot samaradorligini oshiradi va quyidagi ijobiy vazifalarni bajaradi: ish vazifasiga ko'ra bo'ysunuvchi individlar va mansabdor shaxslar o'rtasida vujudga kelishi mumkin bo'lgan ziddiyatlarni yumshatadi, tashkilot a'zolarini birdamligini mustahkamlaydi, shaxsiy qadr-qimmat hissini saqlab qoladi.

Sotsiologiyada tashkilotni tahlil etishda uch asosiy yondashuvni ajratib ko'rsatish mumkin: ratsional, tabiiy va neoratsional yondashuvlar. Ratsional yondashuv nuqtai nazaridan tashkilot «asbob» aniq qo'yilgan maqsadlarga erishish vositasi deb qaraladi. Tashkilot bu holda bir-birlarini almashtirishlari mumkin bo'lgan, lekin bu bilan tashkilotning butunligini, yaxlitligini dahl etmaydigan alohida mustaqil bo'laklar yig'indisi, majmui deb qaraladi. Ratsional yondashuv ko'p hollarda tashkilotda mavjud bo'lgan norasmiy munosabatlarni inobatga olmaydi.

Ratsional yondashuvdan farqli o'laroq, tabiiy yondashuv tarafdorlari tashkilotni «tabiiy butunlik», o'ziga xos organizm sifatida o'rganadilar. Bu organizm uchun tabiiy o'sish, o'z mavjudligini davom ettirish va tizim muvozanatini saqlab qolishga intilishga xosdir. Bu nuqtai nazarga ko'ra tashkilot qo'yilgan maqsadlariga erishgandan keyin ham o'z mavjudligini

davom ettirishi mumkin. Asosiy vazifa tashkilotdagi muvozanatni ta'minlashdir. Tashkilotga tabiiy yondashuvda norasmiy munosabatlarga ko'proq e'tibor beriladi.

Har ikki yondashuvning ijobiy tomonlarni qo'shishga intilish natijasida yangi yondashuv-tashkilotning neoratsional modeli vujudga keladi. G'arb sotsiologiyasida Blau, Gouldner va boshqalar ratsional va tabiiy yondashuvni qo'shishni, tashkilotdagi ratsionallik va norasmiy munosabatlarni uyg'unlashtirishni yoqlab chiqishdi.

Sotsial institutlar, tashkilotlar va ijtimoiy hodisalar turli xil o'ziga hos kesishmalarda sotsial tizimni tashkil etadi. Odatda tizim deyilganda bir-birlari bilan o'zaro aloqada bo'lgan va muayyan butunlikni tashkil etuvchi, alohida tarzda tartiblashgan elementlar majmui tushuniladi. Sistemali yondashuvning asosiy vazifalaridan biri ob'ekt to'g'risidagi barcha bilimlarni bir butun sistemaga keltirishdir.

Sotsial tizimlar formatsion, madaniy, individual-shaxsiy sifat va darajalarida ko'rilishi mumkin.

Formatsion yondashuvda jamiyatda ishlab chiqaruvchi kuchlar va iqtisodiy munosabatlar sotsial, mafkuraviy va siyosiy munosabatlar sotsial, mafkuraviy va siyosiy munosabatlardan iborat tabiiy-tarixiy bir butun sistemadir.

Sotsial tizimlarning murakkab ierarxiyasi mavjud. Jamiyatning o'zi butunligi sifatida eng katta tizim hisoblanadi. Uning iqtisodiy, sotsial, siyosiy va mafkuraviy kabi muhim ost tizimlari mavjud. Boshqa ost tizimlar — sinflar, etnik, demografik, territorial va professional guruhlar, oila, shaxs va hokozolardir. Sanab o'tilgan ost tizimlar o'z navbatida bir qancha boshqa ost tizimlardan iboratdir. Sotsial tizimlar ko'p hollarda bir-biri bilan «kesishgan» bo'ladi, aynan bir individlar turli xil tizimlar elementi bo'lishi mumkin. Ularning har bir bosqichlari bilan aloqada yoki ulardan mustasno ravishda nisbiy mustaqildir.

Sotsial tizim qonuniyatlari uning ichki atributidir. Bu qonuniyatlarni tizimga ta'sir ko'rsatuvchi qandaydir asosiy omil deb qarash mumkin emas. Sotsial aloqadorlik qonuniyati — bu mazkur sotsial tizim va uning tuzilishi qonuniyatidir. Muayyan sotsial tizim almashuvi bir vaqtning o'zida tegishli sotsial aloqadorliklarning almashishi hamdir, chunki ular sotsial tizim vujudga kelishi bilan paydo bo'ladi va sotsial tizim tarqalishi yoki o'zgarishi bilan to'xtab qoladi. (Individning o'zi yashab turgan sotsial tizim qonunlariga bo'ysunmasdan iloji yo'qdir).

Sotsial tizim qonuniyatlari individ hayoti-faoliyatini belgilab beradi. Individ u yoki bu tarzda sotsial sistema norma va qadriyatlarini qabul

qiladi, ijtimoiylashadi. Uning faoliyati ijtimoiy belgilangandir. Shu bilan birga faoliyat ko'rsata olishlikning bir qancha variantlari ham mavjud bo'lib, ular orasidagi o'ziga ma'qulini tanlab olishi mumkin.

Sotsial tizimlar xillarini ko'rsatish bir muncha shartlidir. Sotsial tizimni u yoki bu mezon asosida ajratish sotsiologik tadqiqot vazifasi bilan belgilanadi.

Aynan bir xil sotsial tizim (masalan, oila) teng ravishda ham sotsial nazorat tizimi, ham sotsial institut, ham sotsial tashkilot sifatida qaralishi mumkin.

6.SOTSIAL MUNOSABATLAR

Sotsiologiya fanining tizimida sotsial munosabatlar juda muhim o'rin kasb etadi. Chunki u orqali jamiyat a'zolari bir-birlari bilan ma'lum bir muomala va ijtimoiy hamkorlikka intiladilar. Sotsiologiyadagi bu maxsus soha o'zining o'ta dolzarbligi va muhimligi bilan boshqa muammo va masalalardan ajralib tursada, u hali mutaxassislar tomonidan to'liq ilmiy va sistemali ravishda o'rganilmagan va ilmiy adabiyotlarda etarli darajada yoritilmagan. Bu salbiy yo'lning asosiy sabablaridan birinchisi, sobiq Ittifoq falsafiy — sotsiologik adabiyotida bu masalani bir yoqlama talqin qilinishi bo'lsa. Ikkinchisi ilg'or g'arb adabiyotining ushbu sohasi bo'yicha tadqiqotlarining to'liq ma'lumotlarini bizda yo'qligidir.

Sotsial munosabatlar tushunchasini o'zi hali sotsiologiya fanida aniq va ilmiy ta'rifini hozircha topa olgani yo'q. Avvalambor shuni ta'kidlash zarurki, sotsial munosabatlar ko'pincha ijtimoiy munosabatlar tushunchasi bilan tenglashtiriladi yoki sotsial munosabatlar ijtimoiy munosabatlarning bir xususiy ko'rinishi deb talqin qilinadi. Mavjud adabiyotlarni chuqurroq tahlil qilinadigan bo'lsa shunday xulosaga kelish mumkinki, yuqorida ko'rsatilgan fikrlarda qimmatli asos borligini bilish mumkin.

Avvalambor shuni ta'kidlash kerakki, sotsial munosabatlar tushunchasi ko'pgina adabiyotlarda 2 xil darajada: keng ma'noda va tor ma'noda talqin qilingan, ushbu muammoni keng ma'noda tushinish — bu sotsial munosabatlarni butun bir ijtimoiy munosabatlar tizimi bilan tenglashtirishdir, va ular orasidagi farqlarga e'tibor bermaslik bilan bog'liqdir.

Tor ma'noda sotsial munosabatlar ijtimoiy munosabatlarining bir muhim elementi va turi deb interpretatsiya qilinadi. Sotsial munosabatlar keng ma'noda quyidagicha ta'rif bilan belgilangan.

Sotsial munosabatlar bu tabiat hodisalaridan o'laroq bo'lib, unda ijtimoiy munosabatlarning butun bir tizimi mujassamlashgandir.

Keyinchalik sotsial munosabatlarni ham keng, ham tor ma'noda talqin qilish jarayonlari takomillashib bordi. Albatga yuqorida keltirilgan ta'riflar bu munosabatlarni materializm ta'limoti metodologiyasi asosida shakllangan ko'rinishidir. Sotsial munosabatlarga berilgan ta'riflar bir-birlaridan shakl jihatidan farqlansalar ham lekin mazmun jihatidan bir-birlaridan deyarli farqlari yo'q, deb ta'kidlansa mubolag'a bo'lmaydi. Chunki ularning asosini materialistik dialektika metodologiyasi tashkil qiladi. Shuning uchun sobiq Ittifoq adabiyotida sotsial munosabatlar muammosi tarixiy materializmning qonun va kategoriyalaridan kelib chiqib yoritilgan haqiqiy sotsiologik muammo sifatida sotsial munosabatlar tahlil qilinmagan. Shuning uchun sotsiologiya mustaqil fan sifatida tan olinmay unga faqat sotsial muammolarni, falsafiy tadqiqotlarining xulosalarini o'zining emperik tadqiqotlari bilan asoslash vazifalari yuklatilgan edi. Demak yuqorida ko'rsatilgan sabablar tufayli ijtimoiy jarayonlarni o'rganish, xususan sotsial munosabatlar muammosi ham faqat falsafiy ruhda olib borilgan. Sotsial munosabatlarni o'rganishning yana bir kamchiligi shundaki muammoga faqat bir yoqlama, moddiylik, ya'ni materialistik prinsiplari asosida yondashilgan.

Buning natijasida esa tadqiqotlar sayoz va bir yoqlama natijalarni berdi. Negaki bunday metodologiya ijtimoiy jarayonlarni o'rganishda ob'ektiv shart-sharoitni birlamchi o'ringa qo'yadi, sub'ektiv omil esa unga aktiv ta'sir ko'rsatadi va u ikkilamchi vaziyatdadir.

Bu yo'nalishga qarama-qarshilik yondashuvda boshqa ko'pgina ta'limotlar va yo'nalishlar ijtimoiy olamni o'z uslub va metodologiyasi bilan o'rganadilar. Jumladan sotsial munosabatlar masalalari g'arb mutaffakirlari tomonidan ham o'z metod va metodologiyalari jihatidan keng tadqiq qilingan. O. Kont o'zining pozitivistik ta'limotida sotsial munosabatlar muammolarini xuddi biologik hodisalar metodi bilan o'rganish prinsiplarini keng targ'ib qiladi. Pozitivistik — naturalistik yo'nalishning ashaddiy raqibi bo'lgan fenomenologik sotsiologiya sotsial hayot va sotsial munosabatlarni bunday uslubda talqin qilganligi uchun O. Kont va uning izdoshlarini keskin tanqid qiladi. Naturalizmning bu jiddiy kamchilik va jiddiy hatoliklarini bartaraf etish uchun fenomenologik sotsiologiya inson ongining faolligi muammo echimining asosiy omili deb isbotlashga intiladi. Bu yo'nalish vakillarning fikricha faqatgina insonning tafakkuri tufayli sotsial voqelikni va sotsial munosabatlarni, konstruksiyalash (yaratish) mumkin bo'ladi. Chunki sotsial real va sotsial munosabatlar insonning interpretatsiy faoliyat orqaligina vujudga keladi. Fenomenologik sotsiologiyaning taniqli vakillaridai biri D. Sylverman

yuqoridagi g'oyalarning asoslash uchun pozitivistik sotsiologiya nazariyasini tanqid qiladi.

Albatta, bu ijtimoiy fikrlar vujudga kelgandan beri ancha vaqtlar o'tdi, yangi jug'rofiy — siyosiy makonlar paydo bo'ldilar eng muhimi esa totalitar tuzumi barham topib yangi davlatlar vujudga kelishdi, yangi jamiyatda bir partiyaviylik hukumdorligi emirildi va mustaqil suveren davlatlar bo'ldilar. Endi esa jamiyatdagi jarayonlarni, jumladan sotsial munosabatlar muammolarini keng plyuralistik prinsip orqali tadqiq qilish davri keldi. Bu prinsip orqali, sotsial munosabatlarni muammo va vazifalarini turlicha tahlil qilish imkoniyati tug'iladi. Ushbu ijobiy imkoniyatlarning hosili sifatida respublikamizda sotsial munosabatlar muammolari jahon ilmiy tafakkurining har hil yo'nalishlarini natijalari asosida tadqiq qilinayotganligi ajratib ko'rsatish mumkin. Huloosa qilib aytganda sotsial munosabatlar muammosini yangi, yuqori ilmiy darajada tadqiq qilish imkoniyatlari vujudga keldi. Endi bu muammoni konkret sotsiologik tadqiqot bilan o'rganish joiz. Chunki sotsiologiya nafaqat bu muammoni, balki butun ijtimoiy hayot jarayonlarini keng qamrovda kompleks xarakterda va amaliy natijalar asosida chuqur tadqiqot qiladi.

BIRDAMLIK VA KOOPERATSIYA JAMIYATNING BARQARORLIGINI ASOSIY OMILI SIFATIDA

Sotsial birdamlik tushunchasi sotsial munosabatlar tizimida muhim o'rin tutadi. Chunki birdamlik — bu ko'pgina ma'naviy omillarning majmuasidan tashkil topgan sotsiologik kategoriya bo'lib, u ijtimoiy hayotda faoliyat ko'rsatayotgan insonlarning ijtimoiy taraqqiyot masalalarini hal qilishlaridagi hamkorligining ko'rinishidir. Avvalom bor shuni ta'kidlab o'tishimiz joizki sotsiologiya faniga bu termin sotsial jiplashuvni bildiradigan tushuncha sifatida birinchi bo'lib O. Kont tomonidan kiritilgan edi. Bu muammoga ko'pgina mutafakkirlar o'zlarining keng e'tiborlarini qaratganlar. Ayniqsa E. Dyurkgeym, G. Spenserlar bu muammoni chuqur tahlil qilganlar, lekin ular o'z tadqiqotlarini turli xil yo'nalishlarda olib bordilar. E. Dyurkgeymning fikricha sotsial birdamlikning bu ahloqiy prinsip va oliy universal qadriyat bo'lib, u jamiyatning har bir a'zosi tomonidan tan olinadi. O. Kont va G. Spenserlarning tadqiqotlarida sotsial birdamlikni asosini iqtisodiy manfaatlar tashkil qilishi markaziy o'rin egallaydi. G. Spenser o'zining birdamlik ta'limotida majburiy va ko'ngilli birdamlikni ajratib ko'rsatadi. Uning fikricha kishilik jamiyati o'zining rivojlanish yo'lida 2 ta harbiy va

sanoat davrlari bo‘linadi. Harbiy turdagi jamiyat ierarxik tartibli jamiyat va kuchli markazlashgan nazorat bilan xarakterlanadi. Butun hayot bu yerda intizomga asoslangan. Sanoat turidagi jamiyat esa osoyishta ijtimoiy hamkorlikning erkin shakllarini ifoda etadi. Muammoni xuddi 2 ta jihatga ajratib tahlil qilishni D. Dyurkgeymning ham ilmiy faoliyatida ko‘rish mumkin. U o‘z ta’limotini mexanik va organik birdamlik ajratadi. Rivojlanmagan va eski jamiyatlarda hukmronlik qiladigan birdamlikni Dyurkgeym mexanik birdamlik deb ataydi.

Mexanik birdamlik — bu «jamoat turidagi» birdamlik bo‘lib, u bu jamoadagi individlarning o‘xshashliklari bilan belgilanadi va ular tomonidan ijtimoiy vazifalar bir xil turda bajariladi» Jamiyatda ijtimoiy mehnatning taqsimlanishi tufayli individlar maxsus vazifalarni bajaradilar va bu hislatlar sababli jamiyat jonli organizmni eslatadi. Shu jamiyatda vujudga kelgan yangi turdagi birdamlikni Dyurkgeym organik birdamlik deb ataydi. Mehnatning taqsimlanishi individlarda o‘zlariga xos qobiliyatlarning rivojlanishiga omil bo‘ladi. Endi har bir individlar bir-birlariga bog‘liq bo‘ladilar va ular sotsial munosabatlarning yagona tizimi orqali birdamlik tuyg‘ulariga erishadilar.

Ko‘p G‘arb olimlari ijtimoiy mulkka asoslangan kooperatsiyaning sermahsulligini inkor etib keladilar. Ularning fikricha butun jamiyat bilan ishlab chiqarish vositalaridan foydalanishning iloji yo‘qdir. Shuning uchun ularni ya'ni bu vositalarni gurular mulki qilib berishni taklif qiladilar. Agar ishlab chiqarish vositalari ijtimoiy mulk xususiyatiga ega bo‘lsa «ma'muriyat» xalqdan ajralib qoladi va shu sabab orqali byurokrat boshqaruvchilar tashkiloti vujudga kelishi mumkin. O‘z-o‘zidan tabiiyki bu jarayonlar tufayli ishchilar o‘zlarining mehnatlaridan manfaatdorlikni his qilmaydilar.

Mazkur tahminlarning aksariyati o‘z isbotlarini topdilar. Ayniqsa mustamlakachilik davrida bizning diyorda sohta birdamlik asosida kooperatsiyalashtirish ko‘plab salbiy oqibatlarini keltirib chiqardi. Mehnatning ijtimoiy taqsimoti va kooperatsiya niqobi ostida bizning xudud hom-ashyo etishtiradigan respublikaga aylandi. Jamiyatimizda tub ma'noda birlashma jarayoni faoliyat ko‘rsatmadi.

3. BEGONALASHUV VA TANAZZUL IJTIMOIIY OQIBATLAR

Hozirgi jamiyat hayotida quyidagn begonalashuv turlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1. Iqtisodiy 2. Siyosiy 3. Madaniy 4. Ijtimoiy 5. Ruhiy. Bu begonalashuv turlari o'zlarining ma'lum bir shakllariga egadirlar. Masalan iqtisodiy begonalashuv uchta shaklga ega: 1. Faoliyatdan begonalashuvi: 2. Faoliyat boshqaruvidan begonalashishi: 3. Faoliyat natijalaridan begonalashishi: Siyosiy begonalashish siyosiy hokimiyatdan begonalashishdan; madaniy begonalashish manaviyatdan, madaniyatdan; ijtimoiy begonalashish muloqatdan, insonlarning bir-biridan; psixologik begonalashuv o'z-o'zidan begonalashishdan iborat bo'ladi.

Begonalashuv jarayoni va tanazzul bir-birilariga bog'liq, hodisalardir. Agar jamiyatda ishlab chiqarish sur'atlari keskin pasaysa, xo'jalik aloqalari uzilsa, pulning qadri tushib ketib narhlar tez sur'atlarda oshib ketsa, boshqaruv tuzilmalari izdan chiqsa va siyosiy tangliklar vujudga kelsa, biz jamiyatning hamma sohalari tanazzulga uchragan deb fikr yuritishimiz mumkin.

Bu chuqur tanazzul insonlarning kuchli begonalashuv olamiga turtib kirgizishi aniq. O'z navbatida begonalashuv jarayoni qanchalik kengaysa tanazzul ham chuqurlashib boraveradi. Masalan, ishlab chiqarish jarayonida mehnatning taqsimlanishi ro'y beradi. Bu esa taraqqiyot uchun qo'yilgan ulkan qadamdir. Lekin shu bilan birgalikda ijtimoiy mulkchilikka asoslangan ijtimoiy munosabatlarning shunday bir turi — ishlab chiqarish munosabatlari shakllanadiki uning asosida bevosita ishlab chiqaruvchi ishlab chiqarish vositalaridan uzoqlashib asta sekinlik bilan o'z mehnatning natijasidan begonalashib boradi. Endi bu ishlab chiqaruvchi shaxs uchun mehnat unumining ham qizig'i yo'q. Marksizm ta'limoti bo'yicha xususiy mulk ijtimoiylashtirilgach ishlab chiqarish vositalariga endi bevosita ishlab chiqaruvchilar umumiy egalik qilishlari kerak edi. Lekin ijtimoiy amaliyotda esa buning aksi bo'lib chiqdi. Siyosiy hokimiyatni bosib olgan proletariat ishlab chiqarish vositalarini endi davlat mulkiga aylantiradi. Sotsialistik revolyutsiya mantiqiga ko'ra bu tadbirlar begonalashuv jarayonini ildiziga bolta urishi kerak edi. Lekin 70 yillik tarix davomida bizga uqtirib kelingan ijtimoiy mulk davlat mulki edi. Bu mulk esa xususiy mulkning eng jirkanch, adolatsiz turi bo'lib chiqdi. Chunki davlat mulki o'zining real egasiga ega emas. U bir mavhum tushuncha edi. Mehnat kishisi esa yana mulkdan begonadir. Davlat mulki esa davlat apparatining xususiy mulkiga aylanib, bu nomenklaturani «yangi» sinfga aylantirdi. Bu salbiy jarayonlar natijasida ishlab chiqarish o'zining haqiqiy egasini topa olmadi.

Siyosiy javhada ham siyosiy hokimiyatdan jamiyatning ko'pgina a'zolari begonalashtirildilar. Ya'ni siyosiy hokimiyat xalq. Hokimiyati

umumxalq hokimiyati deb e'lon qilingan bo'lsada, aslida u ma'lum bir guruhning — elitaning xususiy mulkiga aylandi. Buning asosida esa butun bir xalq davlat siyosiy hokimiyatdan begonalashdi va bu begonalashgan omma bilan nomenklaturaning orasida ulkan jarlik paydo bo'ldi. O'z navbatida bu jarayonlar siyosiy tanazzulga olib keldi va bu tanazzul tufayli tashqi dushman engi olmagani totalitar davlat o'z-o'zidan parchalanib ketdi.

Izdaniya sohadagi begonalashuv ham endigina chuqur salbiy oqibatlarga olib keladigan ma'naviy tanazzulni keltirib chiqaradi. Jamiyatda sog'lom muhitni yaratishda ma'naviyat va madaniyatning o'rni o'zgacha. Chunki ular individlarni barkamol bo'lib shakllanishlariga katta ta'sir ko'rsatadilar. Agar jamiyat a'zolari o'z ma'naviyatlari boy madaniy meroslaridan uzoqlashib ketib, undan begonalashsalar, ular endi o'zlarini kelib chiqishlaridan tortib, to o'z millatlarining ham milliy urf-odatlarini, an'alarini ham inkor qila boshlaydi. Agarda yaqin o'tmishimizga, uning tarixiga murojat etsak ushbu satrlarimizni yaqqol isbotini ko'ramiz. Masalan, boy madaniy merosimizdan begonalashuvimiz bizlarni atoqli adib Chingiz Aytmatovning ta'biricha manqurtlarga aylantiray dedi, ya'ni biz o'z xalqimiz tarixi, milliy ozodlik harakatlari va ularning sarkardalari, dinimiz va o'zligimizdan uzoqlashib qoldik. Davlatimiz mustaqilligiga erishib, madaniy begonalashuvni bartaraf etishni boshladik. Sotsiologiyadagi muhim begonalashuv hisoblangan sotsial begonalashish insonlarni muloqatdan, bir-birlaridan uzoqlashishlari natijasida yuzaga keladi. Inson o'z mohiyatiga ko'ra ijtimoiy xususiyatga egadir o'zaro faoliyat tufayli paydo bo'lgan ehtiyojlar asosida doim insonlar bir-birlari bilan munosabatlarda muloqatlarda bo'lalilar. Muloqatning ijtimoiy ma'nosi shundaki u madaniyat shakllari va ijtimoiy tajribalarni uzatish vositasi bo'lib xizmat qiladi. Lekin iqtisodiy tanazzul ko'pgina insonlarni qiyin iqtisodiy ahvolga solib qo'yadi hamda jamiyat a'zolarining aksariyati bozor iqtisodi munosabatlariga ko'nikishlari qiyin kechishi inflyatsiya ehtiyojlar tizimini cheklash va normallashtirish insonlarda agressivlik johillashishni an'ana va urf-odatlar, ma'naviy qadriyatlarini yo'qotishga sabab bo'ladi. Shu kabi salbiy omillar insollarning bir-birlaridan begonalashuvlarga olib keladi va hamma o'z holicha degan norasmiy qonun paydo bo'ladi.

Ruhiy begonalashuv - bu insonning o'z mohiyatidan uzoqlashishdir. Bu muammoni nemis mutafakkiri Erix Fromm juda yaxshi ishlab chiqqandir. Uning fikricha inson mohiyati doim o'ziga dushmanchilik kayfiyatidagi bo'lgan sotsial tuzilma tufayli rivojlanadi, sotsial tuzilma

ta'siri ostidagi insonni o'z-o'zidan begonalashuvining har bir darajasiga ma'lum bir sotsial xarakter - dunyoparastlik, ekspluatatorlik, retseptiv (andozalik, qolip), bozorga oidlik xosdir.

Zamonaviy jamiyatni E.Fromm inson mohiyatini «mashinalashtirish», «kompyuterlashtirish» va «raqobotlashtirish» jarayonlari yordamida begonalashuv darajasini bir mahsuli deb ta'riflaydi. Bozorga yo'naltirilgan sotsial harakat paydo bo'lib unda iste'molga intilish, ikkilanishlar xissiyoti, markaziy yakkalanib qolishlik va boshqa salbiy holat, hissiyotlar markaziy ahamiyat kasb etadilar.

Xuddi shu yerda psixologik va sotsial begonalashishlikni bir birlari bilan juda uyg'unlashib ketishlarini ko'rish mumkin. Insonlar bir-birlaridan munosabatda, muloqatda begonalashsalar, o'z-o'zidan begonalashish ham yuz beradi, chunki insonlarning bir-birlaridan begonalashuvlari oqibatida, ular yakkalanish, zerikish va hayotga qiziqishlari so'nishi vujudga kelishi mumkin. Buning natijasida insonning o'ziga, kelajagiga, orzu-niyatlariga ishonchi yo'qolib, u o'zini begona deb hisoblaydi va bu jarayon ko'pgina salbiy oqibatlarga olib keladi. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jamiyat hayotidagi turli xil begonalashuv jarayonlari tezroq ilmiylik va uyg'unlik asosida bartaraf qilinsagina jamiyat sog'lom sharoitda taraqqiy etadi va salbiy ijtimoiy hodisalarning o'z vaqtida olinadi. Masalan, mehnatdan begonalashishlikni bartaraf etish uchun birinchi galda insonlarning o'z mehnatlari natijalaridan manfaatdor bo'lishlari va uning oqibatida esa ularni mehnatga bo'lgan munosabatlarini tubdan o'zgartirib, ularni qiziqish va kuch-g'ayratlari bilan ishlashlarini tashkil etish kerak.

Ishlab chiqarishni boshqarishdan begonalashish muammosini bartaraf etish ham juda muhim ma'no kasb etadi. Buning uchun ishlab chiqarish munosabatlarini chuqur demokratiyalashtirish, korxonalar, tashkilot va muassasalardagi mavjud boshqaruv tizimlarini demokratik yo'llar bilan takomillashtirish va ishchi-xizmatchilarga xo'jalik egasining aniq vazifasi va mas'uliyatlarini topshirish kerak.

Madaniyatdan begonalashuvni bartaraf etish uchun madaniy merosga munosabatni takomillashtirib borish, jamiyatning har bir a'zosi ma'naviy qadriyatlardan yaxshi xabardor bo'lishi va madaniy qurilishga etarli mablag' ajratilishini ta'minlash zarur.

Ijtimoiy begonalashuvni bartaraf qilish uchun insonlarni bir-birlari bilan munosabatlari, muammolarini haqiqiy birdamlik va g'amxo'rlik asosiga qurish kerakki, shunda har bir inson o'zini boshqalar uchun ham kerak ekanligini chin yurakdan sezsin.

Ruhiy begonalashuvni bartaraf etish choralar sotsial begonalashuvni

bartaraf etishning uzviy davomidir. Inson o'zini kimgadir kerakligini ruhan his qila olsagina u hech qachon tushkunlikka tushmaydi. Yakkalanish, iztirobga tushish xavfidan xalos bo'ladi, oqibatda uni o'z-o'zidan, o'z mohiyatidan begonalashuviga hech qanday sabab qolmaydi.

Biz ko'rayotgan bugungi yangi jamiyat o'z oldiga bu begonalashuv jarayonlarni tezroq bartaraf etib, haqiqiy rivojlanishga, erkinlikka, ozodlikka erishish uchun hozirgi qiyinchiliklarni sobitqadamlik bilan engib bormoqda. Yaqin yillar ichida bu harakatlarning natijalarida albatta yuzaga chiqadi, deb umid qilishga hamma asoslar mavjuddir.

7. SOTSIAL DINAMIKA VA RIVOJLANISH SOTSILOGIYASI

«Sotsial dinamika» tushunchasini ham sotsiologiya fani nomini kashf qilgan fransuz mutaffakiri Ogyust Kont ishlab chiqqan. To'g'ri, hamma sotsiologiya tizimlarda «sotsial dinamika» atamasini bevosita qo'llaniladi deb aytish qiyin. Shunday bo'lsada, Kont ta'riflagan bu sotsiologik yondashuv turli xil ijtimoiy tadqiqotlarda nazariy yo'llanma sifatida ishtirok etmoqda. Jumladan, rus-amerika sotsiologi P.Sorokin o'z sotsiologik tizimidagi sotsial genetika yoki genetik sotsiologiya O. Kontning sotsial dinamikasiga mos kelishini qayd qilgan edi. Ko'p sotsial dinamika nima?

O.Kont sotsiologiyasida sotsial dinamika jamiyat hodisalarini o'rganishdagi muayyan yovdashuvni bildiradi. Aslida, dinamika mexanikaning jismlar harakatini va harakat bilan uni yuzaga keltiruvchi kuch o'rtasidagi bog'lanishlarni o'rganadigan bo'limidir. Umumiy ma'noda dinamika harakat holatini, narsa-hodisalarning o'sish, o'zgarish, rivojlanish jarayonini anglatadi. Sotsiologiyani fiziologiyaning bevosita davomi yoki «sotsial fizika» deb hisoblagan Kont ijtimoiy voqelikni tabiiy qonunlarini topishga harakat qilgan edi. Ana shu vazifani amalga oshirish uchun ijtimoiy voqelik ikki yo'nalishda — sotsial statika yo'nalishida va sotsial dinamika yo'nalishida ko'rilishi lozim. Sotsial statika ijtimoiy elementlarning o'zaro muvozanatini, mavjudlik qonunlarini o'rganadi. Ijtimoiy elementlarining o'zaro uyg'unligini, ularning o'zaro muvozanatlashgan tarzda mavjudligini jamiyatni yaxlit butunlik deb qarashga imkon beradi. Shuning uchun ham jamiyat alohida o'ziga xos tizim bo'lib, bunda eng muhimi elementlarning o'zaro aloqasidir. Sotsial statika har qanday jamiyat barqarorlik, muvozanat holatini, asosiy tartibotni o'rgansa, sotsial dinamika jamiyatdagi o'zgarish, rivojlanishning

izchilligi, birin-ketinligini ochib beradi. Shunday qilib, sotsial dinamika jamiyatning o'zgarish va rivojlanish holatlarini, ijtimoiy o'zgarishlarning ichki (endogen) va tashqi (ekzogen) omillarini ifodalovchi sotsiologik kategoriya deb qaralishi mumkin. Jamiyatni tashkil etuvchi sotsial guruhlar, individlar, tabaqalar, qatlamlarning harakatlarini sotsial dinamikaning sotsial mobillik (lotincha mobilis-harakatchan, o'zgaruvchan) va sotsial o'zgarishlar deb ataladigan ko'rinishlarni ifodalaydi. Sotsial mobillik tushunchasini sotsiologik tadqiqotlar doirasiga P.Sorokin kiritgan edi. Sotsial mobillik kishilarning muayyan ijtimoiy guruh va tabaqalardan boshqalariga o'tishlarini (sotsial o'zgarishlar), shuningdek, ayni bir sotsial tabaqa doirasida mashg'ulotlarning almashtirishini anglatadi. Sotsial mobillik tushunchasi guruhlar va bir butun jamiyatlar «ochiqligi» yoki «yopiqligi»ni tavsiflash uchun ishlatiladi. Intergeneratsion (avlodlar orasidagi) va integeneratsion (avlod ichidagi) sotsial mobillik ajratiladi. Sotsial holatning otadan o'g'liga (kamdan-kam hollarda onadan qiziga) o'tishi generatsion sotsial mobillikka, sotsial ko'tarilish yoki sotsial pasayish bilan bog'liq, individual belgilar esa intrageneratsion sotsial mobillikka misol bo'ladi. O'zgarishlar yo'nalishiga qarab vertikal (ko'tarilish va pasayish) va gorizontal sotsial mobillik farqlanadi. Sotsial mobillikning empirik ko'rsatkichi bo'lib o'zgaruvchanlik-mobillik barqarorlik-stabillik indeksi xizmat qiladi. Bu indeks tekshiralayotgan guruhdagi mobil va stabil shaxslar nisbatidan olinadi. Bundan tashqari, mobil (o'zgaruvchan) shaxslarning jinsi, ma'lumot darajasi, «aqli rasolik koeffitsienti», millati, irqi, turar joyi, sog'-salomatligiga qarab ham sotsial mobil shaxslarning miqdoriy ko'rsatkichlari o'rtasidagi korellyatsiya (mos keluvchi) koeffitsientlar hisoblanishi mumkin. Sotsial mobillikni o'lchashda turli xil imkoniyatlarning mavjudligi miqdoriy analiz qo'llanishidan kelib chiqadi. Sotsial mobillik darajasini aniqlash yordamida u yoki bu jamiyatni «an'anaviy», «zamonaviy», «industrial», «postindustrial» va hokozolarga bo'lish mumkin.

Sotsial differentsiatsiya va sotsial integratsiyani sotsial mobillik va o'zgartirishlar oqibati deb qarash mumkin. Sotsial differentsiatsiya tushunchasi birinchi bo'lib G.Spenser tomonidan qo'llanilgan. Uning fikricha, ijtimoiy evolyutsiya bir vaqtning o'zida differentsiatsiya (bir xillikdan ko'p xillikka o'tish: mehnat taqsimoti, maxsus sotsial institutlar paydo bo'lishi) va integratsiya (organlarning bir-birlariga tobora muvofiqlashib borishi, oddiydan murakkabga o'tishi, umumiy aloqadorlik takomillashuvi), ijtimoiy tartibot mukammalashuvidan iboratdir. E.

Dyurkgeym sotsiologik tizimida ham jamiyatdagi differentsiatsiya va integratsiya jarayonlariga e'tibor bergan. U differentsiatsiyani aholi zichligining oshishi va shaxslararo va guruhlararo muloqatlar sur'atiga bog'lab tushuntirgan. Odatda differentsiatsiya tushunchasi «tafovut» so'zining sinonimi sifatida ishlatiladi. Bu holda u rollar, statuslar (maqomlar), institut va tashkilotlarni turli mezonlar yordamida klassifikatsiya qilishga yordam beradi. Strukturaviy funksionalizm va sistemali yondashuv tarafdorlari (Parsons, Ettsoni va b.) sotsial differentsiatsiya bilan sotsial sistemani o'z-o'zini saqlashning sharti deb qaraydilar. Bunda sotsial differentsiatsiyaning yaxlit jamiyat, uning ostki tizimlari, guruhlari darajasida ko'rinishlari qat'iy farqlanadi. Ularning fikricha, quyidagi hayotiy muhim vazifalar - muhitga moslashish, maqsadlarini qo'ya bilish, ichki ixtiloflarni bartaraf etish (integratsiya) va hokozolar bajarilgandagina muayyan tizim mavjud bo'la olishi mumkin. Bu vazifalar esa faqat ozmi-ko'pmi maxsuslashgan institutlar tomonidagina bajarilishi mumkin. Demak, bunga muvofiq sotsial tizimlar ozmi-ko'pmi differentsiatsiyalashgan (tabaqalashgan) bo'ladi. Sotsial differentsiatsiya o'sishi bilan faoliyatlar ko'p maxsuslashib boradi, shaxsiy va oilaviy aloqalar o'z o'rnini borgan sari odamlar o'rtasidagi shaxssiy narsaviy munosabatlarga bo'shatib beradi. Bu munosabatlar ko'proq ramziy vositalar bilan boshqariladi (masalan, iqtisodiy munosabatlar uchun bunday vositachi-pul). Sotsial integratsiya (lot. integratio — to'ldirilish, tiklanish; integer yaxlit, butun) sotsial differentsiatsiya nisbatdosh tushunchadir. Hozirgi zamon sotsiologiyasi tizimlar nazariyasidagi integratsiya tushunchasidan foydalaniladi. Unga ko'ra, integratsiyada alohida differentsiatsiyalashgan qismlarning bir butun qilib turuvchi aloqa va shu holatda olib keluvchi jarayon tushuniladi. Integratsiya turli xil sotsial sub'ektlar—individlar, tashkilotlar, davlatlar va hokozolar o'rtasida ihtilofsiz munosabatlar bo'lishini ko'zda tutadi. Sotsial tizimlar integratsiyasining darajasi va mexanizm to'g'risidagi qarashlar tarihan o'zgarib kelgan.

Hozirgi jamiyatda integratsiya muammolari bir qator mexanizmlar yordamida hal qilinmoqda. Umumiy huquqiy tizimlar, ko'ngilli assotsiatsiyalar, hamjamiyat a'zolari huquq va imtiyozlarini kengaytirish, ramziy vositalar umumiylik darajasini oshirish va hokozolar ana shulardan iborat. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Evropa hamjamiyati, qolaversa, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi va boshqalar bunga misol bo'la oladi.

Funksional bo'lmagan sotsiologik yo'nalishlar tarafdorlari (Bendiks, Gouldner) funksionalchi sotsiologlar sotsial integratsiya ahamiyatini

mutloqlashtirishdan ogohlantiradilar. Ularning fikricha, haddan tashqari, batamom sotsial integratsiya amaliy nuqtai nazardan hatto zararlidir, chunki u sotsial tizimni harakatsiz va mo'rt qilib qo'yadi.

Bajaradigan vazifalari, sohalariga qarab sotsial dinamikaning quyidagi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Reproduktiv dinamika. Sotsial dinamikaning bu turi tug'ilish, ishlab chiqarish, ekologiyaning sotsial jihatlarini o'z ichiga oladi. Aholi sonining o'sishi, tug'ilish miqdori, ularni belgilovchi omillar reproduktiv sotsial dinamika sohasiga kiradi. Ishlab chiqarish, ekologiya va sotsial sub'ektlar reproduktiv o'rnamalarga aloqador bo'ladi.

2. Maqom (status) sotsial dinamikasi. U o'z ichiga xizmat lavozimlarida ko'tarilishi yoki pasayishni, turmush darajasi va sifatini qamrab oladi.

3. Hududiy sotsial dinamika. Aholi ko'chishlari sur'ati va miqdorlarining sotsial jihatlarini, katta shaxar vujudga kelishi bilan paydo bo'lgan sotsial muammolar, ishlab chiqarishning joylashtirilishi uning sotsial oqibatlari hududiy(territorial) sotsial dinamika ob'ektlaridir.

4. Ma'naviy hayot dinamikasi manfaatlar, qadriyatlar, fikrlar, normalar harakati, o'zgarishi va rivojlanishi bu soha doirasida bo'ladi.

5. Siyosiy dinamika jamiyat sotsial-sinfiiy tarkibi, hokimiyat shakllari o'zgarishini tushuntirib beradi.

6. Fan-texnika dinamikasi. Fan-texnika taraqqiyotining sotsial jihatlarini, ishlab chiqarish vositalari o'zgarishlarining ijtimoiy sub'ektlari hayotiga ta'siri, axborot va kommunikatsiya bilan bog'liq sotsiodinamik o'zgarishlar fan-texnika dinamikasiga kiradi.

Sotsial dinamika abstrakt, mavhum qonuniyat ifodasi emas. Har bir mintaqa, ijtimoiy tuzumda o'ziga xos sotsiodinamikani ko'rishimiz mumkin. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, o'tkazilajak sotsiologiya tadqiqot albatta mintaqaviy, maxalliy sharoitlarga mos «tuzatish koeffitsientini ham o'z ichiga olishi lozim.

Sotsial dinamika vertikal (yuqori va pastga) va gorizontal (ya'ni, parallel tomonga) yo'nalishi ro'y berishi mumkin. Yuqorida keltirilgan barcha sotsial dinamika turlarini vertikal va gorizontal yo'nalishda tekshirish mumkin. Jumladan, sotsial-sinfiiy struktura elementlari harakati sotsial stratifikatsiya yondashuvi asosida qaralganda buni yaqqol ko'rish mumkin. Sotsial stratifikatsiya (lot. strato — to'shama, qatlam) sotsiologiya tushunchasi bo'lib, bu tushuncha umuman jamiyatning, ayrim sotsial guruhlarining tarkibini, ularning eng turli-tuman belgilariga: daromadi, malakasi, ma'lumoti va hakozi darajasiga qarab odatda ierarhiya

(yuqori va quyi) tarzda joylashgan ijtimoiy qatlamlariga bo‘linishini tavsiflaydi. Funktsionalizm nuqtai nazaridan, sotsial stratifikatsiya tizimi jamiyatdagi sotsial rol va mavqelarning differentsiyasi bo‘lib, u har qanday jamiyatning ob'ektiv ehtiyojidir. Sotsial stratifikatsiya, bir tomondan, mehnat taqsimoti va sotsial differentsiatsiyaning, ikkinchi tomondan esa, jamiyatda hukmron bo‘lgan u yoki bu faoliyatning ahamiyatini, mavjud sotsial tengsizlikni qonunlashtiradigan qadriyatlar va madaniyat standartlarning natijasidir. Funktsionalizm nazariyasida sotsial stratifikatsiya nazariyasining amaliy ahamiyati sotsial integratsiya talab va ehtiyojlari bilan asoslantiriladi. Sotsial stratifikatsiyaning «amaliy» ahamiyati shundaki, u turli xil rag‘batlantirish vositalari orqali sotsial rollarning aniq tushunilishi va bajarilishiga xizmat qiladi.

Hozirgi zamon sotsiologiyasida, stratalarning yagona ta'rifini hamma sotsiologlar so‘zsiz tan oladigan definitsiyani topish qiyin. Biroq, aksariyat tadqiqotchilar uchun umumiy bo‘lgan tomon ham bor. Bu stratalar o‘rtasidagi vertikal aloqalarning o‘ziga xos «lift» va «eskalatorlar» amalga oshuvidir. Jamiyatning turli sohalarida stratalardan stratalarga harakatni ko‘rish mumkin. Masalan, iqtisodiyot sohasida — har bir odam millioner bo‘lishi mumkin; siyosatda — yirik siyosiy mansabga erishish mumkin; armiyada — har bir askar general bo‘lishi mumkin; diniy faoliyat sohasida — oliy diniy martabaga ko‘tarilish imkoniyati mavjud; fan — bu faoliyatning nisbatan zoe ketadigan sohasi bo‘lib, biroq bunda ilgarilash mumkin; nikoh orqali — foydali nikob vositasida jamiyatning eng yuqori pog‘onalari goyat tez ko‘tarilishi mumkin. Kishilarning sotsial zinapoyadagi yuqoriga qarab siljishga intilish — ijtimoiy taraqqiyot harakatlantiruvchi kuchidir. Odam bir vaqtning o‘zida bir strataga kirishi mumkin. Bu stratalar institutsional, norasmiy mezonlar asosida ajratib ko‘rsatilishi mumkin ularga mos bo‘lgan sotsiodinamika ham mavjud. Aytaylik, ma'lum bir odam iqtisodiy tizimda tobe mavqeni egallashi, boshqa tizimda (qiziqishlar bo‘yicha klubda, futbol klubida va hakoza hukmron bo‘lishi mumkin.

Hozirgi zamon demokratik-huquqiy jamiyatlarda va jamoatchilik fikri munosabati g‘oyat dolzarb hisoblanadi. Hokimiyat va jamoatchilik fikri sotsiodinamikasi — hokimiyat saylovi oldidan nomzodlar, ularning dasturlarini baholashni saylovchilar e'tibori qarorlarni tanlashning mexanizmini o‘rganishga yordam beradi. Kishilarning saylov kompaniyasi davridagi faoliyatini belgilovchi sabablar ierarhal zanjir: mamlakat tashqi va ichki muammolari, siyosiy an'analar, mikroguruhlar, birlamchi jamoalar tazyiqi o‘rganiladi.

«Sotsial rivojlanish» sotsiologiyaning muhim tushunchalaridan hisoblanadi. Hozirgi zamon sotsiologiyasining etmishdoshlari deb aytsa boʻladigan qadimgi va oʻrta asr Sharq va Gʻarb ijtimoiy falsafasi vakillari Konfutsiy, Aflotun, Suqrot, Arastu, Forobiy, Beruniy, Foma Akvinskiy, Ibn Xaldunlar jamiyat rivojlanishi omillari, harakalantiruvchi kuchlari, kelgusi jamiyat «loyihasi» va unga erishish yoʻllari haqidagi masalalar oʻz tarixiy davrlari chegarasida qoʻya bilishgan edi. Ayniqsa, ularning ijtimoiy rivojlanishni abstrakt, mavhum tarzda emas, balki hayotiy muammo sifatida taxlil qilishgani diqqatga sazovordir. Jumladan, Abu Nasr Forobiy shunday yozgan edi: «Insoniy vujudan maqsad — eng oliy baxt — saodatga erishuvdir, avvalo u baxt — saodatning nima va nimalardan iborat ekanligini bilishi, unga erishuvni oʻziga gʻoya va eng oliy maqsad qilib olishi, butun vujudi bilan maftun boʻlishi kerak. Keyin bu baxt saodatga olib boradigan ish-amal va vositalarning nimalardan iborat ekanligini bilib olishi zarur. Soʻngra esa baxt saodatga ergashtiradigan ishlarni shaxsan bajarishga kirishmogʻi lozim boʻladi.

Yangi davr maʼrifatchilari (Volter, Kondorse, Tyurgo, Gerder)ning sotsial taraqqiyot haqidagi gʻoyalari bilan tanish boʻlgan. Sen-Simonning shogirdi. O. Kont sotsial rivojlanishni «sotsial dinamika» nuqtai nazardan tushuntirishga harakat qilgan. Uningcha sotsial dinamika insoniyat jamiyati rivojlanishini ketma-ketligi, bosqichma-bosqichligini qonunlarini oʻrganish bilan shugʻullanadi. Kontning «Pozitiv falsafa kursi» (1830—1842) kitobida koʻrsatilishicha, «uch bosqich qonuni» mavjud boʻlib, unga koʻra insoniyat oʻzining ilgarilanma harakatida uch bosqichni: toelogik, metafizik va pozitiv bosqichlarni oʻtadi. Bir bosqichdan ikkinchi bosqichga oʻtish xos evolyutsiya boʻlib, unda jamiyatning rivojlanishi ifodalanadi. O. Kontga ohangdosh boʻlgan evolyutsiya haqidagi gʻoyalar G. Spenserda ham bor. Evolyutsiya, Spenser fikricha, tajribaning eng umumiy elementi boʻlib, tabiatning ham, jamiyatning ham barcha hodisalari tushuntirish imkoniyatini beradi. Uning «Sotsiologiya asoslari» deb nomlangan kitobining asosiy biologik va ijtimoiy organizm oʻrtasidagi oʻxshashlikdir. Lekin bu oʻxshashlik mutloq emas. Sotsial taraqqiyotning muhim mezonini, G. Spenser fikricha, shaxsni butunlay oʻziga boʻysundirib olgan jamiyatdan, ijtimoiy organizm, uni tashkil oʻziga buysundirib olgan jamiyatdan, ijtimoiy organizm, uni tashkil etuvchi individlarga «xizmat» qiluvchi holatga oʻtishdir. Jamiyat taraqqiyotining quyi bosqichiga (garchi, uni hali toʻla oʻtib boʻlgan deb aytish boʻlmasada) birinchisi, yaʼni majburiy hamkorlikka asoslangan «harbiylashgan jamiyat», yuqori bosqichiga esa — ikkinchisi, yaʼni ixtiyoriy hamkorlikka asoslangan

«sanoatlashgan jamiyat» mos keladi.

Fransuz sotsiologi Emil Dyurkgeymda sotsial taraqqiyot haqidagi g'oyasi mehnat taqsimotiga bog'lab tushuntiriladi. Ijtimoiy rivojlanish, uningcha mexanik birdamlikka asoslangan jamiyatda mehnat taqsimotiga asoslangan organik birdamlik, hamkorlik jamiyatiga o'tishdir. Dyurkgeym sotsial taraqqiyotni ta'minlovchi omil deb mehnat taqsimoti deb qaraydi. Mehnat taqsimoti segmentar jamiyatning bardam topishiga va organik birdamlikka asoslangan jamiyatga o'tilishiga imkon beradi. Yagona evolyutsiya zanjirining dastlabki halqasi bo'lgan mexanik birdamlikka asoslangan jamiyatda sotsial struktura bir xil segmentlar sifatida bo'ladi. Segmentlar (qismlar — A.X.) iqtisodiy nuqtai nazardan deyarli mustaqil, avtonomdir; ularning ijtimoiy tashkilotlarida qarindoshlik ustun bo'ladi. Ularda ijtimoiy mehnat taqsimoti uchun ham extiyoj, va imkoniyat mavjuddir. Mexanik birdamlik rivojlanmagan, primitiv jamiyatlarga hosdir. Birdamlikning bu ko'rinishi individni jamiyat bilan «hech qanday vositachiliksiz» bog'laydi. Mexanik birdamlik — birdamlikning «jamoaviy» tipi bo'lib, uni tashkil etuvchi individlar bir birlariga o'xshash, ular bajaradigan ijtimoiy vazifalar ham bir xil, ularning shaxsiy xususiyatlari rivojlanmagan bo'ladi. Bunday jamiyatda individ o'ziga o'zi ega emas, u «jamiyatga tegishli narsadir», Dyurkgeym bo'yicha, bu jamiyat individning ongi jamoa ongining oddiy mahsulidir, zotan, umumiy, jamoaviy ong bo'lishi mexanik birdamlik bo'lgan jamiyatning asosiy belgisidir.

Jamiyat asta-sekin o'zgarib boradi. Loqal segmentlar chegarasi buzila boshlaydi, chunki, turli xil ijtimoiy aloqalar vujudga kela boshlaydi. Aloqa yo'llari va vositalari rivojlanadi, aholi tobora ko'payadi, shaharlar o'sa boshlaydi, aholi moddiy va ma'naviy zichligi oshadi va mehnat taqsimoti keng tarqala boshlaydi. Kishilarning ongi tobora tabaqalashayotgan mehnat taqsimotiga va murakkablashayotgan ijtimoiy tashkilotga mos kela boshlaydi. har bir individ tirik organizmni eslatadi va shuning uchun ham unda vujudga keladigan birdamlikni yangi ko'rinishini Dyurkgeym organik birdamlik deb atagan edi.

Dyurkgeym sotsial taraqqiyotning etakchi omili mehnat taqsimoti deb qaragan bo'lsa-da, bu jarayonni avtomatizm tarzida ifodalashdan yiroq edi. Jumladan, haddan tashqari ixtisoslashuv olib kelgan salbiy oqibatlarni bartaraf etish uchun ijtimoiy birdamlik, hamkorlik organlari—professional uyushmalar tashkil etish g'oyasi Dyurkgeym sotsial taraqqiyot konsepsiyasida muhim o'rin tutadi.

P.Sorokin «sotsial genetika»sida uning ijtimoiy taraqqiyot g'oyasi

ilgari surilgan. Uningcha, «genetik sotsiologiya» yoki «sotsial genetika» sotsial evolyutsiya nazariyasi boʻlib, u butun jamiyatning yoki uning muayyan tomonlari, institutlari rivojlanish chizigʻini yoki tarixiy tendensiyalarini, shuningdek, bu tendensiyalardan ogʻish va chekinishlarni tushuntirib beradi. Sorokin birinchilardan boʻlib sotsiomadaniy oʻzgarishlar dinamikasi nazariyasini ishlab chiqdi. Bu nazariya boʻyicha, ijtimoiy voqelik oʻzgarishi qonunli jarayondir. Muayyan ijtimoiy — madaniy ulkan tizimlar (supersistemalar) bir-birlari bilan dialektik ravishda almashinadi. Muayyan jamiyat hukmron boʻlib turgan dunyoqarashning «oʻtmaslashib qolishi» uning boshqa dunyoqarashga oʻrnini boʻshatib berishga olib keladi. Bu oʻz navbatida ijtimoiy muassasalar va normalarning oʻzgarishiga, jamiyatning tubdan oʻzgarishiga olib keladi. Jamiyatni bogʻlab, birlashtirib turuvchi bir asos emirilishni va boshqa muqobil madaniy tarzning (etosning) hukmronlikka intilishi ijtimoiy, madaniy inqiroz, urush va boshqa ijtimoiy toʻfonlarga olib kelishi mumkin. Masalan, Sorokin fikricha, birinchi jahon urushi va 1917 inqilobi Gʻarbiy Evropa ijtimoiy-madaniy tizimidagi toʻntarishlar natija boʻlib, ularning oʻzi keyingi ijtimoiy larzalarga olib keladi.

Sotsiolog adabiyotda, shuningdek, qator ijtimoiy fanlar doirasida «sotsial rivojlanish», «sotsial bosqich», «sotsial taraqqiyot» tushunchalari koʻp xollarda sinonim sifatida ishlatiladi. Oʻquv va ilmiy ish manfaatlari bu tushunchalarni konkretlashtirishni, ularning oʻz oʻrnida ishlatilishini talab etadi. Sobiq, shoʻro jamiyatshunosligi aqidalariga muvofiq sotsial rivojlanish sifatli oʻzgarishlar (revolyutsiya) va miqdoriy oʻzgarishlar (evolyutsiyaning) dialektik birligi, harakatlantiruvchi kuchlari ijtimoiy ziddiyat, sinflar kurashi boʻlgan jarayondir. Sotsial taraqqiyot (progress) esa ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarning qonuniy, tabiiy-tarixiy tarzda almashinishi deb taʼriflangan edi. Sotsial rivojlanish tabiatga nisbatan nisbiy mustaqillikka olingan jamiyatning umumiy yoʻnalishidagi harakatini ifodolovchi tushuncha deb olinishi mumkin. «Sotsial evolyutsiya» va «Sotsial revolyutsiya» sotsial rivojlanishning shakllari sifatida qaralishi mumkin. Albatga, bunda islohot (reforma) oʻzgarishlarini yoʻlidagi inqilob (revolyutsiya) oʻzgarishlari yoʻlidagi, ularga boʻysunadigan rivojlanish shakli deb qarash mumkin emas. Tabiatda ham, jamiyatda ham miqdoriy oʻzgarishlar bilan aloqada boʻlmagan sifatli oʻzgarishlar, (bizning misolimizda inqiloblar), boʻlishi mumkin emas. Sakrashlar, inqiloblar emas, balki evolyutsiya sotsial rivojlanishning shakli boʻlishi mumkin. Bu sotsial evolyutsiyaning surʼati tashqi va ichki sharoitlar, jamiyatdagi obʼektiv va subektiv jarayonlar nisbatiga koʻra tez yoki sekin boʻlishi mumkin.

Ijtimoiy rivojlanishda inqiloblar mavjud, lekin, ular ijtimoiy to'ntarish emas, «tez sur'atdagi evolyutsiya», deb qaralishi mumkin. Jamiyat rivojlanishining asosiy, normal yo'li esa — reforma, islohatdir.

Jamiyat va uning qismlari, har bir elementi va hodisalaridagi o'zgarish va rivojlanish ob'ektiv va sub'ektia tomonlarni o'ziga oladigan qonuniyatli jarayondir. Ijtimoi hayotning har bir sohasida — iqtisodiy, sotsial, siyosiy, ma'naviy sohalarida o'zlarining ob'ektiv jarayoni deyilganda, kishilar ijtimoi faoliyat ko'rsatayotgan, ularning hohish, irodalaridan tashqarida bo'lgan sharoit va munosabatlar tushuniladi. Ijtimoiy rivojlanishning sub'ektiv jarayoni deyilganda odamlarning mafkuraviy, ahloqiy, siyosiy va emotsial-ruhiy sabablar bilan harakatga keladigan faoliyatlarni ifodalovchi tushuncha anglanadi.

Ijtimoi rivojlanish sub'ektlarning maqsadga muvofiq faoliyati orqali ro'y beradi. Anglangan ehiyojlar — manfaatlar bu faoliyatni harakatlantiruvchi kuchlardir. Ijtimoi ehtiyojlar va manfaatlarni qondirilishi uchun sotsial jarayonlar boshqarilishi talab etiladi. Umumiy ma'noda boshqarish takomillashgan (biologik, texnik, sotsial) tizimlarning faoliyati ta'minlash uchun, ularning dastur va maqsadlarini amalga oshirishga xizmat qiladigan funksiyadir (vazifadir). Sotsial boshqarish esa jamiyat muayyan tizimining tartiblanishi saqlanishi, mukammallashuvi va rivojlanishini ta'minlaydi. Sotsial boshqarish jarayonining asosiy bosqichlari quyidagilardan iboratdir: axborotni yig'ish va uni qayta ishlash; uni analiz etish; taqsimlash; maqsadga erishishga qaratilgan qarorning ishlab chiqilishi; rejalashtirish, dasturlashtirish; loyihalashtirish ko'rinishda umumiy qarorni bajarish uchun faoliyatni tashkil etadi; bu faoliyatni nazorat etish, kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish bilan birgalikda; faoliyat natijalari haqidagi axborotni to'plash va qayta ishlash.

Sotsial boshqarish ijtimoiy jarayonlarni bashorat qilshi, oldindan ko'ra bilishga asoslanadi. Shuni e'tiborga olish kerakki, bashorat kategoriyasi ikki ma'noda konkretlashadi: oldindan aytib berish (deskriptiv, ya'ni tavsiflash manosida) va oldindan ko'rsatma berish (preskriptiv, undov, amr, buyruq. ma'nosida). «Oldindan aytib berish» kelajak to'g'risidagi axborotni olish, kelajak muammolarining mumkin bo'lgan yoki kutilayotgan, hohlayotgan istiqbollari, holatlari, yechimlarining tavsifidir. «Oldindan ko'rsatib berish» I.S. Bestujev-Lada iborasi) — o'sha muammolarni yechish, kelajak haqidagi axborotdan foydalanish, axborotni shaxs va jamiyatning maqsadiga muvofiq faoliyatiga aylantirishdir. Zotan, sotsial boshqarishning asosiy vazifasi kishilar sub'ektiv faoliyatining ob'ektiv qonuniyatlar talablariga muvofiq kelishiga erishish, bu

qonuniyatlardan samarali foydalanishdir. Sotsial boshqarish bu ma'noda ham nazariy, ham amaliy faoliyatni o'z ichiga oladi.

XX asr bozor iqtisodiyoti rivojlanishi bilan boshqarish xususiyatidagi faoliyat menejment paydo bo'ldi. Menejment (inglizcha-management) — bir necha ma'noni bildiradi. Birinchidan, menejment ishbilarmonlik faoliyatiga, turmush tarzi va siyosat sohasiga ta'sir ko'rsatuvchi sotsial va iqtisodiy institut deb tushuniladi. Ikkinchidan, menejment xususiy va ijtimoiy bazis sohasida boshqarish mehnati bilan shug'ullanuvchi shaxslar majmuini bildiradi. Uchinchidan, menejment, ijtimoiy ishlab chiqarishni boshqarishning texnikaviy tashkiliy, huquqiy, ruhiy va sotsial jihatlarni o'rganadigan fandır. Oxirgi ma'noda u industrial sotsiologiya va boshqarish sotsiologiyasi bilan mos keladi. Ma'lumki, industrial sotsiologiya va boshqarish sotsiologiyasi boshqarish tizimini, shaxslararo munosabatlar tizimi va mexanizmini, mehnat faoliyatini rag'batlantirish va motivatsiyasini, tashkiliy faoliyatini o'rganadi. Menejmentning maqsadi — har qanday ijtimoiy tuzumga mos keladigan boshqarishning umumiy tamoyillarini shakllantirish va ularni amalda ko'llashdir. Bularga boshqarishning maqsad va vazifalarini aniqlash, ularni bajarish uchun konkret tadbirlarni ishlab chiqish, vazifalarni bajarishdagi ketma-ketlikni belgilash, ishni taqsimlash, tashkilot ichidagi turli bo'linmalar o'zaro harajatini mutanosiblash, rasmiy ierarxal (yuqori-past) strukturani optimlashtirish (ixchamlashtirish, qulaylashtirish), shuningdek rahbarlikning samarali uslubini, sotsial mas'uliyatni aniqlash kiradi.

Sotsial rejalashtirish, loyihalashtirish va prognozlashtirish sotsial boshqarishning shakllari sifatida qaralishi mumkin. Sotsial rejalashtirish — sotsial boshqarishning dastlabki bosqichlariga xosdir. Rejalashtirish — o'ziga xos sotsial boshqarish bo'lib, uning mazmuni ijtimoiy jarayonlar maqsadini, uning ustivor tomonlarini, ularga erishishning vosita va maqsadlarini aniqlash, rejalarni ishlab chiqish va ularni bajaruvchilarga etkazish, rejalarni bajarilishi ustidan nazoratni o'z ichiga oladi. Odatda, direktiv va indikativ rivojlantirishni farqlashadi. Direktiv rejalashtirish yuqori organlar tasdiqlagan ko'rsatkichlar majburiy bajarilishini taqozo etadi. Indikativ rejalashtirishda reja ko'rsatkichlari yo'naltiruvchi, axborot tarzida bo'ladi. Sobiq sotsialistik mamlakatlar rejalashtirishni mutloqlashtirganlari uchun, u jamiyat rivojlanishi yo'lidagi to'siqqa aylangan edi. Bozor iqtisodi amal qilayotgan ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarda indikativ rejalashtirish keng qo'llaniladi. Ayniqsa, Fransiya, Yaponiya, Janubiy Koreyada rejalashtirish yaxshi samara bermoqda. 1962 yildan beri «rejali» rivojlanayotgan Janubiy Koreya jahonda etakchi o'rinlardan biriga chiqdi.

Hozirgi vaqtda bu mamlakatda 1990—1994 yillarda fanda eng ko‘p qo‘llanilayotgan sohalarni rivojlantirish bo‘yicha reja qabul qilingan va bajarilmoqda.

Sotsial boshqarishni yana bir shakli sotsial loyihalashtirish tushunchasi hali mavjud bo‘lmagan, lekin yaratilishi lozim bo‘lgan, shuningdek, tubdan o‘zgarish lozim bo‘lgan ob'ektlarga nisbatan qo‘llaniladi. Sotsial loyihalashtirishni sotsial rejalashtirishning ko‘rinishi deb ham aytilish mumkin. U ijtimoiy munosabatlar, sotsial jarayonlar va aholi yashash sharoitlarni yaxshilash vositasidir. Sotsial rejalashtirish mavjud bo‘lmagan yoki tubdan o‘zgarish lozim bo‘lgan ob'ektlarga nisbatan «rivojlanish» iborasini qo‘llash qiyin. Ular yaratilgandan so‘nggina rivojlanishi mumkin. Sotsial loyihalashtirish sotsial rivojlantirishni emas, balki yangi ob'ektlarning dastlabki sotsial holatini loyihalashtirishdir. Undan tashqari, agar sotsial rejalashtirishda sotsial jarayonlarning hamma boshlang‘ich sifatiiy va miqdoriy ko‘rsatkichlarni aniq ko‘rsatilgan ob'ekt bilan ish ko‘rilsa, sotsial loyihada esa bu boshlang‘ich tavsiflar mavjud bo‘lib turgan sotsial institutdagidek bo‘lmaydi.

Sotsial boqarish shakllari orasida sotsial prognozashtirish alohida o‘rin tutadi. Inson va jamiyat faoliyatining bevositagina emas, balki ancha qeyin ro‘y beradigan natijalarni ko‘ra bilish va shunga yarasha sotsial rivojlanishni boshqarish zaruriyati sotsial prognozashtirishni keltirib chiqardi. Turli xil mezonlar — maqsadi, vazifalari, vaqti, usuli, prognozni tashkil etishi va hokazolarga asoslanib har xil prognozlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Vaqt mezoniga ko‘ra quyidagi prognozlarni qayd qilsa bo‘ladi:

- joriy prognozlar - soatlar, kunlar, hafta va oylar;
- qisqa muddatli prognozlar- 1-5 yil oralig‘ida;
- O‘rta muddatli prognozlar - 5-10 yil oralig‘ida;
- Uzoq, muddatli prognozlar - odatda, keyingi ikki-uch o‘n yillikni o‘z ichiga oladi;
- O‘ta uzoq, muddatli prognozlar — uzoq muddatli dan keyingi davr;

Sotsial prognozashtirish usullari g‘oyat ko‘p. Ularning eng asosiylari quyidagilardir: ekstrapolyatsiya tarixiy analogiya, kompyuterda modellashtirish, kelajak senariysi, ekspert baholar. Ekstrapolyatsiya hozirgi ijtimoiy rivojlanish tendensiyalarini kelajakka ko‘chirish demakdir. Mazmuni va bajaradigan vazifasiga ko‘ra prognozlarning quyidagi to‘rtta asosiy turini ko‘rsatish mumkin:

1. Qidiruv prognozlari. Bu prognozlar «rivojlanish qaysi yo‘nalishda

ketmoqda hozirgi tendensiyalar saqlanib qolganda nima ro'y beradi?» degan savolga javob beradi;

2. Normativ prognozlar. Bunda oldindan aniqlangan normalar, maqsadlar, ideallar asosida ijtimoiy xodisalarning kerakli holatiga erishish prognoz qilinadi, buning uchun maxsus takliflar — rekomendatsiyalar tavsiya etiladi;

3. Analitik prognozlar. Kelajakni tadqiqot etish metodlarning ilmiy — bilish ahamiyatini aniqlash amalga oshiriladi.

4. Prognoz ogohlantirishlar. Taxmin qilinayotgan noxush kelajakni oldini olish, odamlar ongiga ta'sir etish uchun ishlab chiqiladi.

Prognozashtirishning usullari va turlari o'rtasidagi tafovut qo'llanish ob'ektiga qarab nisbiy bo'lishi mumkin bo'lgan kamchiliklar bir vaqtning o'zida boshqalari qo'llanilishi bilan bartaraf qilinishi mumkin.

8.TAFAKKUR TARZI SOTSILOGIYASI.

Avvalambor shuni ta'kidlamoq. lozimki, tafakkur tarzi tushunchasi sotsiologiya fanining katta ahamiyatga ega bo'lgan, lekin hali sistemali va ilmiy asosda to'liq o'rganilmagan kategoriyasidir. Bu kategorianing metodologik ahamiyati shundan iboratki, usiz ijtimoiy hayotning hech bir sohasi aktiv faoliyat ko'rsata olmaydi. Chunki har bir sotsial harakatlar, munosabatlar ma'lum bir shaxslar, guruhlar, millatlar va xalqlarning ongli faoliyati orqali yuzaga keladi.

Ma'lumki har qanday ongli faoliyat inson tafakkurining mahsulidir. Bu ongli faoliyat o'z navbatida ijtimoiy hayotdagina mavjuddir. Shuning uchun har qanday jamiyatda taffakkur muammosi o'ta dolzarb hisoblanib kelingan. qaysi bir jamiyatda bu muammo masalalari to'g'ri yechilibdi, o'sha jamiyatda taraqqiyot, erkinlik, baraka arimaydi. Xo'sh tafakkur tarzi tushunchasi o'zi qanday tarifga ega. Bizning fikrimizcha, tafakkur tarzi — bu individlar, guruhlar, millatlar va xalqlarning ma'lum bnr ijtimoiy-madaniy muhitda vujudga keladigan ma'lum bir g'oyalarining, qarashlarining va bilimlarning to'liq, va yaxlit sistemasi bo'lib, u o'ziga xos bo'lgan taxlil qilish faoliyati, tushunish va tushuntirish jarayonlarining o'zaro dialektik munosabatlarida namoyon bo'ladi.

O'ziga xos bo'lgan ijtimoiy-madaniy muhit deganda, avvalambor boy madaniy meros, diniy ong va ularning asosida shakllangan milliy qadriyatlar, urf-odatlar va milliy an'analarning butun bir majmuasini tushunmoq kerak. Shuning uchun hech kim o'z tafakkur tarzini ijtimoiy-madaniy xususiyatlardan tashqarida shakllantira olmaydi. Yuqorida

ta'kidlab o'tilganidek tafakkur tarzi kategoriyasini jamiyat hayotidagi o'rni beqiyosdir. Jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va boshqa ko'plab sohalaridagi muammolarni shu sotsiologik kategoriya orqali o'ziga xos yechimini topish mumkin.

Tafakkur tarzining tarkibiy qismlari sifatida taxlil qilish faoliyat tushunish, tushuntirish jarayonlarini ajratib ko'rsatish mumkin. Bu tarkibiy qismlar hodisa va predmetlarni bir-birlari bilan uzviy bog'liqlikda o'rganadilar. Agar bu bog'liqlikdan biror bir tarkibiy qism ajralib qolsa biz bu hodisa va predmetlar haqida aniq, milliy tasavvur va ma'lumotga ega bo'lmaymiz. Tafakkur tarzi ma'lum bir tafakkur turlari ko'rinishida ijtimoiy voqeliqni u yoki bu aspektlarini tahlil qilishi mumkin. O'z xususiyatlariga ega bo'lgan tafakkur turlarining ma'lum bir turkumini ajratib ko'rsatishimiz va bu xususiyatlar haqida ham ma'lum bir fikr bildirishimiz zarurdir;

—Pragmatik tafakkur turi. U foyda haqidagi tasavvurdan kelib chiqadi. Bu tafakkur turi ko'pgina individ, guruh va millatlarga xosdir. Ushbu tafakkur tili mazmunini tahlil qilib unga biz sira ham salbiy ma'no berishimiz mumkin emas. Chunki mavzu asosan jamiyatga foyda keltirish to'g'risidadir.

—An'anaviy tafakkur tipi ma'naviy madaniyatning komponentlari; urf-odat, rasm-rusm va an'analar sistemasiga tayanadi. Bu tafakkur tipi 2 xil ko'rinishda namoyon bo'lishi mumkin. Bir tomondan u ijtimoiy hayotni ma'lum bir tomonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin (yoshlarni Vatanga sadoqatli ruhida tarbiyalash, milliy o'zligini saqlash, ma'lum bnr muammolarni ochishi uchun u yoki bu maxsus yo'nalishlarni ishlab chiqish va h.k.). Ikkinchi tomondan ayrim ijobiy va progressiya faoliyatyalarni sur'atini o'shishiga halaqit qilishi mumkin (masalan, boshqaruv ishlarida ishtirok etishini, o'z huquqlarini anglashga halaqit berishi mumkin).

—Diniy tafakkur turi dinning arqonlaridan kelib chiqib shakllanadi va rivojlanadi. U boshqa tafakkur turlarining ichida eng qadimiy va ko'hnasidir. Bu tafakkur turlari ko'pgina holatlarda diniy tafakkur turi bilan uyg'unlashib ketadilar, ayniqsa an'anaviy, qadriyat, ayrim maxsus hollarda hatto pragmatik tafakkur turlari shular jumlasidandirlar. Masalan diniy va pragmatik tafakkur turlarini o'zaro dialektik munosabatlarga kirishishlari M.Veberning fikricha Evropada kapitalizm rivojlanishiga asos bo'ldi. Bizning respublikamiz sharoitlarida ham diniy tafakkur turi ma'lum bir muhim ahamiyatlar kasb etadi (ayniqsa yoshlarni keksa avlodga nisbatan mehribonchilik va hurmat asosida munosabatli bo'lishi,

jamiyatdagi qusur illatlar: alkogolizm, giyohvandlik, o'g'rilik, hayosizlik va bashqa-turlariga qarshi ko'rashishi katta e'tibor bilan e'tirof etish kerak).

—Avtoritar tafakkur turi avtoritstning fikrini ta'siridan kelib chiqib shakllanadi. Sharq mamlakatlarida g'arb mamlakatlariga nisbatan bu tafakkur turi kengroq tarqalgan. Chunki Sharqda jamoa (kollektivizm) prinsipi kuchli, g'arbda esa individualizm tabiyki qaerda kollektivizm hukmronlik qilsa albatta shu jamoadan har xil avtoritetlar shakllanib chiqadi, ushbu avtoritetlarning fikridan kelib chiqib jamoada tafakkurning avtoritar turi vujudga keladi.

—Ilmiy taffakur turi—ilmiy informatsiyalar asosida bunyod bo'ladi, faqatgina ratsional— mantiqiy prinsiplarga asoslanadi. Uni jamiyat hodisalari va jarayonlarni mohiyatini ochib berish roli betakrordir.

—Qadriyatli tafakkur turi estetik, ahloqiy g'oyalar va normalarning ma'lum bir sistemasi asosida shakllanadi. Bu estetik va ahloqiy g'oyalar va normalar individ, guruh, millatlarning, amaliy faoliyatlari vositasida shakllanadi. Bu tafakkur turining aholini estetik va ahloqan tarbiyalashda salmog'i kattadir. Aytish mumkinki bu barcha tafakkur turlarini makro darajada Sharkona tafakkur tarzi va g'arb tafakkur tarzidagi sistemaga taaluqli deb hisoblash mumkin. Bu muammolar tadqiqotlari endigina shakllanayapti.

Albatta tafakkur turlarini yana ko'plab keltirish mumkin, ayniqsa yangi tadqiqotlar yordamida yangi, hali o'rganilmagan tafakkur turlarini kashf qilish mumkin. Buning uchun esa ma'lum bir bilim, tajribalar va ma'lum bir vaqt kerak bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga yakun yasab shuni aytish mumkinki tafakkur tarzi sotsiologiya fanining boshqa yo'nalishlarga nisbatan juda kam o'rganilgan, kam e'tibor berilgan maxsus yo'nalishidir. Chunki tafakkur tarzi insonning turmush tarzini oddiy bir ko'rinishi, uning bir qismi deb hisoblanib kelindi. Bunda tafakkurning sub'ektiv shakllarini o'ziga xos xususiyatlari, uni shakllanish va rivojlanish jarayonlari bir yoqlama asosdagina, yuzaki ravishda taxlil qilinib keldi. Vaholanki sotsiologiyaning bu maxsus yo'nalishi tadqiqotlari asosida hozirgi davrimizning eng dolzarb vazifasi bo'lgan— iqtisodiy, sotsial-siyosiy va ma'naviy xususiyatlarimizga asoslangan o'zimizning mustakdosh taraqqiyot yo'li va modelini yaratishimiz mumkin. Bu maqsad va vazifalarga erishish uchun esa butun insoniyat tomonidan yaratilgan turli xil nazariya, g'oya va konsepsiyalarni chuqur o'rganib, o'zlashtirib keyin esa bu shakllangan bilim va tajribalarni o'z ijtimoiy-madaniy xususiyatlarimizda shakllangan tafakkur tarzimizning filtridan o'tkazib

tahlil qilishimiz kerak. Ana shundan keyingina bu bilim va tajribalarni o'z milliy sharoitlarimizga tadbiiq qilishimiz mumkin bo'ladi. Shu xususiyatlarni, imkoniyatlarni va uslublarni o'z tadqiqot predmetiga mujassamlashtirgan tafakkur tarzi sotsiologiya fanining maxsus yo'nalishi sifatida o'zining tadqiqotlarida bu fanning taraqqiyoti uchun hizmat qiladigan universal yo'nalish bo'lishiga ko'plab ilmiy asoslar etarlidir, Tahlil qilish faoliyat tafakkur tarzi kategoriyasini muhim bir tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu faoliyatdan tafakkur qilishlik jarayoni boshlanadi. Shuning uchun interpretatsion faoliyatisiz biz o'zimizning hech bir ongli faoliyatimizni boshlay olmaymiz.

Avvalam bor interpretatsion faoliyat deganda nimani tushinish kerak? uning ta'rifi qanday ma'noga ega? Bizningcha interpretatsion faoliyat quyidagi ta'rifga ega bo'lishi mumkin: Interpretatsion faoliyat—bu predmet va hodisalarning mazmuni, ma'nosini aniqlash va bu mazmun, ma'nolarga ma'lum bir pozitsiyalardan (nazariya, individ, guruh) turib ma'lum bir ahamiyat berishi jarayonidir.

Interpretatsiyaning boshlanish manbai, nuqtasi qaerda degan tabiiy savol shakllanishi mumkin. Darvoqe, qanday sharoitlarda, qanday vositalar asosida biz o'zimizning interpretatsion faoliyatimizni boshlashimiz mumkin. Bizningcha fenomenologik sotsiologiya asoschisi Alfred Pyutsning ko'pgina, yanada va aniq, fikri ushbu savolga javob bo'la olishi mumkin. Uning fikricha interpretatsion faoliyat individlardagi ma'lum bir o'tmish hayotiy tajribalari asosida shakllangan bilim va ma'lumotlarning zahirasi orqaligina amalga oshiriladi. A.Pyutsning bu g'oyalarini jamiyatimiz hayotidan, uning tarixidan istalgancha har xil lavhalar keltirib asoslashimiz mumkin. Hozirgi eng mas'uliyatli davrda, ona Vatanimiz 130 yildan ziyod davom etgan mustamlakachilikdan ozod bo'lib, hur va mustaqil davlat bo'lganida, biz ushbu Vatan farzandlari uchun uni avaylab asrashimiz va himoya qilishimiz ham farzdir, ham qarzdir. Bu sharafl va ma'suliyatli vazifani uddalamoqlik uchun barchamiz yuksak rivojlangan ongli fuqarolar bo'lishimiz zarur. Uning uchun esa halqimiz tarixi, uning madaniyati, dini, urf-odatlar va milliy an'analarimiz asosida shakllanib taraxiy etgan boy ilmiy-madaniy merosimizni chuqur va to'liq o'rganishimiz zarur. Ana shu boy ilmiy-madaniy merosimizni yaxshi o'zlashtirib o'rganishimiz bizlarda ma'lum bir bilim, tajriba va ma'lumotlarni yig'indisini shakllantiradiki, u orqali interpretatsion faoliyatni amalga oshirish mumkin bo'ladi. Agarda bu faoliyat uchun asos bo'ladigan bilim tajriba va ma'lumotlar qanchalik teran, ilmiy va keng bo'lsa interpretatsion faoliyat ijtimoiy voqelikning jarayonlarni turri, aniq

va haqoniy qilib tahlil qilishga omil bo'ladi. Mabodo bu bilim, tajriba va ma'lumotlar sayoz va sohta bo'lsa natijalar aksincha bo'lishi mumkin.

Demak intershretatsion faoliyat davomida predmet va hodisalarga ma'lum bir ma'no va ahamiyat berganimizdan keyin tafakkur qilishlik jarayonini dastlabki bosqichi tugab, uning navbatdagi jarayoni tushunish jarayonini o'z faoliyatini boshlaydi.

Tushunish jarayoni tafakkur tarzi kategoriyasini interpretatsion faoliyatdan keyingi tarkibiy qismidir. Bu muammoning tarixiy ildizlari uzoq, o'tmishga borib taqaladi. Antik, O'rta asrlar falsafiy ta'limotlaridayoq tushunish muammolarini hal qilishga harakat qilingan, lekin izchil, sistemali ilk tadqiqotlar 19 asrning boshlaridan.

Tushunish jarayoniga o'zini ta'rifini bergan Diltey bu jarayonni ikki darajaga ajratadi: 1. Elementar (kundalik). 7. Oliy (ilmiy). Elementar tushunish insonlarning kundalik hayotlari sharoitlarida paydo bo'ladi. Chunki jamiyatdagn hayotda insonlar bir-birlari bilan mulodatda bo'lishi uchun o'zlarini o'zaro tushunishlari kerak. Tushunishni bu oddiy shaklini manbasini Diltey quyidagicha ta'riflaydi: «Men boshqa inson nimani hoxlayotganini bilishim kerak. Shu asosida tushunishning eng avvalambor elementar shakli vujudga keladi».

O'zining ma'lum bir kamchilkklarini bartaraf etish uchun elementar tushunish, tushunishning oliy shakliga - insonlarni ichki dunyosini yaxlitligini tahlil qilish mexanizmiga o'sib borishiga majburdir.

Dilteyning tushunish nazariyasi boshqa mutafakkirlarni tushunish muammolarini tadqiqootiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu tafakkur jarayonlarining masalalarini fenomenologik sotsiologiya asochisi A. Shyuts va uning izdoshlari tushunish muammosini sotsiologiyani predmet darajasiga ko'tardilar. A.Shyuts tushunish jarayonini interpretatsiya faoliyati bilan o'zaro munosabatdaligini e'tirof etadi.

Tushunish jarayonini universal maqomga egaligini ko'pgina olimlar: faylasuflar, psixologlar, sotsiologlar, tabiiy fanlar vakillari va boshqalarning ta'kidlashlari bu muammoni umummetodologik ahaiyatga ega ekanligidan ham darak beradi. Shuning uchun ushbu muammo masalalari bo'yicha tashkil qilingan an'anaviy «dumaloq stol» anjumanlarida ko'pgina ijtimoiy, tabiiy fanlarning olimlari, metodolog va boshqa mutaxasislarning to'plashishlari bejiz emas edi.

Yuqorida tushunish jarayoniga bergan ta'rifimizdan va u orqali kelib chiqadigan fikrlardan bir muhim hulosaga kelishimiz mumkinki, bizning milliy shart-sharoitlarimizda ham bu jarayon o'zgacha bir ma'no va ahamiyat kasb etadi. Agar shu bugungi ehtiyojlardan kelib chiqib, fikr

yuritsak, ya'ni yosh, mustaqil davlatimizni bosqichia-bosqich bozor iqtisodi munosabatlariga o'tayotganini nazarda tutsak, bu ijtimoiy makro darajali jarayonlar tizimida tushunish kateqoriyasini ahamiyati beqiyosdir. Demak biz tushunish jarayonini interpretatsion faoliyat vositachiligida biror bir balki va ma'lumotlarni ma'nosi va ahamiyatini o'zlashtirishlik deb e'tirof etar ekanmiz, buning natijasida muhim bir holatni ta'kidlab o'tishimiz joiz bo'ladi. Haqiqiy demokratik bozor munosabatlarini milliy xususiyatlarga ega bo'lgan maxsus bnr modelini yaratish ko'p tomonlama insoniyat bosib o'tgan tarixiy taraqqiyot yo'li davomida yaratilgan har xil bozor iqtisodini munosabatlarining ma'nosi, shakli va ahamiyatini tushunishdan yuzaga keladi. Shuning uchun bunday muhim sotsiologik tadqiqotlarni doimo takomillashtirib borishligi ko'pgina umumiy va xususiy muammolarni yechimini topishga muhim bir omil bo'lib xizmat qiladi.

Tafakkur tarzi kategoriyasini yakunlovchi zvenosi bo'lib tushuntirish jarayonida namoyon bo'ladi. Bu jarayon tafakkur tarzining avvalgi ikki tarkibiy qismi bilan juda uzviy bog'liqdir, uning tadqiqotlarini natijasi ularni yanada takomillashuviga muhim bir omil bo'lib xizmat qiladi. Bu tafakkur jarayonini tarixi ham qadim zamonlarga borib taqaladi. Shunday qilib yuqorida ko'rsatilgan olimlarning fikrlarini tahlil qila turib biz quyidagi ta'rifni tushuntirish jarayoniga qo'llashimiz mumkin. Tushuntirish jarayoni — bu individlarning ongli faoyaiyati orqali ma'lum bir predmet va hodisalar haqida o'zlashtirilgan bilim, tajriba va ma'lumotlarni bir-birlariga O'zaro uzatish va mustahkamlashdir. Tushuntirish jarayoni tafakkur tarzi kategoriyasining boshqa tarkibiy qismlariga o'xshab ijtimoiy hayotning har bir sohasiga xosdir. Avvalambor bu jarayonsiz vorislik prinsipi haqida umuman so'z yuritib bo'lmaydi. Bizga ma'lumki bu prinsip taraqqiyotning eng muhim manbalaridan hisoblanadi. Ikkinchidan, tushuntirish jarayonisiz fan, iqtisod, madaniyat, xullas qisqacha qilib aytganda jamiyat hayotining hech bir sohasini ravnaqini umuman tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Agarda bobokalonimiz al-Xorazmiy o'zlari o'zlashtirgan bilim, tajriba va ma'lumotlarni boshqa insonlarga tushuntirmaganlarida nafaqat o'z zamondoshlari, balkim bizlar ham ularning matematika sohasidagi olamshumul kashfiyotlaridan bebahra bo'lardik. Yoki bo'lmasam hazrati Alishir Navoiy o'z ilmiy izlanishlarining natijalarini mashhur asarlarida keng targ'ib etib tushuntirishlari tufayli turkiy tilning rivojlanishi jadallashdi va uning ahamiyati ham keskin oshdi. Tushuntirish muammosiga oid bildirilgan fikrlarni ijtimoiy hayotning har sohasidan istalgancha misollar keltirib asoslash mumkin.

III BOB SOTSILOGIYADA TARMOQ YO‘NALISHLAR

1. JAMOATCHILIK FIKRI SOTSILOGIYASI.

Jamoatchilik fikri sotsiologiyasi — ijtimoiy guruhlarning mavjud ijtimoiy voqelikka nisbatan baholovchi munosabatining shakllanishi va amal qilishi qonuniyatlarini o‘rganuvchi fandır.

O‘zbekistonda jamoatchilik fikrini o‘rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Yaqinda «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik fikrini o‘rganish markazini va faoliyatini boshlaganligi bu sohadagi imkoniyatlarimizni fikrini tabiiy o‘rganish bilan shug‘ullanayotgan sotsiologik tadqiqot markazlari va xizmatlarining muvofiqlashtirish imkoniyati tug‘ildi.

«Jamoatchilik fikri» atamasi inglizcha «publik opinion» so‘z birikmalaridan olingan bo‘lib, u XVII asrda dastlab Angliyada qo‘llanilgan, keyinchalik boshqa mamlakatlarga o‘tib, XVIII asr oxiridan boshlab keng tarqalgan Jamoatchilik fikrining o‘zi nima? Jamoatchilik fikri — xalq istaydigan narsani bilishning noorganik uslubidir, (Gegel) jamoatchilik fikrida hamisha haqiqiy va haqiqiy bo‘lmagan narsalar chatishib ketsada u har bir davrda katta kuchga ega bo‘ladi.

Jamoatchilik fikri ijtimoiy ong shakllari, aytaylik, fan yoki mafkuradan noaniqligi bilan farq qiladi. Chunki fikrning o‘zida u yoki bu holatga nisbatan taxminiy, ehtimoliy og‘ish bo‘lgani uchun ham ko‘pincha insonlar ongida vujudga keladigan o‘tkinchi o‘zgaruvchan fikr mulohaza, his-tuyg‘ular yig‘indisidir. Lekin bu jamoatchilik fikri bilan hiosoblashmaslik kerak degan gap emas. Jamoatchilik fikrini chuqur o‘rgangan ispan mutafakkiri Ortega-I-Gasset shunday yozgan edi «Dunyoni jamoatchilik fikri boshqaradi, bu shunday asosiy kuchki, undan kishilar hamjamiyatdagi hukmronlik kelib chiqadi». Jamoatchilik fikrini sotsiologik tadqiq etishning predmeti — bu jamoatchilik fikrining ijtimoiy mohiyati, uning jamiyat hayotining turli tomonlariga ta'siri, shakllanishi, ifodalanishi va amal qilishi mexanizmlari masalalaridir. Jamoatchilik fikri — kishilar ongi va xatti-harakatining o‘ziga xos ko‘rinishi bo‘lib, u ijtimoiy ongning barcha shakllari (axloqi ququq din, fan va x. k.) bilan bog‘liq kundalik va nazariy ong birikmasi hisoblanadi. Jamoatchilik fikri doimo kishilar tomonidan u yoki bu hodisa jarayonini baholashlari bilan bog‘liq. Bunday ijtimoiy baholash ijtimoiy guruh va qatlamlarning ijtimoiy vaziyati, jamiyatda tutgan o‘rnini o‘zida aks ettiradi. Demak, jamoatchilik fikri ijtimoiy xususiyatga ega. Shu jihatdan jamoatchilik fikri kishilarning ijtimoiy voqelikning biror bir sohasidagi fikrlari, his-tuyg‘ulari va xatti-

harakatlarini jamlashga, jamiyat hayotiga baho berishga va shu asosda ijtimoiy reallikning tegishli tomonini o'zgartirishga (yoki saqlashga) ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda, tub ijtimoiy o'zgarishlar sodir bo'lishidan oldin aynan jamoatchilik fikrida ulkan siljish, o'zgarishlar yuz berish kerak. Jamoatchilik fikri bilan bevosita shug'ullanuvchi mutaxassislar bu ijtimoiy hodisaning murakkabligini ta'kidlashadi. Darhaqqat, jamoatchilik fikrini tasvirlash, aniqlash mushkul, uni o'lchab bo'lmaydi. Lekin u hamma joyda mavjud, uning ta'sirini aloxida shaxs xatti-harakatida ham, omma xulq atvorida va faoliyatida ham ko'rsa bo'ladi.

Jamoatchilik fikrining strukturasi tahlil qilishda birinchi navbatda uning ob'ekti va sub'ekti masalalariga e'tiborni qaratish zarur. Jamoatchilik fikrining ob'ektini aniqlashda dastavval ikkita muammo e'tiborga molikdir.

1). Jamoatchilik fikrini unda aks ettirilayotgan voqelikning o'ziga xosligi nuqtai nazaridan tahlil etish. Boshqacha qilib aytganda, jamoatchilik fikri dunyodagi hamma narsa to'g'risida fikr qila olishi mumkinmi yoki uning mulohaza doirasi chegaralanganmi?

2). U yoki bu hodisa, jamoatchilik fikrining ob'ektiga aylanishining mezonlarini aniqlash, boshqacha aytganda, jamoatchilik fikrini uyg'otadigan ob'ekt qanday sifatlari, xususiyatlari bilan farqlanadi.

Birinchi savolga javob tariqasida avvalo shuni qayd etish kerakki, jamoatchilik fikrining ob'ekti bo'lib ham ob'ektiv voqelik, ham sub'ektiv reallik faktlari hisoblanishi mumkin. Shu bilan birga jamoatchilik fikri ma'lum darajada chegaralangandir, muayyan bir holatlarga jamoatchilik mulohazalarining ob'ekti bo'la oladi. Bular: a) voqea va hodisalarning haqqoniy mavjudligi; b) voqea-hodisalar o'rtasidagi munosabatlar; v) voqea-hodisalarning kishilar ongida aks etishi. Ushbu holatlar jamoatchilik fikri sotsiologiyasida «aniqlik chegarasi» deyiladi. Bu «chegaradan» tashqarisida bo'lgan narsalar to'g'risida jamoatchilik fikri mulohazaga ega bo'la olmaydi.

Endi jamoatchilik fikrining ob'ektini tanlash mezonlariga to'xtalamiz. Duch kelgan har bir narsa, hodisa, voqea, jarayon yoki fakt ham birvarakayiga jamoatchilik fikri ob'ekti bo'lavermaydi. Jamoatchilik fikrini uyg'otishning birinchi omili ijtimoiy manfaat bo'lish uchun bevosita manfaat tug'diradigan dolzarb hodisa yoki narsalarga mulohazaga sabab bo'ladi. Chunki bunday holatlar kishilardan baholovchi munosabatni bildirishini talab etadi. Omma fikrining shakllanishi asosida «umumiy ish» yotadi. Jamoatchilik fikriga sabab bo'ladigan ikkinchi omil bu - munozaralilikdir. Boshqacha aytganda, u yoki bu darajada munozarali, baxsli xolatga ega bo'lgan hodisalarga jamoatchilik fikri predmetiga

anlanishi mumkin. Jamoatchilik fikri doimo hali hal bo'lmagan masalalar bo'yicha shakllanadi va hech qachon so'zsiz, aniq masalalar bo'yicha tug'ilmaydi.

Nihoyat, jamoatchilik fikrini uyg'otadigan uchinchi omil — malakalilikdir. Bu shuni anglatadiki, jamoatchilik bilishi va tushunishi mumkin bo'lgan hodisalargina jamoatchilik ob'ekti bo'lishi mumkin.

Jamoatchilik fikri sub'ekt deganda avvalo jamoatchilik doirasida fikr uyg'ota olish qobiliyatiga ega bo'lgan fikr egasi va ifodalovchisi tushuniladi. Shu o'rinda sub'ekt sifatida alohida individ, kichik guruhlar, jamoa, millat, sinf va hatto jamiyat hisoblanishi mumkin.

Jamoatchilik fikrining bilish imkoniyati muayyan-tarixiy xususiyatga ega, ya'ni u jamiyatda mavjud madaniyat, texnik imkoniyatlar, muloqat vositalarining rivojlanganlik darajasi va boshqa omillarga bog'liq. Shu bilan birga jamoatchilik fikri ijtimoiy ong shakllari (fan, mafkura, din, sanat, axloq, huquq, siyosat va boshqalar), darajalari (individual, kollektiv, milliy, sinfiy ong) va sohalari bilan bog'liq holda rivojlanadi. Aytish mumkinki, jamoatchilik fikri-ijtimoiy ongning tez o'zgaruvchan, dinamik holatidir.

Jamoatchilik fikri turli darajaga ham ega bo'lib, bu individual, kollektiv va ijtimoiy fikr ko'rinishida bo'ladi va ular o'rtasida doimiy va mustahkam bog'liqlik mavjud.

Jamoatchilik fikri ko'p jihatli hodisadir. Uning ratsional-aqliy (bilimlar), psixologik (ijtimoiy-ruhiy) kechinmalar, aksiologik qadriyatlar) va boshqa jihatlari bo'lib, birgalikda jamoatchilik fikrining tez tarqaluvchanlik va ekstensiv» xususiyatini ta'minlaydi. Jamoatchilik fikrining real ijtimoiy hayotda amal qilishi uning ifodalanishi va u bajaradigan vazifalar bilan xarakterlanadi.

Avvalo, jamoatchilik fikrining uch xil ifodalanishini kuzatsa bo'ladi:

1. jamoatchilik fikrining stixiyali ifodalanishi;
2. siyosiy institutlar tashabbusiga ko'ra biror bir qonunni muhokama qilish yoki chora-tadbir (referendum, umumxalq muhokamasi va boshq.) o'tkazish jarayonida jamoatchilik fikrining bildirilishi;
3. maxsus sotsiologik tadqiqotlar, ya'ni so'rovlar paytida jamoatchilik fikrining aniqlanishi;

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida jamoatchilik fikrining eski tuzum muammolaridan yangi masalalarga ko'chishi yuz bermoqda. Ammo jamoatchilik fikrining qayta yo'nalishi murakkab jarayon bo'lib, u oldin shakllangan xulq-atvor jabhalarining tafakkur va xatti-harakat qoliplarining (stereotiplarining), ba'zi an'analarining o'zgarishini o'z ichiga oladi. Gap

shundaki, aytib o‘tilgan ko‘pgina elementlar (eskicha tafakkur qoliplari, odatlar va h.k.)ni jamoatchilik fikri o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lib, bu uning konservativ tomonidir. Shuning uchun jamoatchilik fikrining jamiyat taraqqiyotiga to‘siq bo‘layotgan, ammo kishilar ongida chuqur o‘rnashgan aynan qaysi jihatini o‘zgartirish mumkinligini aniq, tasavvur eta bilish zarur. Ammo odamlar fikrini o‘zgartirishdan ko‘ra, ularda yangi muammolarga nisbatan munosabat, fikr-mulohazani shakllantirish osonroq. Demak, masala jamoatchilik fikrining kuchini oshirish, uni ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish omiliga aylantirish uchun tabiiy tarzda, ammo zarur yo‘nalishda ongli ravishda shakllantira bilishda ekan. Bu jamoatchilik fikrining jamiyat hayotadagi ahamiyatining oshib borishi bilan bog‘liq, bo‘lib, quyidagi shart-sharoitlarni talab etadi: a) davlat organlari, jamoat tashkilotlari, ilmiy markazlar tomonidan jamoatchilik fikrining muntazam o‘rganib turilishi; b) barcha fuqarolarning turli shakllarda (referendumlar, manifestatsiyalar, so‘rovlar va h. k.) jamiyat hayotining har xil muammolari yuzasidan o‘z fikrlari, baholari, nuqtai nazarini erkin bildirishlari; v) fuqarolarning jamoaviy (kollektiv) fikrlarini bildirishlari vositalari va shakllarini, kengaytirish, oshkoralik; g) davlat organlari va jamoat tashkilotlari tomonidan jamoatchilik fikridan doimiy foydalanish.

Jamoatchilik fikriga maqsadli ta'sir qilish ikki xil yo‘l bilan amalga oshirishi mumkin: 1) xaspo‘shlash (manipulyatsiya qilish); 2) ilmiy shakllantirish.

Jamoatchilik fikrini xaspo‘shlash - bu dolzarb muammolar bo‘yicha aholi ongiga nisbatan biror-bir fikrni zo‘rlab singdirish. xaspo‘shlash yolg‘iz hukmron siyosiy guruh, toifa, elitaning manfaatlarini ifodalaydi va uning iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy hukmronligini saqlab qolishiga qaratilgan bo‘ldi. Xaspo‘shlashning asosiy vositasi dezinformatsiya (soxta axborot) hisoblanadi. Xaspo‘shlash asosan totalitar jamiyatga xosdir.

Jamoatchilik fikrini erkin shakllantirish - jamoatchilik fikrining shakllantirish jarayoniga maqsadli ta'sir ko‘rsatishdir. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad jamiyatda axborot maydonini tabiiy ravishda hosil qilish bo‘ladi. Jamoatchilik fikrini shakllantirishda stixiyali va oigli omillar, uning shakllanishining ob'ektiv jarayonlari bilan bog‘liq, bo‘lgan ichki va boshqaruv organlari tomonidan kishilar ongiga chetdan ongli ravishda ta'sir qilishda ifodalanadigan tashqi mexanizmlar birligini ham ta'minlash zarur. Jamoatchilik fikri muhim institut bo‘lib, faol amal qilishi uning funksiyalari (vazifalari) bilan bog‘liq. Bu funksiyalar jamoatchilik fikrining jamiyat hayotining turli sohalarida (aytaylik, taqsimot

munosabatlarida) «qo'llanishiga» qarab turli shakllar bilan namoyon bo'ladi. Jamoatchilik fikrining funksiyalari uning u yoki bu ijtimoiy institutlarga ta'siriga qarab, bildirilayotgan fikrning mazmuniga ko'ra va bu fikrning shakliga qarab belgilanadi.

Jamoatchilik fikri ijtimoiy institutlarga ta'siri jihatidan ekspressiv, konsultativ va direktiv funksiyalarga ega. Ekspressiv (tor ma'noda-nazorat) funktsiya. Jamoatchilik fikri ijtimoiy hayot faktlariga nisbatan, xususan, davlatning, uning turli institutlarining harakatiga, faoliyatiga nisbatan doimo aniq, munosabatga ega bo'ladi. Bu narsa jamoatchilik fikriga hokimiyat institutlaridan ayri turuvchi va bu institutlar faoliyatini baholab boruvchi va nazorat qila oluvchi kuch baxsh etadi. Shuning uchun siyosatchilar ko'pincha jamoatchilikka, aniqrog'i uning fikriga tayangan holda ish ko'rishga, ya'ni jamoatchilik fikrining manaviy kuchi bilan hisoblashishga majbur bo'ladilar. Jamoatchilik fikrining bu ekspressiv-nazorat funksiyasi ayniqsa demokratik tartibga (rejimga) asoslangan jamiyatlarda katta ta'sirga ega bo'ladi. Bunda ommaning siyosiy institutlar faoliyati ustidan nazorati va ta'siri kuchli bo'ladi. Konsultativ (maslahat) funktsiya. Jamoatchilik fikri muammolarni hal etish vositalarini tanlash bo'yicha «maslahat berish» qobiliyatiga ega. Bunda boshqaruv organlari o'z faoliyatlari yuzasidan jamoatchilik fikrini so'rab berishdan manfaatdor bo'ladilar. Masalan, tijorat masalalarini yoki aholiga maishiy xizmat ko'rsatish muammolarni hal etishda jamoatchilikning fikrini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Direktiv funktsiya. Jamoatchilik ba'zi hollarda ijtimoiy muammolar yuzasidan imperativ (majburiy) xususiyatga ega bo'lgan hukm chiqaradi. Referendumlar va saylovlar paytida bildiriladigan jamoatchilik fikri bunga misol bo'la oladi. Bu holda jamoatchilik fikri majburiy kuchga ega bo'lib, biror bir guruhning fikri uning o'rnini bosa olmaydi. Jamoatchilik fikri o'z mazmuni mohiyatiga qarab baholash, tahliliy, konstruktiv va regulyativ funksiyalarga ega bo'ladi. Jamoatchilik fikrining baholash funksiyasida kundalik, oddiy fikrlash ustivor bo'lib, bunda sub'ektning u yoki bu ijtimoiy voqeaga nisbatan munosabatining bildirilishi talab etiladi. Jamoatchilik fikrining tahliliy (analitik) vazifasi sub'ektning jamiyatda yuz berayotgan hodisa, voqealarga nisbatan tahliliy munosabati, ya'ni nazariy fikrlashi bilan ifodalanadi. Jamoatchilik fikrining konstruktiv funksiyasi bu — sub'ektning ijtimoiy munosabatlari va jarayonlarni o'ziga xos programmalashtirishidir. Bu holda sub'ekt nazariy mushohada asosida o'z fikrini va maslahatlarini aniq ifoda etadi. Jamoatchilik fikri ijtimoiy munosabatlar tizimida ma'lum bir normalarni ishlab chiqish va mustahkamlash «vakolatiga» ham ega. Bu holda

jamoatchilik fikrining regulyativ (boshqaruv) funksiyasi yaqqol namoyon bo'ladi va u ayniqsa shaxslararo munosabatlarda, shaxs va jamoa o'rtasidagi munosabatlarda ko'zga tashlanadi. Bunda jamoatchilik fikri ko'pincha jamiyat (ijtimoiy guruh) tomonidan qabul qilingan, lekin shaxs xatti-harakatini belgilaydigan qoida va qonunlar to'plamini eslatadi. Bu jamoatchilik fikrining eng qadimiy funksiyalaridan biri ham bo'lib, unda guruhning fikri, xalq odatlari (masalan, uch olish odati), turli an'analar chatishib ketganki, ular inson xulqini boqarishda katta ahamiyatga ega.

Nihoyat, ifodalanish shakliga ko'ra jamoatchilik fikri ikki xil — pozitiv (ijobiy) va negativ (salbiy) funksiyalarni bajaradi. Darhaqiqat, jamoatchilik o'z fikrini doimo qo'llab-quvvatlash va aksincha, inkor etish, qoralash ko'rinishida bildirilishi mumkin. Sub'ekt ijtimoiy jarayonlarda ongli ishtirok etishga tayyorligini bildirgan taqdirda jamoatchilik fikri pozitiv, agar sub'ekt norozilik bildirib, xech bir haraktni sodir qilmagan taqdirda negativ vazifani bajaradi. XX asrning oxirgi choragida jamoatchilik fikrini o'rganish sohasida «portlash» sodir bo'ldi. Zero, bizning axborot va kommunikatsiya ko'lamida va turli uslublarda o'rganish borasida ulkan imkoniyatlar va shart-sharoitlar yaratdi. Hozirda jamoatchi fikri bilan hisoblashmaydigan ilg'or jamiyatning o'zi yo'q. Axborot maydonini hosil qilish uchun rivojlangan mamlakatlarda barcha imkoniyatlar ishga solinmoqda. Bunda ommaviy kommunikatsiya (muloqat) va axborot vositalari (matbuot, radio, televidenie, videoyozuvlar, kino) yordamida zaruriy jamoatchilik fikri uyg'otilmoqda. Bunga, albatta, ma'lum manfaatlar turtki bo'lmoqda. Jamoatchilik fikrini o'rganishning asosida doimo ma'lum bnr manfaatlar yotadi va uni o'rganishda asosiy stimul bo'lib xizmat qiladi. Masalan, amerikalik sotsiolog A. Inkelas bunday stimullarni uch hilini ajratib ko'rsatgan: 1) industriya va savdoni rivojlantirish maqsadidan kelib chiqadigan tijorat manfaatlari; 2) targ'ibotni rivojlantirish va takomillashtirish doirasidagi hukumat manfaatlari; 3) ommaviy muloqat fenomenini o'rganish bilan bog'liq olimlarning akademik (ilmiy) manfaatlari;

Yuqorida bayon etilgan fikrlar jamoatchilik fikrining informatsion jihatlariga e'tiborni qaratishni jalb etadi. Zamonaviy jamiyatning axborotlashuvi — axborotni ishlab chiqish, qayta ishlash va tarqatishning yangi darajasi bilan bog'liq jarayonlar yig'indisidir. Axborot sektori (fan, maorif, san'at, boshqaruv, reklama, ommaviy muloqat va axborot vositalari)ning jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi o'rni va ahamiyati oshib bormoqda.

O'zbekistonda jamoatchilik fikrini sotsiologik o'rganish tizimi

yaratilmoqda, to'g'ri, bunda ba'zi qiyinchiliklar mavjud. Bizda hali JJJFFni aniqlash uslublarga, xususan sotsiologik so'rovlarga ko'pchilik ruhan tayyor emas. Bunda albatta xalqimizning o'ziga xos tafakkur tarzi bilan ham hisoblashish zarur. Sharqda dolzarb ijtimoiy muamiolar ko'chakuyda, ochiq, ravshan va baralla emas, balki oila, qarindosh-urug'chilik kuchli bo'lgani uchun yig'inlarda, to'y-marakalarda, choyxonalarda muhokama qilinishi odat bo'lib qolgan. Shuningdek, yoshi kattalarga-boshqalarga hurmat, ularning fikri bilan hisoblashish kuchli ildizga ega. Bu omillarni hisobga olmaslik mumkin emas.

Ma'lumki, jamoatchilik fikrining shakllanishiga mavjud axborot maydonidan tashqari mikro muhitning, ya'ni kichik muhitning kuchli ta'siri bo'ladi. Chunki inson aynan mikro muhitda —oilada, mahallada kundalik hayotning ko'proq qismini o'tkazadi.

Shuni ham alohida ta'kidlash zarurki, jamoatchilik fikrining shakllanishida aholi asosiy qismining siyosiy madaniyati darajasi, uning qadriyatlari katta ahamiyatga ega. Buni axborot maydonini yaratishda hisobga olish kerak bo'ladi. Jamoatchilik fikrini asta-sekin tayyorlamasdan turib, birdaniga umumjahon axborot darajasiga o'sib o'tishi qiyin, albatta.

Mavjud ijtimoiy muammolar to'g'risida turlicha guruhlarining har xil fikrlari bo'lishi tabiiydir-Shuning uchun biz jamoatchilik fikri to'g'risidagi fanni rivojlantira borib, jahon tajribasi, o'z an'analarimiz, yangi jamiyatimizning ijtimoiy-madaniy omillarini hisobga olishimiz zarur.

Jamoatchilik fikri jamiyatning bugungi kuni, uning kechiktirib bo'lmas muammolari bilan ham bog'liq. Shu ma'noda jamiyatning jamoatchilik fikrini aniqlashga bo'lgan ehtiyoji oshib boradi. Ayniqsa, jamiyatimiz bozor sharoitida tobora tabaqalarga ajralib borayotgan bir sharoitda jamoatchilik fikrini o'rganish va u bilan hisoblashish zarur. Jamoatchilik fikrini o'rganishdagi ba'zi kuzatishlar ko'rsatadiki, hozirda O'zbskistonda jamoatchilik fikrini o'rganishda sotsiologlarimiz oldida bir qancha muammolar mavjud. Asosiy muammo, bu —kommunikatsion tizimlarning yetishmasligi va bundan kelib chiqadigan axborot oqimining zaifligidir. O'zbekistonda barcha hududlar bo'yicha axborot-kompyuter ma'lumotlar bazasini yaratish zarur. Buning uchun biz xalqaro, umumjahon kommunikatsiyalar turiga birlashish masalasini hal etishimiz kerak bo'ladi.

Ikkinchi muammo shuki, mavjud axborot vositalarining faoliyatida ma'lum nuqsonlar bor. Jamiyat hayotining barcha sohalarida, iqtisodda, siyosatda, ma'naviy-madaniy hayotda jamoatchilik fikrining ahvolini aniqlash, o'rganish va tahlil etish uchun statistik ma'lumotlar yetishmaydi. Vaholanki, turli ijtimoiy muammolar bo'yicha jamoatchilik fikrining

doimiy o'zgarib borishini kuzatish zarur. Bu vazifani yetakchi sotsiologlarimiz tomonidan tuzilgan dasturlar asosida o'tkaziladigan so'rovlar bajarishi mumkin.

Hozirgi davrda jamoatchilik fikrini tizimli va keng ko'lamda o'rganish dunyoning rivojlangan mamlakatlaridagi ijtimoiy-siyosiy hayotning ajralmas qismiga aylangan. Uning yordamida turli ijtimoiy dasturlar va tadbirlar olib boriladi va samaradorligi aniqlab beriladi. O'zbekistonda «Ijtimoiy fikr» jamoatchilik fikrini o'rganish markazining o'z faoliyatini boshlaganligi mamlakatimizda bu sohadagi ishlarga katta imkoniyatlar yaratdi.

2. IQTISODIY SOTSIOLOGIYA

Iqtisodiy sotsiologiya XX asrning 50-yillarning o'rtalarida AQShda fan sifatida shakllanib dastlab tor doiradagi olimlarning qiziqtirgan bo'lsa, endilikda bu fan juda taraqqiy etgan va uning muammolari tadqiqoti bilan ko'pgina mamlakatlar olimlari jiddiy shug'ullanadilar. hozirgi davrda bu fan ham G'arbda, ham Sharqda sotsiologik bilim taraqqiyotining markaziy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiy sotsiologiyaning sobiq SSSR parchalanishi natijasida shakllangan yosh mustaqil davlatlar uchun, ularning ananaviy siyosiy iqtisodga asoslangan. O'z mentalitetlarini tubdan o'zgartirishlari uchun nihoyatda zarurligi haqidagi fikr va mulohazalar hech bir shubha uyg'otmasa kerak. Keyingi vaqtlarda Markaziy Osiyo davlatlari, ayniqsa O'zbekistan ko'plab iqtisodchilar, sotsiologlar, siyosatshunoslar va jurnalistlar e'tiborini kun sayin o'ziga ko'proq qaratayapti. O'zbekistonga «barqarorlik oroli» sifatida qaralib, u haqida fanlar bildirish diapazoni anchagina kengdir: lol qolib maqtashlardan tortib, to keskin tanqidlargacha.

Shu bilan birgalikda bu makonda bo'layotgan jarayonlarni tushunish uchun nafaqat O'zbekistonning bozor munosabatlarga o'tishdagi iqtisodiy siyosati mohiyatini tushunishlik, balki individual va ijtimoiy ongning Sharqni bu mamlakatdagi o'ziga xos xususiyatlari haqida ham chuqur bilimlar talab qilinadi. Zero O'zbekiston respublikasi prezidenti ta'kidlaganidek: «Bizning bozor munosabatlariga o'tish modelimiz respublikaning o'ziga xos sharoitlari va xususiyatlarini, an'analar, urf-odatlar, turmush tarzini har tomonlama hisobga olishga, o'tmishdagi iqtisodiyotni biryoqlama, beso'naqay rivojlantirishning mudhish merosiga barham berishga asoslandi».

Islohatlarni muvaffaqiyatli ravishda amalga oshirishlik uchun aynan shu nuqtai nazardan qaraganimizda, iqtisodiy sotsiologiyaning o'rnini

betakrorligi yaqqol namoyon bo'лади. Iqtisodiy sotsiologiyaning predmeti mohiyatini bilishlik uchun esa uning shakllanishini tariqqiy shart-sharoitlariga murojaat qilish kerak.

Xuddi shu sabablar tufayli bundan buyon boshqaruv sohasida asosiy e'tiborni psixologik va intellektual imkoniyatlarni ishga solishlik tomoniga qaratishlik jiddiy ma'no kasb etadi. Aynan shu davrda sotsiologiyadagi ko'pgina tarmoq yo'nalishlar — industrial sotsiologiya, muassasalar sotsiologiyasi, shahar sotsiologiyasi va boshqalar paydo bo'la boshladi. Boshqaruvlar yirik olimlar tomonidan ishlab chiqilgan «insonlar munosabatlari», «intizomli xulq-atvor» konsepsiyalarini sinashlikni amalga oshirdilar. Boshqaruvni kompyuterlashtirish usuli, modellashtirish va miqdoriy tahlil qilishlikning turli metodlari yordamida ishlab chiqarish sur'atini oshirishga harakatlar qilindi. XX asrning ikkinchi yarmida mehnat sohalariidagi yuksalish tufayli boshqaruv muammalari yanada murakkablashdi. Korporatsiyalarning bozorni o'zgaruvchanligi, iqtisodning u mumiy holatiga bog'liqligi darajasi keskin ravishda oshib ketdi. Bularning hammasi sotsial ziddiyatlarning keskinlashuvini keltirib chiqardi va tadqiqotchi olimlar oldiga mehnat resurelarini boshqarishlikni yangi yo'nalishlarini izlab topish vazifasini ko'ndalang qo'ydi. Ushbu shart-sharoitlar ob'ektiv ravishda iqtisodiy sotsiologiyaning vujudga kelishiga asosiy sabablardan biri bo'ldi. Boshqa bir tomondan esa bu fanning paydo bo'lishiga ham iqtisod, ham sotsiologiya fanlarining taraqqiyoti yetarli darajada asos yaratdi. Ishchilarning qadriyatli orientirlari, motivlari va xulq-atvorlari faqatgina iqtisoddagi o'zgarishlar ta'siri osgida emas yakka madaniy muhit tufayli ham shakllanadi. Asrimizning 60-yillarida rivojlangan G'arb davlatlarida iqtisod fanining ijtimoiylashuv tendensiyasi yanada kuchaydi va natijada iqtisodiy sotsiologiyaning imkoniyatlari ham ortib bordi. Shu bilan birgalikda nazariya sotsiologiyada shunday sotsiologik tushuncha va kategoriyalar ishlab chiqildiki, ular iqtisodiy sotsiologiyaning kategorial apparatining shakllanishiga asos bo'ldi Bu kategorial apparat iqtisodchi sotsiologlarga iqtisoddagi mavjud va hali ham o'rganilmagan sotsial aloqalarni tadqiq qilishliklariga keng yo'l ochib berdi. Shu bilan bir qatorda muassasalar, ishlab chiqarish jamoalari, kasblar, bandlik, stratifikatsiya, boshqaruv va boshqa muhim masalalar bilan shug'ullanuvchi sotsiologiyadagi maxsus yo'nalishlar ham rivojlanib bordi. G'arb iqtisodiy sotsiologiyani aniq chegaralar asosida rivojlanayotgan yagona ilmiy yo'nalish sifatida emas, balki jamiyat, yoxud alohida davlat taraqqiyotining u yoki bu davrdagi dolzarb muammolarni o'rganadigan o'ziga xos bir ilmiy harakatdir. Ushbu

harakat «Iqtisod va jamiyat» nomiga sazovor bo'ldi. Amerikalik sotsiolog Dj. Smelzer o'zining «Iqtisodiy hayot sotsiologiyasi» maqolasida shunday zo'r tayassurot qoldiradigan manzarani chizib berdiki, unda iqtisodiy sotsiologiya «yo'rgak»dagi xolatida qanday ulg'ayganligi va iqtisodiy turmushning borgan sari yangi tomonlarini qamrab olishligi juda ta'sirli qilib tasvirlangan. (Amerikanskaya sotsiologiya. M. Progress, 1972, s. 200. Buning natijasida esa iqtisodiy sotsiologiyaning yutuqlarini yorqin timsoli namoyon bo'ldi. Bu hol esa «haqiqiy» iqtisodchida sotsiologiya iqtisodchilarining haq-huquqlariga tanovvuz qilmasmikin degan savol tug'dirishi mumkin.

Smelzerning ta'kidlashicha iqtisodchilar va sotsiologlar iqtisodiy hayot haqida bir-birlaridan farq qiladigan savollarga javob izlaydilar. Bunda sotsiologlar muammoga kengroq iqtisodchilar esa tor ma'noda yondashadilar.

Iqtisodiy sotsiologiyaning darg'alari va bu yo'nalishda o'z tadqiqotlarini olib borayotgan olimlar va bu fan uchun nazariy asoslar yetishmayotganligini e'tirof etmoqdalar. Ma'lumki G'arbda e'tibor amaliy tadqiqotlarga ko'proq qaratiladi. Ushbu masala bo'yicha Dj. Smelzer quyidagicha fikr yuritadi: «Marks va Veber tomonidan qo'yilgan va hayratomuz kuchga ega bo'lgan vazifalar iqtisodiy va siyosiy omillarning o'zaro ta'siriga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarda hozir ham asosiy rol ni bajarayapti. Bular shunday vazifalarki, ular muassasalardagi boshqaruvning sermahsulligi, turli maifaatni ko'zlovchi iqtisodiy guruhlarning o'zaro kurashlariga asos bo'lishi, iqtisodiy sistemaning siyosiy sistema ustidan hukmron qilishlikni ta'minlaydilar». «Amerikanskaya sotsiologiya. M. Progress», 1972, str. 200.

Bu ikki ensiklopedist mutafakkirlarining xizmatlarini yuqori baholab Dj. Smelzer o'z fikrlarini rivojlantirib boradi: «Marks va Veber ko'tarib chiqqan muammolar madaniyat va iqtisodiy faoliyatning o'zaro aloqalariga bag'ishlangan hozirgi zamon tadqiqotlarining diqqat markazida turibdi. Ayniqsa shunday muammolar Madaniy belgilar iqtisodiy faoliyat orqali belgilanishi mumkinmi; bu savollar iqtisodiy faoliyatga mustaqil ta'sir ko'rsatishi mumkinmi yoki bu yerda gap o'zaro harakat haqida ketayaptimi. «Amerikanskaya sotsiologiya», M. Progress. 202 str. G'arb iqtisodiy sotsiologiyasiga pozitsiyasini qisqacha ta'rifi ana shulardan iboratdir. Sobiq Ittifoqda iqtisodiy sotsiologiya muammolarini o'rganishlik 80-yillardan boshlandi. Bir guruh. Novosibirsklik iqtisodchilar va sotsiologlar 70-80 - yillar o'rtasida mamlakatda paydo bo'lgan krizis holatning sotsial-iqtisodiy sabablarini aniqlashga kirishdilar. Ma'lumotlarni

tahlil qilishlik esa olimlardan iqtisod rivojining sotsial regulyatorlarini, ya'ni uning sotsial mexanizmlarini o'rganishlikni taqozo etdi. Bu esa o'z navbatida boshqa muammolarni keltirib chiqardi, xususan, aholining turli sotsial guruhlarining ho'jalik yuritishning yangicha shakllariga munosabati, ularning yangi sharoitlarda ishlashga tayyorligi shular jumlasidandir. Yangi muammolar esa o'zining echimi uchun iqtisodiy va sotsiologik tushunchalar «tutish» ligiga asoslangan yangi metodologiyani talab qila boshladi. Iqtisodiy sotsiologiyaning metodologiyasini ishlab chiqishlik jarayoni hozir davom etayapti. Iqtisod va sotsiologiyaning tutashganligi tufayli yuzaga kelgan muammolar O'zbekistonlik olimlarning ham e'tiborini o'ziga tortayapti. Ayniqsa bozor munosabatlariga o'tishning sotsial oqibatlar va bunda davlatning roli, axborotlar, kabi muammolari, O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos xususiyatlari kabi dolzarb muammolar bugungi kunda iqtisodiy sotsiologiyaning fundamental muammolari hisoblanadi.

Qadimdan Sharq o'zining xususiyatlari bilan: avloddan avlodga o'tib kelayotgan o'ziga xos bo'lgan urf-odatlariga, normalarga, marosimlarga egaligi bilan mashhurdir. Bu erda muammo konservatizm va potriarxallik negizlarida emas, albatta ular mavjuddirlar, balki shoshma-shosharlik, behuda harakatlarga toqat qilmaslik, xokimiyat vakillari va oqsoqollarga chuqur hurmat asosida munosabatda bo'lishlik sharq kishisining mentaliteti, ya'ni tafakkur tarzining o'ziga xos bo'lgan xususiyatidadir.

Mustaqillikni qo'lga kiritgan yosh davlat oldida jamiyatni isloh qilishlik uchun 2 ta yo'nalish mavjud edi: birinchisi «shok terapiya»si bo'lib u bozor islohatlarining jarayonlarini sun'iy jadallashtirishga asoslanadi; ikkinchisi esa mo'tadillik asosida islohatlarni bosqichma-bosqich amalga oshirishni nazarda tutadi. "O'zbekistonning o'z bozor munosabatlariga o'g'ishning o'z modeli aynan ushbu ikkinchi yo'nalish asosida yaratilayapti. Bu modelining mohiyati shundan iboratki, unda milliy xususiyat determinantlik xususiyatiga egadir. Iqtisodiy sotsiologiyaga ma'lum bir ta'rifni berishdan ilgari iqtisodiy va sotsial sohalarining sharhlanishini aniqlab olish lozim. Sotsial sohaning eng keng tarqalgan sharti quyidagicha: Sotsial soha ijtimoiy hayotning shunday sohasiki, unda insonni ham ishlab chiqarish kuch sifatida, ham shaxs sifatidagi keng takror ishlab chiqishlik yuz beradi. Bunday sohaga odatda ishlab chiqarishlik, oila, ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash madaniyati taalluqli hisoblanadi. Iqtisodiy soha deb odatda insonlar turmush faoliyatlari uchun zarur hisoblangan ishlab chiqarish, taqsimot, ayirbosh va iste'mol uchun mas'uliyatli bo'lgan jamiyatning yaxlit tushinchasi tushuniladi. Iqtisodiy

soha jamiyatning yaxlit struktur-funksional tizimchasi sifatida siyosat, ta'lim, kommunikatsiya va boshqa faoliyat sohalari bilan aktiv o'zaro harakatda bo'ladi. Sotsial soha esa o'z holicha bunday tizimchani tashkil qilmaydi va shuning uchun iqtisodiy, siyosiy va boshqa sohalar bilan bir xilda tadqiq, qilinmaydi. Uni bu sohalar bilan o'zaro munosabati o'zgaribdir. Bu munosabatni tushunishlik uchun esa avvalambor «sotsial munosabatlar tushunchasini sotsial sohaning bosh mezonini sifatidagi ahamiyatini anglab etish lozim. Sotsial munosabatlar 2 xil ma'noda talqin qilinadi: keng va tor ma'noda. Keng ma'noda bu munosabatlar turli xil sotsial jamoalar (korxonalar jamoasi, turli mintaqa aholisi va h.e.) o'rtasidagi munosabatlarni bildiradi. Tor ma'noda esa bu jamiyatda turli mavqega ega bo'lgan sotsial tabaqa va guruhlar o'rtasidagi munosabatdir. Sotsial munosabatlarning sterjeni bo'lib kishilarning va guruhlarining jamiyatdagi egallab turgan mavqelari bo'yicha tenglik va notenglik munosabatlari namoyon bo'ladi. Sotsial munosabatlar kamida ham iqtisodiy, ham siyosiy munosabatlarda «ishtirok qiladilar». Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda «Ekonomicheskaya sotsiologiya i perestroyka» kitobining mualliflari sotsial soha deb jamiyatdagi turli xildagi sotsial iqtisodiy mavqega ega bo'lgan turli guruhlarining o'rtasidagi munosabatni tushunadilar. Demak, sotsial soha jamiyat hayotining bittagina aspekti — guruhlarining turli xildagi mavqelarini aks ettiradi. Bu aspekt mufassal xususiyatga egadir, chunki guruhlarining mavqelarining turli-tumanligi nafaqat iqtisodga, balki yosh siyosiy, oilaviy va jamiyatning boshqa bir qator sohaslariga ham xos reallikdir xususan, aynan bir guruhning o'zi bir vaqtning o'zida turli sohalarda turli mavqeni egallashi mumkin. Ushbu fikrlarni mulohaza qilish chog'ida tabiiy bir savol paydo bo'ladi, ko'p sotsial sohaning iqtisod bilan o'zaro aloqasi qanday xususiyatga ega? Birinchidan, jamiyatdagi konkret guruhning egallab turgan mavqesi hal qiluvchi omil sifatida iqtisodiy munosabatlar sistemasi orqali belgilanadi. Ikkinchidan, sotsial soha iqtisod faoliyati va rivojiga qarama-qarshi ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sir sotsial-iqtisodiy guruhlar yordamida amalga oshiriladi. Iqtisodiy sotsiologiya vazifalari haqida so'z ketganda inson faoliyati tufayli iqtisoddagi sotsial-iqtisodiy jaryonlarning o'zgarishlarini nazarda tutmoqlik darkor.

Shunday qilib sotsial-iqtisodiy jarayon bu iqtisodning va sotsiallikning o'ziga xos «payvand» i bo'lib u insonning iqtisodiy taraqqiyotga ta'siri ostida bunyod bo'ladi. Inson jamiyatdagi iqtisodiy va sotsial sohalar aloqa sistemasining yadrosini tashkil etadi. Agarda fikrimizni yanada konkretlashtirsak, bu yadro bo'lib sotsial-iqtisodiy guruqlarning o'zaro

harakatlari, faoliyatlari va xulq-atvorlari xizmat qiladilar. Iqtisodiy sotsiologiya iqtisodiy munosabatlar sistemasiga taalluqli va bir-birlari bilan o'zaro harakat qiluvchi guruhlarni o'rganadi. Uning ob'ekti bo'lib sotsial jarayon sifatida maxsus nuqtai nazardan qaraluvchi iqtisod namoyon bo'ladi. Bu jarayonning mohiyati iqtisod faoliyatini strukturaviy o'zaro harakat ta'siri ostida o'rganishimizda mujassamlashgandir. Iqtisodiy sotsiologiyaning ob'ektini aniqlaganimizdan so'ng uning predmeti haqida ham to'xtalib o'tish joizdir. Iqtisod fanining mexanizmini o'rganishlik jamiyatdagi sotsial guruhlarning o'zaro harakatlariga bog'liq ekan, demak sotsiologiya fanining ushbu yo'nalishini eng muhim vazifalaridan biri bu iqtisodiy taraqqiyotni belgilab beradigan sotsial guruhlarning faoliyati, xulq-atvori va o'zaro harakatlarini tadqiqot qilishlikdir. Iqtisodiy sotsiologiyaning yana bir muhim vazifasi deb kishilarning iqtisodiy sohadagi boshqaruv sistemasidagi, madaniyat, sotsial xolat va ijtimoiy mavqe xolatidagi faolligiga ta'sir etuvchi omillarning aniqlanishini e'tirof etish mumkin. Va nihoyat iqtisodiy sotsiologiyaning oldidagi yana bir muhim vazifa — bu jamiyat sotsial strukturasi shakllanishi va dinamikasining tahlilidir. Bu sotsial struktura boshqaruv sistemasi va madaniyatga katta ta'sir ko'rsatadi. Yuqoridagi fikrlarni tahlil qila turib Sharqda xususan O'zbekistonda bozor munosabatlari muammolarining echimlarini izlab topib hal qilishlik juda dolzarb ma'no kasb etadi. Umuman olganda Sharq o'zida keng ma'noda ijtimoiy-madaniy, milliy, tarixiy xususiyatlarni mujassamlashtirgandir. Lekin shunga qaramay bu qatlamlarni tushunishdagi turlicha fikrlardan farqli o'larok. Sharqni qoloq tizim sifatida an'anaviy tarzda tushunish keng tarqalgandir.

3 SIYOSIY SOTSILOGIYA

Demokratiya va bozor munosabatlari sari qadam tashlagan sobiq sotsialistik mamlakatlarning xalqlari oldida siyosiy madaniyat asoslarini egallash, g'oyaviy qoliplardan voz kechish vazifasi turibdi. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, kishilarning siyosiy ongida o'zgarishlar qilmay turib, hech qanday o'zgarishlarni amalga oshirish mumkin emas. Biz ko'p yillar yashagan tuzum tez muddatda xalokatga uchradi. Bu esa o'z navbatida ko'pchilik kishilarning ongidagi o'zgarishlarga olib keldi va ongda paydo bo'lgan bo'shliq noma'qul bo'lgan anarxik g'oyalar, keskin qarashlar yoki g'ayri-ijtimoiy fikrlar bilan to'ldi. Shu bilan bir vaqtda siyosatga qarash ham o'zgardi siyosatni iflos ish deb tushunish paydo bo'ldi. Vaholanki, siyosat zamonaviy kishi uchun zarurat va extiyojdir. Shuning uchun

hozirgi kunda insonlarga jamiyatda sodir bo'layotgan jarayonlarga to'g'ri baho berishga yordam qilmok zarur. Avvalambor — bu insonning jamiyatda tutgan o'rni va rolini tushunib o'tish istagi bilan, boshqa kishilar bilan hamkorlikda ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq. Siyosatni tushunmaslik va ongli ravishda uni nazarga olmaslik salbiy oqibatlariga olib keladi, begonalashuvni keltirib chiqaradi. Shu sababli siyosiy fan va siyosiy ta'lim insonlarga munosabatlarini insonparvarlik va oqilonalik asosida ko'rishga yordam berishi kerak. Siyosiy sotsiologiya ham shunga hizmat qiladi. Siyosiy sotsiologiya atamasi sotsiologiyada ham, siyosiy fanda ham shunday bir fan sifatida talqin qilinadiki, u shu ikki fanning umumiy sohalarini ichiga oladi. Sotsiologiya doirasidan siyosiy sotsiologiya muhim soha sifatida yaqindagina ajralib chiqan, g'arbda bu fan XX asrning 30—50 yillarida qaror topgan deb uqtirilar edi, ya'ni siyosiy fanga nisbatan ancha kech. Siyosatda sotsiologik yondashuvning rivojlantirishda K. Marks, M Veber, Mixele, Moska, Pareto va Zigfrid kabi olimlarning ishlari katta rol o'ynadi. Markscha yoidashuv siyosiy hulq-atvorga sotsial-iqtisodiy va sinfiy strukturaning ta'sirini kuzatish bo'yicha ishlarni jonlantirib yubordi, Veber esa ijtimoiy o'zgarishlarning mustaqil omili sifatida siyosiy institutlarni sotsiologik o'rganishning peshqadam edi. Bu olimlar fanning bu ikki sohalariga bo'lgan ilmiy qiziqishning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatdilar.

XIX asr oxiri — XX asr boshlarida siyosiy fan ancha tez rivojlandi. Siyosiy sotsiologiya va politologiyaga muhim hissa qo'shgan olimlardan Ostrogovskiy, Novgorodsev, Chicherin va boshqalarni ko'rsatishimiz mumkin. Sobiq SSSR davrida politologiya va sotsiologiya fanlarining omadi chopmadi. 80-yillargacha ular alohida fan sifatida tan olinmadi va ko'pgina tadqiqotlar tarixiy materializm, ilmiy kommunizm, KPSS tarixi va boshqa fanlar doirasida amalga oshirildi.

Bu ikki fanga munosabat qayta qurish va demokratiya davrida o'zgardi. 1990 yilda SSSR Fan va Texnika bo'yicha Davlat qo'mitasi siyosiy fan bo'yicha ilmiy xodimlarning nomenklaturasini rasman tan oldi. Siyosiy sotsiologiya va politologiya oliy o'quv yurtlarida o'qitila boshladi. Masalan ToshDU da siyosiy sotsiologiya 1993 yildan boshlab o'qitildi. Siyosiy fanda kechilgan qiyinchiliklarga qaramay, bu fan ijtimoiy fanlar tizimida o'ziga xos o'rinni egallamoqda. Siyosat, siyosiy munosabatlar, siyosiy ong va boshqa muammolarning u yoki bu jihatlariga bag'ishlangan ilmiy ishlar nashr qilindi. Bu muammolarni o'rganuvchilar jumlasiga I.I. Antonovich, A.A. Artemov, I.N. Bokarev, A.V. Dmitriev, D.A. Kerimovlar mansubdirlar.

Siyosiy sotsiologiya doirasida aholi siyosiy ongini o'rganish, davlat korxonalarining faoliyatini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazildi. Lekin siyosiy hayotning ko'pgina jihatlari olimlarning e'tiboridan chetda qolib ketdi, ko'pincha tadqiqotlar «sovet xalqining siyosiy yaxlitligini» ta'kidlashdan nariga o'tmasdi.

Xuddi shu siyosiy sotsiologiya barcha jarayonlar umumiy va xususiy jarayonlar haqida aniq, bilim berishi mumkin bo'lgan fan ekanligini, hayotda qo'yilgan masalalarga javob berishi mumkin bo'lgan kelajak haqida bashorat qiluvchi fan ekanligini olimlar isbot qilishi kerak.

Xo'sh, siyosiy sotsiologiya fani nimani o'rganadi? Barcha fanlardagi kabi siyosiy sotsiologiyada ham uning predmeti ham bir tomonlama talqin qilinmaydi, chunki siyosiy sotsiologiya faniga hammani qoniqtiruvchi ta'rif berish juda murakkab. Keng ma'noda, siyosiy sotsiologiya — sotsiologik nazariyaning bir qismi bo'lib, hokimiyat uchun kurash va hokimiyatni amalga oshirish kabi xodisalarni tushuntiradi, chunki xuddi shu xodisalar siyosatning mohiyatini tashkil etadi. Bu nuqtai-nazarni Bendiks, Lipset, F. Burlatskiy va boshqa olimlar qo'llab-quvvatlaydilar, lekin bu ta'rif juda umumiydir. Lipsetning fikricha, siyosiy sotsiologiyaga jamiyat va davlat o'rtasidagi, ijtimoiy tuzum va siyosiy institutlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganuvchi fan deb ta'rif berish mumkin.

Alohida e'tibor politologiya va siyosiy sotsiologiyaning nisbatiga qaratiladi. Chunki ularning predmeti bir-biriga juda yaqin. Bu fanlar umumiy tadqiqot ob'ektiga ega bo'lishi mumkin, lekin shu ob'ektni o'rganishda tahlil uslublari va bilim manfaatlari bilan farq qiladilar. Ba'zi mualliflar politologiya va siyosiy sotsiologiyani siyosat haqidagi eng umumiy fanlar sifatida tenglashtiradilar.

«Siyosiy fanga, — deb yozadi M. Gravits, — ta'rif berishda shuni aytish kerakki, insonlar ularning hamkorlikdagi hayotini yo'naltiruvchi institutlardan qanday foydalanishlarini o'rganuvchi, kishilarni harakatga keltiruvchi g'oyalarni (bu g'oyalar shu kishilar tomonidan yaratilganmi yoki o'tgan avlodlar tomonidan qolganmi, bundan qat'iy nazar) o'rganuvchi fandır. Aytish mumkinki, siyosiy fan predmetida g'oyalar, institutlar va insonlar birlashib ketgan».

Qator mualliflar, xususan, M. Dyuverje, M. Xattix, Yu. Xoxfeld, O. Gitammer, R. Bendiks va boshqalar ham siyosiy sotsiologiya va politologiyani tenglashtiradilar. «Siyosiy sotsiologiya keng ma'noda, — deb yozadi O. Berg-Plosser, — barcha ijtimoiy nodir hodisalar bilan shug'ullanadi va bu hodisalar siyosiy jihatdan muhim hisoblanadi. Ob'ektiv sohada bu avvalambor turli shakldagi jamiyat strukturalari va bu

strukturalarga ta'sir qiluvchi omillardir. Ob'ektiv sohada u siyosiy muhim bo'layotgan ijtimoiy iazariya va xulq-atvor namunalarini tadqiq qiladi, tor ma'noda, siyosiy sotsiologiya ob'ekti — aniq siyosiy jihatdan muhim guruh va jarayonlarni tadqiq, qilishdir.

Qisqasi, agar siyosat haqidagi fan davlatdan kelib chiqsa va uning jamiyatga ta'sirini o'rgansa, u vaqtda siyosiy sotsiologiya jamiyatdan kelib chiqadi va u davlatga qanday ta'sir ko'rsatishini ya'ni hokimiyatni taqsimlashga va amalga oshirishga xizmat qiluvchi rasmiy institutlarga ta'sirini o'rganadi.

Fanni rivojlantirish siyosiy tadqiqotlarda siyosiy sohaning yaxlitligini aks ettirish hamda siyosiy bilimlarning bo'lak-bo'lakligiga yo'l qo'ymaslik imkonini beradi. Demak, siyosiy sotsiologiya — bu asosiy siyosiy fanlardan biri bo'lib, uning yutuqlari siyosat haqidagi empirik fanning asosini tashkil etadi, lekin bu siyosatning yagona nazariy ta'rifi bo'lmay, faqatgina boshqa fanlar bilan birgalikda siyosatning nazariyasini tashkil qilishi mumkin. Bu fanlar avvalambor — falsafa, siyosiy falsafa, davlat va huquq nazariyasi, tarix, sotsiologiya, tashkilot va boshqaruv nazariyasi, ijtimoiy kibernetika va boshqalar. Siyosiy sotsiologiyaga ta'rif berishda ikki xil yondashuv mavjud: normativ va tasviriy. Tasviriy yondashuvda siyosat ijtimoiy hayotning fakti sifatida ko'rib chiqiladi, siyosiy sotsiologiya esa qadriyatlar yuzasidan betaraf fan bo'lib, uning natijalaridan barcha insonlar foydalanishdari mumkin. Normativ yondashuvdan foydalanishda siyosat muayyan ijtimoiy dunyoqarash va siyosiy qadriyatlar prizmasi orqali tahlil qilinadi. Normativ yondashuv davlatlar, partiyalar, siyosiy yetakchilar va davlat amaldorlarining siyosatiga baho berilayotganda foydalidir. Siyosiy sotsiologiyaning umumnazariy qismi eng umumiy, tushunchalarda jamiyatda qaror topgan hokimiyatning ijtimoiy asoslari va ijtimoiy harakatlarini belgilaydi. Shunday qilib bu yerda siyosiy va nosiyosiy hodisalar o'rtasidagi genetik munosabatlarni tushuntiruvchi qonun va tahminlar kuchga kiradi lekin bu bo'limlar keng yaxlitlikni — siyosiy sotsiologiyaning umumsotsiologik nazariyasi va siyosiy munosabatlar tahlili bilan shug'ullanuvchi alohida sotsiologik fanlarni birlashtiradi. Birinchi qism siyosiy inqilob va taraqqiyot, bu jarayonlarga ta'sir etuvchi muhit, tenglik va ziddiyatlar siyosiy komitetlar siyosiy ijtimoiylashuv masalalarini o'rganuvchi sotsial siyosiy jarayonlarga bag'ishlangan. Ikkinchn qism siyosiy institutlar va siyosiy hokimiyatlar muammolariga bag'ishlangan. Bu qismda sistema davlat tuzumi va davlat siyosati, davlat hokimiyati va siyosiy mafkuraning amal qilishi va rivojlanishi tahlil qilinadi. Siyosiy sotsialogiyada

qoʻllaniladigan uslublar hilma-xilligi uning predmetini oʻrganishga imkoniyat beradi.

Birinchi guruh uslublariga empirik uslublarni kiritish mumkin. Siyosiy sotsiologiya faqatgina nazariy fan boʻlibgina qolmay, yuqori darajadagi empirik tadqiqotlar oʻtkaziladigan soha hamdir. Bu tadqiqotlarning maqsadi taʼriflash shaklidagi faktik hujjatlar toʻplashdan iborat. Siyosiy sotsiologiya sohasidagi empirik tadqiqotlar XX asrdan keyin tarqaldi va bunga sabab asosan siyosiy amaliyot boʻldi. Siyosiy sotsiologiya sohasidagi empirik tadqiqotlar siyosiy amaliyot majmuasidagina iborat boʻlmay, balki siyosiy amaliyotni tadqiq qilishning mustaqil sohasi hisoblanadi. Siyosiy sotsiologiya empirikasida qoʻllaniladigan tadqiqotlar uslubi shunga oʻxshash metodlardan keskin farq qilmaydi. Siyosiy munosabatlar sotsiologlar tadqiq qilayotgan hodisalarning siyosiy harakatlaridan kelib chiqadigan qiyinchiliklarga tayyor boʻlishi va tadqiqotlar uslublarini tanlashda ularni hisobga olishlari zarur. Siyosiy sotsiologiyani tadqiq, qilishning ikkinchi guruh uslublarini umumiy uslublar tashkil etadi. XIX asr — siyosiy munosabatlarni oʻrganishning taqqoslama-tarixiy uslubi tarqalgan davrida Tokvil, M. Veber, Pareto avvalombor tarixiy fan tomonidan qoʻyilgan bu uslubga tayanar edilar. Bu uslub siyosiy hodisalarni vaqt ketma-ketligida oʻrganishni hamda oʻtmish, hozirgi zamon va kelajak bilan aloqani namoyon qilishni talab qiladi.

Bixevioristik uslub haqida ham gapirish zarur. Uning mohiyati — siyosiy hodisalarni, individ, guruhlarning fe'l-atvorini empirik tahlil qilish asosida oʻrganishdan iborat. Bu uslubning farqi shundaki, unda birinchi oʻringa instututsional jihat qoʻyilmaydi. Taqqoslama tahlil — bu oʻtmish va hozirgi zamon siyosiy konsepsiyalarini tadqiq qilishning muhim yoʻnalishlaridan biridir. Taqqoslama tahlil turli siyosiy tizimlarni taqqoslab tadqiq qilish uslubi hamdir. Shu narsa ma'lumki, siyosiy tizimlarni har tomonlama taqqoslama oʻrganishni amalga oshirish vazifasi muhimdir. Taqqoslashni siyosatning ochiqligi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ahvoli, ozchilikning huquqlari, siyosiy va diniy qarashlarga chidamlilik nuqtai nazaridan oʻtkazish lozim. Siyosiy sotsiologiyaning tadqiqot uslublari hozirgi kunda muhim va tez taraqqiy qiluvchi soha hisoblanadi. Siyosiy fanlarga nisbatan esa bu uslublar empirik materialning asosiy vazifasini bajaradi.

4 TA'LIM SOTSILOGIYASI

Ko'p sonli maxsus sotsiologiyalar ichida odatda ulardan bir qatori, yanada zarur bo'lgan ijtimoiy institutlarni, holatlar va jarayonlarni bevosita tadqiqot qiluvchi sotsiologiya alohida ajralib turadi, shular qatorida ta'lim ham hech o'zgarishsiz qatnashadi. Barcha taniqli sotsiologlar ijtimoiy ta'lim instituti va uning ahamiyati haqida o'zlarining amaliy u yoki bu fikrlarini bildirgan bo'lsalar ham, shunga qaramasdan, ta'lim sotsiologiyasi sotsiologiyaning mustaqil tarmog'i bo'lib boshlashishi E. Dyurkgeym asarlari bilan bog'liq. Shundan beri u G'arb sotsiologlari (Amerikada K. Djenis va Dj. Koulmen, Fransiyada P. Burde, Angliyada Dj. Flaud va boshqalar)ning ilmiy ishlarini boyitdi va jiddiy rivoj toptirdi. Sotsiologik fikrlarning bu sohasiga polyak sotsiologlari (V. Adamskiy, I. Byaltskiy, 3. Kvetsinskiy, M. Kozakevich, B. Suxodolskiy, Ya. Shpanskiy va boshqalar) o'zlarining katta hissalarini qo'shdilar. Bizda ta'lim sotsiologiyasi XX asrning ikkinchi yarmida ishlab chiqila boshlandi (I. V. Bestujev - Lada, L. N. Kogan, M. N. Rutkevich, L. Ya. Rubina, V. N. Turenko, F. R. Fillishov, M. X., V. N. Shubkin, E. A. Yakuba va boshqalar), va bugungi kunda u zamonaviy sotsiologiyaning nisbatan yanada rivojlangan tarmoqlariga kiradi.

1. Ta'lim sotsiologisining o'rni va predmeti

Jamiyat taraqqiyoti va yashash faoliyati uchun bugungi kunda ta'lim institutining alohida, mustasno o'rni va ahamiyating to'la isbotlab o'tirishning keragi bo'lmas kerak. Sog'liqni saqlash institutlari qatorida u jamiyat hayotining barcha tomonlariga bevosita va eng jiddiy tarzda ta'sir ko'rsatadi, uning ilmiy, texnologik, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy-ahloqiy va boshqa holatlarini aniqlaydi. Bugungi kunda har qadamda yuqori va sifatli bilimga ega bo'lmasdan turib, jamiyat munosib kelajakka erisha olmaydi deb tan olinmoqda. Shu bilan birga zamonaviy fan, madaniyat va informatika sohasida erishilgan katta imkoniyatlar bilan ularni jamiyat hayotiga tadbiq qilish o'rtasidagi katta uzilish faqatgina alohida bir davlatda emas, balki butun jahon miqyosida ham ta'lim sifati va darajasini oshirish va kengaytirish asosida bartaraf qilinishi mumkin. Ta'lim — shaxsning yashash faoliyati va ijtimoiylashtirishning turli tabaqalari rivojlanishi va shakllanishida hammadan ham boshlang'ich va shu sababdan zarur bo'lgan asosiy omildir. Shaxsning ijtimoiy statusini aniqlashda, jamiyat ijtimoiy tuzilishini takror ishlab chiqarish va

rivojlanishida, ijtimoiy tartib va barqarorlikni qo'llab-quvvatlashda, ijtimoiy nazoratni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etish unga xosdir. Ta'lim sotsiologiyasi ob'ekti bo'lib, ta'lim tizimi ijtimoiy institut sifatida olingan butun bir jamiyatda va shu jamiyat hayotidagi sohalar va boshqa ijtimoiy institutlar bilan o'zaro harakati va o'zaro aloqasi hisoblanadi. U ta'lim tizimini uning taraqqiyotida, faol ko'rsatishida, tuzilishida, tashkil topishida va rivojlanishida ko'rib chiqadi. E. Derkgeym ta'limning asosiy faoliyatini yuqori saviyadagi ustun madaniyat boyliklarini berishda deb ko'rgan. Amerikalik sotsiolog N.Smelzer ta'limni institutsional(formal) jarayon, ya'ni uning asosida jamiyat butun boyliklari, bilimlari va mohirliklari bir insondan, guruhlardan, uyushmalardai boshqalarga berilishi sifatida aniqlaydi. Formal, institutsional ta'lim—bu maktablar, texnikumlar, oliy o'quv yurtlari, kurslar va malaka oshirish institutlari va boshqalar, ularda ta'lim berish u yoki bu darajada jamiyat tomonidan undagi ustun madaniy standartlar ijtimoiy-siyosiy yo'l-yo'riqlar va ideallar asosida rasmiy boshqariladi. Formal bo'lmagan ta'lim bugungi kunda shubhasiz, anchagina kam, yordamchi, tobe rol o'ynashi, formal bo'lmagan, institutsionallashtirilmagan, tizimlashtirilmagan, tartibsiz ta'lim berish bilan atrofdagi ijtimoiy muhit bilan muloqat davomida (masalan, tengdoshlari, kasbdoshlari va boshqalar) yoki individual asosda boyliklarni va bilimlarni egallashi (masalan, ommaviy axborot vositalarining shaxsga ta'siri natijasida) bilan bog'liqdir.

Ta'lim o'zgacha bir ijtimoiy institut sifatida doim mavjud bo'lmagan. U yangi avlod tomonidan bilim va tajribalarni egallash ishlab chiqarish va ijtimoiy jarayonlarga qo'shib ketgan va maktablar, o'qituvchilar va boshqalar butunlay yo'q bo'lgan ibtidoiy primitiv jamiyatda bo'lmagan. Ta'lim institutining alohida ajralishi industriallashtirilgan jamiyatgacha mehnat ijtimoiy taqsimoti chuqurlashuvi va kengayishi asosida, tabaqa tengsizligi rivojlanishi va davlat tizimi jamiyatning imtiyozi qatlamlari vakillarini maxsus tayyorgarlik bilan ta'minlash maqsadida boshlanadi. Odamlarning qolgan qismi kerakli qadriyatlar va bilimlarni oilada va ishlab chiqarish ta'limi jarayonida o'zlashtirganlar (o'quvchilar, shogirdlar va boshqalar). O'rta asr Evropasida diniy maktablar va boshlang'ich universitetlar paydo bo'la boshladi, ularda faqat juda kamchilikni tashkil qiluvchi boy va yuqori tabaqalardagilar o'qishi mumkin bo'lgan. Faqat Ulug' Fransuz inqilobidan keyingina haqiqiy ta'lim inqilobi sodir bo'ldi, holbuki ilg'or mamlakatlarda alohida elitar bo'lishdan to'xtagan va ommaviy, demokratik, hammabop xarakterga ega bo'lgan ijtimoiy ta'lim institutlari tuzilmoqda va tasdiqlanmoqda. Ta'lim tizimining tengsiz yanada

yuqori darajasi va ulkan quloch yoyishi XX asrda qoʻlga kiritildi, ayniqsa, uning ikkinchi yarmida, qachon kim ilmiy-texnikaviy inqilob va zamonaviy sanoat ishlab chiqarishning talablari taʼsirida malakali kadrlarga umumiy ehtiyoj keskin oʻsdi. Bu davrda madaniyat jiddiy ravishda oʻsdi va insonlarning hayot tarzi ham oʻzgardi, nafaqat boshlangʻich va toʻliq boʻlmagan oʻrta, balki toʻliq oʻrta taʼlim koʻplab mamlakatlarda ommaviy va majburiy boʻla boshladi, oliy taʼlim va Oʻrta maxsus taʼlim keskin kengaydi va hokazo. Bejizmaski, 60-yillardagi chuqur madaniy-taʼlim islohatlari qariyb barcha dunyodagi industrial mamlakatlarni qoplab oldi. Hozirgi zamon ilgʻor industrial davlatlarning taʼlim tizimi — shaxsni sotsializatsiyalashda, uning u yoki bu ijtimoiy statusni olishga tayyorgarlikda va ijtimoiy tizimlarni mukammallashtirishda, integratsiyasida va barqarorlashuvida mos muhim rolni bajaruvchi jamiyat aʼzolari bilimlari va mahoratlarini uzluksiz takomillashtiruvchi juda keng va yuqori rivojlangan differentsiyallangan koʻp darajali ijtimoiy tizim (jamiyatning kichik tizimi) dir. Taʼlim sotsiologiyasi — u taʼlim tizimini yanada kengroq ijtimoiy tizimlarni kichik tizimlar sifatida va uning boshqa kichik tizimlar va butun bir jamiyat bilan oʻzaro nisbati va oʻzaro harakatini oʻrganuvchi sotsiologiya sohasidir; bu taʼlim ijtimoiy tamoyillarini taʼlim tizimlarining oʻzaro harakati qonuniyatlarini ijtimoiy institut va jamiyat, ijtimoiy guruhlar va shaxslar boʻlgan ijtimoiy tashkilotlar sifatida oʻrganuvchi fandır. Bu erda taʼlim sotsiologiyasining taʼlim tizimini oʻrganishga yondashishi bilan pedagogikaning yondashishi oʻrtasidagi farq aniq, ravshan. Pedagogika avvalo pedagogika faoliyati taʼlim jarayonlarining ichki hususiyatlari va qonuniyatlarini, uning didaktik asoslarini bevosita oʻrgangan bir paytda taʼlim sotsiologiyasi — ularning yanada kengroq ijtimoiy asoslarini, ijtimoiy tizimlar va taʼlim kichik tizimlari hususiyatlari va qonuniyatlarini oʻrganadi. Bu taʼlim sotsiologiyasi shugʻullanuvchi ushbu muammo mazmunini tahlil qilish va aniqlashda aniq koʻrinib turibdi.

2. Taʼlim sotsiologiyasining muhim muammolari

Sotsiologiyaning oʻziga xos sohasi sifatida, taʼlim sotsiologiyasi dastavval taʼlim tizimi va jamiyatning oʻzaro harakati va oʻzaro munosabatlari umumiy masalalari, uning oʻrni va ijtimoiy tizimdagi rolini oʻrganadi. Bularga taraqqayotning ijtimoiy sharoitlari, turli taʼlim tizimining ishlab turishida va rivojlanishida, birinchi navbatda zamonaviy, ularni ijtimoiy jarayon va ilmiy-texnik talablar bilan yuzaga keltirishlilik,

ta'lim instituti ijtimoiy funksiyalari va uning jamiyat hayotidagi roli ta'lim tizimida ijtimoiy tenglik (yoki notenglik) printsiplarini amalga oshirish, uning jamiyat ijtimoiy tuzilishi va ijtimoiy harakatchanlik bilan o'zaro bog'liqligi va o'zaro harakati, ta'lim tizimida jamiyat ehtiyojlari va talablarini, ijtimoiy g'iyahlar va shaxslar, ijtimoiy tuzilish o'zgarishida va takror ishlab chiqarishda ta'lim tizimining rolini, ta'lim tizimining boshqa ijtimoiy institutlar bilan o'zaro munosabatlari va hokazo muammolari kiradi. Ta'lim sotsiologiyasi ta'lim va sotsiuning chuqur va mustaqil o'zaro bog'liqligini tan olishdan kelib chiqadi. Bir tomondan, aynan ijtimoiy sharoitlar va omillar bevosita ta'lim tizimining xususiyati, turini aniqlaydilar va shuning uchun ta'limning optimal tizimiga erishish uchun mos ijtimoiy dastlabki shart-sharoitlar va fikrlar zarurdir; boshqa tomondan, ushbularning kerakli o'zgarishsiz ta'lim tizimini mukammallashtirmasdan turib, erishib bo'lmaydi. Bunda shunisi muhimki, jamiyat ishlab chiqarishining erishilgan rivojlanish darajasiga nisbatan ilmiy-texnik va ijtimoiy taraqqiyotni, ta'lim rivojlanishining ilgari ketishini shunday ta'minlashi kerakki, ya'ni u nafaqat bir lahzalik balki kelajak ijtimoiy talablarga javob bersin. Real hayotda shu asosda jamiyat talablari bilan yuzaga kelgan xususiyati jihatidan etarli konservativ bo'lgan ta'lim tizimi o'rtasida doim turli qarama-qarshiliklar paydo bo'ladi va echiladi. Bu qarama-qarshiliklar va ularni echish jarayonlarini tadqiqot qilish ta'lim sotsiologiyasi vazifasiga kiradi. Ta'limning ijtimoiy roli va ijtimoiy funksiyalariga bag'ishlangan sotsiologik tadqiqot juda muhimdir. Odatda, quyidagi muhim funksiyalar ajralib turadi; a) madaniyatni tarqatish va avloddan-avlodga ko'rsatish funksiyasi; b) jamiyat madaniyatini saqlovchi va generator funksiyasi; v) shaxsni sotsializatsiyalash funksiyasi, ayniqsa, yoshlarni va ularning jamiyatga integratsiyasi, holbuki, madaniy merosni o'zlashtirmasdan jamiyat taraqqiyoti va shaxs rivojlanishini tasavvur qilib bo'lmaydi; g) ijtimoiy tanlov (seleksiya), jamiyat a'zolarini differentsiatsiyalash funksiyasi, birinchi navbatda yoshlarni, chunki jamiyat ijtimoiy tuzilish o'zgarishi va ishlab chiqarishni individual va ijtimoiy harakatchanlik ta'minlaydi, modomiki, shaxsning ijtimoiy statusini aniqlashda bugungi kunda muhim o'lchov bo'lib xizmat qiladi; d) ijtimoiy madaniyat o'zgarishlari funksiyasi, ayni paytda aynan ta'lim tizimida yangi texnologiyalarni tadqiq qilishga va uning madaniyatini boyitishga yo'naltirilgan ko'plab yangi fikrlar, nazariyalar, ihtirolar ishlab chiqilmoqda; e) ijtimoiy nazorat funksiyasi va hokazo. Ta'lim sotsiologiyasida ta'lim tizimi o'z ijtimoiy tamoyillarini o'rtanish muhim o'rin egallaydi; o'quv yurtlari ijtimoiy tizim,

ijtimoiy institut va ijtimoiy tashkilotlar sifatida; o'quv faoliyati ta'lim sohasida ijtimoiy faoliyatning asosiy ko'rinishi sifatida; ta'lim tizimi ijtimoiy tuzilishi (o'quvchilar, pedagoglar, ta'lim tashkilotchilari va boshqalar), o'quvchilar, o'qituvchilar hayot tarzi va ijtimoiy ko'rinishi, ijtimoiy rollari, ijtimoiy statusi va boshqalar. Ta'limda zamonaviy inqilob sohasida sotsiologik tadqiqotlar katta ahamiyatga ega. Qariyb o'n yillar oldin xalq xo'jaligida band bo'lganlarning undan to'qqizi o'rta, o'rta maxsus va oliy ma'lumotga ega edi. Aftidan, bunday yuqori ko'rsatkichlardan tamomila qanoat hosil qilishlik mumkin. Lekin sotsiologik tadqiqotlar ta'lim tizimining miqdor va sifat ko'rsatkichlari o'rtasidagi o'tkir qarama-qarshilikni ko'rsatadi, ijtimoiy taraqqiyot, ilmiy-texnik va axborotlar inqilobi talablariga mos yosh mutaxassislarni tayyorlash darajasi va xususiyati nomunosibligini aniqlaydi. Sotsiologlar va boshqa mutaxassislar tomonidan jamiyatimizni madaniy, shu jumladan ta'lim salohiyatining tez o'sishi va undan ishlab chiqarish va boshqa sohalardagi ilmiy-texnik taraqqiyotning past sur'atlari sharoitlarida ratsional foydalanishning mumkin emasligi o'rtasidagi, jamiyat ehtiyojlari bilan yoshlarning ijtimoiy qarashlari o'rtasidagi, umumiy va kasb bo'yicha ta'lim tizimi va hokazolar o'rtasidagi haqiqiy jiddiy qarama-qarshiliklar ochib berilgan.

Ta'lim sotsiologiyasi bo'yicha mutaxassislar jamiyat ehtiyojlaridan maktabni ajratishni mo'ljallashni bartaraf qilishga yo'naltirilgan ta'limni qayta ko'rish dasturini ishlab chiqishda faol qatnashmoqdalar. Bu erda ta'lim tizimi to'g'risidagi jamoat fikrini muntazam o'rganish muhim o'rin egallaydi. Ta'limni tubdan yangilash tarafdori bo'lish, uni eskicha o'ta mafkuralashtirish va siyosiyashtirishdan voz kechib, shuningdek ta'limni real hayotdan ajratishdan voz kechib, muhimi bir vaqtning o'zida o'tmish tajribalaridan qolgan o'sha oz bo'lsa ham ma'qulini yo'qotmaslik bizni ta'lim tizimimizni yarim asr ilgari haqiqatda dunyo miqyosiga nisbatan afzalroq qilgan edi.

Ta'lim tizimining rivojlanishi yangi bozor sharoitlarida ancha murakkab muammolarni yuzaga keltiradi, ularni sotsiologik tadqiqot qilish ta'lim sotsiologiyasining muhim va aktual masalalaridan hisoblanadi. Shunday qilib, ta'lim tizimining gumanizatsiyasi va demokratizatsiyasi, o'quv yurtlarining mustaqilligini, avtonomligini kengaytirish, davlat o'quv yurtlarini xususiyalar bilan birga olib borish, pulsiz va pulli o'qitishlar va boshqa jiddiy yangi kiritishlarni uyg'unlashtirish vatanimiz ta'lim tizimi ishiga butkul ijobiy ta'sir ko'rsatdi, uning shakli va usullarining turli-tumanligini kuchaytirdi, novatorlik va hokazolar uchun yo'l ochildi.

5.MEHNAT VA MEHNAT TASHKILOTLARI SOTSILOGIYASI

Mehnat faoliyati har vaqt ma'lum iqtisodiy-ijtimoiy sharoitlarga kiritilgan va u yoki bu kasbiy guruhlarga qarashlidir, ijtimoiy institutlar bilan bog'liq, vaqt va maydonda chegaralangan mehnat jamoasida axloqiy va ijtimoiy-psixologik iqlim bilan, ma'lum mulkchilik shakllari bilan. Quyida mehnat sharoitlar va shakllari uning tavsifi (jamoat yoki shaxsiy mehnat) va motivatsiya muammolari ko'rib chiqiladi.

Mehnat sotsiologiyasining uslubiy asoslari.

Jamiyat taraqqiyotidagi barcha o'zgarishlar inson omilining faollashuviga, insonlarning mehnat va intellektual salohiyatidan imkon boricha unumli foydalanishga, barcha mehnatkashlarning ijodiy quvvatlarini to'la ishga solishga hamda shaxs bilan jamiyat va davlat o'rtasidagi qiziqish va munosabatlarning mutanosibligini ta'minlashga bog'liqdir. Jamiyat taraqqiyoti ijtimoiy fanlar oldiga-juda katta vazifalarni qo'yimoqdaki, ularsiz jamiyatni o'rganish, yangilanish jarayonlarining istiqbolini belgilash va ilmiy-nazariy asoslarini yaratish mumkin emas. Jamiyat taraqqiyoti va barqarorligi ta'minlashda, belgilangan beshta tamoyilni amalga oshirishda mehnat sotsiologiyasi alohida o'rin egallaydi. Zero, sotsiologiya fanining bu yo'nalishi mehnat sohasidagi ijtimoiy-mehnat munosabatlari, iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarni o'rganadi va ularni boshqa omillar bilan birga boshqarishni ta'minlaydi. Mehnat sotsiologiyasining yaratilishi ancha uzoq, tarixga ega va katta manbalarga ega bo'lsa ham hali u fan sifatida to'la shug'ullanmagan. Mehnat sotsiologiyasi bo'yicha olib borilgan nazariy va amaliy sotsiologik tadqiqotlar juda katta izlanishlar lozimligini ko'rsatmoqda. Lekin hozirgi kunda qo'limizdagi bor uslub va uslubiyotlar, tajriba natijalari mehnat sohasidagi ijtimoiy siyosatni chuqur o'rganib jamiyatning barcha tarmoqlaridan mehnatni to'g'ri tashkil qilishga mehnatga adolatli haq to'lashni ta'minlashga va ohir oqibatda mehnat unumdorligi doimo oshib borishini ta'minlashga imkon yaratadi. Mehnat sotsiologiyasi mehnat sohasi bo'yicha barcha sotsial axborotlarni to'plashga, ishlab chiqarish zaxiralaridan to'la foydalanishga, hamda mehnatni boshqarishni optimal strategiyasi va taktikasini belgilashga xizmat qiladi.

Mazkur sotsiologiya darsligining mehnat sotsiologiyasi qismi oliy ta'lim talabalari uchun juda qisqa yozilgan bo'lib, barcha tarmoqlar

bo'yicha faqatgina mehnat sotsiologiyasining umumiy yo'nalishlarinigina beradi xolos. Bu qismda mehnat sotsiologiyasi predmetini, uslub va uslubiyotlarini bayon qilinadi. Bu uslub va uslubiyotlar sotsiologlar va boshqa soha mutaxassislari uchun mehnat va mehnatga bo'lgan munosabatni ijtimoiy va iqtisodiy omillarni tahlil qilish, mehnat va mehnat zahiralari tadbirlar yaratishda yordam beradi. Bu fanning kelib chiqish tarixini o'rganish esa uning taraqqiyoti uchun yordam beradi. Shuning uchun bu bobda qisqacha bo'lsa ham mehnat sotsiologiyasining shakllanish tarixi bayon qilindi.

Bizning yosh, mustaqil va kelajagi buyuk davlatimizni taraqqiy ettirishda mehnat sotsiologiyasi va uning xalq. Ho'jaligidagi joriysi katta ahamiyat kasb etish bilan birga mamlakatda huqukiy va demokratik tizimni rivojlantirishga, sotsial adolat o'rnatishga, mehnat unumdorligining doimo oshib borishiga yordam beradi. Bozor munosabatlari sharoitida mehnat sotsiologiyasining oldiga nazariy hamda amaliy jihatdan mehnat muamolarini to'la-tukis Yechib berishni va uning istiqbollari belgilashni hayotning o'zi qo'ymoqda. Bugungi kunda mehnatni boshqarishning barcha turkum omillarini hisobga oluvchi ahborotlar bazasini yaratish va uning sotsiologik monitoringini yaratish maqsadga muvofiqdir.

Mehnat va uning asosiy tuziluvchilari

Umumiy mehnat o'zida murakkab tuzilishni tasavvur etadi. Buning natijasida u to'la fanlar qatorida o'rganish mavzusi bo'lib hisoblanadi. Mehnat sotsiologiyasida tahlil qilishning bir necha yo'nalishlari ajratiladi: biznes ishlab chiqarish va hokazolarni boshqarishning tuzilishi va iyerarxiyasini o'rganuvchi tashkilotlar sotsiologiyasi; u yoki bu faoliyatning afzalliklarini o'rganuvchi kasblar sotsiologiyasi, qimmatboho orientatsiyalar, kasbga layoqatlilik va boshqalar; mehnat faoliyati ijtimoiy jarayon sifatida; mehnat unumdorligini oshiruvchi ijtimoiy omillar; texnologik va ijtimoiy sharoitlarning mehnat munosabatlariga ta'siri va h.

Shubhasiz, nisbatan bir kichik bobning o'zida qo'yilgan muammolarning barcha aspektlarini ko'rib chiqish mumkin emas. Ulardan ba'zi eng muhimlarida to'xtab o'tamiz. Bizni o'rtacha saviyadagi nazariya ko'proq darajada qiziqtiradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy nuqtai nazardan mehnat insonlarning tabiatga to'g'ridan-to'g'ri ta'siri jarayonidan iborat bo'lib, uning natijasida istemol bahosi, moddiy va manaviy manfaat paydo bo'ladi. Marks va Engelslarning fikricha, bu «shunday jarayonki, unda inson o'z xususiy

faoliyati bilan tabiat va o'zi o'rtasidagi modda almashuvini vositalaydi, boshqaradi va nazorat qiladi». Ushbu mualliflarning asarlaridan yana bir fikrni keltirishimiz kerak, ya'ni mehnat butun inson hayotida birinchi va asosiy shart – sharoitdir, chunonchi shu darajadagi, biz aytishimiz kerak; mehnat insonni o'zini yaratadi. Mehnat biz tomondan kishilik jamiyati hayoti faoliyati asosiy shakli, turmushining muhim sharti sifatida ko'rib chiqiladi. Mehnat tarixan jamiyatni tabiatdan, insonni bo'lsa hayvonot olamidani ajralishiga sabab bo'ldi va imkon tug'dirdi.

Mehnat jarayoni o'z ichiga uch lahza kiritadi; 1) insonning foydali faoliyati yoki mehnatning o'zi; 2) mehnat mavzusi, ya'ni bu faoliyatning nimaga yo'naltirilganligi; 3) ishlab chiqarish qurollari, bular bilan inson ushbu mavzuga tasir ko'rsatadi.

Insoniyatning turli rivojlanish bosqichlarida mehnat davr ijtimoiy munosabatlarining rivojlanish ko'rsatkichlari hisoblangan turli shakllarda ko'rinadi.

Hozirgi paytda biz doimo eshitib turadigan ikkita o'xshash tushinchalarni taqsimlashimiz zarurdir: yakka tartibdagi mehnat va yakka tartibdagi mehnat zonasini bildiradi-bu mehnatning texnologik taqsimoti tarkibiy qismidir. Yakka tartibdagi mehnat faoliyati– mehnatning iqtisodiy taqsimoti tarkibiy qismidir. Bu grajdanlarning ijtimoiy- foydali faoliyati bo'lib, u alohida bir shaxs va uning oila azolari shaxsiy mehnatiga asoslangan. Bunday faoliyat asosini shaxsiy mulkda bo'lgan mehnat vositasi, uy joy binosi va qurilmalari, yer, ishlab chiqarish maxsulotlari,, transport vositalari va hokazolar. Yakka tartibdagi mehnat faoliyati jamiyat ichidagi mehnatning taqsimlanishi elementi bo'lib qatnashadi.

«Mehnat shartlari» toifasi muhim ahamiyatga ega. Uning asosiy tavsifini aniqlovchi tafsilotlarga berilmastan, faqat mehnat sharoiti normal va zararli bo'lishi mumkinligini aytib o'tishimiz kerak. Normal sharoitlardagi ish inson salomatligiga aniq zarar keltirmaydi. Zararli mehnat sharoitlari (shaxtalarda, domna va marten pechlarida, kimyoviy ishlab chiqarishning bazi sexlarida va boshqa joylarida ishlash) inson salomatligi uchun xaflidir ko'pincha inson hayotini tahdidga soladi. Bundan tashqari, mehnat sharoitlari sotsiologlar tomonidan ekstremal, nisbatan normal va qulay sharoitlarga bo'linadi. Ko'p hollarda ular mehnat mazmuni va uni tashkil qilishga bog'liqdir. Mehnatni tashkil qilish deganda odatda, moddiy mehnat bilan jonli mehnatning bog'lanish tartibi, usullari va shakli tushuniladi (inson jihozlar, mashinalar asboblari). Mehnatni tashkil qilish ishchi joylari, mehnat taqsimoti va uning kooperatsiyasi, ishning taqsimlanishi va nazorat kabi muhim elementlarga

asoslanadi. Soʻngi element iqtisodiy vositalar, sotsial sanksiyalar va huquqiy normalar qoʻllanishini bildiradi.

Mehnat mazmuni uning texnik funksional tomonlarini, mehnatning mazmundorligi esa-sotsial-psixologik tuzilishini ifodalaydi. Agar xususiy reja boʻyicha tuzilgan boʻlsa, mehnat mazmunli va ijodiy subʼekt sifatida koʻriladi. Begona hokimlikni irodaga boʻysindirish – psixalogik va ijtimoiy yiroqlashishga yoʻl. Mana shuning uchun ishchilar, xodimlar oldiga maqsad va vazifani qoʻyish va bu maqsadga erishish yoʻllarini tanlashda, shubhasiz, uning faoliyatini noziklik bilan nazorat qilish bilan ular fantaziyasiga keng yoʻl ochib berishga intilish muhimdir.

Ishlab chiqarishda mehnatni tashkil qilish, uni boshqarishda, biznesda, huquqshunoslik idorasida mehnatni ragʻbatlantirish va asoslash katta ahamiyat kasb etadi. Ragʻbatlantirish – bu toʻgʻri va qisman shaklda ifodalangan mehnatni kuchaytirishni moddiy va maʼnaviy mukofotlash tizimidir. Ragʻbatlantirish – majburiy mehnatdan ixtiyoriyga qadam. Mehnat asoslari – ixtiyoriy mehnatga boshqacha, yanada kengroq qadam, muhim inson ehtiyojlarini qondirishga asoslangan faol mehnat faoliyatiga moyillik (kuchli shaxslarga faol biznesmenlarga va boshqalarga mansublik mavqeini aniqlab olish). Asoslar qadriyatlar va yoʻl yoʻriqlar bilan uzviy bogʻliqdir. Asoslar u yoki bu holatni, dalili subektiv baholashga moʻljallangan, ular nisbiydir. Qadriyatlar asosida jamiyat tomonidan nimanidir shak-shubhasiz normalar sifatida obektiv tan olinishi yotadi, qadriyatlar axloqiy talab boʻlib, ular absolyutdir.

«Mehnat sotsiologiyasi» darsligi mualliflarining haqqoniy taʼkidlashlaricha, mehnat mazmundorligining asosiy elementlari boʻlib, agar uning mehnat faoliyatining ijtimoiy psixalogik tuzilishi sifatida tushinilsa, quydagilar hisoblanadi: maqsad-olddindan seziladigan natijalarni tan olingan obrazi taʼsir qilishning ideal rejasi; mehnatga munosabat-uning asosida mehnatning ongliyligini va maqsadga tegishiliylikni oʻzinikidek sezish, atrof olamni shaxsiy reja boʻyicha qayta rivojlantirish; mehnatni ragʻbatlantiruvchi omillar-mehnat falligiga undovchi tashqi omillar; mehnat asoslari –muhim bir narsadek tan olinuvchi ehtiyoj, ichki ragʻbatlantiruvchi omillar; qadriyatlar va ularga qarab moʻljallash-mehnat faoliyatining axloqiy talabi.


Mehnat faoliyati, yuqorida qayd qilinganidek, yakka tartibda va guruhli boʻlishi mumkin. Guruhli faoliyat ayniqsa yirik korxonalarda aksionerlik jamiyatlarida tartibi boʻyicha, jamoadan boshqa hech qanday oʻzgacha boʻlishi mumkin emas. Mehnat jamoasi-bu «faoliyat davomida shaxsan qimmatli va ijtimoiy-ahamiyatga ega boʻlgan maqsadlarni bajarish

uchun uyushgan kishilarni ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy birlashtirishdir».

Mehnat jamoasi-ijtimoiy mehnatning muxim tavsifidir. Uning ijtimoiy mushtaraklik sifatida (bir tomon) hamda ijtimoiy uyushganlik sifatida (ikkinchi tomon) ko'rib chiqish zarurdir. Mehnat jamoasi ikkala tomonlari birlashuvi harakatlarni aniq qati'y belgilanishi, intizom, saktsiyalar tizimida yuzaga kelgan xuddi shu vaqtda, inson mehnat qilish huquqiga ega bo'ladi va tasdiqlangan vazifalarni bajarish bilan birga, norasmiy munosabatlar sohasida o'z ixtiyori bo'yicha harakat qiladi.

Shuning uchun mehnat jamoasi—bu kamfikrlarning ixtiyoriy mushtarakligi va faoliyatning qattiq uyushgan shakli, turli manfaatlarning birlashuvi hamda bir vaqtning o'zida to'qnashuvi sodir bo'ladigan joy. Ijtimoiy uyushma sifatida bu ijtimoiy oliygohning bir turi bo'lib, ijtimoiy mushtaraklik sifatida esa — jamiyatning ijtimoiy tuzilishi elementidir. Unda doim munosabatlarning rasmiy va norasmiy tizimi mavjud: ma'muriy-huquqiy tuzilish va o'zaro shaxsiy aloqalari bo'lgan, kichik guruhlar tuzilishi.

1-rasmda mehnat jamoasining jamiyatdagi o'zni va uning tuzilishi ko'rsatilgan.



Ishchi mehnat jarayoning vakili sifatida

Shaxs jamoatchilik monosabatlarini ifodalovchisi sifatida

Ma'muriy tashkilot xokimiyat tuzilishiga va mansabdorlik iyerarxiyasiga (quyi mansabdorlarning yuqori mansabdorlarga bosqichma-bosqich bo'ysunishi) (ishchilarning huquq va burchlari majmui) suyanadi. «Jamoaning ijtimoiy tuzilishi — bu avvalo mansabdor va maqsadli guruhlar majmui, shuningdek, ijtimoiy uyushmalar yacheykalari va ularning o'zaro munosabatlari. Ushbu guruhlar maqsadning birligi bilan birlashgan va uni amalga oshirishda ishlab chiqarish va ijtimoiy vazifalar bo'yicha farqlanadi.»

Darhaqiqat, bunday murakkab tizimga har turli elementlar kirar ekan, ular o'rtasida hamisha ichki qarama-qarshiliklar vujudga keladi. Bu — har bir mehnat tashkiloti rivojlanishi va ishlab turishida tabiiy hol. Tashkilotlarning muhim vazifasi — shu qarama-qarshiliklarni, iloji bo'lsa, ularni nizo chiqarmasdan hal qilish.

Yuqorida qayd qilganimizdek, mehnat birlashmasi ijtimoiy tashkilotlari bilan jamiyatning ijtimoiy tuzilishi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Lekin mehnat jamoasi hali kishilarning mushtaraklik xududiga kiradi (qishloq, shahar va joylarda joylashgan). U jamiyat bilan bevosita bog'liq; uning ishchilari — qo'shma faoliyat maqsadlari bilan birlashgan jamiyat a'zolari majmuidir. Uning tarkibi ijtimoiy xususiyatlari bilan etnik, demografik, kasbiy, sinfiy va boshqa tavsiflari bilan determinlangan.

Mehnat jamoasining turlari

Mehnat tashkilotlari ikkita asosiy guruhga bo'linadi:

1. Ishlab chiqarish tarmoqlari jamoalari: sanoat, qurilish, qishloq; va o'rmon xo'jaligi, ishlab chiqarishga xizmat qilish bo'yicha yuk transporti, moddiy-texnik ta'minlash va boshqalar.

2. Noishlab chiqarish tarmoqlari jamoasi: SOG'LIQNI saqlash, ijtimoiy ta'minot, xalq ta'limi, san'at, ilm va ilmga xizmat qilish, uy-joy kommunal xo'jaligi, aholiga va noishlab chiqarish tarmoqlariga xizmat qilish bo'yicha aloqa va passajir transporti, davlat-ma'muriy organlari apparati, boshqaqaruv organlari, kooperativ, aksionerlik va jamoatchilik tashkilotlari, sug'urta qilish va kreditlash va hokazolar.

Albatta, bunday taqsimlash ko'p hollarda shartli ravishdadir. Hozirgi kunda marginal va aralash harakterga ega bo'lgan ko'pgina mehnat tashkilotlari mavjud. Masalan, agar 1992 yilda birinchi gruppada barcha mehnatkashlarning 70% gacha bo'lgani ishlagan bo'lsa, u holda 1 yanvar 1997 yil sanoat ishlab chiqarishidagi strukturaviy qayta qurilishlar hisobiga, sanoat ishlab chiqarishning asosiy tarmoqlarida ishsizlikning o'sishi, ishchi kuchi va kapitalning biznesga, savdoga va hokazoga oqib o'tishidagi nisbat taxminan 52 va 48% ni tashkil qiladi.

Xalq xo'jaligida band bo'lgan jamoalaridan tashqari, yana o'quv, yarmiya va sport jamoatlari, hamda qiziqishlar bo'yicha (baliqchilik, turistik, havaskorlik).

Mamlakatda mehnat tashkilotlari hayotida talaygina o'zgarishlar sodir bo'lmoqda: xususiy mulkchilikka o'tish jarayoni ketmoqda. Davlat statistik ma'lumotlari bo'yicha 1 yanvar 1997 yilda davlatga mulkchilikning taxminan 15% i qarashlidir. Jamoa statusini aniqlash kriteriyasi bo'lib mulkchilikka munosabat hisoblanadi. Ko'pchilik sotsiologlar, iqtisodchilar shunday hisoblaydilar. Shu munosabat bilan mehnat tashkilotlarini sinfiylashtirishda bir qancha fikrlar mavjud. Ulardan eng ko'p uchraydiganlarini keltiramiz.

- Kooperativ, aksionerlik mulkchiligi negizidagi mehnat tashkilotlari.
- Asosida umumxalq, davlat mulkchiligi mavjud bo'lgan jamoalar.
- Xususiy sektorda mehnat bilan band bo'lgan jamoalar.
- Chet el firmalariga ega bo'lgan qo'shma korxonalarining mehnat jamoalari.
- Profsoyuz va boshqa jamoat tashkilotlarining mulkidan foydalanuvchi mehnat tashkilotlari.
- Sanoat va boshqa noqishloq; xo'jalik korxonalarida tomorqa bilan shug'ullanuvchi jamoalar.

Qayd qilingan mehnat birlashmalarining shakllari mamlakatdagi vujudga kelgan ahvolni to'liq aks ettira olmaydi. Ishlab chiqarish, ilmiy tekshirish, muxandislik joriy qilish tashkilotlari, oliy o'qov yurtlari, ilmiy-texnikaviy, ijodiy ittifoqlar va boshqa sub'ektlar kiritilish shartnoma asosidagi jamoatlarning shunday birlashmalari tashkil qilinmoqda. Turli davlatlar sub'ektlari o'rtasidagi integratsiyaning iqtisodiy, ilmiy, moliyaviy kabi yangi shakllari paydo bo'lmoqda. Ular xalqaro kapitallarning qo'shilishi negizida tashkil qilipgan. Umumiy xalqaro xo'jalik majmui paydo bo'lmoqda. Ularni tashkil etuvchi qismlari (aksiyalar ulushi bo'yicha) alohida bir davlat firmasinnng xususiy mulki bo'lib qoladi, lekin shunday bir yaxlit majmua harakat qiladiki, masalan xalqaro

energotizimlar, mashinasozlik va kimyoviy majmualar neft, oltin qazib olish, olmosni qazib olish va qayta ishlash bo'yicha va h.

So'nggi yillarda mayda savdo korxonalari, yakka tartibdagi tadbirkorlik va mayda guruhli mehnat korxonalari kengaymoqda, ular faoliyatining huquqiy asoslari mustahkamlanmoqda, soliq, kredit, narx-navo siyosatini qayta ko'rib chiqish ketmoqda. Qishloq, joylarda qishloq xo'jalik maxsulotlarini chuqur qayta ishlash bo'yicha sanoat korxonalari borgan sari ko'paymoqda. Agrar ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan korxonalar qurilmoqda (yog'ochni qayta ishlash, kulolchilik, tikuv ustaxonalari, uy-ro'zg'or buyumlari, loydan va fayansdan ishlangan o'yinchoqlar tayyorlash bo'yicha sexlar), ya'ni agrosanoat majmui tuzilishi o'zgarimoqda.

Rejali taqsimot tizimidagi xo'jalikni boshqarishning korxonalar jamoasi uchun bozor iqtisodiga o'tish, uning faoliyatidagi printsiplarning jiddiy o'zgarishlari bilan bog'liqdir, chunki u mehnat bozorida, tovar va kapitalda mustaqil sub'ekt bo'la boshlaydi, tegishli buyumlarga (tovar) talabni o'zi tekshiradi va xizmat qilish taklifi haqida sarflarni o'rganadi. Shuning uchun korxonalar, tashkilot jamoasi yangi sharoitlarga ko'nikma hosil qilishi uchun tegishli vaqt zarur, aks holla salbiy iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarni oldini olib bo'lmaydi. Ushbu va boshqa muammolarni echishga ijtimoiy rivojlanishining uzoq muddatli rejalari yordam berishi mumkin edi. Lekin ularni tayyorlash bilan hech kim amalda shug'ullanmayotir.

Mehnat jamoasi, birlashmalar ichida o'z ijtimoiy muhim qimmat normalari va yo'l-yo'riqlari, talab extiyojlari shakllangan katta bir guruh sifatida chiqishi mumkin. Mehnat jamoasiga, birlashmaga qadam qo'ya turib, shaxs yangi ijtimoiy munosabatlar tizimiga qo'shiladilar, jamiyat va jamoa oldida alohida javobgarlikni qabul qiladilar. Har bir individing-jamoa talablariga, prinsiplariga va normalariga ko'nikishi sodir bo'ladi. Yangi kelgan odam jamoada vujudga kelgan o'sha «uyini qoidalari» ni qabul qilishga majbur, aytganlaridek, unga moslashishlari kerak. Aks holda, tizim (jamoalar) ko'p hollarda uni favqulodda ajratib qo'yadi.

Mehnat jamoasi — faoliyat sub'ekti. Ishlab chiqarish munosabatlari (mustaqillik, o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlash, o'z fond va mablag'larini idora qilish va h.) ko'p hollarda jamoalar a'zolarining istaklariga xilof ravishda yuzaga keladi. Lekin boshqarish, rivojlanish, vositalarni qo'llash ishlab chiqarish qatnashchilarining ixtiyoriy-ongli faoliyati tufayligina sodir bo'ladi. Mehnat birlashmalari qatnashchilarining ishlab chiqarishning natijalari, sharoitlari va vositalariga faol munosabatlari ishlab chiqarish qatnashuvchilariga tegishli ravishda so'nggilari ishtirok etadilar. Bu holda

mehnat jamoasi ishlab chiqarish munosabatlarining sub'ekti bo'la boshlaydilar. Jamoa a'zolarining qanchalik egalik qilish xissi kuchliroq, bo'lsa, ularning mulk va o'z - o'zini boshqarish oliygohida mustahkamlangan mehnat va ijtimoiy faolligi shunchalik yuqori bo'ladi. Mulk va o'z-o'zini boshqarish oliygohi bir kishining boshqa bir kishilar tomonidan davlat apparati yordamida boshqaruvidan farqli o'laroq, har bir ishchida mashinalar va jihozlar, yer va energiya tashuvchilar va qishloq xo'jalik munosabati bilan foydalanishga shaxsiy manfaatdorlikni yuzaga keltiradi.

Mehnat jamoalarining munosabatlari

Mehnat o'zining keng ma'nosida sotsioantropogenetik vazifani bajaradi. Mehnat tashkiloti, jamoa esa — ko'p funksional ta'limni. Uning asosiy vazifalari bo'lib ishlab chiqarish, sheriklik, tashkiliy — muntazam, yoki boshqaruv, ijtimoiy, tarbiyaviy va h. hisoblanadi.

Asosiy vazifasi — ishlab chiqaruvchi. Jamoa samarali ishlashi uchun, unga dam olish va normal mehnat sharoiti yaratib berish muhimdir. Bundan tashqari, bu ishchi kuchini takror ishlab chiqarish uchun muhim shart-sharoitdir.

Asosiy vazifalarni amalga oshirish o'z navbatida, keyingi juda muhim vazifalaridan biri — sheriklikni (ishlab chiqarish vositalariga) oldindan belgilaydi. Ishlab chiqarish vositalariga egalikka sherik bo'lish (davlat, aktsionerlik, xususiy va h.) — mas'ul va ba'zan xavfli ishdir. Bu vazifa mehnat faoliyati jarayonida avvalo ijtimoiy munosabatlarda namoyon bo'ladi. Korxonalarining (zavodlar, fabrika, konlar, yer, qurilmalar, bo'limlar va banklar va h.) asosiy fondlarini xususiylashtirgan jamoa o'z rivojlanishiniig sharoitni boshqarish sub'ekti bo'lib yaqqol ko'rinadi. Mehnat tashkiloti faoliyatining boshqa shakllari xususiy qo'shma korxonalarda vujudga keladi.

Jamoaning birinchi vazifasi asosan mehnatning texnik-iqtisodiy mazmunini aks ettiradi, ikkinchisi — uning ijtimoiy iqtisodiy harakterni va xususan, jamoaning ijtimoiy tizimida ifodalanadi. Mehnat jamoasiga ham korxonaga egalari, ham yollanma ishchilar kirishi mumkin. Qo'shma va xususiy korxonalaridagi ikkinchi vazifasi ishlab chiqarish maxsulotlarini taqsimlash tizimida, uni o'zlashtirish usulida jamoaning mehnatni umumiy tashkil qilishdagi roli va o'rnini ifodalaydi.

Ikkinchi vazifani amalga oshirish darajasini shunday ko'rsatkichlar

yordamida o'lash mumkinki, ular: mehnat jamoasini ijtimoiy tashkil qilish, kadrlar ijtimoiy, vertikal ko'chishini tanlash, joy-joyiga qo'yish, o'qitish tizimi, mehnatga munosabatni mukammallashtirish, ma'naviy-psixologik klimat va b.

Shaxsning shakllanishi jarayonida jamoaning, insonning mehnat faoliyati muhim ahamiyatga ega. Mehnatning ta'sir doirasi shaxs tuzilishining barcha muhim elementlarini o'z ichiga oladi. Mehnat ko'pincha inson psixologik ehtiyojlarini tashkil qiluvchi va muvofiqlashtiruvchi markaz bo'lib, ular hayotini tartibga soluvchi, atrof-muhit bilan o'zaro munosabatini, ahloqini boshqaruvchi vosita vujudga keladi. Shunday qilib, mehnat jamoasining asosiy vazifasi moddiy boyliklarni ishlab chiqarishdir. Uni amalga oshirishda jamoa birinchi shaxs bo'lib chiqqan. Ikkinchi vazifaga kelsak — ishlab chiqarish vositalariga umumxalq mulkiga sherik bo'lish — u taqdir taqazosi bilan doim sahna ortida shovqinni aks ettirib, uzoq, vaqt faqat ikkinchi shaxs bo'lib kelgan, chunki so'nggi vaqtgacha ishlab chiqarish vositalarining bosh boshqaruvchisi korxonalar emas, har holda davlat bo'lib kelgan xatto kolxozlar o'z artel mahsulotiga xo'jayinlik qilish imkoniga ega emas edilar. Tarmoqlar bo'yicha vazirlikdagi amaldorlar davlat nomidan, xalq nomidan ko'pincha hamma masalalarni o'zlarining tor mahkamachilik talablarini nafaqat mehnat jamoalari, balki umumxalq (masalan, daryolarni burish, o'rmon kesish va h.) talablaridan yuqori qo'ya turib, hal qilishgan. Korxonalar huquqi va ishlab chiqarish vositalarining alohida qismiga, hamda xususiy daromadlar ega bo'lish huquqi inkor qilingan.

Mehnat jamoasining ikkinchi vazifasini amalga oshirish — sheriklik — korxonalar arenda qilinsa yoki xususiylashtirish yo'liga kirsa, ayniqsa to'liq namoyon bo'ladi. Arenda munosabatlari shuni tahmin qiladilarki, ya'ni arendatorlar moddiy mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan birga arenda qiymatini korxonalariga to'laydilar va soliq; ushlab qolingan to'lovlardan qolgan mablag'larni o'z ixtiyori bilan boshqaradilar. Mulkning boshqa munosabatlari va ishlab chiqarishni tashkil qilish, jadal mehnat qilish va h. oltin izlab topuvchilar artellari va aktsionerlik korxonalarida so'nggisida ishchilar berilgan shaxsiy mablag'lari uchun daromaddan tushgan prosentni olishadi va kapital egasiga sherik bo'ladilar. Mulkchilikka nisbatan o'zining muayyan xususiyatlari aralash korxonalarda ham bor, u yerga o'zimizning va chet el kapitali qaratilgan. Mehnat jamoasining, birlashmaning muhim vazifalaridan biri boshqaruvchilik hisoblanadi. Korxonalar tomonidan boshqarish va o'z-o'zini boshqarish orqali u to'liq amalga oshiriladi. Mehnatkashlarning ishlab chiqarishni tashkil qilishda


qatnashuvi—bu hokimlik qilish vazifalarining amalga oshuvidir.

Korxonada mehnatkashlarning turli ijtimoiy birlashmalari, xususan, mehnat jamoalari kengashlari (MJK) harakat qilmoqda. Korxonani boshqarishda ishchilarning ishtirok etish miqdori sifatida u 1918—1920 yillarda Germaniyada vujudga kelgan va 1945 yilda qayta tiklangan. Bizda MJK 80 yillar oxiri 90 yillar boshida paydo bo‘ldi. Sanoat demokratiyasi ular timsolida boshqaruv masalalarini qabul qilishda mehnatkashlarning haqiqiy ta'sir chegarasini kengaytirishni ko‘zlaydi. Ular hatto mamuriyatning ko‘plab masalalarini yechishda veto huquqi berilgan, bu davlat korxonalari (birlashmalari) to‘g‘risidagi qonun tomonidan ko‘rilgan. Shu qonunga asosan, korxonalarda hokimiyatning bo‘linishi sodir bo‘lishi kerak, mehnat jamoasi kengashi zavod parlamenti sifatida ko‘rinsa ma'muriyat direksiya esa — ijro etuvchi hokimiyat sifatida. Amalda mehnat jamoalarining javobgarligi va vakolati aniq huquq doiralari, kafolatlariga ega emas. Ular korxonalar tashkilotlarining hozirgi kunda ko‘plab yangi shakllari paydo bo‘la boshlagan bir paytda ayniqsa zarurdir.

Olimlarning ta'kidlashicha, yaqin yillarda mamlakat iqtisodida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y beradi: foyda keltirmaydigan korxonalarining yopilishi va mahsulot birligiga jonli mehnat solishtirma og‘irligi qisqarishi natijasida ishsizlar darajasi ko‘payadi; ishlab chiqarishga malakali mehnatni mo‘ljallagan yoshlar keladi; mehnat sarflarining tabiiy ortishi qisqaradi va h. Shuning uchun mehnat jamoasining korxonalar ijtimoiy rivojlanishi rejalarining ahamiyati boshqalarning ta'kidlashicha, jiddiy ravishda o‘sadi, pasaymaydi. Yangi va rekonstruksiya qilinayotgan korxonalarining loyihalariga shunday chora-tadbirlarni qo‘shish kerakki, ular ishchilar mehnati mazmunini boyitsin. Mehnat jamoalari rivojlanishi rejalarida ijtimoiy ko‘rsatkichlar nafaqat ma'lumot vazifasini, balki boshqaruv masalalariga osongina aylanishlari kerak. Mehnat jamoalarida, tashkilotlarda ko‘pincha ixtiloflar, nizolar ro‘y beradi. Ularning sababi juda xilma-xildir. Nizoga olib keluvchi sub'ektlar (ularni ko‘pincha nizo agentlari deyishadi) to‘g‘ridan-to‘g‘ri teskari maqsadlarni o‘z oldilariga qo‘yadilar. Nizo agentlariga birinchi saflarda harakat qiluvchi va hammadan ham o‘z manfaatlarini qondirishga intiluvchi guruhlar kiradi; shunday guruhlar borki, ular nizoni avj oldirishga bevosita aralashmagan holda bilvosita xissalarini qo‘shadilar, lekin nizoning o‘z borishi davrida birinchi rollarda bo‘lib qolishi mumkin, guruhlarning uchinchi turi — bu nizolarni bartaraf qilishga manfaatdor bo‘lganlardir.

Shuni bilishimiz kerakki, ya'ni nizo — vujudga keladigan ziddiyatlarni bartaraf qilishning samarasiz yo‘lidir, chunki nizo paytida

alanga oladigan hissiyotlar tufayli, fikrlash susayadi va qisqaradi, psixikaning yanada ibtidoiy qatlamlari harakatga keladi va ishlaydi. Ammo tanlash imkoni bo'lmasa o'z nizo — ziddiyatlarni tartibga solishning yagona mumkin bo'lgan usuli bo'lsa, u holla jamoaning, tashkilotning rahbari nizoni boshqarishi, tashabbusni qo'lida ushab turishi uchun unda qatnashishi kerak. Shunda u 2-rasmda ko'rsatilganidek kechadi.



2-rasm

Nizoga kirishishdan oldin quyidagi savollarga javobni bilish zarur:

Ziddiyatni bartaraf qilishning umuman imkoni bormi va zaruriyati bormi? Shuni qilish kerakmi? (chunki ziddiyat — tashkilot rivojlanishining dvigateli)?

Agar ziddiyatni bartaraf qilish zarur bo‘lsa, u holda ushbu masalani yechishda qanday yo‘llar, vositalar tejimli va axloqiy bo‘ladi?

Nizo qanchalik uzoq; vaqtga cho‘zilishi mumkin va g‘alaba qilishga sizning kuchingiz yetadimi?

Nizoning natijalari qanday bo‘lishi mumkin?

Bundan tashqari, nizoli sub'ektlarning kuchlari haqida, ittifoqchilari haqida, boshqa sub'ektlar {brigadalar, jamoalar, boshqa smenalar, sexlar, konkurentlar, jamoat tashkilotlari, davlat korxonalari va h.) tomonidan nizoga bo‘lgan munosabat haqida aniq, tasavvurga ega bo‘lish kerak.

Agar nizo bo‘lishi aniq, bo‘lsa, hissiyotlarni nazorat qilgan holda, nizoning haqiqiy sabablarini aniqlash, uni to‘htashi, himoyada haddan ziyod konsenratsiyadan holi bo‘lish, tashabbusni o‘z qo‘lida ushlab turish. Nizoning asos qilib olingani to‘rtga bo‘lishi mumkin:

I. (ish tashlovchilarning, stachkalarining va h.) talablariga bo‘ysunish; 2.kompromiss; 3.nizodan qochish yoki vaziyatni topshirish; 4. ziddiyatlarni

oqilona bartaraf qilishni izlashda nizoli tomonlar kuchini birlashtirish, integratsiya. Bunday hollarda nizoni quyidagi omillarning ta'siri bilan yumshatish mumkin:

kooperatsiyaga, hamkorlikka va o'zaro yordamga orientatsiya tenglashtiradigan kollektivizmning qimmatida;

ishchilarning qarorlarni jamoa bo'lib qabul qilishda ishtiroki, bu nizoni yo'l qo'yilgan chegaralarda ushlab turishga imkon beradi;

nizoning tuzilishi manbaini istisno qiluvchi vaziyatlar o'ramining chalkashishi.

Shuni yodda tutish kerakki, asossiz tenglashtirish (tekischilik) o'zini ijtimoyalangan deb ko'ruvchi, barchani teng biluvchilarning qoniqmasligini kuchaytiradi. Tekischilik mafkurasi — nizo ishtirokchilarining agressiv xulq-atvorining sabablaridan biridir. Boshqa sababi — ma'muriyat tomonidan hamda mehnat jamoasi tomonidan aynan bir hil bo'lmagan nizoga munosabat. Uchinchisi — nizoni yumshatish usulining ishlab chiqilmaganligi, buning natijasida dekonstruktiv kuchlar konstruktiv kuchlardan yuqori keladilar. To'rtinchi sabab — ba'zan ijtimoiy muammolarni ko'pchilik bo'lib yechish o'rniga ma'muriyat bo'yniga asossiz qo'yilishi. Muhimi, ikkala nizoli tomonlar o'ziga ham huquq, ham majburiyatlarini olsalar, asosiysi — doim nizo oqibatlarini bilan kurashmasdan, uni kelib chiqish sabablarini topishlari kerak.

Mamlakatda mehnat jamoalari bozor munosabatlarining tarkib topishi asosida ko'p hollarda mavjud axloq me'yorlarini yo'qotmoqdalar, ayniqsa, rag'barlar va uning qo'l ostidagilar, ishdagi oshnalar, turli jamoalar va boshqalar o'rtasidagi muloqat doirasida. Normal bozor munosabatlarining shakllanishi normal axloqiy psixologik atmosferani, sog'lom konkurensiyani, faqat shaxsiy moddiy boyligi uchungina emas, balki butun jamiyat uchun ham foyda keltirish uchun ishlash qoniqishini ko'zlaydi va tashkil qiladi.

6.OILA SOTSILOGIYASI.

Oila sotsiologiyasi — sotsiologiyaning asosiy yo'nalishlaridan bo'lib, bu fan oilani nikoh asosida tashkil topgan, jamiyat taraqqiyotida muhim ijtimoiy vazifalarni bajaruvchi sotsial institut sifatida o'rganadi. Oila sotsiologiyasining alohida o'z vazifalari mavjuddir. Ularga jamiyat taraqqiyoti davomida oilaning paydo bo'lishi, rivojlanishi va mavjudlik qonuniyatlarini o'rganish, oilaning mohiyati va faoliyati o'zgarib borishini aniqlash, nikoh va oila turlari evolyutsiyasini o'rganish, oilani tashkil

topishi va taraqqiyotida avlodlarning o‘zaro ta’sirini aniqlash, oila tarbiyasi, oilaning rekreativ faoliyatining va oila huquqining ijtimoiy mohiyatini ochib berish, mehnat taqsimotida oila o‘rnini o‘rganish kabilar kiradi.

Oila sotsiologiyasi oilaning tabiiy biologik, nikoh, qarindoshlik, ma’naviy iqtisodiy va huquqiy munosabatlar asosida insonlarni biriktiruvchi jamiyatni kichik bir bo‘lagi sifatida o‘rganar ekan, uning jamiyat bilan o‘zaro bog‘liqligini asosiy e’tiborini qaratadi. Chunki jamiyat tashkil topishida uning davomiyligini ta’minlashda oila asosiy ijtimoiy, demografik manba hisoblanadi.

Insonning dunyoga kelishi, yangi avlod paydo bo‘lishi — avlodlar almashuvi asosan oilada sodir bo‘ladi. Farzand tug‘ilib, kamolga etib, shaxs sifatida shakllangunga qadar lozim bo‘lgan barcha ta’lim, tarbiya oila muhitida beriladi. Insonning ota-ona, qarindosh-urug‘iga, qariyalarga, atrof-muhitga va tabiatga bo‘lgan munosabatlari dastlab oilada shakllanadi. Shu bilan birga oila urf-odatlarini, qadriyatlarini avloddan-avlodga etkazuvchi sotsial institut hisoblanadi.

Oila asosini erkak bilan ayol o‘rtasidagi nikoh birligi tashkil etadi. Oila faqatgina erkak bilan ayol munosabatini emas, er bilan xotin, ota-onalar bilan bolalar munosabatini ifodalaydi. Oila jamiyat bag‘rida tashkil topdi, taraqqiy etib borar ekan, o‘zi ham ana shu jamiyatning kichik bir bo‘lagi sifatida namoyon bo‘ladi. Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar oila taraqqiyotiga ta’sir etadi. Oiladagi ta’lim-tarbiya xususiyatlari esa jamiyatda o‘z aksini topadi. Shuning uchun ham oila va jamiyat o‘zaro bog‘liq holda taraqqiy etib, rivojlanadi.

Oila taraqqiyoti uch yo‘nalishida tanlash maqsadiga muvofiqdir.

1. Oila demografik taraqqiyoti.
2. Oila ijtimoiy taraqqiyoti.
3. Oila iqtisodiy taraqqiyoti.

Oilaning demografik taraqqiyoti - deganda oilaning miqdori, shakllanish va demografik tarkibi (Oilaning, oilada yashayotgan kishilar miqdoriga qarab guruhlarga bo‘linishi) ma’lum davrlarda o‘zgarib borishi tushuniladi.

Oilaning ijtimoiy taraqqiyoti - esa oila a’zolarining ma’lumotlilik darajasi, ijtimoiy mavqe salomatligi borasida o‘zgarishi, hamda ularning ta’lim-tarbiya, urf-odat, fan va madaniyat tabiyatda va jamiyatga bo‘lgan munosabatlarini takomillashib borishidir.

Oilaning oziq,-ovqat, kiyim-kechak, uy joy va boshqa yashash uchun zarur bo‘lgan narsalar bilan ta’minlashish darajasining o‘zgarib borishi uning iqtisodiy taraqqiyotini belgilaydi.

Ko'rinib turibdiki, oila o'z mohiyati bilan jamiyat hayotida turli qirralarini aks ettiradi. Shuning uchun ham oila qator fanlarning o'rganish mavzusidir. Bularga etnografik, demografik, psixologiya, pedagogika, tibbiyot, huquq, iqtisodiyot, tarix va sotsiologiya fanlari kiradi.

Ular oila vazifalarni va taraqqiyot yo'nalishlarining alohida tomonlarini o'rganadilar. Masalan, iqtisodiyot oila jamiyat taraqqiyotida iste'molchi guruh sifatida o'rgansa, etnografiya oiladagi urf-odatlar qadriyatlarini etnik ko'lamda o'rganadi, demografiya esa asosiy e'tiborini oilaning eng muhim vazifasi bo'lmish avlod davomiyligini ta'minlashga qaratadi. Oila sotsiologiyasi esa yuqorida qayd etilganidek oilani jamiyat taraqqiyotida muhim vazifalarini, jamiyat taraqqiyotida, muhim vazifalarni bajaruvchi sotsial institut sifatida o'rganadi. U o'z tadqiqoti davomida oilani o'rganuvchi barcha fanlar olib borgan tadqiqot natijalaridan keng foydalanadi va ular bilan uzviy bog'liq holda rivojlanadi.

Ma'lumki, oila paydo bo'lganidan to hozirgi davrga qadar uning turlari va ijtimoiy-demografik tarkibi muntazam o'zgarib bordi. Oila turlari va tarkibida sodir bo'lgan o'zgarishlar va ularga ta'sir etuvchi omillarini jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichlari uchun alohida o'rganish ham oila sotsiologiyasining muhim vazifalaridan hisoblanadi. Oila sotsiologiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri oilaning mohiyati va faoliyatini o'rganishdir.

Oila mohiyati uning faoliyati, ya'ni u bajarayotgan vazifalar bilan belgilanadi. Ularga avlod yaratish vazifasini (jamiyatni davom ettiruvchi avlod yaratish, inson zotini davom ettirish); ijtimoiy vazifasi (oiladagi farzandlarni tarbiyalash, ularni o'zaro tabiatga, jamiyatga bo'lgan munosabatlarini shakllantirish, oila a'zolarining dam olishi va salomatligini tiklash); iqtisodiy vazifasi (oila a'zolarini oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa yashash uchun zarur bo'lgan vositalar bilan ta'minlash kiradi.

Oila sotsiologiyasi oila vazifalarini turli tarixiy davrlarda, ijtimoiy guruhlarda, xalqlarda, davlatlarda bajarilishi omillari va xususiyatlari oila vazifalariga bo'lgan munosabatlarni ham atroflicha o'rganadi. Oilaning eng muhim vazifasi bu farzandlarning tug'ilishi, ya'ni jamiyat davomiyligi ta'minlovchi yangi avlod yaratishdir. Tug'ilish dunyodagi turli xalqlarda turlicha ko'rsatkichlarga ega.

Yer shari bo'ylab tug'ilishning o'zaro farq qilishi avvalo mamlakatlar aholisining moddiy va madaniy turmush darajasi, asrlar davomida shakllanib, saqlanib kelgan urf-odatlariga, diniga bog'liqdir. Bulardan tashqari tug'ilishga aholining jinsiy yoshi bo'yicha taqsimlashi, nikoh va ajralish jarayonlari, tibbiyotning rivojlanish darajasi, shuningdek har bir

davlat tomonidan olib borilayotgan demografik siyosat ham ta'sir etadi. Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar ta'sirida oilaning bolaga bo'lgan talabi, jamiyatning bolaga bo'lgan talabi, o'zgarib boradi. Oila sotsiologiyasi jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichlarida, dunyoga barcha xalqlar va davlatlar miqyosida tug'ilishning o'zgarib borishiga oilaning bolaga bo'lgan ehtiyojiga ta'sir etuvchi omillarni, aholining turli demografik va ijtimoiy guruhlarining hamda er-xotinning oilada farzandlar miqdoriga bo'lgan munosabatlarini sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish yo'li bilan aniqlanib beradi.

Oilaning bugungi shaklida oila a'zolari bir-birlari bilan umumiy turmush, iqtisodiy-mulkiy, ma'naviy-huquqiy, psixologik munosabatlar, o'zaro javobgarlik his-tuyg'ulari bilan bog'lanib turadilar. Oilada har bir oila a'zolarining o'z ijtimoiy o'rni boridir.

Ma'lumki oilaning asosini — yadrosini er-xotin tashkil etadi. Oilada er-xotin, o'zi yoki farzandlari bilan etishadi. Undan tashqari oilada er-xotin farzandlari bilan birga ularning ota-onalari, aka-ukalari va boshqa qarindosh-urug'lari ham birga yashashlari mumkin. Oila muhiti, uning jamoada tutgan o'rni oila a'zolariga, ularning xulq-atvorlariga bevosita bog'liqdir. Ayniqsa oila muhitida ayolning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham oila a'zolarining oilaga, atrof-muhitga va o'zaro munosabatlarini o'rganish ham oila sotsiologiyasining vazifalaridan biridir.

Oilaning tashkil topishi, shakllanishi va rivojlanishida demografik vaziyat muhim ahamiyatga egadir. Oilaning ijtimoiy-demografik tarkibi va unga ta'sir etuvchi ijtimoiy omillarni o'rganish ham oila sotsiologiyasi o'rganadigan muhim masalalardan hisoblanadi, Oilaning ijtimoiy-demografik tarkibi deganda, oilada yashab kelayotgan kishilarning nikoh qondoshlik-qarindonlik munosabatlari, ijtimoiy guruhlari va miqdori asosida turlarga bo'linishi tushuniladi. Oilaning eng ko'p tarqalgan ijtimoiy, turli nuklear oddiy oila bo'lib, unda er-xotin nikohga kirmagan, ya'ni turmush qurmagan farzandlari bilan yashaydi. Agar birorta farzand turmush qurib, shu oilada birga yashasa, unda bu oila kengaygan yoki murakkab oilaga aylanadi. Murakkab oilada ikki yoki undan ko'p oddiy oilalar, 3 va undan ko'p avlod vakillari istiqomat etishadi. Ma'lumki, oilaning asosini — yadrosini er-xotin tashkil etadi. Agar oilada er-xotin mavjud bo'lsa, yashasa, unda oila to'la, tugal oila, ularning biri oilada yashamasa (bo'lmasa), tugalmas oila hisoblanadi. Undan tashqari oilada er-xotin farzandlari bilan birga ularning ota-onalari, aka-ukalari va boshqa qarindosh-urug'lari ham birga yashashlari mumkin. Ana shunday holatlarni hisobga olgan holda sobiq SSSR tarkibiga kirgan barcha respublikalarda,

jumladan O‘zbekistonda ham oilani quyidagi turlarga bo‘lib o‘rganilgan:

1. Er-xotin bolalari bilan yoki bolasiz yashaydigan oilalar;
2. Er-xotin, bolalari yoki bolasiz, ota-onalarining faqat bittasi bilan yashaydigan oilalar;
3. Er-xotin, bolalari yoki bolasiz, ota-onalarining faqat bittasi (yoki ularsiz) va boshqa qarindoshlari bilan shaydigan oilalar;
4. Ikki yoki undan ortiq. oddiy oila (nikoh juftlari)bolalari bilan yoki bolasiz, ota-onalarining biri (yoki ularsiz)va boshq qarindoshlari bilan (yoki ularsiz) yashaydigan oilalar;
5. Ona va bolalar bilan yashaydigan oilalar;
6. Ota va bolalar bilan yashamaydigan oilalar;
7. Ona-bolalar va onaning (yoki otaning) ota-onalaridan biri yashaydigan oilalar;
8. Ota-bolalar, otasining (yoki onasining) ota-onalaridan biri bilan yashaydigan oilalar;
9. Boshqa oilalar.

Oila uning a'zolarining ijtimoiy guruhlariga qarab ham turlarga bo‘linadi;

1. Oila a'zolari bir xil ijtimoiy guruhga mansub oilalar.
2. Turli guruhga mansub oilalar:

Oilalarning o‘sha oila a'zolari miqdoriga qarab turlarga bo‘linishi uning demografik tarkibini tashkil etadi. O‘zbekiston uchun shartli ravishda oilaning 3 ta demografik turga ajratish maqsadga muvofiqdir:

1. Kichik oilalar — 2—4 kishi istiqomat etuvchi oilalar;
2. O‘rta oilalar — 5—6 kishi istiqomat etuvchi oilalar;
3. Katta oilalar — 7 va undan ortiq kishilar istiqomat etuvchi oilalar.

Oila sotsiologiyasi o‘rganadigan navbatdagi demografik jarayon bu nikohdir.

Ma'lumki, oila nikohdan boshlanadi. Nikoh jamiyat taraqqiyotining ma'lum bosqichida paydo bo‘ldi va qator ijtimoiy-iqtisodiy omillar, din, urf-odatlar, qadriyatlar ta'sirida shakllanib boradi. Nikoh va uning turlari, tarixiy evolyutsiyasi, uning turli xalqlar ijtimoiy guruhlar, xududlar bo‘yicha xususiyatlarini, nikoh. qonuniyatlarini, oilada mehnat taqsimotini va yoshlarni nikohga psixologik, iqtisodiy tomonidan tayyorlash va aholini nikohga bo‘lgan munosabatlarini o‘rganish ham oila sotsiologiyasida muhim ahamiyatga egadir.

Oila tarkibida hamda rivojlanishiga bevosita ta'sir etuvchi demografik omillardan yana biri — nikohning bekor etilishi, ya'ni ajralishdir. Ma'lumki, oilada er-xotinning ajrashishi birinchi navbatda

oilaning tarkibiga ta'sir etadi. Oila tugal oiladan, tugalmas oilaga aylanadi. Oilada farzandlar tug'ilishi ma'lum darajada kamayadi. Bu esa, o'z navbatida, oilani davom ettiruvchi avlod yaratilishiga, oilaning takror barpo bo'lishiga salbiy ta'sir etadi. Oila sotsiologiyasi mustahkamligiga salbiy ta'sir etuvchi ajralish jarayonini o'rganar ekan, uning sabablarini turli tarixiy davrlarda, davlatlarda, xalqlarda va ijtimoiy guruhlardagi xususiyatlarini ochib bsradi.

Aholi migratsiyasi ham oilaning ijtimoiy-demografik tarkibiga ta'sir etuvchi omillardandir. Insonning bir ijtimoiy-iqtisodiy muhitdan ikkinchi ijtimoiy-iqtisodiy muhitga o'tishi (masalan, shahardan qishloqqa, qishloqdan shaharga ko'chishi), uning oilaga bo'lgan demografik, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlariga ta'sir etadi.

Ma'lumki, oila paydo bo'lib to tugagunga qadar bir qancha bosqichlardan o'tadi. Ular oilaning tashkil topishi (nikohga kirish) birinchi farzandni tug'ilishi (farzand ko'rish faoliyatini boshlanishi), ohirgi farzand tug'ilishi (farzand ko'rish faoliyatini tugallanishi), oxirgi farzandni oilali bo'lishi, oilasini tashkil etgan er yoki xotinni dunyodan ko'z yumishi (oilaning tugallanishi). Yuqorida keltirilgan jarayonlar oilaning hayotiy davrlari bo'lib, oila davomiyligiga muntazam qaytarilib turadi. Ushbu davrlarning har birini o'ziga xos xususiyatlarini, ijtimoiy-iqtisodiy muammolari mavjuddir. Ana shu muammolar ham oila sotsiologiyasining o'rganish doirasiga mansubdir.

Oila tarbiyasi masalalarini o'rganish ham oila sotsiologiyasida keng o'rin olgandir. Oila tarbiyasi oilada ota-onalar, katta kishilar tomonidan bolalarni tarbiyalash bo'lib, yosh avlodni har tomondan rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir. Oila tarbiyasida oilaviy tartib, oila a'zolarining bir-biriga munosabati, ota-ona va katta kishilarning hulq-atvori, madaniy va siyosiy saviyasi, oila byudjeti, sharoiti asosiy omil hisoblanadi.

Oila huquqi ham oila sotsiologiyasi tomonidan o'rganilib, unda asosiy e'tibor nikoh, qarindoshlik, bolalarni farzandlikka va tarbiyaga olishdan kelib chiqilgan munosabatlarni, nikohga kirish munosabatlarini, er-xotin, ota-ona bilan bolalar va oilaning boshqa a'zolari o'rtasidagi shahsiy va mulkiy homiylik, vasiylikdan kelib chiqadigan munosabatlarni hamda nikohning bekor qilinishi bilan bog'liq masalalarni o'rganishga qaratiladi.

Oila sotsiologiyasi qator ijtimoiy va tabiiy fan yo'nalishlari bilan uzviy aloqada tadqiqot o'tkazadi va rivojlanib boradi. Bularga psixologiya, demografiya, etnografiya, tarix, ijtimoiy geografiya, siyosatshunoslik, aholi sotsiologiyasi, tug'ilish sotsiologiyasi, o'lim sotsiologiyasi, migratsiya

sotsiologiyasi, nikoh sotsiologiyasi, matematika, statistika, ekologiya kabi fanlar kiradi.

Oila sotsiologiyasi o'z tadqiqotlarida sotsiologik tadqiqotlar o'tkazish, tarixiy taqqoslash, statistik va matematik usullardan foydalanadi.

Oila sotsiologiyasi fan yo'nalishining tadqiqot natijalari oilaning kelajak istiqbolini aniqlashda, davlat tomonidan oila va nikoh mustahkamligini ta'minlovchi qonun va tadbirlar joriy etilishida ilmiy asos va yo'llanma sifatida qo'llaniladi.

IV. AMALIY SOTSIODOGIK TADQIQOTLAR

1. EMPIRIK SOTSIODOGIK TADQIQOTLAR DASTURI

Empirik sotsiologik tadqiqot—sotsiologik tadqiqotlardan biridir. U ijtimoiy muammoni har tomonlama va bir butunlikda o'rganish bo'lib, uning haqiqiy, kuzatilgan ifodasida, shaxs va guruhlarning harakatlari va tafakkur obrazida hamda maxsus tuzilgan va aynan shu muammo rejasiga, metod va texnikasiz asoslanadi.

Empirik sotsiologik tadqiqotlar xususiyati tadqiqot qilinayotgan hodisalar, individlar bilan bevosita aloqa va ularning hayot faoliyatlaridagi faktlar to'plamidir.

Empirik sotsiologik tadqiqot so'roq kuzatuv, eksperiment va hujjatlarni o'rganish metodlarini tajriba yordamida bilishdir. Lekin bu sotsiologik nazariy bilimlarga va nazariy metodlarga emas, balki o'rganilayotgan muammoning mohiyatiga o'zining kundalik hayotdagi qarashlariga tayanadi degani emas.

Empirik sotsiologik tadqiqotlar nazariyasining barcha yutuqlarini qo'llab, nazariy, metodologik va metodik nuqtai nazardan fan rivojlanishining o'zida aks ettirish.

Ilm fanda to'plangan barcha bilimlar programma va empirik tadqiqotlar metodlarida amalga oshadi. Programma tuzish empirik tadqiqotlarning birinchi natijasidir. Programma bu asosiy nazariy-metodologik shart-sharoitlarni bayon qilish va tadqiqotlarning bosqich va metodlarini tuzishdir.

Programma nima va uning funksiyalari nimadan iborat? programma bu turli ilmiy vositalarni (prinsiplar, tushunchalar, metodlar) asosli tavsifi bo'lib, sotsiolog bular yordamida zarur bilimlarga ega bo'ladi va aniqlikdan aniqlik o'tadi. Programma darajasi tadqiqotlardagi zaruriy informatsiyaning sifati bilan belgilanadi. U sotsiologiyada ishlab chiqilgan bilish vositalarni o'z ichiga olib, sotsiolog zarur bilimlar olish uchun

qanday metodologik, nazariy, metodik va ish tartibi (protsedura) masalalarini yechish kerakligini aniqlaydi.

Programma 2 bo‘limdan iborat: nazariy-metodologik va ish tartibi (protsedura) bo‘limlaridir. Programmaning asosiy punktlarini mantiqiy tartibda sanab o‘tamiz.

Nazariy-metodologik bo‘lim

1. Muammo qo‘yish.
2. Tadqiqot maqsadi va vazifalarini aniqlash.
3. Tadqiqot ob'ekti va predmetini aniqlash.
4. Muammoning nazariy tahlili, asosiy tushunchalarni belgilash.
5. Ob'ektning sistemal tahlili.
6. Tushunchalarni nazariy va empirik interpretatsiyasi.
7. Gipotezani aniqlash.

Ish tartibi (protsedura) bo‘limi

1. Tadqiqotni prinsipiyl rejasini tuzish.
2. Tadqiqot to‘plash metodi va texnikasini tanlash.
3. Tanlangan metodlarni tuzish va asoslash.
4. Olingan bilimlarni analiz qilish metodlarini aniqlash.
5. Olingan bilimlarni gipotenuza bo‘yicha analiz usullarini belgilash.
6. Ob'ekt tadqiqotini o‘tkazish.
7. Xulosalarni belgilash, yangi tushunchalar, faktlar, nazariyalar, tendensiyalarni ifodalash

MUAMMO QO‘YISH

Programmaning har bir punktini ko‘rib chiqamiz. Avval muammo qo‘yish kerak. Ko‘pincha sotsiologlar oldiga muayyan bir masalani qo‘yadilar. Korxonada yoki muassasa ijtimoiy buyurtmachi sifatida bilimga buyurtma beradi. Ijtimoiy buyurtmada bilimga intuitiv ehtiyoj sezilganligi tufayli noaniq xarakterda bo‘ladi. Buyurtmachini o‘zi ilmiy muammoni qo‘ya olmaydi. Chunki buning uchun professional bilimlar zarur bo‘ladi. Muammoni ilmiy ifodalash sotsiologni vazifasidir. Bunda R. Merton aytib o‘tgan bir qancha shart-sharoitlarni e‘tiborga olish kerak: ilmiy manfaatlar (ob'ektivlik), buyurtmachi manfaati (ilmiy manfaat bilan har doim ham mos kelavermaydi), tadqiqot qilinuvchilar manfaati (tadqiqotga ishonch), tadqiqot va ularning natijalarini o‘rganiluvchi jarayonga ta'siri.

Muammo qo‘yishning ikkinchi talabi — mavjud ilmiy bilimlarni noilmiy bilimlardan aniq, ajratishdir. Informatsiya yetishmasligi va muammoni kam o‘rganilganligi tufayli ba'zida ularni ajratish qiyin bo‘ladi. Eng asosiysi takrorlanishliklarga, triviallik, soxta muammolarga

berilmaslik. Buning natijasida muammoni qo'yish tadqiqot qilinayotgan ob'ektni oldindan analiz qilish va o'rganishni talab qiladi.

Uchinchi talab qo'yilayotgan savol umumiy tushunchalar va abstrakt kategoriyalardan emas, alki muayyan aniqlikdan iborat bo'lishi kerak. Shuni nazardan tutish kerakki, muammo muayyan hulq-atvor, fikrlar, individlar munosabatlarining ko'rsatkichlari yordamida empirik darajada o'rganilishi kerak. Muammoni keng qo'ymaslik kerak, chunki uni tajribaviy yo'l bilan tekshirib bo'lmaydi. Bu quyidagi o'ziga xos muammolar: effektivlik, stabillik, kollektivdagi keskinlikni, nizolarni kamaytirish, boshqarish va tashkil qilish munosabatlari haqidagi muammolardir.

TADQIQOT MAQSADI

Muammo qo'yilgandan so'ng tadqiqot maqsad va vazifalarni aniqlab olish lozim. Maqsad-bu ongda oldindan payqalgan tadqiqot natijasidir. U muammoni o'rganish darajasi, ijtimoiy buyurtma, tadqiqot manfaatlariga bog'liq bo'ladi. Ob'ekt rivojlanishining turlari, o'zgaruvchanligi va tendensiyalari empirik tadqiqotni umumiy maqsadi hisoblanadi. Bu faktlar turli maqsadlarda qo'llanilishi mumkin:

a) nazariya tarkib topishi va rivojlanishi uchun nazariy xulosalar olishga, masalan, nizoning turlarini o'rganish nizo nazariyasini rivojlanishiga olib keladi;

b) turli sohalarni o'rganish metodlarining effektivligi va uni bilish imkoniyati haqidagi xulosalarni olishda, masalan, kontent-analiz, so'roq imkoniyatlari;

v) ishlab chiqarish, huquqi, siyosiy yoki madaniy faoliyatini rivojlantirish uchun amaliy maslahatlar ishlab chiqish uchun olinadigan xulosalar;

g) kam o'rganilgan soha bo'yicha informatsiya to'plash uchun.

Bundan tashqari boshqa maqsadlar qo'yilishi ham mumkin. Demak, empirik sotsiologik tadqiqot maqsadi nazariy, metodik, amaliy, informatsion bo'lishi mumkin. Maqsad tadqiqot jarayonini tashkil qiladi va e'tiborni qaratishga yordam beradi.

Maqsadni ifodalash muammoga va ijtimoiy manfaatlarga bog'liq. Tadqiqotda turli xil maqsadlar ko'zlangan bo'lsada, ammo bir markaziy maqsad bo'lishi shart.

Masalan, talabalarni dinga munosabati muammosi tadqiqot qilinganda maqsad quyidagicha ifodalangan: ongning qadriyatlarini

tuzilmasida dinning o'рни va studentlar tuzilmasida dinning o'рни va studentlar xulq-atvorida uning ahamiyatini aniqlash.

TADQIQOT VAZIFALARI

Maqsad ma'lum bir vazifalarni yechish natijasida amalga oshadi. Agar maqsad tadqiqot nima uchun o'tkaziladi degan savolga javob bersa, vazifa tadqiqotlarni qanday o'tkazish, qo'yilgan maqsadga qanday erishishni, nimadan boshlash kerak, qanday nazariy, metodologik va metodik xarakterga ega bo'lgan masalalarni yechish zarur degan savolga javob beradi.

Maqsad bir qancha vazifalarga bo'linadi. Yuqorida aytilgan tadqiqotlarda vazifalar quydagicha ifodalangan:

- dindorlik va uning komponentlariga tushuncha berish;
- studentlar dindorligining nazariy tipologiyasini berish;
- dindorlikni empirik referentlarini ishlab chiqish va boshqalar.

Asosiy va asosiy emas vazifalarni ajratish kerak. Bu vaqtni to'g'ri taqsimlash, tadqiqotda e'tiborni eng muhim vazifalarga qaratishga yordam beradi. Tadqiqotni keyingi bosqichlari, qo'yilgan vazifalarni yechishdan iborat.

TADQIQOT OB'EKTI VA PREDMETI

Maqsad va vazifalarni qo'yilishi tadqiqotning ob'ekt va predmetini aniqlashga olib keladi. Sotsiologik tadqiqotlarning ob'ekti turli sohalar izlanilayotgan muammoni o'zida aks ettirgan ijtimoiy voqelikni mikroprotsesslari bo'lishi mumkin. Empirik tadqiqot ob'ektini aniqlaganda muammodan kelib chiqish kerak. Ko'pincha mehnat jamoalari ob'ekt bo'lib xizmat qiladi. Lekin bu ob'ektni juda keng va aniq bo'lmagan talqinidir. Yuqorida keltirilgan misolda empirik tadqiqotlar ob'ekti talabalar guruhi emas, balki ularning ongidir, chunki muammo talabalarning dindorligini aniqlashdadir, Tadqiqot qilinayotgan muammoning «tarqatuvchisi» talabalarning ongidir, aniqrog'i, ongining qadryatlar tuzilmasidir. Ob'ekt qanchalik aniq bo'lsa metod shunchalik to'g'ri tanlangan bo'ladi. Misol uchun empirik tadqiqotlarning tipik ob'ektlari- odamlar fikri, kollektivdagi munosabatlar, va boshqarish metodlarining va mehnatni tashkil qilishning effektivligi, siyosiy jarayonning baholash va h.k.

Empirik tadqiqotlar predmeti bu muayyan masala bo'lib, ob'ektdan kelib chiqadi va tadqiqotda chegaralanganidir.

Talabalar dindorligini o'rganilayotganda predmet quydagicha qo'yilgan: «Talabalar ongining tuzilmasi va rivojlanish tendensiyasi».

Bir ob'ektga bir nechta predmet to'g'ri kelishi mumkin. Har qaysisi turlicha shakllanishi va ob'ektni turli tomomlariga mos kelishi mumkin. Misolda predmet «ong tuzilmasi», «dindorlik tipi», dindorlikni talabalar xulq-atvoriga ta'siri va boshqalardir. Sotsiologiyaning metodika va texnikasi haqidagi ayrim adabiyotlarda ob'ekt bilan predmetning mos kelishi haqida so'z yuritilgan. Bu noto'g'ri, chunki ob'ekt — bu haqiqiy mavjud bo'lgan tuzilmalardir, predmet esa abstrakt qo'yilgan tadqiqot muammosidir.

Tadqiqot programmasini tuzishdagi keyingi qadam muammoni nazariy tahlili va asosiy tushunchalarni aniqlash.

Nazariy analiz o'z ichiga definsiyalashni oladi, ya'ni ilm-fanda chiqilgan nazariy va metodologik nuqtai nazardan muammoni asosiy tushunchalarini aniqlash, nazariy asoslar bo'lmaganda esa (bu juda kam uchraydigan hol) tadqiqotchi o'z konsepsiyasini mustaqil yaratish kerak. Studentlar dindorligini o'rganishda eng rivojlangan yo'nalishlardan biri din sotsiologiyasiga va E.Dyurkgeym va Z.Freyd ta'limotiga asoslanishi kerak. Nazariy tahlilda muammo haqida barcha bilimlar mujassamlanadi, muammoning har tomonlama o'rganilgan va o'rganilmagan sohalari aniqlanadi, izlanayotgan jarayon mohiyati haqida konsepsiya yaratiladi asosiy tushunchalar tanlanadi va aniqlanadi. Shuni nazarda tutish kerak-ki tadqiqotlarni boshi ham natijalari ham tushunchalarga bog'liq. Tushuncha bu shunday instrumentki, uning asosida nazariy va empirik ko'rsatkichlar o'zaro aloqada bo'ladi. Dindorlikni nazariy tahlil qilganda shu ma'lum bo'ladiki, e'tiqod dindorlikni markaziy tushunchasi bo'lib u esa psixologik gnoseologik, etik, estetik ishonchni o'z ichiga oladi va u qachon asosiy qadriyat bo'lsagina, shunda ta'sir kuchiga ega bo'ladi. Buning asosida kimni dindor deb hisoblash mumkinligi haqidagi konsepsiya vujudga keladi. Demak, kishi ongining qadriyatlar tuzilmasi diniy bo'lib, u e'tiqod bilan bog'liq bo'lsa, bunday kishini dindor deb hisoblash mumkin. Bu misoldan dindorlik tilini aniqlash mumkin.

Programmani tuzishdagi keyingi qadam interpretatsiyadir.

Nazariy tahlil natijasida olingan tushunchalar interpretatsiya qilinadi. U empirik tadqiqotni asosiy komponenti.

Bu sub'ektiv omillarni tadqiqotga ta'sirini isbotlovchi yo'nalishlar ta'siridir. Interpretatsiya bu hodisalarni, voqslilikni tushunchalar mazmunini sub'ekt tomonidan tushuntirish, aniqlash interpretatsiya tadqiqot konsepsiyasining nazariyasi nuqtai nazaridan respondentlar nuqtai

nazaridan bo'lishi mumkin. Interpretatsiya muammosi murakkab va ko'p qirralidir. U ilmiy tadqiqot hamda madaniyat, faoliyat sohasidagi o'zaro munosabatlar va boshqa omillarga taalluqli bo'lgan muammolarni o'z ichiga oladi. Bunday tafakkur stereotiplari, fikrni shakllanish qonunlarini nazarda tutish kerak, interpretatsiya tafakkur, ongni o'zaro aloqasini nazarda tutish usulidir.

Programmani tuzish jarayonida tushunchalarni nazariy va empirik interpretatsiya qilinadi.

Nazariy interpretatsiya—bu tushunchalar mazmunini, muammoning nazariy aspekti nuqtai-nazaridan tushuntirishi. Misolda quyidagi tushunchalar interpretatsiya qilinadi: «e'tiqod» va «qadriyat» interpretatsiya natijasida qadriyatlar turi va dindorlar tipi belgilanadi.

Empirik interpretatsiya—tushunchalarni empirik faktlar bilan taqqoslash, o'rganilayotgan soha bilan moslikni aniqlash, operatsional tushuncha to'plash, operatsional tushunchalar empirik metodlarni ishlab chiqish uchun zarur, qadriyatlar, manfaatlar kabi abstrakt nazariy tushunchalarni, konkret va aniq tushunchalarga aylantirmaguncha ularni tadqiqot qilib bo'lmaydi. Aynan shu operatsional tushunchalar empirik metodlar asosida yotadi.

Ular asosida anketa savollari, kuzatish va eksperimentda yotadigan belgilar aniqlanadi, hozirgi zamon sotsiologiyasining yo'nalishlari one ratsionalizatsiya tartibini tanqid qiladi, uni noilmiy deb hisoblaydi. Bu noto'g'ri fikrlar, chunki sotsiologiya nazariy bilimlarga tayanishi kerak. Nazariy bilimlar bilan empirik tahlilni o'zaro bog'lash aynan operatsional tushunchalar vazifasidir. Operatsional tushunchalarni empirik referentlar deb ham atashadi. Masalan: «E'tiqod» tushunchasining empirik referenti urf-odatlariga bo'ysunish, borliqni paydo bo'lishi haqidagi qarashlar va h. k.

Programma tuzishning keyingi bosqichi — bu ob'ektni sistemali tahlilidir, o'rganilayotgan ob'ekt sistemali tahlil qilinadi.

Bu ob'ektni ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy bog'liqlikda o'rganishdir. Sistemali metod ob'ektni funksional asosini belgilashga qaratilgan. Sotsiologiyada sistemali metod T.Parsons, R.Merton tomonidan ishlab chiqilgan.

T.Parsons quyidagi podsistemalarni ajratadi: shaxs-guruh, madaniyat, jamiyat va funksiyalar; adaptatsiya, sotsiologizatsiya, maqsadga erishish, latentlik. Bu sxema har qanday muammoni o'rganishda ishlatilishi mumkin.

Talabalar dindorlignini o'rganilayotganda bu funksiyalarni tadqiq

qilinayotgan shart-sharoitlarda talabalarni ijtimoiy-madaniy hayotlariga bog'liq holda aniqlash mumkin. Sistemali tahlil natijasida nafaqat ob'ektdagi omillar mavjudlik mexanizmi, balki institutsional, oilaviy-maishiy shaxsiy tuzilmalar ham aniqlanadi. Sistemali tahlil tadqiqot predmetini umumiy obrazini ishlash xususiyatlarini, jarayonning empirik ko'rsatkichlarini yaratish kerak. Ob'ektni sistemali tahlili asosida gipoteza shakllanadi.

GIPOTEZA SHAKLLANISHI

Gipoteza bu ob'ektni o'rganilayotgan xususiyatlari haqidagi ilmiy tahlil gipoteza tushuntiruvchi, ta'riflovchi va oldindan aytib beruvchi, ya'ni gipoteza-prognozlarga bo'linadi. Ta'riflovchi gipotezalar bu ob'ektni tuzilmasi va elementlari haqidagi tahlilni komponentlarni miqdoriy bog'liqligi elementlararo aloqalar turi va xarakteri haqida ma'lumot beradi. Masalan: shunday gipoteza: Mehnat motivi tuzilmasi, ish haqiga emas balki mehnat mazmuniga bog'liq bo'ladi. Bu misolimizda quyidagi gipoteza to'g'ri bo'ladi: Dindorlikni ustun tipi — pragmatik va milliy tip.

Tushuntiruvchi gipoteza — juda murakkab bo'lgan sabab aloqalari haqidagi tahminidir.

Sabab aloqalari ijtimoiy jarayonlarda ko'p omillik.

Sababiyot ko'p darajalilikdir: individual shaxs, institutsional, ijtimoiy-siyosiy. Masalan: talabalar dindorligining sababi — haqiqiy ma'naviy prientirlarning va professional faoliyat istiqbolining mavjud emasligidadir.

Gipoteza — prognoz jarayonni rivojlanishi haqida tasavvur beradi. U rivojlanish tendensiyasi va yo'nalishlarini aniqlovchi, barqaror mexanizmlarni ochib beradi.

Gipoteza — empirik metod yordamida tekshirilishi mumkin bo'lgan, tadqiqotdagi eng asosiy xususiyatlarni aniqlovchi muhim bilish instrumentidir. Gipotezani bor yoki yo'qligi tadqiqot darajasini xarakterlaydi, qolgan barcha ishlar gipotezani isbotlash yoki inkor etish bilan bog'liq bo'ladi.

PROGRAMMANING PROTSEDURA BO'LIMI

Protsedura — tadqiqot amaliyotida qo'llaniladigan uni o'tkazish uchun muhim bo'lgan turli qoidalar, harakatlar, instrumentlarni qo'llash va ularni tartibiga bog'liq bo'lgan masalalar yig'indisidir. Birinchi bosqich —

TADQIQOT REJASINI TANLASH

Tadqiqot rejasini tanlash — gipoteza xarakteriga bog'liq. Tushuntiruvchi gipoteza sabab funksional aloqalarni ochish uchun shart-sharoitlar yaratuvchi eksperimental protseduralarni o'z ichiga oladi. Ta'riflovchi gipoteza asosan tipologik protseduralarni o'z ichiga oladi, ya'ni muhim tiplarni, barqaror xususiyat va sifatlarni aniqlaydi.

Gipoteza — prognoz — ommaviy hodisalarni kuzatishda statistik metodlarni talab qiladi.

Reja tanlash tashkiliy vositalarni va moddiy sarf-xarajatni aniqlaydi, chunki anketalar blankalarni, korxonalar bilan shartnomalarni ko'paytirish, so'roq o'tkazish uchun odamlarni to'plash kerak bo'ladi.

IKKINCHI BOSQICH - INFORMATSIYA TO'PLASH METODLARINI TANLASH

Empirik sotsiologik tadqiqotlarni 2 guruhga bo'lish mumkin: berilmalarni to'plash metodi va olingan informatsiyani ishlab chiqish va tahlil metodi. Programma o'z ichiga metodlarni tanlash, ta'riflash va tuzishni oladi.

Metod tanlash — asosli gipotezadan kelib chiqqan bo'lishi kerak. Har bir empirik metod o'z xususiyatlariga ega. So'roq metodi jarayonni sub'ektiv tomonlarini o'rganishga yo'naltirilgan, chunki u respondentlarni hayot faoliyati haqidagi javoblarga asoslangan. Kuzatish metodi — haqiqiy hulq-atvor, munosabatlar, hujjatlarni o'rganish metodiga (hujjat bu har qanday fiksatsiya qilingan informatsiya) fiksatsiyalangan berilmalarga (hodisalar, ob'ektiv faktlar, struktura, tashkil qilish va h.k.) asoslangan. Eksperiment hodisalarni bir butunlikda o'rganuvchi metod.

Buning natijasida har qanday metod o'zining protsedura, texnik, mantiqiy va boshqa xususiyatlariga ega. Shunga mos ravishda metod talanadi. Agar tadqiqot ijtimoiy psixologik xarakterga ega bo'lsa, u holda, fikrlar, qarashlar, baho, manfaatlar, ya'ni sub'ektiv tomonlarni o'rganuvchi so'roq, metodidan foydalanish kerak.

Agar hulq-atvor xakteri, hodisalarga reaksiya muammosi haqida gap ketsa, u holda kuzatish metodidan foydalaniladi. Eksperiment ma'lum sabablarni ta'sir qilishini barcha tomonlarini o'rganish kerak bo'lganda qo'llaniladi. Masalan, mehnatni tashkil qilishni yangi shakllar, siyosiy hulosalar, qonunlarni qabul qilish va h.k. Empirik tadqiqot metodini tanlanganidan so'ng ularni ishlab chiqish lozim. Har qanday metod o'ziga xos ravishda tuziladi, lekin umumiy xususiyatlarni ajratish mumkin, ya'ni informatsiya to'plashni empirik metodlarini umumiy prinsiplari tuzish mumkin.

Sotsiologik tadqiqotlarni empirik metodi o'zgaruvchan, harakatchan voqelikning mikrojarayonlariga qaratilgan tadqiqot — individlarning ma'lum majmuasining harakatlari, shart-sharoitlari, motivlarini o'rganish orqali amalga oshadi. Dastlabki sotsiologik informatsiyadan iborat ijtimoiy konkret faktlarga asoslangan, sotsiologik metod, bevosita odam bilan bog'liq bo'lgan bilimning elementar yig'indisidan tashkil topgan. Buning natijasida sub'ektivizm oshib boradi. Ayniqsa, bu so'roq metodiga tegishli. Masalan, amerikalik sotsiologlar shuni aniqladilarki, magnitofonda yozilgan intervyu savolining intonatsiyasi respondentlar javobiga katta ta'sir etar ekan. Balandroq ovozda aytilgan savol salbiy javobdan ko'ra ko'proq ijobiy javob berishga undar ekan. Yana shu aniqlandiki, baland ovozda aytilgan savol, respondentlarni tadqiqotga bo'lgan qiziqishini yanada oshirar ekan.

Odamlar bilan bevosita aloqa qilish zaruriyatiga muhtoj emas metodlar ham buzib ko'rsatish imkoniyatiga ega.

Hujjatlarni o'rganish metodida bir tomondan hujjat tuzganning munosabati, ikkinchi tomondan tadqiqotchi tahlilining xususiyatlarini nazarda tutish kerak. Metodning bu hususiyati ko'p tortishuvlarga sabab bo'lgan. Empirizm davrida bu muammo tadqiqot jarayonini imkoniyat boricha formallashtirish va kompyuterlashtirish orqali yechish mumkin degan hulosaga kelingan. Shuni nazarda tutish kerak-ki formallashtirish yordamida buzib ko'rsatishdan ozod bo'lamiz degan fikr noto'g'ri.

Empirik tadqiqot jarayonida sub'ektiv komponentlar, ob'ektivlik, aniqlik ko'rsatkichlari nuqtai nazaridan tekshiriladi. Empirik protsedura bu odamlarning oddiy munosabati emas, balki aksincha, yo'naltirilgan, boshqariladigan rejalashtirilgan ish tartibidir. Olingan informatsiyaning ob'ektivligi, nazariy-metodologik pozitsiyadan, metodlarning mazmuni va shakliga bog'liqdir.

Demak tadqiqot natijalari bu ilmiy asoslangan bilimlardir.

Shuning uchun tadqiqotni asosiy va muhim prinsipi bu tadqiqotning harakatlarini tuzilmasi mazmuni va xarakterini hamda ilmiy metodologiya nuqtai nazaridan instrumentariyalarini aniqlashdir.

Sotsiologik metod empirik metod deb atalishiga qaramay, ishlab chiqish va tatbiq etilishi nuqtai nazaridan uni faqat empirik deb bo'lmaydi.

Tadqiqot gipoteza va konsepsiyasidai kelib chiqib, metodlarni tanlash va tuzish hamda umumiy tadqiqot protsedurasida ularni maqsad va o'zni aniqlanadi. Empirik metod bilan nazariy bilimlar birinchi umumnazariy tadqiqot pozitsiyasi orqali amalga oshadi.

Keyingisi esa bu tushunchalar sistemasidir. Aynan tushunchalar

yordamida empirik metodlar ma'lum informatsiya oladilar va tahlil jarayonida ularni umumiyashtiradilar, sistemalashtiradilar, o'rnini va ahamiyatini belgilaydilar. Tushunchalar — asosiy instrumenti anketa bo'lmish so'roq, metodida emas balki boshqa metodlarda ham katta ahamiyatga ega. Kuzatish metodida anketa qo'llanilmasada, operatsional tushunchalarni qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotchi asosiy tushunchalariga mos kelgan ravishda kuzatuvni olib borishi kerak. Kuzatuv varaqalarida kuzatish xususiyatlari ko'rsatilgan bo'ladi.

Empirik metodni tuzishni boshqa asosiy printsiplari — bu voqelikda o'rganilayotgan predmetning metod bilan mos kelishi.

Tahlil qilingan tushunchalar o'rganilayotgan odamlar yig'indisi qo'llaydigan tushunchalarga mos kelishi kerak. Bu moslikka erishish uchun dastlabki tekshiruv tadqiqotlari o'tkaziladi. Sotsiologiyada kichik odamlar majmui bilan o'tkazilgan metod tekshiruvi pilotaj tadqiqot deb nom olgan.

Empirik tadqiqot amaliyotchilari pilotaj tadqiqotlari nafaqat tushunchalar va metod strukturasi balki savollarni qabul qilish va javoblarni shakllanishiga yordam beruvchi psixologik jarayonlar ochishga imkon beradi. Pilotaj tadqiqotlar—metodik ishning davomidir. Uning maqsadi informatsiya olish, uni to'g'rilash va o'rganilayotgan voqelikni sohalariiga moslashtirish uchun kerak bo'lgan metod foyda keltirish darajasiga baho berish.

Umuman tekshiruv metodi 1) kuzatuv masalalari va xususiyatlari natijalar bilan mos keladimi? 2) o'rganilayotgan odamlar majmui savollarni qanchalik aniq tushunadi? 3) metod qo'llanilgan psixologik jarayonlar haqiqiy informatsiya olishga yordam beradimi? 4) metod qo'llanilishining ayrim tomonlari salbiy munosabatlarni keltirib chiqarmaydimi? - degan masalalarni aniqlashi lozim.

Uchinchi asosiy prinsip - metod qo'llanilishining qonun-qoidalariga bo'ysunish. Empirik tadqiqotlar amaliyotida shunday qoidalar sistemasi ishlab chiqilganki, ularga asoslanish odamlar o'zaro munosabatlari omillarini nazarda tutish, olinayotgan informatsiyaning sifatini ko'tarishga imkon beradi. Masalan, har qanday metod qo'llanilishining muhim qoidasi o'rganilayotgan guruhning qiziqishi. Odamlar qiziqishi yordam berish xohishini o'rganilayotgan savollarga qiziquvchanlik bilan qarashga hamda faol qatnashishga imkoniyat yaratadi. Turli odamlar guruhida tadqiqot turli omillarni va munosabatni keltirib chiqaradi. Bu omillarni aniqlash muayyan metodni qo'llashga yordam beradi, qoidalarga metod

qo'llashning shart-sharoitlari, ma'lum maqsadda olinadigan intervyu taktikasi va psixologik xususiyatlarni nazarda tutilgan.

Konkret tadqiqotlarda bu masalalarni nazarda tutish, metod qo'llash jarayonida tadqiqotchini to'g'ri harakatlar sistemasini tuzishga zamin bo'ldi. Qo'llanilgan metod natijasida olingan informatsiya bir metodni ikkinchi metod bilan tekshirishga olib keladi. Buni sababi shundaki, sotsiologik metodlar qo'llanilishi natijasida olinadigan empirik informatsiya jarayoni ob'ekt va sub'ektning o'zaro ta'siri bilan bog'liq. O'zaro ta'sir metod xususiyatiga qarab turli xarakterga ega. Agar so'roq metodida tadqiqotchi bevosita odamlar bilan aloqa qilsa, xujjatlarni o'rganish metodida empirik ob'ekt tekstlardir.

Turli ob'ektga turli metodlar mos keladi. Bu ob'ektivlik va sub'ektivlikni turli munosabatlarini keltirib chiqaradi. Masalan, kuzatish metodida buzib talqin qilish sub'ektning o'ziga interpretatsiya qilish bilan bog'liq. So'roq metodida sub'ektivizm metod ob'ekti: qarashlar, fikrlar, baho, manfaatlar va h.k. o'zgaruvchanligi bilan bog'liq. Ob'ekt bilan sub'ektning bunday turliligi bir metodni ikkinchi metod bilan tekirishga imkon yaratadi. Bir metod kamchiligi ikkinchi metod kamchiligi bilan qamrab olinadi. Bu yo'l bilan metodning bilish imkoniyatlari va hodisalarni turli tomonlarini aniqlashga yordam beradi.

Fenomenologik yo'nalish ishlab chiqqan empirik metodlarni qo'llanilishi bir metod orqali olingan bilimlarni inkor etishga olib keldi. Masalan, korxonalar ishchilarining sub'ektiv ma'nosini o'rganish uning shu korxonalar ijtimoiy vazifalariga qarama-qarshiligini aniqlaydi. Masalan, ijtimoiy taqsimot xizmatining asosiy vazifasi kamdaromadli va ishsiz kishilarni kamaytirish bo'lsa, bu ishchilarning manfaati ularning ko'payishida ekanligini aniqlaydi. Chunki bu ularning oylik maoshiga bog'liq.

Sotsiologik informatsiyani to'plash metodidan so'ng olingan axborotni analiz qilish metodiga o'tiladi.

MA'LUMOTNI TAHLIL QILISH METODLARINI ANIQLASH

Ma'lumotni tahlil qilish va informatsiyani ishlab chiqish bir narsa emas. Ma'lumotni analiz qilish bu gipotezani tekshirish, tadqiqot masalalarini echish, ya'ni mazmunli tahlil, umumiy konsepsiyada olingan bilimlarni o'rnini aniqlash. Informatsiyani ishlab chiqish bu EHM ga tahlil uchun beriluvchi ma'lumotlarni tashkiliy-texnik tayyorlash.

Informatsiyani ishlab chiqish, kodlashtirish, xususiyatlari bo'yicha guruhlash, formallashtirish va boshqalarni o'z ichiga oladi. Programmada muayyan tadqiqotda to'planadigan informatsiyani hajm va shaklini, uni tahlil qilish va ishlab chiqishni mantiqiy sxemasini aniqlashni o'z ichiga olgan empirik tadqiqotlar ma'lumotlarini ishlab chiqish rejasini nazarda tutish kerak. Mantiqiy sxema rejalashtirilgan maqsadga erishish uchun EHM ga qanday dastur kerakligini aniqlaydi. Bu informatsiya to'plash metodida qanday usullardan foydalanish kerakligini ochib beradi, ya'ni anketa blankasi, kartochka va boshqa tayyorlash, o'tkazilayotgan tadqiqot natijasida turli jarayonlarni xususiyatlari, sabablari, aloqalari, munosabatlari haqida katta ma'lumot to'planadi. Bu ma'lumotlarni tahlil qilishda nafaqat sifatli, mazmunli balki miqdoriy metodlar ham qo'llaniladi.

Miqdoriy metodlarda muhim o'rinni guruhlash, regression tahlil, korrelyatsiya, shakllantirish faktorli va klasterli tahlil egallaydi.

Sotsiologiyaga matematik metodlar kirib kelmoqda. Uni qo'llanilishidagi asosiy muammo matematik apparatni tuzib chiqishdadir. Matematik o'yinlar nazariyasi va chiziqli programmashtirishni iqtisodiy vazifalarni echish uchun rivojlanishi va qo'llanilishidan so'ng iqtisodiyotda qo'llanila boshladi.

Sotsiologiyada ma'lum vazifalarni echadigan o'ziga xos apparat ishlab chiqilmagan M.Kendalp ijtimoiy ob'ektni matematik tasavvur qilishni ikki qismga ajratadi.

1. Yig'indilar muammosi, hodisada ko'pgina komponentlar bor, ularning ichida qaysi birlari shu hodisa bilan bog'liq va qaysilari o'tkinchi ekanligini aniqlash qiyin.

2. Birlashish muammosi, ya'ni ijtimoiy sistemasining qaysi elementi asosiy ekanligini echish qiyin. Bunga qo'shimcha qilib formallashtirishdagi, o'lchash etalonlarini ishlab chiqishdagi qiyinchiliklar ham misol bo'la oladi. Masalan, anketa savollariga ijobiy va salbiy javob berganlarni oson ajratish mumkin, lekin ikki javob oralig'idagi javoblar varianti bo'lsachi, nima qilish kerak? Shunday javob variantini tushuntiruvchi miqdoriy ko'rsatkich bo'lishi zarur.

Sotsiologiyada matematik vositalar turlichadir, o'yinlar nazariyasi, informatsiya nazariyasi, turg'unlik nazariyasi apparati, chiziqli programmashtirish, modellashtirish, omilli tahlil, graflar nazariyasi, matrik algebra. Matematik metodlar, nafaqat o'lchash, balki muammo yechimini ko'ra olish, muammoni effektivroq va chuqurroq tushuna bilishi zarur. Matematik metodlar sotsiologiyada quyidagi vazifalarni yechish

kerak: 1) tanlash (viborka); 2) tahlil; 3) modellashtirish; 4) o'lash.

Tanlashning mohiyati shundaki, tadqiqot qilinayotgan ob'ektni shunday qismi tanlansinki, unda ob'ektning barcha tomonlari haqida ma'lumot beruvchi bilimlar mujassamlashsin. Barcha empirik tadqiqot ijtimoiy ob'ektni tanlab o'rganishga asoslangan, chunki informatsiyani o'zida mujassamlashtirgan kontingentni barcha tomonlarini o'rganishga imkoniyat yo'q. Statistika katta sonlar nazariyasiga asoslangan, o'z mohiyati bo'yicha tadqiqot qilinayotgan bir butun ob'ektni muhim xususiyatlarini aks ettirgan mikromodellar yaratadigan tanlash metodi ishlab chiqilgan. Tanlash asosiy yig'indining strukturasi, ya'ni muammo va uning elementlarini o'zida aks ettirgan yig'indini ifodalaydi. Yig'indini tanlashdagi asosiy vazifa tushirib qoldirishga chek qo'yish, masalan guruhlar tanlanayotganda muayyan toifadagi guruhlar, ya'ni masalan, faxriylar yoki oliy ma'lumotlilar guruhi emas, balki ijtimoiy guruhlarning tabiiy munosabatini, unga kiruvchi barcha kategoriyadagi shaxslar qamrab olinishi zarur.

Tadqiqotning muammosi va maqsadidan kelib chiqib tanlash turi aniqlanadi. Bu bilan bog'liq holda matematik metod yordamida tanlanish hajmi, ya'ni tadqiqot qilinayotgan majmuaning umumiy soni belgilanadi. Bu muayyan shaxslar kontingenti fikrini bilish uchun nechta odamni so'roq qilish kerak. Vaqt byudjeti haqida tasavvurga ega bo'lish uchun qancha vaqt qirqimini o'rganish zarurligi haqidagi masaladir.

Matematik metod — mazmunaviy vazifalarni yechish instrumentidir. Muayyan metodlarni qo'llash uchun ularni avval tanlab olish kerak. Tadqiqot maqsadi va vazifasiga qarab tanlash metodi belgilanadi.

Quyidagi vazifalar keng tarqalgandir. Tipologik analiz va empirik indikatorlarni o'zaro aloqasining analizi. Analiz tipini tanlash aniq vazifalarga bog'liqdir. Tipologik analiz ob'ekt tipologiyasini, uning asosini, ob'ekt tipini aniqlashdan boshlanadi.

U muayyan tadqiqotda to'planadigan o'rta statistik ma'lumotni, informatsiyaning asosiy tahlili va tarqalish darajasi haqidagi bilimlarni beradi, Ikkinchi vazifa turi o'zaro aloqa tahlilidir. O'zaro aloqa tahlili - borliq va vaqtda mavjud bo'lgan turg'un bevosita va bilvosita o'zaro shartlangan hodisalarni izlashdan iborat bo'lgan ijtimoiy ob'ektni o'rganish metodi hisoblanadi. Bu vazifalar turini matematik metodlar turli maqsadlarda yechadi: hodisalar sababini, bilvosita va asosiy aloqalarni, qo'shimcha aloqalarni, jarayonga omillarning ta'sirini aniqlash va boshqalar.

Maqsadlardan biri — prognoz (bashorat). Prognoz modeli belgilar

sistemasining elementlar tuzilishini xarakterlaydigan umumiy ko'rsatkichlar asosida quriladi. Ko'pgina tadqiqotchilarning fikricha, sotsiologik tadqiqotlarda matematika qo'llanilishining muhim tomoni bu— ijtimoiy hodisalarni modellashtirish, bunda yetarli tajriba to'plangan. Tadqiqotchilar modelning turli tipini aniqlaganlar. L.G.Aganbegyan uning batafsil klassifikatsiyasini bergan:

a) alohida belgilarni differentsiatsiyasi haqidagi umumlashgan xarakteristika uchun qo'llaniladigan taqsimlash modeli;

b) ijtimoiy jarayonni xarakterlaydigan ko'rsatkichlar o'zaro aloqasini aniqlashda yordam beruvchi korrelyatsion, dispersion, omilli (faktorli) modellar;

v) muayyan ijtimoiy hodisalarni shakllantiruvchi statistik modellar. (Masalan, ishchi va xizmatchilar oilalarining daromadlarini shakllantiruvchi model);

g) sotsiologik tadqiqotlarda keng tarqalayotgan obrazlarni bilish statistik modeli;

d) ijtimoiy jarayonlarni shakllanishining statistik modelida alohida, xususiy hodisa deb qaraluvchi imitatsion, statistik modellar.

Ma'lumotlarni tanlash va tahlil metodlarini ta'riflangandan so'ng programma tuzish tugallandi deb hisoblasa ham bo'ladi. Bundan so'ng tadqiqot o'tkazish uchun zarur harajatlar hisob-kitob qilinadi: instrumentlarni ko'paytirish, ijro etuvchilar bilan shartnoma tuzish va boshqalar.

2. SOTSIOLOGIK INFORMATSIYA TO'PLASHNING EMPIRIK METODLARI

1. So'rov metodi.

Ushbu metodni ishlab chiqish XVIII asrdan boshlanib ketgan edi. hozirgi vaqtda bu metod keng tarqalgan va ko'p qo'llaniladigan metod hisoblanadi. So'rov metodining quyidagi turlarini ko'rsatishimiz mumkin:

1. Anketalashtirish yozma shakldagi so'rov bo'lib, texnikasiga ko'ra, tarqatiladigan (anketa tadqiqotchi tomonidan tarqatiladi va yg'ib olinadi) matbuot orqali (anketani gazeta va jurnallarda chop ettirish), telefon yoki telesko'p orqali, ya'ni texnik vositalari bilan (televizor yoki telefonga oid qo'shimcha sifatida) amalga oshiriladigan So'rov turidir.

2. Suhbatlashish (Intervyu) — suhbat o'tkazuvchilarni (intervyuer) bir qanchasini talab qiluvchi, og'zaki Sarovturidir. Bu So'rov klinik (respondentning sub'ektiv dunyosini samimiyligi) bir nuqtaga qaratilgan

(o'rganish uchun bir asosiy savolni ajratib olish) So'rovlarga bo'linadi.

3. Sotsiometrik So'rov—guruhdagi shaxslararo munosabatlarning yaxshi ko'rish, yoqtirmaslik, do'stlik, adovat, qismat va boshqa jihatlarini o'rganishga qaratilgan. Amerikalik sotsial psixolog J.Moreno tomonidan ushbu So'rov metodi ishlab chiqilgan. Bu metod guruh, to'planishiga zarurat tug'ilganda, liderni aniqlashda, kollektivda psixologik klimatni aniqlashda va boshqa yo'llarda qo'llaniladi.

4. Test o'tkazish So'rov — maxsus qayta ishlangan vositalar sxema, rasmlar, takliflar, savollar yordamida shaxsiy sifat va qobiliyatlarni namoyon bo'lishini aniqlaydi. Testlar tematik, birikmalari (assotsiativ) intellektual qobiliyatlarni aniqlaydigan, takliflarni yakunlaydigan turlarga bo'linadi.

5. Ekspert So'rov — Bu metod ekspertlarga, ya'ni mutaxassislariga yon beradi. Bular, asosan muammo bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar yoki javobgar shaxslardir. Bunda so'ralayotganlarning qiziqishlari e'tiborga olinishi kerak.

6. Panel So'rovlar — kishilarning doimiy doirasiga mo'ljallangan so'rov bo'lib, tashkilotlardagi boshqarish uslubidagi ma'lum o'zgarishlarga ulargacha va ulardan keyin kiritiladigan so'rov turidir. Bu metod guruhlarining faqat bir belgisiga ko'ra bir-birini taqqoslash va farqlash, ya'ni protsessning sabab va oqibat analizlarini o'rganish maqsadida qo'llaniladi. Ko'pincha so'rovning bu turi eksperimental tadqiqotlarga qo'shimcha ravishda kiritiladi.

7. Yaxlit So'rovlar — demografik protsesslarni, jamoatchilik fikrini, aholini ro'yxatga olishni o'rganishda qo'llaniladi. Yaxlit so'rovlar barcha aholini yoki muammo bilan bog'liq bo'lgan bosh majmualarning so'rovini o'zida aks ettiradi.

Ushbu so'rovlarning har biri maxsus xususiyatlarga ega bo'lib, o'tkaziladigan tadqiqot texnik muammosini, informatsiyaning aniqligini o'z-o'zicha hal qiladi. Ularni o'zaro birlashtiradigan vosita bu — anketa so'rovning barcha turlari asosida anketa yoki savol varaqasi yotadi.

Anketa — empirik ma'lum o't olish uchun tadqiqotning umumiy konsepsiyasi va yo'nalishi bilan o'zaro aloqadorlikda bo'lgan, kiritilgan gipotezani tekshirishga layoqatli bo'lgan savollar sistemasining ifodalanishidir. Anketa tashkil topishining va savollar tuzilishining bosh mezoni bu — tushunmoqlikdir, ya'ni savollarni alohida izohlamoda intilishdir.

Savollar ob'ektiga ko'ra: faktlarga, fikrlarga va harakatlarga; shakliga ko'ra: to'g'ridan-to'g'ri, chetdan, ochiq va yopiq bo'ladi (ochiq savollar,

javobni erkin shaklda bo'lishini ta'minlaydi, yopiq savollar tekshirilgan va respondentning tomonidan tanlangan bo'lib, uning fikriga mos kelishi kerak); funksiyasiga ko'ra: psixologik (aktivlikni, ishtirok etishni, ishochni kuchaytirmoq maqsadida), bo'linuvchi (diqqatni bo'linishi uchun, bir guruhni ikkinchi guruhdan ajratmoq uchun), nazoratlangan (asosiy savollarni javobini tekshirish uchun, xotirani tiklash uchun, savol-tuzoq ya'ni chiqib ketolmaydigan savol berish) turlarga bo'linadi.

Savol-So'rov metodining asosiy instrumenti hisoblanadi. Savol — bu anketa yoki blankga tadqiqotchining fikri joylashtirilib respondentga yo'llangan bo'ladi va undan javobning u yoki bu tomonini talab qiladi. Sotsiologik tadqiqotda savollarning bir qancha konsepsiyalari mavjud. Masalan, test konsepsiyasi shaxsning belgilari yoki uni qobiliyatlarini aniqlashda savolning alohida elementini emas, balki bir qancha elementlarni aks ettiradi. Bunda so'rovning natijalari baholanadi, alohida savollarga javoblar ahamiyat kasb etmaydi va ko'p javoblarning elementi sifatida analiz qilinadi. Savolning bu turi kam qo'llaniladi. Savolning bir muncha an'anaviy turi informatsion konsepsiyadir. Uning har bir savoli voqelikni yagona semantik informatsiya bilan ta'minlaydi. Bu ko'rinishi tez-tez qo'llanilganligi sababli, sotsiolog ikkita masalani hal qiladi:

a) tadqiqot birligini o'rganishni qo'llaydi:

b) har bir birlikdan informatsiya to'plash uchun qanday savol berish kerak.

Savolning uchinchi konsepsiyasi, indikator konsepsiya bo'lib, anketa ishlab chiqishda va aniq, ma'lumot olishda maqsadga yo'naltirilgan natijalar beradi. Shundan keyin savollar konsepsiyasi aniqlab olingach, sotsiolog har bir savolni ishlab chiqishga kirishadi. Buning uchun quyidagilarni nazarda tutish kerak: faktlar to'g'risidagi savollar yengil formulirovka va analiz qilinib, respondentga qiyinliklar tug'dirmasligi kerak. (Siz transport vositasidan foydalanasizmi? Oliy ma'lumotlimisiz? Va x.k.) Fikrlar, nigohlar, sabab (motiv)lar to'g'risidagi savollar qiyinchiliklar tug'dirilishi mumkni. Bular qiyin formulirovka qilinib aniq, javoblar olish uchun qo'shimcha kuchlar talab qiladi. Taniqli nemis tadqiqotchisi E.Noel quyidagicha misol keltiradi: Janubiy Germaniyada nima uchun ma'lum markadagi televizorlarni kam sotib olishlarini o'rganish uchun kamida 70 ta savol berish kerak, shu bilan birgalikda bu savollar nafaqat ushbu xududda, balki boshqa xududlarda ham taqqoslash uchun tarqatilishi kerak.

Olingan informatsiyani nazorat qilish uchun nazorat savollar tayyorlanadi, ular ma'nosiga ko'ra asosiy tadqiqot savollariga o'xshash

tasavvur qoldiradi, lekin birinchi ko‘rinishni aniqlaydigan birmuncha bekitilgan formada bo‘ladi. Nazorat savollar chetdan beriladi. Shuni ta’kidlash lozimki, to‘g‘ridan-to‘g‘ri berilgan savollar salbiy munosabatlarni keltirib chiqaradi, agarda asosan «nima uchun» degan savol bilan boshlansa. Shuning uchun sotsiologlar «nima uchun» degan savol bilan tadqiqot boshlashni tavsiya etishmaydi va chetdan savol berish formasini ishlatishni ta’kidlaydilar (Marhamat qilib ayting, Sizning fikringizga nisbatan...?).

Sotsiologning anketa tuzishda yana to‘qnash keladigan boshqa bir muammosi bu — standartlashtirish bo‘ladi. Standartlashgan So‘rov — ommaviy so‘rovlarda kerakli bo‘lib, bir xillilikka, terminologikka, mohiyatga keltirishdir. Standartlashtirish natijalarni taqqoslashga imkon yaratib, ma'lumotlarni qayta ishlashni engillashtiradi. Standartlashgan so‘rov yopiq, savollarni qo‘llashni imkoni baland ekanligini tahmin qiladi, ya'ni anketada javob bor bo‘lgan savollarni, respondent, o‘z fikriga (variant) mos kelganini tanlaydi. Standartlashgan So‘rovning kamchiligi bu — individual xossasining yetarli bo‘lmaganini hisobga olish, ko‘rilayotgan savollarga sub'ektiv munosabatda bo‘lishni tashkil etadi, qachonki kishilarning sub'ektiv dunyosiga chuqur kirib borilar ekan, bunda standart bo‘lmagan so‘rov qo‘llaniladi. Savollar ochiq formada formulirovka qilinadi va har bir anketa informatsiyaning alohida birligi sifatida olib qaraladi. Standartlashning darajasi muammo va tadqiqot maqsadidan qat'iy nazar tadqiqotchi tomonidan belgilanadi. So‘rov metodida asosiy tomonlardan biri bu tushuntirish muammosi yoki interpretatsiya asosiy tomonlardan biri hisoblanadi. Savollarni tuzilishi — bunda konsepsiya tushunchasinnng terminlarini So‘raluvchi tarjima qilihdan iborat. Savollar asosan, So‘raluvchining pozitsiyasidan, uning hayot faoliyati darajasidan kelib chiqib tuziladi. Bu tilning o‘ziga xos xususiyatining hisobini, respondentning konkret tafakkurini, psixologik xususiyatlarini (alohida shaxsiy savollarda, foydada va boshqalarda salbiy reaksiya berish), ma'lumot darajasi (chuqur bilimga egalik), diniy yoki siyosiy xarakterdan qo‘rqish va boshqalarni farz qiladi. Savollar qisqa va aniq, ikki xil tushunishga yo‘l qo‘ymaydigan, imkoniyatiga ko‘ra bir xil ma'noli formulirovka qilish kerak. Tushuntirish muammosi nafaqat anketani qayta ishlashda, balki tadqiqotchi tomonidan informatsiyani analiz qilish jarayonida ham ishlatiladi. Bunday yo‘lda, u tadqiqotchining mahorati va tadqiqot apparatining qayta nshlangan darajasiga bog‘liq, bo‘ladi.

Endi anketaning umumiy kompozitsiyasiga to‘xtalib o‘tamiz, bunda anketaning joylashishi va uning ketma-ketligi o‘rin olgan. Empirik

tadqiqotlar praktikasida maqsadga muvofiqlashgan ketma-ketlik anketasining mazmuniga ko'ra tarqatish murakkabdir. Anketa har doim So'ralayotgan shaxsga murojaatdan boshlanadi va unda quyidagilar ko'rsatiladi:

a) qanday tashkilot, boshqarma So'rov o'tkazyapti;

b) umumiy yo'llarda tadqiqotning maqsadi tushuntiriladi va natijalar qanday qo'llanishi, tadqiqotda respondent ishtirokining shaxsiy ahamiyati ko'rsatiladi;

v) javoblarning yashirincha bo'lishi anonimlik kafolatlanadi.

Bulardan keyin anketani to'latish qoidalari va qaytarib berish usuli keladi. Murojaat va qoidalar, odatda anketaning tashqi tomoni, ya'ni muqovasiga joylashtiriladi. Keyin boshqa varaqalarga savollar joylashtiriladi.

Anketa murakkab vaziyatda emas, balki oddiy savollar bilan boshlanadi. Bu savollarga faktlar, egallab turgan darajasi (lavozimi), shug'ullanadigan ishi va o'.q.lar kiradi. Undan keyin anketaning markaziy qismida ma'nosiga ko'ra asosiy bo'lgan savollar joylashtiriladi. Ular belgilangan mantiqiy izchilligi, ko'rilayotgan dasturi nazorat savollari bilan almashinib turadi. Asosiy qismning ikkinchi bo'lagida bir muncha murakkab va qaltis masalalar joylashtiriladi. Sotsiologik tadqiqot praktikasining ko'rsatishicha, anketa savollariing katta qismini to'ldirgach, respondent ishni oxiriga yetkazishga psixologik jihatdan tayyor bo'ladi. Anketaning, so'ngi qismida bu pasport deb ham yuritiladi, shaxsning ob'ektiv ahvoli va statusi ko'rsatilgan savollar joy oladi (jinsi, yoshi, oilaviy ahvoli). So'rov o'tkazish vaqtida sotsiolog yana tadqiqot o'tkazishning texnikasini aniqlaydi; tarqatiladigan, matbuot orqali, pochta orqali, telefon orqali. Shuni aytish mumkinki, tarqatiladigan so'rov boshqa so'rovlarga nisbatan birmuncha effektivdir, bunda sotsiolog guruhga kelib, anketani tarqatadi va birmuncha vaqtdan keyin uni yig'ib oladi. Bunda respondentlarni 100% so'rovga jalb etish mumkinligi kutiladi, matbuot yo'li bilan o'tkaziladigan so'rovda, anketani yig'ib olish 5% tashkil etishi mumkin.

So'rov o'tkazishda «neytral xudud» tanlanadi, ya'ni rahbar xodimning kabineti emas, intervyu iloji boricha bir xil yondashish turli jinsdagi kishilar orasida do'stona, xotirjamlik, yaxshi kayfiyat bilan o'tkazilishi kerak. Tadqiqotni xoxlovchilar orasida emas, tanlab olinganlar orasida o'tkazish kerak.

2. Xujjatlarni o'rganish metodi

Bu metod sotsiologiyada keng tarqalgandir. Sotsiologiyada xujjatlar deganda nimani tushunasiz? Sotsiologiyada xujjatlar deganda tekstlardagi bosma va qo'lyozma shaklida yozilgan informatsiyalarni, magnit lentasiga, foto va kinoplenkalarga yozilgan iiformatsiyalarni tushunamiz. Xujjatlar bir necha asoslarga bo'linadi: informatsiyaning qo'lyozma, bosma, kino, foto, magnitafon lentalariga yozish shakllari qayd etiladi; gavdalantirish, ya'ni jonlashtirish darajasiga ko'ra shaxsiy va o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lmagan bo'ladi; status darajasiga ko'ra rasmiy va norasmiy bo'lib, o'ziga xos guruhlarni ommaviy axborot vositalarining (ro'znoma, jurnal, radio, televideniya) ko'p sonli materiallari tashkil etadi.

Xujjatli manbalarning ko'rinishlari, belgilari, maqsadlari, tadqiqot tekstlar, informatsiyalar, ma'lumotlarni analiz qilish usullarini aniqlaydi. Statistik xujjatlar, guvohnomalar, protokollar, hisobga olish ma'lumotlari, statistik tendensiya va aloqalarni aniqlashning umumlashgan ko'rsatmalarini olish maqsadida o'rganiladi. Shaxsiy xujjatlar: avtobiografiya, xotiranomalar, xat, protsesslarning sub'ektiv tomonini tadqiq qilish uchun shaxsiy ishlar, fikrlar, qadriyatlar, shaxsiy sifatlar kiradi. Ijtimoiy informatsiyani tashkil qiluvchi ommaviy axborot vositalarining tekstlari kontent-analizni keltirib chiqaradi. Shundan kelib chiqib, xujjatlarni o'rganish metodini quyidagilarga bo'lish mumkin:

1 statistik.

2 avtobiografik.

3 kontent-analiz.

Statistik tadqiqotga misol qilib, qanday qilib umumdavlat (zemskey) statistika xujjatlarining analiz qilinganligini misol qilib olishimiz mumkin.

Xujjatlarni o'rganishning avtobiografik metodini F.Znanetskiy ishlab chiqqan. Sotsiologiyani u ijtimoiy fan deb hisoblab, ijtimoiy protsesslarning spetsifikatini tashkil etuvchi «inson koeffitsienti»ga katta ahamiyat berdi. Bu inson koeffitsentlari (sezgi, tafakkur) avtobiografiyada, shaxsiy xatlarda, xotiranomalarda, qonunlarda, san'at asarlarida paydo bo'ladi. Sotsiologiya ushbu xujjatlarni psixologiya nuqtai nazaridan emas, ijtimoiy sharoitdan, ijtimoiy muhitdan kelib chiqib, shaxsiy sifatlar bilan aloqadorlikda o'rganadi. Ba'zan aytiladiki, xujjatlarning bunday ko'rinishi, informatsiyaning ishonchli manbasi emasdir, chunki avtor hech qanday ma'lumot to'plamay, qandaydir faktlarni aytishi mumkin deyiladi. Znanetskiy bu to'g'risida ishonch bilan informatsiyaning sifati, analizning

qay uslubda ekanligiga bog'liqligidadir, deb ta'kidlaydi.

Sotsiologiyaning vazifasi shundaki, avtorning biografiyasi yoki xotiranasidagi barcha ta'kidlarga ishonch bildirish uchun va turli yozilgan faktlarga uning munosabati orqali o'tiladi, uning muhitni qo'yib bergan bahosi, muhitning shaxsiy belgilari sotsiolog orqali baholanadi. Sotsiolog xujjatlarni keng kontekstini (xujjatning tugallangan parchasi) ko'rib chiqib o'rganadi. Shuning uchun xujjatlarning bunday turi sotsiologga, tarixchiga nisbatan qimmatbaho material hisoblanadi. Shaxsiy xujjatlarni analiz qilish vaqtida sotsiolog quyidagi informatsiyalarni bayon qiladi:

- a) avtobiografiya yozilgan muhitni;
- b) avtor tomonidan faktlarni, hodisalarni, unga bo'lgan munosabatni, baholarni qabul qilinishi;
- v) ushbu davr vaqtida avtorning xohishlari, maqsadlari;
- g) tekstda nimalar aytilmagan va bekitilgan.
- d) avtorning shaxsiy sifatleri va boshqalar.

Xujjatlarning analiz qilishning uchinchi xususiyati - kontent-analiz bo'lib, u formallashtirgan miqdoriy yondashuvdir. Yuqorida bayon qilingan xujjatlarni analiz qilishning kamchiligi natijalarni tadqiqotchining tayyorgarlik darajasi va fikrlariga tobeltigi hisoblanadi. Shuning uchun sub'ektiv ta'sirlardan qochish uchun xujjatlarni o'rganishning formallashtirgan miqdoriy tomonini ko'rsatuvchi kontent-analiz metodi ishlab chiqiladi. Kontent-analiz termini "mazmun" ma'nosini anglatadi. Amerikalik sotsiolog R.Xoleti bunday deydi: «Bu metod ma'lum ma'lumotlarni xarakteristikasini ob'ektiv va sistematik asosida o'rganib, bir qancha xulosalar keltirib chiqaradi».

Kontent-analizning mohiyati shundaki, u o'rganilayotgan belgilarni maxsus kodlar sistemasi yordamida tekst ma'lumotlarni (yoki uning tarkibidagi informatsiyani) ilmiy kategoriyaga o'tkazadi. Shunday qilib miqdoriy analiz vujudga kelishi mumkin. Bu metodning mohiyati shundaki, xujjatlar tekstidan mazmunli tushunchalar ajralib chiqadi. Bu metod formallashtirgan metod deyiladi. Chunki kontent-analizda asosiy diqqat tekstlar mazmunini, ifoda tarzining formasiga ko'ra, kategoriyasiga ko'ra, informatsiyaning hajmiga ko'ra klassifikatsiya va kodirovka qilishga qaratiladi.

Kontent-analizning barcha texnikasi biror natija chiqarish uchun quyidagilarga bo'linadi:

- 1) Analiz birligining taqsimlanishi;
- 2) Tekst indikatoridan ularni izlamoq;

3) Statistik ishlov berish.

Kontent-analizning asosiy instrumentariysi - kodifikator, ya'ni kod blankasidir. Masalan, Rossiya Akademiyasi boshqarmasining xatiga ko'ra millatlararo munosabatlarni va konfliktlarni tadqiqot qilishda kodifikator 4 ta sermazmun-tematik blokka ega edi, bular:

1. sotsial-demografik;
2. xatning xarakteri;
3. vatandoshlaridan kutayotgan yordam.

Har bir blok ko'pgina belgilarni namoyon qilgan edi. Masalan: sotsial-demografik blok 5 ta belgini, yashash joyi, yoshi, qaysi millatga mansubligi, ish faoliyati va boshqalar. Jami 130 ta belgi bor bo'lib, har bir belgi o'z kodiga ega edi.

Kategoriyalashtirish muammosi turlicha hal qilinadi. Lassuell ikkinchi jahon urushida targ'ibotni o'rganib, dushmanning maqsadini aniqlash uchun 4 o'lchovli klassifikatsiyani qabul qildi. Informatsiyani «o'zim uchun», «o'zimga qarshi», «dushman uchun», «dushmanga qarshi» klassifikatsiyalariga taqsimladi. Natijada quyidagi kodirovka tashkil topdi rgo-X; pro-Y; contra-Y. Estoniyalik sotsiologlar tomonidan mahalliy matbuotni effektiv tomonlarini o'rganilishi natijasida tekstning taqsimlanishi bilan bog'liq bo'lgan materialning o'z klassifikatsiyasi ishlab chiqildi, bular: a) bilimlar beruvchi informatsiya; b) normativ mulohazalar; v) qimmatli mulohazalar. Xo'sh, bu kategorizatsiya yuqorida keltirilgan kategoriyalashtirishga nisbatan umumiy xarakter kasb etadi.

Xujjatlarni o'rganish metodini o'tkazish texnikasi o'zida quyidagi etaplarni namoyon qiladi:

1. Belgilarni, tushunchalarni, kategoriyalarni aniqlab tekstni analiz qilish (dastur bo'yicha).
2. Bu kategoriyalarning tekst bilan o'zaro nisbatini aniqlash, tekst marialini yagona parametrغا (o'lchov — kodifikatsiya birligi) keltirish.
3. Miqdoriy analiz: kategoriyalar bo'yicha hisob-kitob, proporsional o'zaro nisbat, har xil xarakteristikalarini birikmasi va xulosalarni aniq ifoda qilish.
4. Kontekst (nutq yoki asarning tugallangan parchasi) konsepsiyasini sharhlab (interpretatsiya) xulosa qilish.

SOTSIAL EKSPERIMENT

Sotsial sohadagi ilk eksperimentlar XIX asrdan o'z tarix saxifalarini boshlaydilar. Sotsial eksperimentlar o'tkazish zarurligi haqida P. Laplas va Rj. St. Mil birinchi bo'lib gapirgan edilar. Sotsiolist-utopistlar R. Ouzn, Sh.

Fure o'zlariing kommunistik qurilishi loyihalarini eksperimentlar asosida yarattan edilar. Empirik sotsiologiyada eksperimentlar keng miqyosda AQSh da, XX asrning boshlarida qo'llana boshlandi. Muhandis F. Teylor ishchilarning ishlab chiqarish jarayonida va uning jadallashtirish zaruriyat sharoitdagi jismoniy va ruhiy imkoniyatlarni aniqlash uchun eksperiment tiplarining kompleksini ishlab chiqdi. Eksperimentlarni boshqa tadqiqotchilar — S.Dodd, F.S.Chepin, E.Meyolar ham o'tkazganlar. Eksperimentning o'zi nima? eksperiment tadqiqotning shunday metodini, uning jarayonida biz shunday sharoitni yaratamiz yoki bo'lmasa izlab topamizki, uning yordamida bizni qiziqtiradigan xodisalar aloqasi namoyon bo'ladi. Sotsial eksperimentning strukturasi o'zida quyidagilarni mujassamlashtirgan: ob'ekt, sub'ekt (metodika, eksperiment holat, qayd qilish vositalari), moddiy va sotsial sharoit (eksperimentni amalga oshirish uchun), o'tkazilgan eksperimentning natijalari. Gipotezalar asosida ob'ektni tanlash alohida oshiriladi, eksperimental va nazorat guruhlari tashkil qilinadi, eksperimental xolat vujudga keltiriladi, biror-bir omilni, sababni kiritishlik yo'li orqali natijalarni o'lchash va tahlil qilish amalga oshiriladi. Eksperimentning asosiy maqsadi — bu gipotezani isbotlash yoki inkor qilishlikdir.

Turli xildagi sotsial eksperimentlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Moskva Davlat Universiteti professori A.P.Kupriyan shunday asosni sistemalashtirdiki, u orqali sotsial eksperimentlarni turlarga ajratish mumkin:

1. Eksperimentdagi masalaning xususiyatiga muvofiq (ilmiy-tadqiqot, amaliy).
2. Eksperiment strukturasi bo'yicha faoliyat sifatida (loyihaviy, eks-post-fakto).
3. Eksperimental xolat bo'yicha (dala, laboratoriyali).
4. Gipoteza isbotini mantiqiy strukturasi bo'yicha (parallel va uzlukli).
5. Tadqiq qilinayotgan ob'ekt xarakteriga muvofiq (iqtisodiy, pedagogik, sotsial-siyosiy).

Keyingi yillarda eksperiment o'tkazish amaliyotiga modellashtirish va EXM ni qo'llash kirib bormoqda. Eksperimentni faoliyat sifatida turlarini to'liqroq holda S.A.Yatskevich aniqlagan 4 quyidagi turlarni ajratib ko'rsatadi:

1. Nomodel eksperiment.
2. Tabiiy model eksperimenti.
3. Eks-post-fakto.
4. Imitatsiya eksperimenti; (eksperimental o'yinlar).
5. Kibernetik eksperiment.
6. Tafakkurli sotsial eksperiment.

Sotsiologik tadqiqotlar amaliyotida keng qo'llaniladigan 3 ta turdagi eksperimentlarni to'liqroq holda ko'rib chiqamiz:

1. Yagona ajratish metodi;
2. Nazorat guruhi metodi;
3. Eks-post-fakto.
4. Yagona ajratish metodi.

Ma'lum bir faoliyat ko'rsatayotgan sistema inson guruhi ishlab chiqarish jarayonida o'rganilayapti. Uning faoliyat natijalari ma'lum, o'rganilgan. Bu sistemaga qandaydir o'zgarishlar kiritadi, masalan mehnatga yangicha haq to'lash sistemasi.

Xuddi shu guruhdagi o'zgarish kiritilmagan oldingi va keyingi holatlarni taqqoslash yo'li tufayli ma'lum bir xulosa chiqariladi. Gipotezani shunday isbotlash yoki inkor qilishlik xuddi shu sistemani turli vaqtda taqqoslashga asoslanadi. Bunda shuni nazarda tutish kerakki, ob'ekt o'zida ma'lum bir o'zgarishlarni mujassamlashtiradi. Xuddi shu sababli ayrim xollarda bu natijalar biz tomondan kiritilgan o'zgarishning oqibatini yoki boshqa sabablar oqibatining, ularni aniqlash murakkabdir.

Nazariy guruh metodi.

Gipotezaning isbotlashni qat'iy ma'noda ko'rinishini bu eksperimentni eksperimental va nazorat guruhlarini sxemasida tashkil qilishdir. Bunday sharoitda 2 ta guruh ishlab chiqiladi va tashkil etiladi, ular ko'rinishlarni aloqalarini tadqiq, etilishi uchun mohiyatan maksimal ravishda bir xil bo'lishlari kerak.

Masalan, agarda qishloq, xo'jalik ishlarini naryadsiz sistemani tashkil qilish sharoitlarini tekshirilsa, unda uni tekshirish uchun shunday 2 ta sovxozlarni topish kerakki, ular qishloq xo'jaligi uchun asosiy ko'rinishlari bo'yicha bir xil bo'lishlar: bir xil iqlim va tuproq sharoitlari, bir xildagi texnik ta'limot, agronomlarning kvalifikatsiyasi va hokozolar. Yagona farq, shunday bo'lishi kerakki, qachonki bu tanlab olingan sovxozlarning birida shuning yangi sistemasi joriy etiladi, qolganida esa o'z holicha eski sistema qoladi. Birinchi sovxoz — bu eksperimental guruh, ikkinchisi esa nazorat guruhi.

Ma'lum bir vaqt davomida eksperimental va nazorat guruhlaridagi o'zgarishlar qayd qilinib boriladi, dastlabki holat, uning turli xil o'zgarishlari va ob'ektning oxirgi holati qayd qilinadi. Agarda eksperimental nihoyasida eksperimental guruhda o'zgarishlar nazorat guruhiga nisbatan ahamiyatli ravishda yuz bergan bo'lsa gipoteza

isbotlangan hisoblanadi. Agarda o'zgarishlar, bir xil bo'lsa yoki eksperimental guruhdagi o'zgarish sezilarli bo'lmasa unda gipoteza isbotlanmagan va inkor qilingan bo'ladi.

3.Eks-post-fakto eksperimente.

Sotsiologik tadqiqot amaliyotida undan foydalanilmaydi desa ham bo'ladi. Lekin uning anchagina imkoniyatlari bordir va ehtimol u kelajakda keng ko'lamda qo'llaniladi.

Ilk bor bu eksperiment amerikalik sotsiolog Elen Xristiansen tomonidan qo'llangan. Uning mohiyati shundan, yuqorida tilga olingan eksperiment turlaridan farqli ravishda undan tadqiqotchi tomonidan biror-bir o'zgarishlar kiritilmaydi. Bunday impuls yoki sabab oldindan bo'lib, uning harakatlari hozircha kuzatiladi.

Ushbu turdagi eksperimentik misol tariqasida ko'rib chiqish mumkin. Xristiansen quyidagi gipotezani tekshirib chiqishga qaror qildi: o'quvchilar maktabda qanchalik ko'p tayyorgarlik olsalar, ular iqtisodiy faoliyatga shunchalik muvaffaqiyatliroq kirishib ketadilar.

1. Ma'lum taraqqiyotida 4 ta o'rta maktablarning barcha o'quvchilari haqida o'n yilgi oldingi ma'lumotlar olindi. Ularning soni 2127 kishini tashkil etadi. Ulardan 1130 tasi 10 sinfni, 997 tasi maktabni tugatmay 7, 8, 9 sinflardan ketishdi.

2. Sermashaqqat mehnat natijasida 1194 tasi izlab topildi va ulardan intervyu olindi. Ulardan 671 tasi attestati borlar, 523 tasi attestati yo'qlardir.

3. Ulardan 2 ta guruh: nazorat va eksperimental guruhlar tashkil etildi. Bu guruhlar yoshi bo'yicha, sotsial xolati, o'zlashtirish bo'yicha tenglashtirishdilar.

Bu guruhlar faqatgina attestati bor yoki yo'qligi bilan farqlandilar. Bu guruhlar asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha bir-birlariga shunaday taqqoslandilarki, ayniqsa bu taqqoslanish asosiy bo'lib ish haqini oshirilishi bo'ldi, so'rov asosida shuni aniqlandiki, nazorat guruhida maosh 58 foizga oshgan, xuddi shu vaqtda eksperimental guruhda esa 92 foizga oshgan. 34 foizdagi farq muvaffaqiyatli faoliyatning ma'lumot darajasiga bog'liqligi haqidagi dastlabki gipotezaning yetarli isboti bo'lib xizmat qildi. Shunday qilib biz sotsiologik tadqiqotlar metodlarining strukturasi qoidalari va turlarini: so'rov, hujjatlarni o'rganish va eksperimentlari, buning natijasida quyidagn xulosalarni qilishimiz mumkin.

Tadqiqotlarda u yoki bu metodning mazmuni, strukturasi va tanlovi

tadqiqotning maqsadi, vazifasi va gipotezasi bilan belgilanadi. Bu metodlarni ishlab chiqishlikda batafsil va sermashaqqat mehnatni nazarda tutadi. Metoddan foydalanishning asosiy vazifasi — bu tadqiqot gipotezasini yoki inkor etish uchun empirik materiallarni to'plashdir. Sotsiologik tadqiqotning oxirgi protsedurasi — bu empirik tadqiqotlar metodi tufayli olingan ma'lumotlarni olish va qayta ishlashdir.

3. SOTSIOLOGIK MONITORING

1. Monitoring tushunchasi

1. Sotsiologik monitoring tushunchasi.
2. Monitoring tadqiqotlarni holati va ishlanganlik darajasi.
3. Oliy va o'rta - maxsus ta'lim monitoring tizimining umumiy masalalari.

Bozor iqtisodiyotiga avvolroq o'tgan industrial rivojlangan davlatlarda inson omillariga katta e'tibor beriladi. Davlat, tadbirkorlar, va aholini keng qatlami insonga ajratiladigan investitsiya kapitalni eng ko'p foyda va samara berish yo'lidir. Buni AQSh, Kanada, Buyuk Britaniya, GFR, Singapur, Yaponiya, Tayvanda o'tkazilgan ko'pgina sotsiologik tadqiqotlar tasdiqlaydi.

Bu tadqiqotlarda avvalo insonga ajratiladigan investitsiyalarni iqtisodiy samarasiga ko'proq e'tibor beriladi, chunki inson omili nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy madani, umumbashariy ahamiyatga egadir zamon talablarida inson biosferaviy jarayonlarda qatnashib koinot qariga tobora chuquroq kirib borib, koinot mashtabidagi omilga aylanadi. Inson kelajakka nafaqat o'ziga balki butun Yerdagi hayot uchun javobgardir shuning uchun inson tabiyatini ma'naviyatini hayotiy qiymatini o'zgarishidan sayyoramizni keyingi evolyutsion hayotiga ta'siri bor.

Inson barcha iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy biosferik jarayonlarni boshida turadi u moddiy va intellektual xizmatlarni bajaruvchisi va iste'molchisidir.

Insoni ta'sirini sifati va miqdorini o'sishi uni talabini hayot darajasini ma'naviyati, ijtimoiy va huquqiy o'rni, dinamika va ijtimoiy jarayonlarni fundamental tadqiq etish inson finomeniga diqqatni adikvat o'sishini talab qiladi.

Inson ma'naviyatini shakllanishi va rivojlanishi bazasi-bu bilish shuning uchun jamiyat intellektual patensialini takomilashtiruvuchi bilim maskanlarini rivojlantirish zamoni dolzarb masalasi hisoblanadi. Hozirgi bozor iqtisodiyotida insoni bilimi va qobiliyati raqobotbardoshlikni

iqtisodiy o‘rinishni, mehnat unumdorligini va samarali boshqarishni asosiy omildir. Janubiy-sharqiy Osiyo davlatlari yuqori texnologiya va inson kapitali yordamida qisqa muddat ichida yuksak iqtisodiy o‘rinishga erishdilar.

Shuning uchun yosh mutaqil O‘zbekistonda iqtisodiy islohatlarni tez ijro etilishi va ta’lim tizimi rivojlanishiga va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga alohida diqqat qilinishini talab qiladi. Bu talab yuksak intellektual potensialga ega inson o‘zgaruvchan bozor iqtisodiyotiga tezroq moslasha olgani uchun yanada dolzarbdir.

Mutaxassisni tayyorlash va ta’lim berishning samarasini oshirish iqtisodiy, texnologik ijtimoiy huquqiy omillar majmuasini talab qiladi.

Ko‘p yillik tadqiqotlarni ko‘rsatishicha, bosh omillardan biri ijtimoiy omildir. Bu omillar sotsiologiya fanini maxsus qismi tomonidan o‘rganilib, «ta’lim sotsiologiyasi» deb nomlanadi. Hozirgi vaqtda ta’lim sotsiologiyasi O‘zbekistonda bu sohadagi ijtimoiy masalalarni uslubiy asosini shakillinishi bosqichidir.

Ijtimoiy jarayonlar boshqaruvini mukammallashuvi hozirgi sharoitlarda ta’lim tizim axborotlarni qayta ishlab tahlil qilib, yig‘ish tizimini ya’ni «sotsiologik monitoring» ni yaratishni talab qiladi.

Bu tizim professor - muallimlik tarkibini, talaba yoshlar, hisoblash matematikasini, zamonaviy hisoblash texnikasini va ijtimoiy masalalarni hal qila olish imkoniyatini hisobga olgan holda yaratiladi.

Monitoring – bu sotsiologik tadqiqotlarni o‘tkazish sotsiologik jarayonlar haqidagi axborotlarni doimiy foydalanishini ta’minlovchi tizimdir. Sotsiologik amalyotga bu tushuncha ekologiyadan kirib keldi. Ekologik tadqiqotlarda u atrof- muhitni uzluksiz nazorat qilishni bildiradi.

Sotsiologik monitoring boshqaruv jarayonini sotsiologik ta’minotini sezilarli yaxshilaydi.

Sotsiologik tadqiqotlar uyushtirilganda odatda ijtimoiy muhit holatini aks ettiruvchi zarurroq ko‘rsatkichlar aniqlanadi. So‘ngra takroriy tadqiqotlar usuli bilan me’yoriy va asosiy ko‘rsatkichlardan foydalanilgan holda uzluksiz ravishda dinamikada axborotni yig‘ib tahlil qilishni ta’minlaydigan sotsiologik o‘lchovlar olib boriladi.

Tadqiq qilinayotgan tashkilotni bu xos ko‘rinishi nafaqat jamiyatni va kuzatilayotgan ob’ektni turli hayotda oliy axborot olishni yana jamiyat jarayonlari munosabatlarini va qonuniyatlarini ochib ham beradi.

2. Monitoring tadqiqotlarni holati va ishlatganlik darajasi

Voqealarni rivojlanish munosabati doimiy nazoratda va ob'etni zarur parametrlari o'zgartirilganda, katta axborot jadvali to'planganda katta monitoring turiga ko'ra ilmiy tadqiqotlarga talab yuzaga keladi. Bunday monitoring tizimlarga avval meteorologiya va seysmologiyada duch kelindi.

Hozirgi vaqtda bunday tizimlar statistika, bank ishi, birja, kosmonavtika, mudofaa, ishlab chiqarishda keng ko'lamda qo'llanilmoqda. Sotsiologiyada monitoring tadqiqotlar uslubiyoti va amaliyoti ekologiyadan o'tdi. Dinamikaning monitoring tadqiqotlarida va ekologik holatlarda sifat va miqdoriy ko'rsatkichlar ustida kuzatishlar olib borildi. Bunday tizimlarni barcha komponentlari haqida ma'lumotlar jamlamasi yaratildi. Bizning respublikamizda bunday tadqiqotlar Orolbo'yi mintaqasidagi ekologik muammolar munosabati bilan 90 – yillarni boshlarida katta ko'lamda olib borildi. Katta hajmdagi ma'lumotlar jamlanmasi yig'ildi.

Sotsiologik tadqiqotlar Markazi ham 1989 – 92 yillarda Orolbo'yi ekologik tangligi oqibatlarini o'rganishda qatnashdi.

Monitoring yaratishdagi ishlar qo'llanilmagan bo'lsada, monitoring o'lchovlar yaratish g'oyalari aynan fundamental sotsiologik tadqiqotlar olib borilayotganda paydo bo'ldi.

Sotsiologik tadqiqotlarga monitoring turi bo'yicha jamoat fikrini dinamik o'rganish ham kirdi. Monitoring qo'llovchi Gellap Instituti hisoblanadi. Rossiya Federatsiyasida ham asosan monitoring turi qo'llanilmoqda. Rossiyada sotsiologik tadqiqoilarni koordinatsion markazi akad. T.I. Zaslaveskaya boshchiligidagi Rossiya Sotsiologiya Markazi sanaladi. 1994 yildan beri Moskvada turli ijtimoiy muammolar bo'yicha natijalar e'lon qilinuvchi «monitoring axborot byulleten»ni nashr qilib kelinmoqda.

Ba'zi rivojlangan davlatlarda va MDH da ta'lim sohalarida monitoringni yaratish va qo'llash bo'yicha qiziq natijalar olindi.

Bizning mamlakatimizda ham mustaqil bo'lganimizdan so'ng sotsiologik monitoring yaratish bo'yicha ishlar boshlab yuborildi. Xususan ToshDU sotsiologik markazi va Oliy ta'lim vaxirligi tomonidan Oliy ta'lim monitoringini uslubiy asosini yaratish yo'lida ishlar olib borildi.

3. Oliy va o'rta – maxsus ta'lim monitoringi tizimini umumiy masalalari.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim monitoringi tizimini umumiy masalalarini tizim struktura va funksiyalari bilan mos ravishda aniqlanadi.

Oliy ta'lim tizimi quyidagilardan iborat:

1. Oliy o'quv yurtlari – insitutlar va universitetlar;
2. Malakani oshirish institutlari va fakultetlari;
3. O'rta maxsus o'quv yurtlari;
4. Ilmiy tadqiqot institutlari;
5. Oliy va o'rta maxsus ta'limni respublikasi va mintaqaviy bo'limlari;

Oliy va o'rta maxsus ta'limi qo'yidagi funksiyalarni bajaruvchi monitoring tizimini o'z ichiga oladi:


1. Malakali xodimlar bilan ijtimoiy talabni qondirish;
2. Shaxsni tarbiyalash, insonni mustaqil faoliyatga tayyorlash;
3. Iiy ta'lim alohida sotsial qatlam hosil qilib, jamiyatda malakali mutaxassislarni yuzaga keltiradi;
4. Oliy ta'lim kasbiy bandlikdan farqli ravishda alohida qiymat aks ettiradi. Oliy ta'lim o'ziga mos o'rin tanlashda, sotsial maqsadlarga yetishish shartlarini bajaradi;
5. Oliy ta'lim shaharlarda kadrlar salohiyatin kuchaytirishga yordam beradi;
6. Oliy demografik jarayonlarga ya'ni nikoh, tug'ilish, turg'unlik va boshqalarga o'z ta'sirini ko'rsatadi;
7. Jamiyatning intellektual potensialini ishlab chiqarishga qo'llash funksiyasi. Oliy ta'lim tizimi bilim darajasi va o'rganishga ilmiy faoliyatga intilishni va ta'lim imkoniyatlarini kengayishni rag'batlantirish;
8. Iqtisodiy o'sishni va mehnat unumdorligini rag'batlantirishni, tez iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan, zamonaviy-milliy texnologiyani yaratishni.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim monitoringi tizimini umumiy masalalari monitoring funksiyalarini samarali darajasini nazorat qilishdir. Bunda asosiy e'tiborni fond bilan ta'minlash, texnik va moddiy qurollari ehtiyojini ta'minlash, o'quv jarayonlarini samaraliligi va uslubiy-ilmiy adabiyot bilan ta'minlanish darajasiga qaratish kerak.


1995-1996 yillarda «Sotsiologik tadqiqotlar markazi» tomonidan professor-o'qituvchilar va talabalarni ijtimoiy xolati tadqiq etildi. Bu tadqiqot o'qitish, professor-o'qituvchilar va talabalarni ijtimoiy xolatiga bog'liq ekanligini ko'rsatdi.

Shuning uchun monitar tadqiqotlarni birinchi bosqichi sifatida professor-o'qituvchilar va talabalarni ijtimoiy xolatini dinamikasini nazorati tanlandi. Maxsus tayyorlangan dasturlar asosida mamlakatni yirik oliy o'quv yurtlarida aniq sotsiologik tadqiqotlar o'tkazildi.

Olingan ma'lumotlar EHMda qayta ishlanib, taxlil qilindi va oliy o'quv yurtlari vazirligi ilmiy Hay'atiga 1996 yil may oyida taqdim qilindi. Ilmiy Hay'at tomonidan ba'zi e'tirozlar bilan ma'qullandi. Ilmiy hisobot O'zbekiston Respublikasi Davlat Fan Texnika Qo'mitasiga ham taqdim qilindi.



OO'Yu va O'MM Vazirligi tizimidagi sotsial monitoring axborot aloqalari



XULOSA

Sotsiologiya kursi bo'yicha bayon qilingan ma'lumotlar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

1) Jamiyatda yashab turib, uni bilmaslik — bu katta yo'lga tushib olib istagan makonini qidirib topolmaslikdir. Ammo jamiyat inson hayotida va faoliyatida o'rganishi va ilmiy bilishi lozim bo'lgan eng murakkab og'ir bo'lgan ob'ektdir. Jamiyatshunoslik, jumladan sotsiologiya fani tabiatshunoslik fanlaridan ancha orqada qolmoqda. Lekin jamiyat faoliyati va taraqqiyoti, boshqaruv mexanizmlari, sotsial progressning istiqbollari haqidagi qonunlar tan olinishi va ularni bilish talab etiladi. XXI asrning eng asosiy vazifasi jamiyat taraqqiyotini chuqurroq o'rganib, uning ochilmagan qonunlarini ochish va inson taraqqiyotini muqobil tarzda olib borishni taqozo qiladi. Insonlarni dunyo taraqqiyotiga mos ravishda tarbiyalashda, inson tafakkurini ilmiy asosda va millim ruhda shakllanishida va nihoyat jamiyat taraqqiyotining optimallashtirishida sotsiologiya fanining o'rni beqiyosdir va u hozirgi zamon jamiyatshunosligida yetakchi rol o'ynaydi.

Sotsiologik fikrlar ming yillar ilgari ma'lum bo'lsa ham, u fan sifatida tan olinganligiga yuz ellik yildan oshdi. Shu qisqa vaqt ichida bu fan insonlarning o'z-o'zini bilish, jamiyat taraqqiyotining yangi modelini yaratishda o'zining salmoqli hissasini qo'shdi. Jamiyat bugun sotsiologiya yordamida o'z-o'zini yo'naltirish va o'z-o'zini taraqqiy ettirish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. U o'z tarixi mobaynida har xil va qarama-qarshi dunyoqarashlarni ham talqin qildi. Plyuralizm va dunyoqarashlar o'rtasidagi qarashlarni tahlil va talqin qilish hozirgi zamon sotsiologiyasining asosiy jihatlaridandir.

Sotsiologiyaning bu jihatlari fandagi bitmas tuganmas manbai bo'lib, fan ular orqali, boyidi va taraqqiy etib boradi. Agar umumsotsiologik nazariyalar majmuasini yaratish mumkin bo'lsa, u holda hozirgacha yaratilgan konsepsiyalar, maktablar bunga asos bo'la oladi.

Sotsiologiyaning diqqat markazida shaxsiing o'zaro ta'sir muammolari, sotsial guruhlap bir butun jamiyat yotadi. Aytish lozimki, bu muammolar sotsiologiyaning asosiy vazifalarini tashkil etadi. Ularning o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish, ularning o'zaro ta'sirini foydali, ya'ni garmonik asosda tashkil etish sotsiologiyaning xizmati va mahsuli hisoblanadi. Shaxsni, ya'ni oila a'zolarini takomillashtirmasdan turib, jamiyatni takomillashtirib bo'lmaydi. Inson ikki xil: aqlli va hayvonsifat bo'ladi. Aqlli odamda ijtimoiy mohiyat birinchi o'ringa chiqsa, undan olijanob, sahovatli, odob-ahloqli va yuqori ma'naviyatln inson chiqadi. Bu odam ijtimoiylashgan inson sifatlarini o'zida mujassamlashtirib, tarixan tarkib topgan eng ezgu munosabatlarning timsoliga aylanadi, muayyan jamiyat jamoa tomonidan qabul qilingan ko'pchilik e'tirof etgan odob-ahloq va huquq maqomlari doirasidagina faoliyat yo'nalishini belgilaydi.

Aqlli odam (shaxs) zotida ijtimoiy mohiyatini birinchi o'ringa chiqishida u yashab, faoliyat ko'rsatayotgan jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, ahloqiy, mafkuraviy va boshqa munosabatlar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bu munosabatlar birgalikda insonni muayyan shaxs sifatida shakllanishi uchun sharoit bo'lsa, unda aqlli odam ko'rinishida biologik mohiyatni yuzaga qalqib chiqishi imkoniyati yuksaladi.

a) Ijtimoiy ahamiyat birinchi o'ringa chiqib olishi uchun, aqlli Odam (shaxs) ning o'ziga bog'liq, jihatlari ham ko'p nutq tili va murakkab tafakkur qilish qobiliyatiga ega bo'lgan bu shaxsning olamni, ayniqsa o'z-o'zini anglashda dunyoga qarashning tarkib topgan muayyan sistemasi katta rol o'ynaydi. Muayyan dunyoqarash, dunyoni anglash nuqtai nazaridan ifodalangan g'oyalar, dasturlar, ahloq-odob maromlari aqlli

Odam (shaxs) ishonchiga aylansa qadirlanadi, e'zozlanadi.

Aqlli Odam (shaxs)ni shakllanishi aqlli va adolatli jamiyatni shakllanishiga olib keladi. Bu vazifani bajarishda sotsiologiya va sotsiologlarning o'rnini beqiyosdir.

4)Sotsiologik tadqiqotlarni olib borishda nazariya bilan amaliyotni o'zaro chambarchas bog'liqligini ta'minlash muhim omillardan hisoblanadi. Shu bilan muammoni amaliy jihatdan to'g'ri tadqiq qilish uchun haqiqiy hayot bilan bog'likligini ta'minlashga, hayoliy va mujmal tasavvurlardan qutilishga, sotsial hayotni programmalashga va amaliy tadbir-choralarini yaratishga imkon beradi. Nazariya va amaliyot o'rtasidagi optimal aloqa metodlarini to'g'ri va aniq axborotlar to'plashni, har xil qonuniyatlarni ilmiy asosda isbot qilishni va nihoyat istiqbolni ko'ra bilish va uzoqda mo'ljallangan bashoratlarni aniq, bajarilishini ta'minlaydi.

5)Tarixiy va hozirgi vaqtdagi kuzatilayotgan sotsial tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, bo'layotgan ijtimoiy portlashlar va krizislar, anomal holatlar jamiyat taraqqiyotining yo'lini tanlashda jamiyatshunoslik va ayniqsa sotsiologiya fanlariga tayanmasdan shu tuzilishning, qaror qabul qilishning va boshqarishning oqibatidir. Sotsial siyosat va sotsial amaliyotga va ular tomonidan yaralgan ilmiy chora-tadbirlarga amal qilmaslik jamiyatni og'ir ahvolda qoldirishni isbot talab qilmaydigan jarayonidir. Bunga dunyo miqyosida misollar juda ko'p.

Krizislardan qutulishlikning va rivojlanishning asosiy yo'li jamiyatshunoslikni, jumladan sotsiologiyani takomillashtirish, uni siyosat va amaliyot hayot bilan bog'lashdir. Ushbu kitobdan maqsad ham, kitobxonlarga shu muammolarni o'rgatish, hamda yechishda ularni safarbar qilishdan iboratdir.

ADABIYOTLAR:

1. I.A. Karimov. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barkamollik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T., «O'zbekiston», 1997.
2. I. A. Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.,«O'zbekiston», 1999.
3. Aliqoriyev N.S. va boshqalar. Oliy o'quv yurtlari professor o'qituvchilari faoliyatini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar. Ta'lim muammolari, ilmiy-uslubiy yutuqlar va ilg'or tajribalar. T., 3—6, 1997.
4. Aliqoriyev N.S. Sotsiologiya va ta'lim taraqqiyoti. Ta'lim muammolari, ilmiy-uslubiy yutuqlar va ilg'or tajribalar. T,2, 1998.
5. Aliqoriyev N.S. Upravlenie zanyatostyu i trudovo'mi resursami v regionalno'x sistemax. T., «Fan», 1991.
6. Aliqoriyev N.S. Modelirovanie sotsialno'x protsessov. T.,«Fan», 1979.
7. Aitov N.A. Sotsiologiya truda. Alma-Ata, 1996.
8. Alekseyev N.I. Ekonomicheskiiy eksperiment: sotsialno'e aspekto'. M., «Nauka», 1987.
9. Amerikanskaya sotsiologicheskaya mo'sl. M., 1991.
10. Amerikanskaya sotsiologicheskaya mo'sl. Tekst Pod red. V.I. Dobrenkova. M., 1994.
11. Andreyeva G.M. K voprosu ob otnosheniyax mejdu mikro i makrosotsiologiyey. M. Izdatelstvo MGU, 1970.
12. Andreyev Yu.M. Korjevskaya N.M. i dr. Sotsialnie instituto', sodernanie, funktsii, kontrol. Sverdlovsk, 1989.
13. Antonov A.I. Medkov V.M Sotsiologiya semi. M., 1996.
14. Afonin A.S. Trudovoe povedenie: sotsiologo-ekonomicheskiiy analiz. Kiyev, 1991.
15. Bato'gin G.S. Leksii po metodologii sotsiologicheskix issledovaniy: Uchebnik. M., 1995.
16. Borhevskiy I.I., Truxov V.A. Proizvoditelnost truda: Metodi analiza i prognozirovanie. Minsk, 1988.
17. Veber M. Izbrannie proizvedeniya. M., 1990.
18. Vladislavlev A.P. Neprerivnoe obrazovanie. M., 1983.
19. Volkov I. P. Sotsiometricheskie metodi v sotsialno-psixologicheskix issledovaniyax. LGU, 1970.
20. Volkov Yu. G. Lichnost i gumanizm. (Sotsiologicheskiiy aspekt). M., 1995.
21. Gavra D.P. Obshestvennoe mnenie kak sotsiologicheskaya kategoriya i sotsialniy institut. Spb., 1998.
21. Gorshkov M. K. Obshestvennoe mnenie. Istoriya i sovremennost. M., 1980.
22. Gofman A.B. Sem leksiy po istorii sotsiologii. M., 1995.
23. Guryev V. I. Osnovi sotsialnoy statistiki. M, 1991-.
24. Davidov A.A. Rerezentativnost viborki // Sotsiol. issled.1990, 1.
25. Davidov A.A. Ekspertnie osenki dayot respondent. Sotsis 3, 1989.
26. Danilo Markovich. Sotsiologiya truda. M., «Progress», 1988.
27. Dvoretzkaya G.V., Maxnarilov V.Ya. Sotsiologiya truda: Ucheb. posobie. M., 1989.

28. Dyurkgeym E. Metod sotsiologii. Spb., 1898.
29. Zdravomislov A.G. Metodologiya i protseduri sotsiologicheskix issledovaniy. M., 1969.
30. Zdravomislov A.G. Metodologiya i protsedura sotsiologicheskogo issledovaniya. M., 1969.
31. Zdravomislov A.G. Potrebnosti. Interesi. sennosti. M., 1986.
31. Zborovskiy G.I. Sotsiologiya obrazovaniya. Ekaterinburg, 1993.
32. Ionin L.G. Sotsiologiya kulturi, M., 1996.
33. Istoriya teoreticheskoy sotsiologii. M., «Kanon», 1997.
34. Istoriya teoreticheskoy sotsiologii: V 5 t./Otv. red. Yu. N.Davidov. M., 1995.
35. Kaydanov D.P., Suimenko E. I. Aktualnie problemi sotsiologii truda. M., 1974.
36. Kovalevskiy M. M. v istorii rossiyskoy sotsiologii i obshestvennoy misli. Spb. 1996.
37. Kon I.S. V poiskax sebya: Lichnost e yyo samosoznanie. M., 1984.
38. Kon I.S. Sotsiologiya lichnosti. M, 1968.
39. Kukushkina E.I. Sotsiologicheskoe obrazovanie v Rossii XIX—nachala XX v. M., 1989.
40. Levada Yu.A, Sotsialnaya struktura i sotsialnie grupi. (Leksii po sotsiologii) M. Izd. AN SSSR, 1969.
42. Lichnost, obshestvo, gosudarstvo. Sotsiologicheskije issledovaniya. 4, 1989.
43. Matematicheskie metodi analiza i interpretatsii sotsiologicheskix dannix. /Otv. red. V.G. Andreyenkov, Yu. I. Tolstova.M., 1989.
44. Matematicheskoe modelirovanie sotsialnix protsessov. /Otv. red. A.S. Kulagin. M., 1989.
45. Matskovskiy M.S. Sotsiologiya semi. Problemi teorii, metodologiya i metodiki. M., 1989.
46. Mixaylov S. Empiricheskoe sotsiologicheskoe issledovanie. M., 1976.
47. Mnogomerniy analiz sotsiologicheskix dannix. NS ANSSOR; 1981.
48. Mol A. Sotsiodinamika kulturi. M., 1994.
49. Monson P. Sovremennaya zapadnaya sotsiologiya: teorii, traditsii, perspektivi. Spb., 1992.
50. Nemirovskiy V.G Sotsiologiya lichnosti: Teoriya i opit issledovaniya. Krasnoyarsk, 1989.
51. Nechayev V.Ya. Sotsiologiya obrazovaniya. M., 1992.
52. Nozl-Ioyman E. Obshestvennoe mnenie. L., 1996.
50. Noel-Noyman E. Massovie oprosi. Vvedenie v metodiku demoskopii. M., «Progress», 1978.
51. Osnovi sotsiologii. Kurs leksii. M., «Znanie», 1995.
52. Osnoi prikladnoy sotsiologii. M-, Izd. MGU, 1995.
53. Osnovi prikladnoy sotsiologii: Ucheb. dlya vuzov. T. 1—2/ Pod red. F. Y. Sheregi, M.K. Gorshkova. M., 1995.
54. Prigojin A. Sotsiologiya organizatsii. M., 1980.
55. Problemi teoreticheskoy sotsiologii. Spb., 1994.
56. Rabochaya kniga sotsiologa. M., «Nauka». 1989.
57. Radayev V.V. Shkaratan O.I. Sotsialnaya stratifikatsiya. M., 1995.

58. Reznik Yu.M. Sotsialnoe izmerenie jiznennogo mira / Vvedenie v sotsiologiyu jizni. M., 1995.
62. Rutkavich M.I. Makrosotsiologiya. Metodologicheskie ocherki. M., 1995.
63. Rutkevich M.I., Filippov F. R. Sotsialnie peremesheniya.M., 1970.
64. Ribakovskiy L.L. Rossiya i novoe zarubeje: migratsionniy obmen i ego vliyanie na demograficheskuyu politiku. M., 1996.
65. Ryabushkin T.V. Simchera V.M., Mashikin S.A. Statisticheskie metodi i analiz sotsialno-ekonomicheskix protsessov.M., 1990.
66. Sovremennaya zarubejnaya sotsilologiya (70—80-e godi)./ Otv. red. N.L. Polyakova. M., 1996.
67. Sovremennaya amerikanskaya sotsiologiya./Pod red. V.I.Dobrenkova. M, 1994.
68. Sorokin P. Granitsi i predmet sotsiologii. V kn. Novie idei v sotsiologii. «Obrazovanie», Sbp., 1913.
69. Sotsialnaya identifikatsiya lichnosti. Kn. 1—2 /Otv. red. V.A. Yadov. M., 1994.
70. Sotsiologiya truda. Kiyev, 1981.
71. Sotsiologiya./G.V. Osipov, A.V. Kabisha, M.R. Tulchinskiy i dr./M., «Nauka», 1995.
72. Sotsiologiya organizatsii. Slovar-spravochnik. M., 1996.
73. Sotsiologiya lichnosti i mejdissiplinarnie issledovaniya problem cheloveka. Otv. red. Yadov V. A., ISI, 1989.
74. Sotsiologiya segodnya. Problemi i perspektivi. M., 1993.
75. Sotsiologiya truda. M., Izd. MGU, 1993.
76. Statisticheskie metodi analiza informatsii v sotsiologicheskix issledovaniyax. M., 1984.
77. Tatarova G. G. Tipologicheskii analiz v sotsiologii. M.,1993.
78. Terner Dj. Struktura sotsiologicheskoy teorii, /per. s angl./ M., «Progress», 1985.
79. Teoreticheskie i metodicheskie problemi postroeniye bazi sotsiologicheskix dannix: Sb. Vilnyus, 1984.
80. Tixomirov N. P. Matematicheskiye metodi v sotsiologii. M.,1983.
81. Talatova Yu. Ya. Teoriya izmereniy v sotsiologii. M., 1994.
82. Toletova Yu. N. Analiz sotsiologicheskix dannix M., 1994.
83. Toletova Yu. N. Modeli i metodi analiza sotsiologicheskogo issledovaniya: Ucheb. posobiye. M., 1996.
84. Tohenko J. T. Sotsiologiya. M., «Prometey», 1994.
85. Tyuki Dj. Analiz rezultatov nablyudeniy. Razvedochniy analiz. M., 1981.
86. Ulyevodov A. K. Sotsiologicheskiye zakoni. M., 1975.
87. Uchebniy sotsiologicheskii slovar. M., «Ankil», 1997.
88. Fatxulin N. S. Malaya sotsialnaya gruppa kak forma obshestvennogo razvitiya. MGU, 1989.
89. Franeyaa F., Banister D. Novo'y metod issledovaniya lichnosti. M., «Progress», 1987.
90. Frolov A. I. Sotsiologiya. M., «Logos», 1996.
91. Xagurov A. A. Sotsialniy eksperiment: logiko-metodologicheskiye i sotsialniye problemi. Rostov i / D., 1991.
92. Xarchev A. G. Predmet i struktura sotsiologicheskoy nauki. Jurnal

- «Sotsiologicheskiye issledovaniya» 2, 1981.
93. Xarchev A. G. Sotsiologiya vospitaniya: O nekotorykh aktualnix sotsialnix problemax vospitaniya lichnosti. M., 1990.
 94. Xolbekov A., Idivov U Sotsiologiya. T., 1999.
 95. Changli I. I. Trud. Sotsiologicheskie aspekti teorii i metodologii issledovaniya. M., 1973.
 96. Chernov Yu. I. Proizvoditelnost truda i ekonomika bezrabotitsi. M., 1992.
 97. Chrevinko A. N. Trudovie organizatsii: struktura, funktsii, povedenie. M., 1991.
 98. Shaxovskaya L. S. Motivatsiya truda v perexodnoy ekonomike. Volgograd, 1995.
 99. Shepanskiy Ya. Elementarnie ponyatiya sotsiologii. M., 1968.
 100. Shtolberg R. Sotsiologiya truda. «Progress», M., 1982.
 101. Shtompka Sh. Sotsiologiya sotsialnix izmeneniy. M., 1996.
 102. Yadov V. A. Sotsiologicheskoye issledovaniye: metodologiya, programma, metodi. M., «Nauka», 1972.
 103. Yadov V. A. Sotsiologicheskoye issledovaniye: Metodologiya. Protsedura. Metodi. M., 1972.
 104. Yadov V. A. Razmishleniya o predmete sotsiologii. Sotsis, 2, 1990.
 105. Yadov V. A. Sotsiologicheskoye issledovaniye. Metodologiya, programma, metodi. M., «Mo'sl», 1987.
 106. Bekmurodov M. Sotsiologiya asoslari, T., «Fan» nashriyoti 1994.

Darslikni yozishda ToshDU Sotsiologiya kafedrasining quyidagi o'qituvchilari ishtirok etdilar:

- Aliqoriyev N. S. — Iqtisod fanlari doktori, professor— muqaddima; Kirish: III bob, (4, 5 qismlar, IV bob 3 qism, xulosa).
- Ubaydullayeva R. A. — Falsafa fanlari nomzodi, dotsent —(I bob, 1, 2, 3, 4 qismlar, IV bob, 1, 2 qismlar).
- Dilmurodov I. S. — Falsafa fanlari nomzodi, dotsent —(11 bob, 1 qism).
- Xolbekov A. J. — falsafa fanlari nomzodi, dotsent —(II bob 4 qism (hammualliflikda), III bob 1 qism)
- Farfiyev B. A. — Katta o'qituvchi — (II bob, 6, 8 qismlar)
- Haydarov A. X. — Falsafa fanlari nomzodi, dotsent —(II bob, 5, 7 qismlar)
- Bo'riyeva M. — Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent —(III bob 6 qiem).
- G'aniyeva M. X. — Falsafa fanlari nomzodi, dotsent —(III bob, 2 qism).
- Latipova N.M. — Katta o'qituvchi — (III bob, 3 qism).
- Kalonov K. — Katta o'qituvchi - (II bob, 3 qism).
- Xo'jayev S. — o'qituvchi — (II bob, 2 qism).
- Ochilov B. — o'qituvchi — (II bob, 4 qism, hammualliflikda).

UMUMIY SOTSILOGIYA

Sdano v pechat 26.07.99 Format 84 x 108 1/32. Pechat ofsetnaya.
 Bumaga ofsetnaya №1 Ob'yom 11,5 p.l Tiraj 5000 ekz. Zakaz 1218. _____
 Otpечатано в АО «Uchkun», г. Bishkek, ul. S. Ibraimova, 24